

84

Т-71

Ўқиб ва
жамият



МИРЗАПЎЛАТ
ТОШПЎЛАТОВ

ТОНГГИ
Фаришта

84
Т 71

Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси
“Ижод” жамоат фонди
“Адиб ва жамият”

Мирзапўлат Тошпўлатов

ТОНГГИ ФАРИШТА

(бадий-хужжатли қисса)

«Katalak» нашриёти
Тошкент – 2019

УЎК 821.512.133-31
КБК 84(5Ў)6
Т 71

Масъул муҳаррир:
Орзикул ЭРГАШЕВ

Тошпўлатов, Мирзапўлат.

Т 71 «Тонгги фаришта»: қисса / М. Тошпўлатов. – Т.:
«Kamalak» нашриёти, 2019. – 224 бет.

ISBN 978-9943-6005-0-8

Эрталаб ҳовлингиздан чиқиб, ораста кўча, йўлақлар, хиёбонлардан ўтиб бораркансиз, кўзингиз қувнайди. Минг турли анвойи гуллар хуш бўйдан баҳри дилингиз очилади. Рухингиз тозареди, юксалади. Ишингизда унум, хайр-барақа бўлади. Лекин, афсуски, аксар кўпчилигимиз буларнинг барида биз кўча хизматчилари деб биладиган инсонларнинг катта ҳиссаси борлиги хусусида ўйлаб ҳам кўрмаймиз. Ваҳоланки, уларнинг хизматисиз лоақал бир кунимизни тасаввур қила оламизми: супуриксиз кўчалар, хиёбонлар, қуриб-қакшаган гулу гулзорлар... асабингизни қакшатмайдими?!

“Тонгги фаришта” деб номланган мазкур асарда бир қарашда кўпчиликнинг назарига тушавермайдиган, камтаргина, одмигина касб-кор эгаларининг кундалик ҳаётимиздаги, жамиятимиздаги ўрни хусусида баҳс юритилади. Ўйлаймизки, у сизни бефарқ қолдирмайди.

УЎК 821.512.133-31
КБК 84(5Ў)6

© М. Тошпўлатов, 2019
© «Kamalak» нашриёти, 2019

ISBN 978-9943-6005-3-9

1721/4

Заказ № АКИ


Муаллифдан

Мен Тошкент, Самарқанд ва Қарши шаҳар ободонлаштириш бош бошқармалари ишчи ва хизматчиларининг ҳаётини ўрганишга киришганимда, нари борса икки-учта очеркдан иборат китобча бўлар, деб ўйлаган эдим. Аммо, қисқа ўйлабман. Соҳа хизматчиларининг ҳаёти ва фаолияти билан чуқурроқ танишарканман, фикрим, аниқроғи уларга бўлган муносабатим тамоман ўзгариб кетди. Ва улар ҳақида икки-учта очерк эмас, балки бутун бошли бадий асарлар яратиш мумкин, ҳатто зарур экан деган хулосага келдим.

Японларда “Аввал тозалик – кейин барака” деган гап бор. Ўзимизда эса “Супуриқсиз ҳовлидан фаришта қочади”, дейишади. Фаришта қочган ҳовлидан барака ҳам кетади-да. Шундан келиб чикиб, мен бу соҳа кишиларини фаррошлар эмас, фаришталар, деб атагим келди. Боиси, улар тонг-азонлаб кўча супурадилар, гуллар, дарахтлар экадилар, меҳр бериб парвариш қиладилар, ўз бурчларини ҳалол-покиза адо этиб, борлиқ хуснига хусн қўшадилар. Ораста ҳовлидан чикиб, ораста кўча, йўлаклар, хиёбонлардан ўтиб бораркансиз, кўзингиз қувнайди. Минг турли анвойи гуллар хуш бўйидан баҳри дилингиз очилади. Рухингиз тозаради, юксалади. Ишингизда унум, хайр-барака бўлади. Лекин, афсуски, аксар кўпчилигимиз буларнинг барида биз кўча хизматчилари, деб биладиган инсонларнинг ҳам катта ҳиссаси борлиги хусусида ўйлаб ҳам кўрмаймиз. Ваҳоланки, уларнинг хизматсиз лояқат бир кунимизни тасаввур қила оламизми: супуриқсиз, ивирсиб ётган кўчалар, хиёбонлар, қуриб-қақшатиб гулу гулзорлар... асабингизни қақшатмайдими?! Ҳа, бир қарашда кўпчиликнинг назарига тушавермайдиган, камтаргина, одмигина касб-кор эгаларининг кундалик ҳаётимиздаги, жамиятимиздаги ўрни бениҳоя каттадир.

Улар ҳақиқатдан ҳам эзгулик хизматчилари – фаришта-лардир.

Ушбу кўлингиздаги мўъжазгина асарим – “Тонгги фаришта” номли бадий-хужжатли қисса ана шундай хайрли ўй-хаёллар маҳсули сифатида дунёга келди. Мен уникатта эҳтиром билан юртимиздаги барча ободонлаштириш бош бошқармалари заҳматкаш ишчи ва хизматчиларига бағишладим.



Тошкент шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси ишчи ва хизматчилари автотранспорт воситалари билан шаҳар марказий кўчаларини, ички йўлларини озода сақлаш, ёз, куз, қиш мавсумларида техника ва ишчи кучлари билан кўча ва хиёбонларни тозалаб озода сақлаш, автомобил йўллари, пиёда йўлак бўйларидаги дарахт ва гулзорлар, яшил кўкатларни сугориш; куз мавсумида хазонрезгидан тозалаш, қиш мавсумида қорлардан тозалаб, туз, қум сепиб, транспорт ва пиёдаларнинг эркин ҳаракатини таъминлаш билан шуғулланади.

ТОНГГИ ФАРИШТА

Биринчи бўлиб шаҳар кўчаларига фаррошлар чиқади. Улар билан олдинма кейин ободончилик бошқармаси сувчилари, икк оғрувчилари, юк ташувчи трактор ва машиналар чиқади. Булар биринчилардан бўлиб тонгни қарши олади, куёшнинг ёник чехрасини кўради. Тонг ёришган пайт. Кўчада оғзи, буринини рўмол билан ўраб олган ишчилар. Ҳаммаёқда сочилиб ётган чиқиндилардан йўлакларни, кўча четларини тозалашга киришадилар. Кўча супураётган, ўрок, кетмон, белкурак билан ишляётган аёл-эркак, бир хил махсус кийимдаги ишчилар. Улар фикат иш билан банд. Сўзлашмайди, у ёқ-бу ёққа қарамайди. Ишлайди. Уларнинг тепасида туриб буйруқ берувчи йук, керак ҳам эмас. Ўз ишини билади. Йўловчилардан улар норхони. Гаширавериб чарчашган. Бошларини маъноли қимирлатишади. Кимдир сақичини, тамаки қолдигини, ёки қутисини тижимлаб ташлайди, кимдир эса тупуради. Ишчилар уларга бир қараб кўйиб, сочилиб ётган чиқиндиларни супуриб, ҳарқар жойга уйишади. Улар ўтган жой топ-тоза бўлиб бораверади. Тоғчилик ҳимоячилари орасида Дилдора ҳам бор. Кўчаларининг тоғчилиги шаҳарга кўрк, файз беради. Кўча ва йўлак четларидаги гуллар, манзарали дарахтлар киши дилини яйратади. Дилдора гуллар ичида яна бир атиргул бўлиб кўринади. Ҳаммо уни яхши кўради. У бирор кун келмай қолса, шериклари уни ниманидир йўқотгандай ҳис қилади.

Дилдора ўқимокчи эди. Биринчи йил омади келмади. Атиги икки йил етмади. Кўп қуюнмади, тантиқ қизлардек йиғламалди. Ошиси ишлайдиган ободонлаштириш бошқармасига ишга кирди. Кўпчилик бундай кўҳликкина қизни чангга боғиб ишлаганини танлаганига ҳайрон қолди. “Бошқачароқ ишга киргани бўлмасмиди” дейишганда “Бу ҳам иш-ку, кимдир кўча тоғчилиги ҳам керак-ку” дерди қулиб.

Дилдоранинг хонадони: дастурхон атрофида Дилдора, онаси Холмакул, онаси Орзигул ва укаси Шоҳрух нонушта қилмади. Дастурхонда нон, қанд-курс, мевалар. Дилдора бўша-

ган пиёлага чой куйиб, узатади. Атрофдан хўроз кичқириғи эшитилади. Холикул овқатланиб, тез-тез чойини хўплаб, ўгли Шохрухга қаради.

– Ўғлим, соатингга қараб юбор!

Шохрух кўлидаги пиёлани дастурхонга кўйиб, кўл телефонига қаради.

– Соат тўрт ярим бўлибди.

– Бундай бир бемалол ўтириб чой ҳам ичиб бўлмайди бизнинг ишда.

– Онаси, Дилдор кизим, бўлақолинглар, сизларни ҳам машинада ташлаб ўтаман, – деди дастурхонга фотиҳа қилиб.

– Отажон, сиз бораверинг. Бугун йўлимиз тескари экан. Катта кўчага ёрдамга борар эканмиз, – деди дастурхонни йиғиштираётган Дилдора. – Ўзим бораман. Ҳали вақтли. Соат олтиларда борсам ҳам бўлади.

Холикул кизига қаради.

– Юравер биз билан, бир ўзинг қоронғида юрасанми? Ташлаб ўтамыз. Кўявер, дастурхонни уканг йиғиштиради.

Ҳаммалари ўринларидан туришди. Дилдора билан Орзигул иш кийимларини кийиб, кўлларида супурги кўтариб, Холикулнинг орқасидан чиқиб кетишди.

Шохрух норози оҳангда ўз-ўзига гапирди:

– Яна ҳаммаси ўзимга қолди. Ҳалиям ҳамма ишни ўзим қилмайман-ку. Нима бўпти битта дастурхон йиғиштириб кўйиш. Қойилман отам билан онамга, эртадан кечгача иш билан банд. Бошқа иш қуриб кетганми? Онда-сонда кўришмаса телевизор ҳам кўришмайди. Китоб, газета, журнал десанг томдан ташлашади. Умуман буларнинг бўш вақти йўқ. Мен шундай шароитда аранг 4-5 га ўқийман. Ўқишим керак эмиш... “Бизлардек қора меҳнатнинг қули бўлма болам. Ўқиган ютади”, дейишларига ўлайми? Ишга тушиб кетади. – Ўзлари ўқиб

Тошкент шаҳрида асосий кўчалар сони 77 та бўлиб, умумий майдони 7347700 метр квадрат ташкил қилади. Уларнинг сони ва ҳажми ҳар йили кўпайиб боради.

нима бўлишган, дипломлари чанг босиб ётибди. Яна ансамни котириб: “Ўқи-ўқи, доктор бўласан”, дейишлари-чи... Ҳали ғира-шира тонг коронғисида юлдузлар чамани ўзини кўз-кўз килиб турарди.

Шаҳарда тонг отиб янги кун кириб келаётган палла. Марказий серкатнов йўллардан бири. Йўлнинг икки четида дарахтлар. Пиёдалар йўлаги. Ҳар замонда машиналар ўтиб турибди. Йўлакда пиёдалар юриб кетяпти. Куёш ёғду сочганча аста-секин кўтарилиб, олам ва кишилар қалбини ёрита бошлади. Кўчалар қушларнинг чуғурлашларига тўлиб кетган. Сув сепиб бораётган машиналар. Чироклар ёғдусидан куёш ёғдусига ўтган кўчалар. Кўча ишчилари. Кун чикиб яна шаҳарда ҳаёт қайнайди. Ҳамма ўз юмуши билан банд. Анора билан Дилдора йўлакни супуриб, ўтларни юлиб тозалайди.

Анора қаддини ростлаб белларини ушлайди.

– Дилдор, мактабни ҳам, коллежни ҳам яхши баҳоларга битиргансан. Сенга шу чанг ичида бало бормиди? Мен ўрнингда бўлганимда, бирорта бойваччага тегиб олардим ёки котибамми, тикувчимми бўлардим. Сенинг хусни-жамолинг менда бўлганида эди... Энди “кўча супурувчи” деган унвонни олдинг. Сендай кўча супурувчини ким ҳам келин қиларди. Ўз бахтингни ўзинг чангга алмаштирдинг.

Дилдора ҳам бир муддат ишдан тўхтади. Белини ушлаганча қаддини ростлади.

– Нима, кизлар кўча супурувчи бўлиб ишламаслиги керакми?! Биласизми, Анора опа, чет элларда кўча супурувчиларга



Шаҳар аҳолисига қулайликлар яратиш учун ҳар йили жуда катта миқдордаги ишлар амалга оширилади. Транспорт қатновларидаги тикинларни олдини олиш, қулай шароит яратиш учун шу кунгача 84 та кўприк қурилган (уларнинг сони ҳар йили ортиб боради). Бу кўприкларни тоза ва озода сақлаш, ободонлаштириш ишчиларнинг зиммасида.

катта хурмат кўрсатишар экан. Улар ҳам пўрим, сипо кийиниб юришади. Биз ҳам ишдан кейин яхши кийиниб юрсак бўлади-ку. Айб ўзимизда, ўзимизни-ўзимиз фаррош, кўча супурувчи, деб камситамиз. Нега бировнинг ҳақиға хиёнат қилаётганлар, ғийбатчилар, фитначилар, текинхўрлар уялмайди-ю, биз ҳалол ишимиздан, меҳнатимиздан уялишимиз керак?! Қолаверса савоб иш қиляпмиз.

Анора унга кулиб қаради:

– Лектор бўлиб кет-ей. Энди, тўй-пўйларга борганимда, қаерда ишлайсиз, деб сўрашганида нима дейишимни билмай қоламан-да. Бир куни “фаррошман”, десам мендан нарирок сурилиб ўтиришди. Эҳ, сингилжон, нимасини айтасан, ўшанда юрагим эзилиб кетди. Менда худди юкумли касаллик бордай, ажратиб қўйишди... Сани фалсафанг куруқ гап. Мана, бугун ҳам эримни ўртоғиникида йиғин бор. Нима кийишимни билмай турибман. Бормай десам эримнинг жаҳли чиқади. Иложим йўқ, бораман...

Аноранинг уйи: Саранжом-саришта ҳовли. Эрининг қистови билан Анора кийинмоқда. Дилшод бетоқат юради. Райҳондан узиб хидлайди. Очик турган дераза томонга, сўнг соатига қаради.

– Бўл тезрок, кечга қоламиз. Сардорнинг ёнида туришим керак.

– Мана бўлдим, чиқяпман.

Ясан-тусани ўзига ярашган, кўҳликкина аёл бўлиб уйдан чиқиб келди.

Дилшод бироз унга тикилиб туриб ҳазил қилди.

– Жа-а очилиб кетибсанми? Бўларкан-ку кийинсанг.

Анора эрқаланиб Дилшодга қаради.

– Мазах қилманг. Бир кийибман-да. Дўстингизнинг уйига борамизми?

– Ҳа, аёл-а, ўқимаган, уйига бормай, ресторанга борамизми? Ҳаммаси бўлиб олтига ўртоқмиз шундай катта шаҳарда. Бир кўришайлик дейишибди. Хотинлар ҳам танишсин дедик-да.

Анора эрининг кочиримига кочирим килди.

Ҳай, Укиган. Мен қайдан билай? Тушунтириброк гапирмаган бўлсангиз. Табака қилиб ол тоғорага, дедингиз. Бир кири килдим.

— Нима? Тўхтайтиди — Бир тоғора тўлами? Ҳа ўқимаган-а, да бир-икки кило пишириб, устига тўртта нон қўйсанг тўларди-ку. Бир ярмини уйга қўйиб чик, кейин раҳмат айтасан. Ўн нонга сўк қолса бўлади. Устига салафан торт-да, ундан кейин нон ёво. Ҳочқиси йўк. Эрта-индин қолганини еймиз.

— Нонни қасқдан оламан шу топда. Сизга обрў бўлади, дедим-да дидажониси. Яна тоғоранинг қатини бузмайлик. Учи чиройли қилиб жойлаштирилган.

— Ҳа, қошуд хотин-а, бу кетишда мени касод қиласан-ов? Булар иш бўлти, юр. Камбағал мард бўлишини кўриб қўйишсин.

— Ситни пулингизга тегиб бўладими? Бакириб оламини бунга. Учимнинг пулимга олдим.

— Учи сони лотареяда ютганман-да! — Эркалаб гапирди. — Нарангли нолсан-да.

— Маошим ҳам сизникидан кўп, — Анора дадиллашди.

— Тонгдан-шомгача кўча чангитиб ишлаганингдан кейин сен кўп симай, мен кўп олайми музейда ишлаб. Қуни билан гапирини осон эмас. Сен қўл билан ишлайсан, мен тил билан, кетин.

Ҳовлидан олдинма-кейин чиқиб кетишди.

Нойман аҳолиси ва шаҳарга келаётган меҳмонларга қўйиб, хатфис бўлиши учун 40 та кўприк, 40 та пиёдалар ва икки ўттиш йўллари айти пайтгача барпо этилган. Ҳар йили шайхнинг сони ортиб боради, тозалигига қаттиқ эътибор берилди. Албатта бу ишларни Ободонлаштириш бошқармаси ишлари бажаради.

Кўп қаватли уйлар. Уйлар олди дид билан экилган гулларнинг чиройли манзараси. Дилшод билан Анора манзил ёзилган қоғозга қарашди. Сўнг уй рақамига.

– Келдик. – Атрофига қаради, – духи сепганмисан? – Яқинлашиб ҳидлаган бўлади. Яхши, зўридан шекилли?

Анора мийиғида жилмаяди.

– Ўзингизнинг совғангиз...

– Биламиз-да, энг қимматидан олганман. Нархи қанча эди?

– Йигирма беш минглигидан. Энг қиммати беш юздан юқори туради.

– Бўлди, бўлди. Кейинги ойлигингдан олақол. Аёлларнинг олдида ўзингни бойвучча хотинлардек тут. Очкўзлик қилма. Бой хотинлардай ўтир.

Йўлакка кириб “32”-рақамли эшик олдида тўхташди. Дилшод қўнғироқ тугмасини босди. Эшик очилиб, ўртоғи Сардор кўринди.

– Келинлар-келинлар. – Сардор кучоклашиб кўришди. – Онаси меҳмонни кутиб ол.

Остонада тўладан келган, истараси иссиқ аёл пайдо бўлди.

– Келинг, келинг! Аноранинг кўлидаги тоғорани олиб, елкасига кафтини кўйиб кўришди.

Анорани аёллар ўтирган хонага, Дилшодни эркаклар ўтирган хонага бошлаб кириб кетишди.

Аёллар ўтирган хона. Хонада тўртта хотин. Ўртада стол-стул. Усти дурустгина безатилган. Муҳайё уларни бир-бири билан таништиради.

– Анорахон – Дилшод аканинг умр йўлдошлари.

Аёллар бир-бир кўришиб, жойларига ўтиришади. Анора ҳам бўш стуллардан бирига ўтирди.



Кўча ишчиларини буюк Амир Темур бобокалонимиз ҳам жуда ҳурмат қилган. “Шаҳримиз ободчилигининг сарбозлари дея улар олдидан ўтаётганда тўхтаб, “Ҳорманлар, баракалла!” деган.

1-АҒЛ: (чой куйиб узатади) Яхши келдингизми, эсон-омон ирибсизми?

2-АҒЛ: Қани олиб ўтиринг.

3-АҒЛ: Уйдагилар яхшими? Ўзингиз чарчамасдан ишлаб ирибсизми?

4-АҒЛ: Хуш кўрдик.

МУҲАЙЁ: Мана, танишиб ҳам олдик. Дастурхонга марҳамат. Сўқиб кизгин. Аноранинг ҳам ҳурматини жойига қўйиб, "Сиз ҳам гапиринг", – деб қўйишади.

1-АҒЛ: Анорахон, пистадан олиб ўтиринг.

3-АҒЛ: (Анча йирик, тўлишган хотин) Анорахон тортинман!

4-АҒЛ: Ҳеч нима емаяпсиз? Уялмай олиб ўтиринг.

3-АҒЛ: Куйлагингизни қаерда тиктиргансиз? Жуда ихчам тикилган экан.

АНОРА: Ўзим тикканман.

1-АҒЛ: Материали ҳам зўр экан. Янги модадан.

4-АҒЛ: Тикувчи ҳам текин бўладиган бўлди.

Ҳаммининг диққати Анорада. Унинг олдига бири чой, бири шарбат, бири мева қўяди. Анора хижолат. Секингина "Раҳмат-раҳмат" деб қўяди.

3-АҒЛ: Тикувчимисиз?

АНОРА: Йук, фаррошман. Кўча супурамиз. Шаҳар озода-шарини таъминлаймиз. Бўш вақтимда ўзимни, яқинларимни шаймларини бичиб тикаман.

МУҲАЙЁ: Жуда оғир иш-а?

4-АҒЛ: Мусур-ахлатга ботиб ишлаш...

АНОРА: Одамлар ҳам қизик. Чиқиндиларни, йўлларнинг четиди маҳсус қутилар қўйилган бўлса-да, дуч келган жойга ташлаб кетаверишади. Ҳар куни саҳармардондан кўчаларни суғуриб тотилаб чиқамиз.

3-АҒЛ: Уйингизга ҳам бир дунё микроб билан борсангиз ирибсизми?

АНОРА: (Ўнғайсизланиб) Йўғ-е. Унақамас. Қўлқопларда, маҳсус кийимларда ишлаймиз. Ҳар куни ишдан сўнг ювиниб тирапамиз.

1-АҒЛ: Нега ҳар жил гапларни гапирасизлар-а.

Аноранинг ёнидаги аёл сездирмасликка ҳаракат қилиб секингина нарироқ сурилиб ўтиради. Бу ёнидаги аёл нописандона бурнини жийиради. Тўғрисида турган аёл эса Анорага синчковлик билан разм солади. Анора баттар ўнғайсизланди.

Муҳайё ўртадаги хижолатпазликка барҳам бермоқчи бўлди:

– Анорахон, шунинг учун ҳам ихчамгина экансиз-да? Жисмоний меҳнат қоматни чиройли қилади. Қанийди мен ҳам сиздек соғлом ва ихчам бўлсам. Сизга ҳавасим келди. Ҳамма нарсам: данғиллама уй, машинам бор, лекин, соғлигим кундан-кунга панд берапти. Соғлигим учун ҳар қандай қора меҳнатга рози эдим. Аммо ғурур ўлгур қўймайди-да.

Муҳайё патнисда Анора олиб келган товук оёқларини узата бошлайди.

– Қани совуб қолмасин, олиб ўтиринглар.

1-АЁЛ: Бай-бай, бошлабсиз. Иштаҳам очилиб кетди. Жуда мазали бўлибди. Кўлингиз дард кўрмасин, Муҳайёхон.

– Ўртоғим ҳамма ишни дўндиради. Анорахонга қойил қолиш керак. Буни улар пишириб келган.

Иштаҳа билан еяётган аёллардан учтаси худди чакмоқ ургандай чайнашдан тўхтаб, қўлидаги пишган товук оёқларини қайтариб тақсимчага қўйиб, афтини тириштирди. Орада совук бир ҳолат пайдо бўлди. Анора ўрнидан туриб ташқарига чиқди.

2-АЁЛ: Ким билади нималарни ушлаган қўллари билан пиширган? Қанча микроб юққан. Билганимда келмасдим.

1-АЁЛ: Ундай деманглар. Жуда покиза аёлга ўхшайди. Хафа қилдинглар. Чакки бўлди. Анорахонга ўхшаган ишчилар бўлмаганда кўчалар ахлат уюмларига тўлиб кетган бўларди. Чакки қилдинглар.

Рим императори Юлий Цезар шаҳар кўчаларининг озодлиги билан шугулланувчи қўлларни ҳар қанақа таҳқирлашдан, азоблашдан ҳимоя қилган.

Анора кўзига ёш олиб, тоғорани ҳам олмасдан эшикдан чиқиб кетди.

Аноранинг сўзларидан Дилдора жаҳли чиқиб титрарди.

– Айтмадингизми?! Сизлар юрган йўлларни тозалаб юрман, чиқинди уюми босмасин, деб. Агар биз бўлмасак, ўша ялтир-юлтир кийимларингизгача, уйингизгача мусур бўларди, атрофингиз чивин-пашшага, ахлатга тўларди, деб. Яна биздан жирканасизми, демадингизми? Эҳ! Анора опа! Улар эмас, биз улардан қочишимиз керак. Биз фаришталармиз, опа. Энг савобли ишни бизлар қиламиз. Сиз бундан уялманг, фахрларинг. Келинг, жиндай дам олайлик.

Супургиларини ёнларига қўйиб, арча дарахтининг ёнидаги ўриндикларга ўтиришди. Уйларидан олиб келган термосдан пиёлага ҳовури чиқиб турган чойдан куйишди. Дастурхон ёзиб, пиёладаги чойдан хўплашади. Кўчада йўловчилар ўтиб-қайтиб турибди. Улардан бири: “Буларнинг уйи ҳам, ошхонаси ҳам кўча”, – деб кулади. Анора унга жаҳл билан қаради.

– Кулинг, бизнинг уйимиз йўк, кўчада овқатланамиз, мулла ака, кеннойи, ҳа, бизнинг уй кўча.

Дилдора ҳам гапга аралашди.

– Келинг, катта ака, бир пиёла чой ичиб кетинг. Супурувчилар чойида тупроқ таъми бўлади, тупроқ мазасини ҳам билинг-да. Онамиз, отамиз, момомиз, ҳаётимиз тупроқ. Бу тупроқдан жирканманг. Тупроқдан яралгансиз, тупроққа бора-

Ўзбек халқининг атоқли ва машҳур ёзувчиси Одил Ёқубов “Тунги фаришталар ўрнини олган тонгги фаришталар. Улар ҳаммадан кўп таҳсинга сазовор инсонлардир! Аммо уларнинг меҳнатини ҳаммиша ҳам қадрлайвермаймиз. Аслида улар ҳаммамизнинг соғлигимиз учун меҳнат қиладилар. Шаҳарларимизни ўз уйларини озода тутгандек озода, саранжом-саришталаб турган инсонлардир” деган эди.

сиз. Чанг ҳам ўзимизники, лекин шу тупрокни ҳам, шаҳримизни ҳам ифлос қилаётган сиз ва сизга ўхшаган бефарқлар.

Йўловчи гапирганига пушаймон бўлиб, кўздан ғойиб бўлди. Улардан сал нарида пакет кўтарган Қадам келиб тўхтади.

Анора Дилдорани туртиб, Қадамга ишора қилди.

– Кечаги йигит сени яхши кўриб қолганга ўхшайди. Ё бошингни айлантирмоқчими?

Улар гапини тугатар-тугатмас, йигит пакетни қизларнинг ёнига қўйди.

– Чой билан ичарсизлар. Суюнчи олмадинглар?..

Дилдора пакетни очиб қаради.

– Вой-бў, роса сийлабсиз-ку! Нон, мева-чева, сомса, кола, шоколад. Ҳар куни келиб туринг, бундай сахий экансиз. Ёқиб қолдингиз, – кулишади, нарсаларни қайтариб пакетга сола бошлайди. Қадам қизнинг кўлидан ушлаб тўхтатмоқчи бўлади.

– Илтимос, олинглар, тушлик қиласизлар, қайтарманг! Бу нарсаларни мен чин кўнгилдан олиб келдим.

– Дилдора, қўй, қийнама, ният қилиб олиб келибдилар, – деб Анора кулиб қўйди.

– Эртагаям бирор баҳона қилиб келмайсизми ўзи? – қошларини чимириб, сирли табассум қилди Дилдора.

– Кел десангиз, келаман, келма десангиз...

Анора йигитга кулиб қарайди.

– Укам! Мабодо ошиқ бўлиб қолмадингизми? Қарашларингиз бошқача. Биз супурги соҳиблариниям сийлайдиганлар бор экан...

– Фаррош қизни бошига урадиларми! Қадам акага башанг кийинган, ўқимишли қизлар ёқади! Ё гапим нотўғрими? – деди Дилдора жиддий оҳангда.

– Нега ўзингизни камситасиз? Энг савобли ишни қиласизлар сизлар! Сиз бўлмасангиз, бу кўчалар ахлатхонага айланиб кетарди.

Ишларни кўздан кечириб юрган ободонлаштириш бошқармаси раиси Қадамнинг гапини бироз эшитиб туради. Қадам гапида давом этади:

– Сизлар туфайли шаҳар, кўчалар обод. Ҳеч ҳам ўзингизни камситманг.

Тўрабек Қадамнинг ёнига келиб қўлини сиқиб кўришди.

– Офарин! Бор гапни гапирдинг, ука! Шу кўча супурувчилари, боғбонлари, чиқинди ташувчилари бўлмаса, кўчалар хароб бўларди. Эпидемия тарқаларди! Тасаввур қиляпсанми, ҳамма ерда микроблар, касалликлар... Зўр тушунган йигит экансан! Ука, мана шу гапларингни бизни ҳамма хизматчилар эшитсин. Шанба куни байрамолди кичкина тадбиримиз бор. Оши ҳам бор. Ҳамма йиғилади. Ўшанда шу гапларингни яна бир маротаба қайтаргин, укам. Ким эканликларини билиб қўйсинлар.

Қадам уялинқираб ерга қаради.

– Қўйсангиз-чи! Ёши каттароқ одамлардан чақиринг, олимлар бор, ёзувчи-шоирлар бор, машхурлар бор... мен ҳали талабаман.

– Талабамисан, талаба эмасмисан, менга чепуха. Шу ерда айтган гапларингни яна бир бор айтасан, вассалом. Мен ҳали умримда бировдан илтимос қилган одаммасман. Ҳамма мендан илтимос қилади. Мени Тўрабек дейдилар!

– Йўк, мен уддасидан чиқолмайман. Боролмайман.

Дилдора гапга аралашади.

– Исмингиз нима эди? Қайси ўқишда ўқийман дегандингиз?

– Исмин Қадам. Миллий университетнинг тарих факультетида ўқийман.

– Бир қадам ранжида қиларсиз! Илтимос... – дейди кулиб таъзим қиларкан Дилдора. – Тарихдан сўзларсиз. Бизнинг касб ҳақида гапирсангиз ҳам майли.

– Калака қилманг, эгилманг! Бораман, – дейди Қадам Дилдорага қараб. – Борганим бўлсин.

Ўзбекнинг улуг шоири Абдулла Орипов фаррошларнинг олдидан ўтаётганда улар қаршисида тўхтаб, “Барака топинглар, сизларга минг бор раҳмат!” деб ўтиб кетарди. Шоирнинг ортидан ҳаммалари “Абдулла Орипов мақтади бизни”, деб қолишарди.

Тўрабек кафтлари билан Қадамнинг елкасига урди:

– Гап бундай бўлибди-да, ўғил бола! – Қадамни кўлини сиқиб, қизларга қаради, – тушунчаси баланд, зўр йигит экан-а? Бўладиган болага ўхшайди. Тарих бу улуғ фан, тўғри-ми, қизлар?

Анора бошлиқни ўтиришга ундади:

– Дастурхонга марҳамат. Э-э, стулча керак-ку, раис бобомга. Ҳозир. – Анора катта оқ салафан халтани очиб, йиғма стулча олди, артиб, дастурхон четига қўйди. – Қани, раис бобо, ўтиринг. Зўр йигит олиб келган зўр нарсаларидан еб кўринг.

Тўрабек у бу тотинган киши бўлади-да, бирдан дастурхондан кўлини тортди.

– Эрталаб овқатланиб олганман. Лекин чойдан ичса бўлади. – Эсига бир нима тушгандай, – нега энди бу йигит совға-салом қилади?! Ҳар кимнинг нарсасини олаверманглар. Сизлар тиланчи эмас! Гордий бўлиш керак, ҳалиги... мағрур бўлинглар! Айтинг, бизлар ҳам ойлик оламиз, ўзимизга тўкмиз, денглар. Ойлигимиз катта денглар, хўпми?

Анора изоҳ беради:

– Кеча тонгда, Дилдора бекатдан сумка топиб олди, ичида китоблар, диплом иши, 100 минг сўмча пул, қўл телефони бор экан. Ўша нарсалар шу йигитники экан. Келди, сўради, биз кўрсатдик, ичидаги нарсаларни тўғри айтди ва биз қайтариб бердик. Суюнчи пули берди, биз олмадик. Эвазига бутун пакет қилиб келибди. Ана шу бор гап, раис бобо.

Дилдора Аноранинг гапини тасдиқлаган бўлди.

– Ҳа, раис бобо. Кеча суюнчи пули деб йигирма минг берди, ўзимизни гордий тутдик, раис бобо, олмадик.

Испан элчиси Клавихо Самарқандни айланаётганда, тонг саҳарлаб келинчаклар ва қизларнинг кўчаларни сув сепиб, супураётганини кўриб ҳайратга тушган. Шунчалар ҳам кўп ишчи ишлайдими, деб ўйлаган. Сўнг қиз, жувонларнинг ўзлари тонг саҳарлаб текин ишлашларини билгач, бу одат фақатгина ўзбек ва тожик қавмларида борлигидан ҳайратга тушган.

Тўрабек қизларнинг гапидан хурсанд бўлди. Томоқ кириб йўталиб олди:

– Кўрдингми, йигит. – Тўрабек қизларни кўрсатади. – Бизнинг ишчилар бировнинг сариқ чақасига ҳам хиёнат қилмайди. – Дилдора билан Анорага қарайди. – Маладес! Шундай честний бўлиш керак. Қадамга қараб гапиради. – Бизнинг ишчилар топилмалар идорасини ҳам тўлдириб юборган. Топилмаларни эгасига қайтариш, тамагир бўлмаслик керак. Айтиладиган раҳматни, шанба куни бўладиган йиғилишда айтгин. Мен ҳам уларга ташаккурнома эълон қиламан. Билсинлар! Кўча супурувчи виждонли одам.

Улар гаплашиб турганда бир аёл арча панасига ахлат гўла салафан халтани ташлаганини кўриб, Дилдора аёлни тўхтатди.

– Опажон, олинг ахлатингизни, бориб ахлатхонага ташласангиз бўлмайдимиз, уялмайсизми?! Шу кўчадан ўзингиз, болаларингиз юрасизлар-ку!

Ахлат ташлаган аёл бўш келмади:

– Вазифанг бу! Ойлик оляпсанми, бажарасан-да! – юзини буриштириб. – Ақл ўргатишига қаранг, – кета бошдайти.

Қадам аёлнинг сурбетлигига чидаб туролмади. Уларнинг гапига аралашди.

– Бу кўчалар ҳаммамизники-ку, опажон. Сиз ташласангиз, сиздан кўриб бошқалар ҳам ташласа, кўчалар ахлатхонага айланиб кетади-ку. Ҳозир тозалаб қўйишган жойга ахлат ташлашингизни қаранг. Уйингизни озода қиламан, деб кўчаларимизни ифлос қилишингиз яхшими?

Ободонлаштириш бошқармасининг ишчи ва хизматчилари шаҳар аҳолиси, шаҳарга таширф буюрган сайёҳларга қулайлик тугдириш учун ҳар куни тонг саҳарлаб шаҳар кўчаларига фаришталардек тарқалишади, кўчаларни тозалашади, санитария ҳолатини маромида сақлаш мақсадида супуриш, сув қуйиш, ювиш, чангдан, қордан тозалаш, сирпанчикликнинг олдини олиш учун тўрт фасл ҳар куни меҳнат қиладилар.

17 1721/4
Зангешота АҚМ

– Э, бор-эй! Сен аралашма, буларнинг вазифаси. Шошиб турибман, қочларинг йўлимдан. – Аёл ахлатини олмасдан кетди.

– Ҳой опа! Шу ишингиз инсофданми?! – деганча қолди Қадам.

Тўрабек эшитиб кузатиб турди, баракалла деб уларга яқин келди ва Қадамнинг қўлини сиқди.

– Кўришгунча, укам. Кутаман-а. Тез-тез келиб турсанг, театрга тушишингга хожат қолмайди. Ҳар хил одамларни кўрасан. Майли, бизга рухсат, деб хайрлашиб кетди Тўрабек. Тўрабекнинг орқасидан Қадам ҳам улар билан хайрлашди. Дилдора билан Анора ним табассум қилганича кузатиб, унинг орқасидан қараб туришганди, Қадам уларга қайрилиб қаради.

– Хайр, яхши қолинглар.

– Хайр, раис бобонинг гапи эсингиздан чиқмасин-а, – табассум билан тайинлади Дилдора.

Қадам улардан узоқлашиб, кўринмай қолгач, икки киши олдини тўсиб чиқди. Улардан бири – Зоир, иккинчиси – Ҳайдар. Ободонлаштириш ишчилари.

– Ҳой олифта, абжағингни чиқарайми!? – Ҳайдар Қадамга яқинлашди.

Зоир Ҳайдарнинг йўлини тўсди.

– Қамалиб кетасан, ўзингнинг абжағинг чиқади.

– Қоч йўлимдан.

Ҳайдар Зоирни итариб юборди, у ўтириб қолди.

– Ҳозир кўрасан, – бориб Қадамнинг ёқасидан бўғиб ушлади. – Яна унинг ёнида пашшаҳўрда бўлсанг, бошингни коптоқ қилиб тепаман.

– Ўзи нима гап, қўйворинг?! – деди ҳайрон бўлганча Қадам.

Зоир қулоғини кўрсатди:

– Бақириб гапир, қулоғи эшитмайди. Ўзи нега уларнинг ёнига келдинг?

– Йўқотган нарсамни топиб беришганига раҳмат айтгани келгандим.

Зоир Ҳайдарнинг қулоғига қўлини карнай қилиб бақиради:

– Бунинг нарсаларини топиб беришган экан. Раҳмат айтгани келибди.

Ҳайдар Қадамнинг ёқасини қўйиб юборди.

– Бошқа келма, ёмон бўлади. У меники, билдингми!

Қадам Ҳайдарга назар ташлади. Юзлари куёшда куйган, кўллари қадок. Меҳнатқаш бу инсонга ачингандай бўлди.

– Ихтиёр ўзида, – деб шарт бурилиб кетди.

Кўча ишчилари ишга тушиб кетган. Уларнинг бутун диққат-эътибори ишда, баъзи йўловчилар кийимимга чанг ўтирмасин деб, югуриб ўтади. Кўча супураётган, йўлак атрофини тозалаётган, ўрок, кетмон, белкурак тутган аёл-эркаклар бир хил махсус кийимда. Улар фақат иш билан банд. Сўзламайди, уёқ-буёққа қарамайди. Ишлашади. Кўчаларни тозалашади. Йўловчилардан кимдир сигарет қолдиғини, кимдир сигарет қутисини ғижимлаб ташлаши кундалик ҳол, яна кимдир сақичини ташлайди, кимдир тупуради. Бу ишчилар ҳаммасига чидашади. Уларга қараб қўйиб, жимгина эссиз, дегандек бошларини қимирлатиб, ички эътирозларини билдиришади. Дилдора ҳам шериклари сингари баъзи йўловчиларнинг ишларидан норози бўлганча йўлак супуради. Дилдорадан сал нарида ўткинчилардан икки киши дарахт тагига ишора қилиб тўхтаб қолди.

Улардан сал нарида лойга беланиб ётган киши. Унга ўткинчилар безътибор қарашиб, ўтиб кетаверишади. Икки киши тўхтаб, унга яқин боришди.

БИРИНЧИ КИШИ: Ўлдириб кетишганга ўхшайди. Ҳамма жойи қон-ку!

Ҳар баҳор келиши билан йўл ва йўлак атрофларини юмшатиб, миллионлаб турфа гул, майса ва дарахтлар экиб, шаҳар кўркига кўрк қўйишади. Сизлар тонг фаришталари, Кўчаларимиз саришталари. Қувонади барча, ёшу қари, Озодалиқ бунинг сабаби.

ИККИНЧИ КИШИ: (бурнини рўмолча билан беркитиб, унинг юзига қарайди). Тирик, нафас оляпти. Тез ёрдам чақириш керак.

БИРИНЧИ КИШИ: Милицияга хабар бериш керак.

ИККИНЧИ КИШИ: Нима қиламиз ортиқча бош оғрикни. (Дилдора билан Анорага ишора қилишади) Уларга айтамыз. Кимни чақиришса, чақиришар.

БИРИНЧИ КИШИ: (Дилдора билан Анорага юзланиб) Қизларим, манави жойда одам ётибди. Хабар берарсизлар милицияга.

АНОРА: Ўзингиз хабар қилсангиз бўлмайдимиз?

ИККИНЧИ КИШИ: Ишга кечикяпмиз, қизим.

ДИЛДОРА: Иш инсондан азиз бўлибдимиз? Бу кишининг ўрнида сиз ётганингизда нима бўларди?

БИРИНЧИ КИШИ: Гапиргин-у қоч булардан. Лўлидан ҳам баттар булар.

АНОРА: Аслида сизлардан қочиш керак. Бир бечорага ёрдам бериш ўрнига қочяпсизлар. Ахир, бир мусулмон бандаси ётибди-ку! Кўрмаяпсизми, бошида дўпписи ҳам бор. Лўлилар ҳам бор орамизда. Аммо улар сизлардан яхшироқ. Сизлар юрадиган йўлларингизни супиришади. Савоб иш қилишади. Сиз-чи, бир инсонга ёрдам беролмасдан ўз ҳолига ташлаб кетяпсиз. Уялинглар-ей! Садқайи одам кетинглар!

Улар эшитмаганга солиб тез-тез юрганча кетишди. Дилдора ўзларидан сал нарида ишлаётган кўча ишчиларини чақирди. Иш қуроолларини бир четга қўйиб келишди. Улар ерда ётган кишини дарахт соясига ётқизишиб, бошига халатларини ёстик қилиб қўйишди. Пиёлага сув қўйиб, ичиришди. Дилдора ҳам у ерга борди. Дилдора нотаниш одамга ширин чой қилиб ичирди. У бироздан сўнг ўзига келиб бошини кўтарди:

Кўчаларга бириктирилган ишчилар ўз ишини виждонан, юракдан бажаради. Уларни назорат қилишга ҳоҳшат йўқ. Бу инсонларни кийимига қараб эмас, ишларига қараб баҳо бериш керак.

– Раҳмат сизларга, барака топинглар. Бошим айланиб йиқилибман. Икки кундан бери бемор онамнинг тепасида эдим. Чарчабман шекилли, хушимдан кетибман. Борингизга шукр! Хайрият, сиз яхшилар бор экансиз. Минг раҳмат.

Дилдоранинг шинамгина ҳовлиси, олмалар ҳосилининг кўплигидан шохлари ерга тегай-тегай дейди. Дилдора гулларга ишлов бермоқда. Онаси тоғорага сомса жойлайди. Шохрух сап-сарик пишган ўрикларни териб, челақка салади. Ўрик шохларининг барглари орасида пишган мевалар ўзгача бир фусун бахш этган. Мўъжизанинг ўзи. Кўзлар қувонади. Холикул хотинини шоширади:

– Сомсани тезроқ обормайсанми?

– Дилдорани кутяпман. – деди Орзигул хона эшигига тикилганча.

Дилдора деразадан қарайди:

– Ўзим бораман, она. Сиз отам билан бораверинг. Анора опанинг эрлари обориб қўяркан. Анора опага шерик бўламан бугун.

Холикулнинг хуноби ошиб хотинига буюрди:

– Бўл кийиниб чиқ! Бир-бирингни кутиб кеч қоласанлар.

– Кийинганман.

– Шуми кийинганинг? Ишга эмас, байрамга боряпсан. Ҳов у куни тўйга кийиб борган атлас кўйлагингни кийиб чиқ! Жа ярашганди.

Орзигул ичкари кириб кетди. Дилдора хонадан чиқиб келиб гулларнинг ёнида тўхтади. Ота кизининг ишини кузатиб турди. Дилдора кип-қизил очилган бир гулнинг баргларини оҳиста силади. Эгилиб ҳидлади. Чеҳрасида ўзгача бир табасум югурди.

– Ота, мана шу гулнинг ҳиди жуда ёқимли... Сиз эккансиз-а?

– Ҳиди ҳам, таровати ҳам кишига завқ беради. Онанг эккан. Онанг гулларни яхши кўради. Шаҳар кўчаларида гуллаб турган гулларнинг кўпини онанг эккан. Онанг чўп экса ҳам кўкариб кетади.

Айвонда Орзигул пайдо бўлди. Атлас кўйлак, оқ рўмолидаги қизил гуллар. Орзигул ийманиб зинадан тоғорасини кўтариб тушиб келди.

Дилдора мафтун бўлиб отасига қаради:

– Қаранг онам очилиб кетибдила. Кўзмунчоқ тақиб кўйинг. Кўз тегмасин.

Отаси ҳам қарайди:

– Бай-бай. Атлас кўйлак онангга хўп ярашибди-да, қизим. Ёшарганини қара.

Ҳовлининг бир четида китоб ўқиб турган Шохрух китобини бир четга қўйиб, онасига яқин келди.

– Ростдан ярашибди, она. Ўзи сизга атлас кўйлак бошқача ўтиради.

– Етар. Яна гапирсаларинг ҳозир алмаштириб чиқаман.

– Бўлди онаси, юр кетдик.

– Ўғлим, ҳамма ёққа қараб, уйда ўтиргин-а.

– Хўп бўлади, онажон.

Холикул билан Орзигул чиқиб кетди. Уларнинг орқасидан опа-ука қараб қолди.

Шаҳарнинг обод кўчалари. Одамлар ва машиналарнинг тинимсиз қатнови. Йўл атрофидаги дарахт ва гуллар кўчага файз бериб турибди. Қадам билан Шерзод йўлак бўйлаб сухбатлашиб, катта дарвоза олдида тўхташди. Эшик тепасида “Туман ободонлаштириш бошқармаси” деган ёзув. Ҳовлида одам гавжум. Деворда озодалик билан боғлиқ бўлган шиорлар: “Озодалик – ҳаммамизнинг бурчимиздир!”, “Озодалик – озод шаҳрим кўрки!”. Ўртада йиғилишга мўлжалланган жой. Тўрда Тўрабек савлат тўкиб ўтирибди. Стол устида оппоқ чой-

Турфа гуллар ва ям-яшил майсалар, йўлларга соя солиб турган дарахтлар киши кўзини қувонтиради. Булар ўз-ўзидан бўлмаган. Сиз ва биз ҳар кун кўлида сунурги, кетмон, белкуррак, ўроқ тутиб ишлаётган Ободонлаштириш бошқармаси деган хизмат кийимларидаги ана у аёл ва эркаклар меҳнати маҳсулидир.

шаб ёйилган, ҳар хил сувлар, пахта гулли пиёлалар. Қоровул ҳовлиқиб кириб келди.

– Хўжайин, ў-ў, хўжайин! Галстукли, яхши кийинган икки киши, билмадим, комиссиями, катталарданми, кирмоқчи. Нима қилай, хўжайин, “хўжайин йўк”, деб юборайми?

Қоровулнинг қулоғи оғирроқ, қулоғига кафтини трубка қилиб, хиёл Тўрабекка эгилади:

– А-а, лаббай!

– Чақир! – Қоровул қулоғидаги пахтани олди.

– Эсдан чиқибди, бироз қулоқ оғрийди-да, хўжайин.

Тўрабекнинг жаҳли чиқди.

– Қулоғингга том битганми! Чақир!

– Нима? Қулоқми, шамоллаган.

Тўрабекнинг жиғибийрони чиқиб, қоровулга бақирди.

– Ҳозир қақираман. Қулоқ пахтаси эсдан чиқибди-да, хўжайин.

Қоровул залдан секин юрганча чиқиб кетди ва зум ўтмай икки йигитни бошлаб кирди. Тўрабек ўрнидан туриб, қарсақ чалди. Пастда ўтирганлар ҳам унга қўшилиб қарсақ чалишди. Иккаласини минбарга олиб чиқиб, ёнига ўтказди.

Тўрабек иккисини кутиб турган эканми, сўраша солиб, йиғилишни бошлаб юборди:

– Ҳурматли жамоадошлар! Мана бугун ҳаммамизнинг байрамимиз. Байрам билан табриклаш учун меҳмон ҳам чақирдим. Айтмоқчи, уларнинг бири шоир, таниқли шоир, бири лектор. Биринчи сўз лектор укамизга. Қадамга қарайди. Қа-

Яхшиям шаҳарларда Ободонлаштириш идоралари ва уларнинг ишчилари бор. Шулар туфайли кўчаларимиз обод, шаҳримиз озода. Мабодо шу кўча ишчилари бўлмаганда шаҳар аҳолисининг ҳолига маймунлар йиғларди. Шаҳар чиқинди уюмларига тўлиб кетар, унда инсон қандай нафас олиб яшарди. Мен уларга таъзим қиламан, деганди шоир ҳақида ҳужжатли фильм олаётганимизда Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Эркин Воҳидов.

дамбой тортиниб, минбар томонга юрди. Тутулиб-тутулиб сўзлай бошлади.

– Азиз онахонлар, отахонлар, опа-ука, ака-сингиллар! Сизларнинг меҳнатингизга, хизматингизга офаринлар айтгим келади. Сизлар билан бугун юрт обод...

Гапни бўлиб савол беради бир жуvon:

– Мукофот бериладими? Мукофот! Олдинги ойда мени мукофотдан қолдиришганди, лектор укам.

– Чалғитилмасин! Мукофот бўлади. – Қарсақлар. Қадамга караб. – Қани, давом эттиринг.

Қадам ўзини анча босиб олган, залга ўрганган эди.

– Агар сизларнинг меҳнатингиз бўлмаганида шаҳарларнинг кўчалари чиқиндига тўлиб кетиб, яшаб бўлмас даражага етарди. Мен сизларни кўп кузатаман. Баъзи бир бэфаросат кишилар, кўчага чиқиндиларни иргитади, сигарет, музқаймоқ қоғозларини ва бошқа нарсаларини улоқтиради... энг савобли ишни эса сиз қиласиз, азизлар. Яна айтаман, сиз билан обод бу шаҳар! Одамларнинг соғлиғини ҳам сақлаб турувчи – сиз. Чунки, тозалик, мусаффо ҳаво соғлиқ-саломатлик гаровидир. Сизларга раҳмат дейиш керак. Ўзим ва дўстларим номидан сизларга минг бор ташаккур дейман. Омон бўлинглар!

Давомли қарсақлар бошланди. «Яшавор лектор», «Офарин», «Отанга раҳмат», «Меҳнатимизнинг қадрини биладиганлар ҳам бор экан-ку», деган қичқириқлар ва олқишлар зални эгаллади. Концертларда ҳам бундай қарсаку олқишлар бўлмаган. Залдагилар ўринларидан туриб олиб, тўхтовсиз қарсақ чалишарди.

Тўрабек бўлди дегандек кўлини кўтарди, одамлар қарсақ чалишдан тўхтаб ўтиришди.

– Кўрдингларми сизлар қандай улуғ, шаҳар учун керакли одамларсиз! Хали сизлар ҳақингизда шоир укамиз ҳам гапирмоқчилар. Сўз шоир укамиз Шерзод Осмонийга!

Минбарга Шерзод чиқди. Залга бир нигоҳ ташлади, ҳаманинг нигоҳи унга қадалган.

– Эй фалак, бу малаклар... – Гапни бир йигит шарт бўлди. Кўлини пахса қилиб шоирга ўқталди:

– Малак дема! Ўзинг малаксан, оғзингга қараб гапир!
Ана у лектор укамизга ўхшаб гапир. Палак ҳам, малак ҳам
ўзингсан.

Ҳамма кулди. Шовкин кўтарилди. Тўрабек ўрнидан турди:
– Жим ўртоқлар, нима бу шовқин. Давом этинг, шоир укам!

Шоир ўтирганларга бир муддат қараб туради-да, кутилма-
ганда сўзлай кетади. – Сизлар борки, дунё бор! Мана бу шеър-
рим сизларга бағишланади, – шеърини ўқий бошлади:

*Асли сиз билан гўзал бу диёр!
Сизни олқишлайди она табиат,
Инсонлар юзидаги ҳатто нур ҳам
Мусаффо ҳаво-ю, тозаликдандир.*

*Сизлар тонг фаришталари,
Кўчаларимиз саришталари.
Қувонади барча, ёшу қари,
Озодалик бунинг сабаби.*

*Меҳнатингиз кўролмаганни,
Қадрингизни билолмаганни.
Инсофини берсин Ҳудойим,
Меҳнат билан тирик ҳар одам.*

*Минг офарин сизга азизлар,
Куч-қувватга тўлинглар сизлар.
Олқишлайди сизни бутун олам,
Олқишлайди бугун шоир ҳам.*

*Тошкент шаҳар кўчалари, хиёбонлари, булварлари, ёдгор-
лик мажмуалари, умумий фойдаланиш майдонлари, дарахт-
зорларни сақлаш, парваришлаш, кўкаламзор ва гулзорларни
ҳар хил зараркунандалардан сақлаш ҳам шу фидойи инсонлар
зиммасида.*

Зални ҳайқириқлар ларзага солади: «Яшавор, койил». «Шоир дегани мана шундай ёзса-да», «бу шоиримиз сўзлари учун киттак-киттак олиш керак»... Дилдора ва бир нечта ишчи Қадам билан ўртоғига гуллар беришди. Шоирни бир чол чўлпиллатиб ўпиб ҳам кўяди. Осмоний хурсанд, залдагилар шод. Тўрабек виқор билан ўрнидан туради. Залга бир-бир қарайди. Ҳамма жим. Залда пашша учса сезиларли даражадаги сукунат. Йўталиб олди, қарсақлар. Тўрабек жим, дегандек яна кўлини кўтарди. Ҳамма қарсақ чалишдан тўхтади.

Тўрабек раҳбарларга хос вазминлик билан гап бошлади:

– Кўрдингларми. – Кўлини юкори кўтариб бигиз қилиб гапирди. – Сизлар қандай масъул одамларсизлар. Ҳарбийларнинг қуроли милтиқ бўлса, сизларнинг қуролларингиз, белкурак, супурги, хокандоз. Тўғрими! – Пастдан “тўғри хўжайин” деган ҳайқириқлар янграйди. – Мана, шоирлар сизларга шеър тўкигичининг гувоҳи бўлдингиз. Ҳаммага ҳам шоирлар шеър ёзаведилдилар. Сизлар замон қаҳрамонисизлар. Сизлар тозаликнинг эгаларисизлар. Умуман, мажлис яхши бўлди. Иш кўп, гапни ками яхши-а, нима дединглар? Сизлар ишларингни койил қиладиган одамлар. Сизларга офарин айтиб, мажлисни тугатамиз. Ўйнаб-кулиб дам олинглар. Дастурхондаги ноз-неъматлар сизга мунтазир.

Залда қарсақлар ва овозлар: – Хўжайин, ош олдидан... озгина чарчоқбосди қилсак ёмон бўлмасди. Дезинфекция бўлармиди... ўзингиз айтгандек.

Залда кулгу кўтарилди. Тўрабек уларга танбеҳ берди:

– Ишхонада ичилмайди. Яна ўзларинг биласизлар.

ЗАЛДАН: Майли, рухсат берсангиз бўлгани. Қолганини ўзимиз эплаймиз.

– Уят! Меҳмонлар бор. Ҳеч бўлмаса меҳмонларни кузатайлик. Ҳамма дастурхонга марҳамат. (Қадам томонга ўтрилиб)

Ҳар йили Тошкент шаҳрида бунёд этилган ва этилаётган массив ва маҳаллаларда юз минглаб дарахт ва гул кўчатлари экилади, парвариш қилинади.

Курмағурлар, ичгани билан зўр, ишни қойил қилишади. Озрок эркаликлари ҳам бор... Ўлган мушук-кучукларнинг ўликларидан, кўчаларни тозалашдан жирканишмайди. Шуларнинг бо-рига шукр.

– Ҳақиқатдан ҳам буларнинг барчаси бир дунё экан. Билмас эканман.

Осмонийнинг бу гапи Тўрабекка ёқиб қолди.

– Во! Тўғри гап, китоб қилса арзийди. Ранг-баранглигини айтмайсизми буларнинг, ақлиси ҳам, нимтентаги ҳам, қамалиб чиққани ҳам, ёш қиз-жувонлар ҳам, хуллас ҳаммасидан бор. Лекин, уларнинг мақсади битта: тозалик. (Йигитларга қараб) Энди озгина чойимиз бор эди.

Қадам Тўрабек томонга қаради:

– Раҳмат, Тўрабек ака, бошқа сафар. Дарсимиз бор. Домла-миз қаттиққўл.

– Ўзим айтиб қўяман. Кўпчиликнинг ишини битказиб берганман. Сўзимиз ўтади, ҳамма жойда ҳурматимиз бор.

– Бизга рухсат берсангиз, – деб узр сўради шоир Шерзод Осмоний.

– Ҳа, кетишимиз керак, – Шерзодни қўллади Қадам.

– Жиндак чакчақлашиб, чойлашамиз, дегандим. Аттанг, нимаям дердик, зоримиз бор, зўримиз йўқ. Ҳа, айтганча, иш-хонангизга раҳматнома ёзиб берай.

– Йўқ, керакмас. Ишламаймиз, ўқиймиз? – деди Қадам кулиб.

Ҳамма залдан чикиб кетди. Дилдора енгил табассум билан Қадамга қаради. Нигоҳлар тўқнашди.

Дилдора сеҳрли табассум қилди:

– Хайр, келиб туринг.

Пойтахтимиз кўчаларида сайр қилиб юрган сайёҳлар сон-саноқсиз гулларга, турфа хил дарахтларга тўла кўча ва хиёбонлардаги озодаликни кўриб лол қолишади. Юртларига боргач, биринчи айтадиган сўзлари: “Жуда озода ва кўркам, гулларга бурканган ажойиб шаҳар экан” дейишади.

– Хайр. Омон бўлинг.

Кўзини киздан узолмасди Қадам. Узокдан Ҳайдар хўмрайиб, Қадамга қўлини мушт қилиб кўрсатди. Қадам қулиб қўйди-да ховлидан чиқиб кетди.

Тонг. Кўчада ҳамма янги кунни бошлаган. Ҳамма ҳаракатда. Ҳар-ҳар жойда сигарета колдиклари, елим қопчаларда ташлаб кетилган чиқиндилар, музқаймоқ қоғозлари, сочилиб ётган олма-анор пўчоқлари, ҳар жойда уюлиб ётган дарахт барглари. Кўча супураётган, йўлак атрофини тозалаётган аёллар, ўроқ, кетмон, белкурак билан ишлаётган аёл-эркак бир хил махсус кийимдаги ишчилар. Улар фақат иш билан банд. Чурқ этган овоз эшитилмайди.

Қадам, кўча супурувчиларни, ариқ тозалаётган эркакларни, дов-дарахтларга ишлов бераётган боғбонларни, гуллар ва дарахтларга сув бераётган сувчилар ишини кузатиб, бир четда ўтирибди. Унинг ёнида ўртоғи Шерзод.

Қадам улардан нигоҳини узмай гапирарди:

– Дунёдаги “обод шаҳар”, “тоза шаҳар”, “яшил шаҳар”, деймиз. Озодалигига ҳавас қиласан, деймиз. Оғзимиздан бол томиб мактаймиз. Экранда кўринган ораста кўчаларни, хиёбонларни кўриб қувонамиз. Лекин ўша орасталик, гўзаллик кимнинг орқасидан? Бу ҳақда кам гапирамыз. Аслида (ишчи ва фаррошларга ишора қилади) шулар шаҳар ва кўчалар ободлигининг жокуярлари. Шулар туфайли бу юрт, борлик ораста.

– Ҳақиқатдан ҳам ана шу ишчиларнинг улуши борлигини унутамиз. Кеча қандайдир киночи кўчада сурат олаётганди. Бир фаррош хотин яқин келди. Ҳалиги киночи: “Ҳой, ифлос кийимингиз билан нима қилиб турибсиз бу ерда? Кадрни расво қилдингиз-ку!” деб, ирkitона овозда роса бақирди. Кадрга тушиб қолса нима қилибди, ахир шулар эмасми шаҳарларимиз чиройига чирой кўшаётган, озодалик фаришталари!

– Шунга қуяман-да. Ўзимни ҳақ қилиб кўрсатмоқчи эмасману, нега уларга паст назарда қараймиз. Аслида ишларнинг

нинг оғири шулар зиммасида эмасми?! Биласанми, табақаланишнинг энг жирканч кўриниши бу! – дея асабий юра бошлади Қадам. Шерзод тегажоклик қилди.

– Ақлу ҳушингни олган ҳам шуларнинг бирида. Сендан яхши ҳимоячи чиқади.

Узоқдан Дилдора билан Анора кўринди. Улар бир кампир билан куйиб-пишиб, гаплашиб туришарди.

Дилдора билан Анора нималардир деб ёлворишарди. Қария уларнинг гапига кирмасдан ишида давом этарди. Офтобхон аянинг устида халат, бошида рўмол, кўлида узун супурги. Йўлак атрофларини супурмоқда.

Дилдора кўлини кўксига кўйиб, кампирга ёлворади:

– Холажон, бизлар бор-ку, ўзимиз супуриб кўямиз. Мазза қилиб чойингизни ичиб, ёнбошлаб ётмайсизми кексалик гаштини суриб?

– Ҳай болаларим-а, ҳуда-беҳудага ётавериш, ўтираверишдан нима фойда. Шу эрмак туфайли соғломман-ку, ахир, – дейди Офтобхон ая.

Анора гапга аралашди:

– Сиз супурасиз, домдагилар бизни текинтомоқлар, ишёқмаслар, деб ўйлашади.

Офтобхон ая қаддини ростлаб, иккисига қаради:

– Йўк, ундай дейишмайди. Ўрганиб қолишган. Келин бўлиб келганимдан буён супураман. Раҳматлик эрим кувонарди. Сув сепиб берарди. Шунақа, уйимизнинг олди тоза турса кувонаман. Домдагиларнинг раҳматини айтмайсизми. Парво қилманглар, қизларим. Ўрганиб қолганман. Эрмакда. Илти-

Қорақалтоғистондан келиб, ҳар йили шаҳримизда сайр қиладиган таниқли ижодкор Абдусодиқ Ҳайитбой тўлқинланиб шундай дейди: “Қадимий аجدодларимиз ақидаларига кўра қут-барака фақат покланган, тозаланган жойга тушади. Шунга кўра кўча ишчиларининг ҳам, ўз кўчасини тозалаётган қиз ва келинчақларнинг меҳнати охир-оқибатда яшаётган дунёмизга яратган иноятининг кўпроқ тушишига қаратилган.

мос қизларим, шу ишлардан айирманглар. Бу жойларни менга қолдиринглар.

– Холажон, етмишга кирдим дедингизми? – сўради Дилдора.

– Она қизим, етмиш саккизга кираман, насиб бўлса бир ойдан кейин. – Офтобхон ая ниманидир эслагандай юзига енгил табассум яйрайди. – Мен келин бўлиб келганимда, домда яна бешта янги келин бор экан. Тонг сахар тушиб йўлакларни супуриб, сув сепардик, ҳамма “рахмат, умрларингдан барака топинглар”, деб ўтишарди. Раҳматларидан роҳатланардик. Ҳаммамиз иноқ эдик. Ҳар тонгда беш келинчак кўришардик.

– Беш келин роса жой талашиб супурган бўлсангиз керак, – сўради Анора.

– Мен билан олгита эдик. Ҳар йили янги келинлар келарди домимизга. Домимиз ҳам каттада.

Дилдора Офтобхон аяга яқинроқ келди:


– Кейин сизларга иш қолмагандир?

– Қайдам, кейин-кейин келадиган келинлар узоғи билан беш-ўн кун кириш йўлакларини супуриб, сўнг йиғиштириб кўйишади. Яна ўзимиз. Бир томондан яхши. Бугун кеч қолдим. Саҳарлаб чиқардим. Ҳеч ким кўрмасди.

– Ҳар куни ким бизларни сийлаяпти десак, сиз экансиз-да? – кулди Анора.

– Ҳа, қизларим. Майли, сизларни ишдан қолдирмай. Чарчасаларинг, чанқасаларинг киринглар, – биринчи қаватдаги, ичкарисиди гуллар униб турган деразани кўрсатди. – Деразани таққиллатсаларинг бўлди. Ўзим ҳам кўчага қараб тураман. Дарров чиқаман.

– Ўзиз турасизми?



Самарқанд шаҳрини Амир Темур бобомиз 1370 йили Самарқандни ўз мамлакатининг пойтахти деб эълон қилади. Шу даврдан бошлаб, Самарқанднинг янги юксалиш палласи бошланади ва дунёга танилади.

– Ўғлим, келиним, уч набирам бор. Уйга сиғмай кетаман. Сўягим меҳнатда қотган. Майли, хайр қизларим. Офтобхон кимпир челаги билан супургисини кўтариб, уйи томон кетди.

– Хўп ажойиб ая эканларми? Ҳар куни ким супуриб қўяди, деб юргандик, мана билдик, Анора опа.

– Баъзи бир одамларнинг эшигини тагигача тозалаб берсанг ҳам раҳмат демайди. Худди бир жойи камайиб қолаётгандай.

– Нимасини айтасиз, Анора опа. Ҳар хили бор. Бизнинг кўчадаги аёллар дарвозаси олдини чиннидек қилиб қўяди. Баъзи бирлари супуриш нари турсин, кўшниси томонни ҳам ахлатга гўлдиради.

Анора узоқдан гул кўтариб келаётган Қадам томонга ишора қилиб кулди.

– Лекторинг кепти. Мен борай. Мендан уялиб ўтирмасин.

– Кетманг, ёнида шоири ҳам бор-ку.

Қадам билан шоир яқинлашади.

– Яхшимисиз? – дейди ерга қараганча Қадам.

– Салом, тонг фаришталари! – кулиб салом беради Шерзод.

– Салом, шоир ака. – Қадамга қарайди. Кўзи гулга тушади.

– Сиз тузукмисиз, Қадам ака?

Шерзод ўзини ортикча сизди:

– Сизларга хайр. Менга жавоб.

– Борақол. Шеърингни ёз, – дейди Қадам.

– Майли, қолақосинлар. Шеърларидан эшитардик.

Шерзод Қадамга ишора қилди:

– Қадамнинг ҳам шеърий дostonлари кўп. Ўқиб берсин. –

Кулади – Хайр ёшларга. – Кета туриб бирдан тўхтади. – Ёр юр-

Амир Темур тозаликка жуда эътибор берган. Кўча ишчиларига шунчалик эътибори баланд бўлганки, уларнинг ойлик маошларини энг юқори қилиб белгилаб, уйсизларга уйлар қурдириб беради. Саришталик пешволари бўлмиш фаррошлар меҳнати туфайли озода ва файзли шаҳарга оллоҳнинг марҳамати ёғилади, деб билади Соҳибқирон.

ган йўлнинг фарроши бўлсам кошки... Чустий домла шундай деган, – деб кулиб тез-тез юриб кетди.

Булар иккиси холироқ жойга бориб ўтиришади.

Арча ёнига қўйилган курсида Қадам билан Дилдора сухбатлашиб ўтиришибди. Қиз майда ўрилган сочларини ўйнайди. Қадам кўлидаги гулни Дилдорага узатди.

– Бу сизга.

Дилдора гулни олиб хидлайди:

– Раҳмат, овора бўбсиз-да, Қадам ака. Ажойиб шеър экан. “Ёр юрган йўлнинг фарроши бўлсам кошки”.

– Гулга гул ярашади. Сиз ўзингиз ҳам гулгунчага ўхшайсиз. Шаҳарнинг гўзали ва доносисиз. Чустий домла ҳам бекорга бу шеърни ёзмаган.

– Кўйинг-э, устимдан кулманг. – Жиддийлашади. – Мени эрмак қилгани келдингизми? Мен бир оддий оиланинг қизиман, битта супургини эгаси – кўча супурувчиман. Мени эрмак қилманг-а, хафа бўлсам, ёмон хафа бўламан! Лекин ўртоғингиз топган байт ёқди. Ҳамма фаррошларга айтиб бераман.

– Мен эрмак қилиш учун келаётганим йўқ. Сизни... сизни... Биласизми, шаҳарларнинг кўча супурувчилари ҳақида кўп шоир ва ёзувчилар, уларнинг меҳнатларини улуғлаб асарлар битишган. Ҳаммасидан ҳазрат Мир Алишер Навоий жуда ажойиб ўхшатиш қилганлар. Ғазалларда ўхшатишни қаранг: Гўё кундуз сиз фаррошлар каби ер юзини ўзининг заррин нурларидан супурги тўкиб, ҳар хил ифлослардан тозаласа, кечаси ой оппоқ нурларидан супурги тўкиб ер юзини тозалаб фаррошларга кўмак бераркан.

– Вой, бу кишининг гапларидан эриб кетаман-ов! – Гулни қайтариб йигитга тутқзади. – Бошқа гул кўтариб овора бўлманг. Менга гул-пул керак эмас. Раҳмдиллик қилаётган бўлсангиз, менга раҳм-шафқатингиз ҳам керак эмас. Қолаверса ўша кунги чақчақлашиб кетаётган қизларингизга обориб берақолинг, буларни. Сиз ўқиётган “Университет” кўчасини супураётган эдик. Қизлар билан чақчақлашиб, мени кўрмаганга олиб ўтиб кетдингиз. Шундай қилган одамнинг бу сўзларига қандай ишонаман. Ҳатто, саломлашишни ҳам ор билдингиз. Кўча супурувчи қиз танишингиз эканидан уялдингиз, Қадам

ака! Ҳаёт бошқа, ҳақиқат бошқа. Қўйинг, ўз тенгингизни топинг. Менга ҳам бирор бир инсон учрар. Мана, иккимиз анча-мунча ҳазил ўйин қилдик. Етар энди ўйинни тўхтатайлик. Биз фаррошларни улуғлайдиган Алишер Навоий бобомиздан келтирган иборалар учун раҳмат.

– Кўрмаганман, худо ҳаққи кўрмаганман! Сиз ўйлаган йигитлардан эмасман. – Қизнинг қўлидан ушлади. – Ишонинг, кўрмаганман.

Дилдора чакнаб турган нигоҳини Қадамга қадади:

– Уйланасизми?! Йўғ-е... Қўлимни қўйиб юборинг.

Қадам бир дақиқа жим хаёлан узоқ-узоқларга қараганча кўз ўнгида ўша кунги манзара тикланди.

Талабалар шаҳарчаси, ўқув даргоҳи бинолари, пиёдалар йўлакларини тўлдирган ёшлар. Қадам курсдошлари куршовида кетиб бормоқда. Шўх кизлар қулишган, уни табриклашган. У ўзида йўқ хурсанд. Туғилган кунни эди. Туғилган кунига қўшимча яна бир хушжабар: бокс бўйича университет чемпиони бўлди. Унинг қўлини кўтариб ғолиблигини эълон қилишлари билан курсдошларининг табриклари кўз ўнгида бир-бир ўтади.

Дилдора қўли билан Қадамни туртди:

– Ҳов йигит ухлаб қолдизми? Мен кетдим.

Қадам сергак тортди.

– Кетманг. Ўша кунни туғилган куним эди. Чемпион бўлган куним ҳам ўша кунга тўғри келди. Ҳақиқатдан хурсандчилигимдан маст эдим. Сизни кўрмоқчи эдим. Телефонингизни тополмадим.



Самарқанд шаҳрининг обод ва кўркам бўлиши учун ободонлаштириш хизматчилари тинимсиз изланишда. 2019 йилнинг февралда Туркия ишбилармон доиралари билан ҳамкорликда Самарқанд шаҳар ободонлаштириш бошқармаси ҳузурида гул кўчатларини етиштириш, порваришлаш, шаҳар кўчаларини кўкаламзорлаштириш бўйича “Аут сорсинг” хизмати учун Самарқанд шаҳар ободонлаштириш бошқармасига иссиқхоналар қуришга 2,8 гектар ер ажратилди.

– Умуман телефоним йўқ. Тутмайман. – Дилдора кулди. – Билганимда табрик телеграммаси юборардим, эссиз!

– Киноя қилманг, мен сизни ҳар куни кўргани келаман. Кўргим келади.

– Кўриб нима қиласиз?

– ...

– Расмимни берайми? Супурги кўтариб тушган суратим бор. – Мириқиб тиззасига уриб кулди. – Келиб овора бўлмасдан кўриб юраверасиз.

– Беринг, унда ўша суратингизни.

– Почтадан юбораман.

– Ўзимга бериб қўяқолинг.

– Ота-онангизга нима дейсиз? “Бу супурги кўтарган алвасти ким” деса, Қадам ака.

– Фариштам, менинг фариштам, дейман.

Дилдора ўрнидан турди, гулни бағрига босди. Йигитга яқин борди. Икки юзидан шарт этиб ўпади-ю, югуриб кетди. Қадам юзини ушлаганча ҳаяжондан қотиб қолди. Дилдора ўпгандан сўнг бир дунё ҳаяжон ва қувончдан қарахт эди. Нима қиларини билмай унинг орқасидан қараб турарди.

Дилдора билан Қадамни гаплашиб турганини кўшниси Зиёда кўриб қолди. Бу аёл ўзининг фитна-фасодлари билан машхур. Маҳалладигилар уни кўриши биланоқ қочишади. Пана-лаб ҳар жойдан қўлини соябон қилиб қарайди. Ўзича қарсақ чалади. Кулади. Телефон аппарати билан суратга ола бошлайди.

Самарқанд вилоят ҳокимияти раҳбарларининг ва Ўзбекистоннинг Туркиядаги элчихонаси ҳаракати билан вилоят делегацияси 2019 йилнинг 25 февралидан 3 мартигача ўзаро тажриба алмашиш мақсадида Анқара ва Истанбул шаҳарларининг иш тажрибалари билан танишиб қайтди. Делегация таркибида Самарқанд шаҳар Ободонлаштириш раҳбари ва ишчилари бор эди.

– Қўлга тушдинг, Зулайхохон. Ғоз юрган қадингни эгадиган бўлдим. – Дилдора билан гаплашиб турганини, киз уни ўпганини, ўпичдан сўнг Қадам котиб қолганини суратга олади. – Боқлайдиган бўлдим. Соямга салом берадиган бўлдинг. – Яна суратга олди. – Қизнинг югуришини яна битта олай. – Телефонини Дилдорага тўғирлайди. – Зўр бўлди, айниқса ўпишганини кўришса, йиқилишади.

Икки хонадон эшиги. Бири хашамдор, бири ўртача. Зиёда хашамдор эшик тепасидаги кўнғироқни босди. Кўнғироқ овози эшитилди. Сўнг “ҳозир, ким у?” деган Зулайхонинг овози.

– Мен, ҳалиги кўшнингиз, Зиёдахонман.

Қўлларини белига кўяди. Эшикдан Зулайҳо чиқиб келди. Елка қоқишиб кўришишади.

– Келинг, кўшни, келинг. Қани, ичкарига киринг. Бўсағада турманг.

– Бизга шу ер ҳам бўлаверади. Шу десангиз, сизни хабардор қилиб кўяй. Ён кўшним деб, чиқдим-да.

– Тўй бошладингизми? Муборак бўлсин, Зиёдахон!

– Тўйни сиз бошлайдиганга ўхшайсиз. Тасодифан бир кўчадан ўтиб кетаётсам, ўғлингиз Қадамжон бир кўча супураётган кизни кўлидан ушлаб ўтирган экан. Келин топганга ўхшайди. Ўзиям, келиннинг ёнида бир кулоч супургиси ҳам бор.

– Секинроқ, кўшнижон, секинроқ. Шарманда қилманг. Бировга ўхшатгандирсиз, – дейди Зулайҳо.

– Кўлини ушлаб турганини ўзим кўрдим. Менга ишонмангиз телефондаги суратларга ишонарсиз. Шпионлар тутадиган телефоним яхши суратга олади. Оволдим сизга керак бўлар, деб.

– Ҳали суратга оладиган телефонингиз ҳам борми?

Зиёда телефонини ишлатади. Олган суратини топади. Телефонини узатади:

– Мана кўринг. Мани ким, деб ўйловдиз?

Зулайҳо телефондаги суратни кўради. Суратдаги ўғли бир кизнинг кўлини ушлаб турганини кўриб, ҳолсиз ерга ўтириб қолди.

– Нима бўлди, кўшнижон?! – Жавоб йўқ. – “Капут”. Кетди шекилли у ёққа? – Атрофига аланглаб қарайди. – Тағин балога қолмай. Қочиш керак!

Зиёда тез-тез юриб, атрофга қараб-қараб, уйи томон кетди.

Каравотда Зулайҳо ҳолсиз ётибди. Атрофида Саидбек, қизи Сарвара ва Қадам парвона. Бири сув тутган, бирови елпиган. Саидбек бетоқат уёқдан бу ёққа юради. Юришдан тўхтаб Қадамга қарайди.

– Ўзи сен бола, нималар қилиб юрибсан-а?! Онангни инфаркт қилишингга сал қолибди-ку. Ўлиб қолса нима қилардинг? Келиб-келиб кўча супурадиган кизга ошиқ бўласанми? Лапашанг!

Зулайҳо ётган жойидан хиёл бошини кўтаради

– Онаси ҳам кўча супурувчи экан. Отаси ахлат ташийдиган машина ҳайдар экан.

– Бу гапни минг марта айтдинг, онаси. – Қадамга қаради. – Яна ўша қизни олдига борадиган бўлсанг, бу хонадонга оёғингни босма! Оқ қиламан! – деди Саидбек.

– Келмасдим, ўзиз кел, ўйлаб кўрамиз, дедиз, келдим. Улар ҳам инсон-ку. Мени танлаганим шу. Кетаман, кетишим керак бўлса.

Сарвара нигоҳини Қадамга қадайди:

– Ўйлаб гапиряпсанми, укажон. Тенгинг эмас-ку улар, тенгингни топ, кетаман, деб кўрkitмасдан.

– Опажон, топганим шу. Бир қарорга келиб бўлганман. Улар яхши одамлар. Ҳалол ишлаб, ҳалол ейишади.

Туркияда кўриб ўрганилган тажрибадан келиб чиқиб, Самарқанд шаҳар ҳудудидаги бўш ер майдонларида ландшафт дизайни асосида хиёбон шаклидаги манзарали эко ҳудудлар ташкил қилишга киришилган. Туркиядаги 5 ярим миллион аҳоли яшайдиган Анқара шаҳрида 465 та дам олиш, ҳордиқ чиқариш ва манзарали экобоғларни кўриб, Самарқандда ҳам шундай экобоғлар ташкил этишга киришилган.

Саидбекнинг жаҳли чиқади. Ўғлига якин боради.

– Нима, мени топганим ҳалол эмасми-а? – Бор йўқол, –
ошиқни кўрсатиб бақиради. – Йўқол!

– Кетаман, кетганим бўлсин!

Саидбек ҳамон асабий. Қадамга қўлларини пахса қилиб
турарди.

– Ҳой, бола “уже” ўртоқларим кулиб бошлашди: “Ўғлинг
зўр келин топибди. Супургиси икки метр эмиш”, деб. Зиёда
опангнинг эри ҳаммага дoston қилганга ўхшайди.

– Телефони билан суратга олган. Ҳаммага кўрсатиб юриб-
ди, – ҳолсизгина гапиради Зулайҳо.

– Гап тамом! Ё ўша супурувчи қизни дейсан, ё бизни, –
леди Саидбек.

Қадам ўрнидан туриб эшик томон юрди.

– Хайр, мен кетдим.

Зулайҳо ётган жойидан бошини кўтарди:

– Шошмай тур-чи! Намунча! – Саидбекка қарайди. – Ада-
си, айтгандим-ку бунингиз дуо еган, зўридан едиришган деб.
Ўқитиш керак.

– Билганингни қил! – Саидбек зарда билан бошқа хонага
чикиб кетади.

Зулайҳо ўрнидан туриб, Қадамнинг йўлини тўсди.

– Ҳеч қаяққа кетмайсан. – Йиғлайди. – Тириклайин сўй-
ма, болам, ўзим ярим жон бўлсам. Кетма?! – ҳолсиз ўтиради.
– Пешонам курсин, келиб-келиб топган қизингни қара. Ўтир.
Кетаман, деб ҳадеб кўркитавермасдан. Бизга вақт бер.

*Шаҳар ва қишлоқларда халқ ҳашари эълон қилинади. Бир кун-
лик ҳашар ҳақида тинимсиз кўрсатувлар, радиоэшиттиришлар,
газеталарда мақолалар эълон қилинади. Гўё бир кунлик ҳашарда
ҳаммаёқ саранжом-сариишта бўлгандек. Аммо ҳар куни эрталаб-
дан кечгача шаҳар озодлиги билан машғул кўча ишчиларининг
машаққатли меҳнати ҳақида жуда кам гапирармиз.*

Қадам ва отаси Саидбек хонтахта атрофида бир-бирига қарама-қарши ўтиришибди. Саидбек ғазаб отига минган.

– Ҳой, ақлини еган бола, шу тутган йўлинг тўғрими?!

– Тўғри, улар ҳам бизга ўхшаган Оллоҳнинг бандаси.

Саидбек ўрнидан туриб кетади, ўғлига яқин борди.

– Якка-ю ягона ўғлимсан, ҳеч бўлмаганда икки ўғил бўлганингизда ҳам майли эди; ақаси бўлмаса укасига ўзим хоҳлаган хонадондан келин оламан, деб овунардим...

– Нима, Дилдора сиз айтгандек келин бўлолмайдими?

Саидбек яна жойига келиб ўтирди:

– Ўғлим бундай бир ўйлаб кўр. Ман катта бир даргоҳнинг раҳбариман. Таниш-билишларнинг ҳаммаси казо-казо одамлар. Бирор йиғин ўтказсам, кўчамизга машиналар сиғмай кетади. Онангни ҳам, мени ҳам ҳурматимиз баланд.

– Буни менга, Дилдорага нима дахли бор?

– Ҳой бола, каллангни ишлат! “Келин кимлардан, ота-онаси нима иш қилади?” – десалар, нима дейман? Онаси фаррош, отаси ахлат машина ҳайдовчиси, дейманми? “Ўл-а топган қуданг кўча ишчиларими?” – деб устимиздан кулишади-ку!

– Улар ҳалол меҳнат қиладилар. Еган лукмалари сутдек ҳалол.

– Кўчалардан ахлат йиғиб кетадиган “ахлат” машина ҳайдайди. Кўрганлар: “ана Саидбек аканинг қудаси” деб, орқамиздан гапиради. Барибир кўча ишчиси, – бироз юмшайди. – Ўғлим, кўй, тўғри келмайди. Ўшаларни унут, ҳамма айтганларингни қиламан. Хоҳласанг машина олиб бераман. Мазза қилиб юрасан. Йигитликнинг гаштини сурмайсанми, нодон, менинг соямда. Ҳали бунақа қизлардан қанча-қанчаси учрайди. Ахир сен, кимсан, шаҳарнинг ўнта бойидан бирининг ўғлисан.

– Тўғри келган қиз билан кўнгил очарлик қилсам, йўлдан урсам, инсонлигим қайда қолади?! Қолаверса, уларнинг ҳам орзу-умидлари бор. Ҳиссиз, онгсиз мавжудот эмас. Мен қарғишга қолишни истамайман. Уйлансам – Дилдорага уйланаман, вассалом.

Хонага Қадамнинг онаси Зулайҳо кириб келади.

– Адаси, “давлениям” осмонга сакраяпти, дўхтир чакиринг! – Креслога ҳолсиз ўтиради. – Бошимга етади буниз!

– Қон босимингни ҳам тутуруғи қолмади. Дўхтирлар ҳам келавериб чарчади. Ундан кўра, ўғлинг билан бир яхшилаб гаплаш. Мен ҳовлига чиқиб келаман.

Зулайҳо бошини ушлаганча оҳ-воҳлаб гапиради:

– Бу билан гаплашиб бўлдим. Ким биледи, ҳалиги супурувчи киз дуо-пуо едирганми, ўшани деб туриб олган. Ҳеч бўлмаса, дўкончими, домланими кизи бўлса ҳам гўрга эди. Бу кишининг топганлари “фаррош”, яъни, кўча супурувчи, шаллаки одамлар экан. Зўр жойларга қуда-анда бўлиш орзуларим бор эди. Кудангиз кимлардан десалар, фалончи бой, фалончи директор, деб керилгим келарди. Энди нима деган одам бўлдим? Шарманда бўлдим, юриксиз бўлдим. – Тиззасига шапатаблаб уриб кўз ёшсиз йиғлайди.

Қадам ўрнидан туриб онаси томонга қарайди.

– Ҳой онажон! Мени ҳам эшитинг. Бу нима кўргулик. Бадавлат оиланинг ўғли оддий хонадон қизига уйланоlmаса. Оддий хонадон кизи дўкондор ёки олим оилага келин бўла олмаса! Мамлакатларни сим-тўсиқлар ажратди. Шаҳар билан қишлоқни маънавиятсизлик, калта фикрлар ажратди. Инсониятни, элдошу миллатдошларни, дўстларни “табақаланиш” деган жирканч ғоянинг қора пардаси ажратиб бормоқда. Э, Худо, наҳотки табақалар орасидаги чегаралар “рухсатнома”лар билан белгиланса. Бу не кўргулик бўлди! Ахир, ҳаммамиз “инсон” деган буюк номнинг вакилларимиз-ку! Бу табақаланиш, бу тўсиқлар ер юзини дўзахга айлантириб ташламасмикан, онажон?!

Зулайҳо ўғлининг гапларини эшитиб ҳайрон, тез-тез кўксига туфлайди.

Самарқандга келган сайёҳлар кишини лол қолдирадиган буюк ўтмишимиздан сўзлагувчи обидалар билан бирга ранго-ранг гулларга буркангдн, турли-туман дарахтларга тўла кўча ва хиёбонларни кўриб, шаҳарга маҳлиё бўлиб қолишади.

“Туф-туф. Астофируллох”. Бошини бармоғи билан кўрса-тиб: “томи кетиб қолмадимикин буни, адаси” дейди. Саидбек унинг ишорасига парво қилмайди. Ўтирган жойидан туриб қарсақ чалди.

– Баракалла, болам, баракалла, «файласуф» бўлиб кетиб-сан-ку. Билмаган эканмиз. – Унга яқин келади.

– Адажон, эҳтиёт бўлинг, эҳтиёт бўлинг, – кўлларини отаси томонга узатиб тўхтатади. – Девор бор, урилиб кетманг. Пешонангиз ғурра бўлмасин, бетон девор кургансиз, эсингиздами. Тўхтанг, бетон деворга урилиб кетманг.

Саидбек ҳайратдан қотиб лаблари кимирайди, овози чиқмайди, кўлларини чўзиб, худди деворни пайпаслаётгандай, муаллақ бўшлиқни сийпалаётгандек ҳаракат қилади. Хонанинг бир четида турган Зулайҳо ҳар хил қилиқлар қилаётган Саидбекка қараб бакириб юборади.

– Отаси! Саидбек ака!

Саидбек тўхтади.

– Онаси, эҳтиёт бўл, ўзингни деворга уриб олма, – дейди ўғлини мазах қилгандек. – Ўғлинг деворнинг нариги бетида қолибди. Бульдозер чақир, деворни бузамиз.

Зулайҳо бошини муштлайди:

– Мен эсимни йўқотганим етмагандай, сиз ҳам ҳалигидай, жинни-пинни бўлиб қолмадингизми ўзи? Бу ҳаммамизни ақлдан оздиради. Жин чалганга ўхшайди. Ўқитиш керак. Она додираб ҳар томонга юра бошлайди. Саидбек қарсақ чалганча хонадан чиқиб кетди.

Жумақулнинг хонадони. Девор тагида кароват. Жумақул билан хотини қўшни хонадонда бўлаётган воқеаларни куза-

Самарқанд шаҳри кўчалари машина ва тиёдалар ҳаракати бошланмасдан тонгги соат беш-олтида кўча ва хиёбонлар ювиб чиқилади. Шаҳарнинг тозалиги ва ободончилиги билан 1206 ишчи шуғулланади.

тиб, тик турганча, эшитиб турибди. Қўшиникида тортишув тинади. Хотини Холисхоннинг олдига келиб ўтирди.

– Пайти келди онаси. Отингни қамчилаб қол. Ўт, қайт, кизингни ишга сол.

– Қанийди! – дейди Холисхон. – Тўғри айтяпсиз, отаси. Бу қошона қизимизники бўлса, бизга ҳам яхши. Ҳийла ишлатиш керак, ҳийла.

– Ўчир. Биров эшитиб қолса нима бўлади? Секинроқ гапиринглар. Эшитдингми, “ўқитувчими, сотувчими бўлсаям гўрга эди” деяпти. Фойдалан. “Қизимизга совчи келиб, бошимизни қотириб ташлашяпти, яқинроққа узатмоқчиман”, дегин.

– Фаррошдан кўра, сизнинг кизингизни келин қиламан, деб қолса-я?! Зўр бўларди. Адаси, яна ким билади, пешонага ёзилгани бўлади дейишади.

Жумакул хотини билан айвонга ўтишади. Улар ёнма-ён ўтириб чой ичишади.

Ўргаларида кичик айланма стол.

– Ҳаммаси кизингизники бўларди. Пешонасига битилгани бўлади деб анграйиб ўтирмай, ҳаракат қил.

– Қизингиз парвойи палак. Бошқа қиз бўлганда бойнинг боласининг бошини айлантириб оларди.

– Ўргат, қўлдан чиқармаслик керак. Ўзини ишчан қилиб кўрсатсин. Кўчаларни супуриб-сидирсин!

– Айтдим, ўргатдим. Иш ёқмайди. Уйқу, телевизор, компьютер бўлса бўлгани. Ўзиз талтайтириб юбордиз, битта киз, деб.

Самарқанд шаҳар ободонлаштириш бошқармасининг фидойи раҳбари Бобур Алиев баъзи бир англашилмовчилик туфайли уч маротаба вазифасидан озод этилиб яна тикланган. Бу меҳнаткаш, софдил, тиниб-тинчимас инсон тиним нима-лигини билмайди. Борлигини Самарқанднинг гўзал ва озода бўлиб туришига бахшида қилган инсон. Кўча ишчилари уни раҳбар эмас, ўз огаларидек билади.

– Тушунтирмадингми, ана шу саройнинг бекаси бўласан, хизматкорларинг бўлади, деб. Қўлдан чиқармаслик керак. Бутун бойлигига эга бўлиш керак. Тушунтир.

– Айтмаган гапим қолмади. “Катта уйнинг ташвиши, иши ҳам катта бўлади”, дейди. “Куёв ўзимдан паст табақадан бўлса, сўзимни ўтказаман”, дейди. Сизга ўхшаб қайсар-да!

– Ҳаракат қил. Санобар лўлининг дуоси зўр, дейишади. Иккаласини иситадиган дуо қилиб берсин.

– Ўқитиб, иккаласига ҳам ичирдим, фойда бўлмади. Бекорга юз доллар пулим кетди.

– Иккаласи гаплашади-ку?

– Шунчалик қўшничилик юзасидан гаплашишар эмиш. Шунақа дейди кизингиз.

– Қўлдан чиқармаслик керак. Йўлини топ. Қизингни йўлга сол!

– Қадамнинг севгани борга ўхшайди. Фақат Дилдора деган қизни гапириб туради, дейди.

– Захрога ўргат, уни йўлга солсин. У киришса, ҳаммаси бўлади. Ҳамма гап кизингда қолган. Айтмадингми, ана шу саройга бека бўлсанг, ҳаётинг маликаларникидек бўлади, деб. Ҳамманинг хурматида бўласан. Қадам мулойимгина йигит, йўлингга солиб оласан, – демадингми.

– Айтмаган гапим қолмади. Ўзида унчалик хошиш йўк.

Жумакул деразадан қўшнини кўзни яшнатадиган ҳовлисини кўрсатади. Хотини ҳам қарайди.

– Шаҳарчада битта-да. Набираларим шу саройда мазза қилиб яйраб, ўсганига нима етсин. Кимсан Саидбек қудамиз. Сахийлиги тутиб кетиб, бизларга ҳам ўзиникидек бўлмаса-да, бундайроқ икки қаватли уй қуриб берармиди.

Холисхон эрига норози нигоҳда қаради:

– Уйимиз шу ҳолида ҳам кўчадаги зўр уйлардан бири. Кўпам ўзингизни ерга ураверманг. Шу ҳовлига ёпишиб олдида, отажониси. Кўйинг, ўзимизнинг пешонамизга берсин. Овқатга қараб келай.

– Қизингчи?

– Билмайман, компьютерда нимадир қилаётгандир.

– Ҳамма айб сенда, тикиш қилаётганингда ёнингга олмайсан, ўргат, одамларнинг ҳаваси келадиған қиз бўлсин, дейман. Ҳамма иш қўлидан келсин дейман, қулоқ солмайсан.

– Ўзида бўлмаса нима қилай?

– Захро, Захро, деяпман. Бу ёкқа кел, – деб бақирди Жумакул.

Эшикдан шим, йигитлар киядиган кўйлак кийиб олған Захро кириб келди.

– Нима дейсиз? Бақирингизни қаранг.

– Бор кўйлак кийиб чик!

– Кийганман-ку!

Жумакул хотинига ғазаб билан қаради.

– Бунингга айт, шу ҳам кўйлак бўлдимиз?

– Бор, сал узунроқ кўйлагингни кийиб чик.

– Мода шу. – Захро чиқиб кетишга шайланди. – Гапингиз бўлса гапиринг. Кореядаги ўртоғим билан гаплашаётгандим.

– Бу юришингга совчи келмайди.

– Келсин, деб турганим йўк.

Холисонни жаҳли чиқди:

– Ҳой, қиз, тилингга эрк берма. Отанг билан гаплашапсан-а?!

– Ўзларинг ҳам хит қилиб юбординглар-ку.

– Ҳой, қизим, нима деб гапираётганингни биласанми? Тонинг кетмаганми?

– Маники-ку жойида, ўзларингники кетмаганми? Битта гапга ёпишиб олдилар.

– Ўша йўк ўртоқларингни деб ўқишдан айрилиб қолма. Улар сенга эл бўлмайди. Ўзгар энди, ёш бола эмасан-ку. Қадамни бой берма! Шундай бойвачча, якка фарзандга қани эди

Қарши шаҳар ободонлаштириш бошқармасида 761 нафар ишчи хизмат қилади. 171,7 гектар майдон сутириладиган кўча, йўлак ва хиёбонлар, 337,6 кўкаламзорлаштирилган майдон, шундан 28,2 гектар гул кўчатлари, 62,8 дарахтзор ва дарахт экиладиган майдон.

турмушга чиқсанг. Ўрнингда бошқа қиз бўлганида қўлдан бой бермасди.

– Қандай ушлай, тўрт оғиз гапини ҳам қизганиди. Гаплашгиси келмайди. Ўзини олиб қочади. Тенгим чиқиб қолар.

Жумакул асабий қўл силтади.

– Билганингни қил!

Холисхон қизининг ёнига келиб ўтирди:

– Мен айтгандек қиз бўлсанг, атрофингда гирдикапалак бўларди. Лозим кий, узун кўйлак кий, бошингга рўмол ўра, уларнинг эшиги олдига ҳам сув сеп, супур. Ўзингни ҳаёли қиз қилиб кўрсат-чи, карамай қаёққа боради.

Захронинг қошлари чимирилди:

– Вой, анави кишини, кўча супурайми, кул бўлайми? Ҳечамда.

– Ҳеч бўлмаса онанг айтгандек кийиниб юр, – деди Жумакул. – Одамлардан уяляпман, гапиришяпти.

– Бўпти-да. Ўша лозим-кўйлагингизни кияман, бўлдими! – Эшикни қарсиллатиб, ёпиб чиқиб кетади.

– Ўзиям хоҳлайди. Лекин бу такасалтангни бу юриши кимга ёқарди. Майли, ҳар қалай кияман деди-ку! Ўзгарар. Бу хонадонга ким келин бўлишни хоҳламайди, ҳамма қизлар хоҳлайди. Аста-аста эгилади.

– Мен айтгандек кийинса, чиройлиқкина қизга айланади.

– Кийинтириб, қўшниларнинг олдидан олиб ўтиб тур. Кўп гапирмасин. Ўзини тортинчоқ қилиб кўрсатсин.

– Вой, ошим тагига олиб кетди-ёв, ҳиди келяпти.

Ҳовлиқиб чиқиб кетди.

Шаҳар ободонлаштириш бошқармаси раҳбарлигида шаҳарни кўкаламзорлаштириш, янада обод шаҳарга айлантириш учун тинимсиз изланишда. Кўчалар ва хиёбонларга яқин йиллар ичида 540 дона Қрим саснаси, 12 дона облонка арчаси, 10 дона шамшод кустарниги, 113 минг дона мавсумий гуллар, 900 дона палма дарахти, 860 дона япон сакураси экилган.

Саидбек кўрпа-тўшак қилиб ётиб олган. Зулайҳо исирик тугатиб, хонани айланади. «Инс-жинслар кетларинг, кетларинг» – дейди. Саидбек тутунга чидаёлмай кўли билан ҳайдайди.

– Бас қил, онаси, инс-жинсларинг ҳам бу тутунда ўлиб бўлди, бас қил! Мени ҳам инс-жинсларга қўшиб ўлдирмоқчимисан?!

– Кўрдингиз-ку, иккимизнинг ҳам эсдан оғишимизга оз қолди.

– Ўғлингни ҳазилига мен ҳам ҳазил қилгандим.

– Ҳазил қилмай кетинг-ей, ўтакамни ёрдингиз-ку! Ўғлимизнинг эси оғиб қолганга ўхшайди. Кўрсатиш керак.

– Ҳеч бало бўлмаган.

– Барибир қилиқлари, гаплари бошқача.

– Севги кўзини хиралаштирган. Ўзига келиб қолади. Сен ҳам, мен ҳам ўзимизни тортиб турсак, ўзи гапиради. Кечирим ҳам сўрайди. Озроқ вақт ўтсин.

– Ҳеч нима емади. Ўзи ўша қиз қанақа экан. Жа ёпишиб олибди. Юрагидан урган. Ёки яхшигина дуо ичирган ўзига қаратадиган қилиб.

– Бўлди дедим, инс-жинсларни асфаласофинга жўнатиб бўлдинг. Бор, ҳокандозни қўйиб кел, гап бор.

Зулайҳо эшикдан чиқиб кетиб, дарров қайтиб келди. Саидбекка яқин ўтирди. Тоқатсизланди.

– Айтинг, нима гап экан? Маҳтал қилманг.

– Ҳеч кимга билдирмай ўша Дилдорасини суриштир. Жа-а, бўлмағур бўлса, сенам ўғлингни ундан совутадиган дуо қилдир. Ўзи-ку ишонмайман. Майли бир кўр-чи.

Қаршига кираверишда Қашқадарё тўсилиб, аҳолининг дам олиш сайилгоҳига айлантирилган. Кундуз ва кечалар дам олувчилар билан гавжум. Дарёда қайиқларда сузиб, соҳил бўйларида ҳордиқ чиқарадиган мафтункор бу жой учун ҳам Ободонлаштириш ишчилари озодалиги учун масъул.

– Бир пайтлар отамни рози қиламиз, деб ўнтача дуо қилдирганмиз, фойдаси бўлмаган. Лекин биттаси фойда берган. Отам дуони ичиб эртаси кунни сизга бермайман, деган одам бирдан рози бўлганди.

– Билганингни қил, агар жа бўлмағур бўлса, ўша қиздан айнит. Балки ким билади...

– Севги деганлари ҳам чатоқда, одамни жинни қилиб қўяди. Сиз ҳам менга шундай бўлгансиз, адаси. Эсингиздами, эртадан кечгача йўлимни пойлардиз, – кулади Зулайҳо.

– Ўғлиз ҳам сиздай демокчимисан? Мен унга ўхшаб сурпурги кўтарганни эмас, обрў-эътиборли оиланинг қизини севганман. Фаррошнинг суратини столга қўйиб олиб, термулмаганман.

– Ҳа, айтгандай, эрталабдан бери келгани йўқ. Телефон қилсам, «бормайман», дейди. Қаерларда экан, – Зулайҳо йиғлаб, кўзига ёш олади.

Саидбек хонада биров юрди, чўнтагидан телефонни олиб, номер терди. Узун-узун чакирик. Сўнг “Алло” деган овоз.

– Ҳой, файласуф болам, аччиқ қилма. Кўчада санғиб юрмасдан тўғри уйга кел. Ҳа, анави қизнинг адресини ҳам олиб кел. Бир ўйлашиб кўрамиз.

Зулайҳо енгил кулиб эрига юзланади.

– Ўтган кунларингизни эсладингизми?

Саидбек оғир кунларини бир-бир эслар, хотиралар уни ўз домига тобора тортиб кетаётганди.

Кичкинагина ҳовли жой. Уйларнинг сомон сувоқлари девордан ажралиб тушган. Гўё ташландиқ бир жойга ўхшайди. Саиднинг ота-онаси, акаси – тўртовлон бир хонада ўтиришибди. Она чопон қавиш билан машғул, ота тинимсиз йўталади. Онаси ўрнидан туриб печканинг устидаги човгумдан қайноқ сувни пиёлага олиб отасига ичиради. Йўтал қолгандай бўлади. Саидбекнинг отаси Умид хотинига қаради. Йўталдан тўхтаб:

– Онаси, сени қийнаб қўйдим. Оллоҳ ҳам омонатини олиб олмайди.

Набира тикиш тика туриб, жавоб қилди.

– Адаси, яхши ният килинг, ҳали ҳеч нарса кўрмагандек бўлиб кетасиз. Эрталаб чопонни эгаси пулини олиб келса, қўй гўштидан шўрва қилиб бераман. Терлаб тузалиб кетасиз.

Умид хотини Набирага меҳр билан боқди:

– Яхшиям сендек меҳрибон аёлим бор. Сендан қарздорман. Ўн йилдан бери текин томоқ бўлиб ётдим. Рўзгорнинг оғир юки елкангга тушди. Бир оғиз дилимни оғритадиган гап айтмадинг. Хотиндан ёлчидим. Бир тасодиф бўлса-ю, оёққа туриб кетсам, кўлингни совуқ сувга урдирмасдим.

Набира уялган бўлди. Болаларига қарайди. Бири китоб ўқиб, бири расм чизиш билан овора. Мийиғида кулади.

– Ҳавас қилса қилгудек яшадик. Кинога ҳам, боққа ҳам, тоққа ҳам олиб бордингиз. Бировдан кам қилмадингиз. Ҳар доим ардоқладингиз. Бир оғиз сўкмабсизам. – Кулади. – Ҳамма ҳавас қиларди иккимизга. – Мафтункор табассум қилиб. Қўли билан Умиднинг бошини кўтариб, ёстиғини тўғрилаб қўяди. – Жа-а ажойиб эдингизда, ҳар куни гул кўтариб келардингиз. Тоҳиржон мактабга борадиган бўлганда ҳам гул берардингиз.

– Тузалсам яна гуллар олиб келардим... – оғир тин олади. Насиб қилармикан?... Овози бўғилиб кўзи ёшланади.

Саид рўмолча билан отасининг кўз ёшини артди.

– Отажон, катталар ҳам йиғлайдими?

Умид қўли билан Саидбекнинг бошини силайди:

– Кўз ёши катта-кичик, деб ўтирмайди. Катталар ҳаяжондан, қувончдан кўзига ёш олади. Чақалоқлар оч қолса, бирор жойи оғриганда йиғлайди, болам. Мен хурсандлигимдан, бу кўз ёшлар сизларнинг, онангнинг меҳрибонлигидан, болам. Онангга раҳмат, онангдан кўп қарздоран.

– Ота, мен катта бўлиб кўп пул топаман, кейин сизни дўхтирга кўрсатаман, тузатаман.

Тоҳир расм чизишдан тўхтаб отасига юзланади:

Дунё ва шаҳарларимиздаги озодалик, экоҳолатни сақлаб, аҳолининг соғлиғига путур етадиган ҳар хил ҳолатлардан асраётган айнан шу кўча ишчилари – фаришталардир...

– Мен расмларимни сотиб, чет элга юбориб, сизни давола-
таман.

Ота- она мамнун жилмайишади.

– Раҳмат, энди китобларингни ўқинглар. – деди Набира.

– Ҳозир таътил-ку! – оғринди Саид.

– Тузалгандай бўлдим, меҳрибон болаларим, раҳмат. Энди
чирокни ўчирсанглар, бироз дам олардим.

Тоҳир билан Саид ўз хоналарига чиқиб кетишди.

– Жойларинг тўшалган, яхши ухланглар, – деб қолди бола-
ларининг орқасидан.

Қоронғулик. Тоҳир билан Саид ухлаб қолишган. Ярим
тунда онасининг “Вой дод, отаси! Бизни ташлаб кетган йўлдо-
шим-ий. Худойим энди, бу ёруғ дунёда мен нима қиламан?!”
деган чинқириғи борлиқни ларзага солди.

Набира жудоликка чидолмай, ётиб қолди. Уй-рўзғор ишла-
ри ҳам Саид билан Тоҳирнинг елкасига тушди. Саид бозор
оралаб юрибди. Сотувчиларнинг ёнига боради.

– Амаки, ёрдамчи керакмасми?

– Йўқ.

Бошқасига учрашади.

– Амаки, ёрдамчи керакмасми?

Сотувчи унга беписанд қарайди:

– Вой, нўхотполвон-эй, сен ишлайсанми? Она сутинг оғ-
зингдан кетмаган-ку!

*Баъзи бир ривоятларга қараганда Қарши номи мўғул ис-
тилочиси Чингизхон томонидан берилган. Унгача Насаф,
Нахшаб номлари билан юритилган. Чингизхон томонидан
“Қарши” номининг берилишига сабаб қанча-қанча шаҳарлар-
ни қисқа бир муддатларда енган Чингизхон, Қаршига қилган
юршида қаттиқ қаршиликка учрайди ва Қарши номини бе-
ради, дейилса баъзи бир манбаларда Чингизхоннинг набираси
Кепекхон томонидан берилган дейилади.*

– Кулманг, онам касал, ишлашим керак.

Унинг гапини эшитиб турган картошка сотувчи аёл ёнига чақирди.

– Бу ёққа кел, болам. Менга ёрдамчи керак. – Ёнига чакириб олади-да, тошларни кўрсата бошлайди. Манави бир килоли, буниси икки кило. Бу каттаси, беш кило. Тарозининг посангиси барабар турса, тўғри тортилган бўлади.

– Озгина биламан, кинолардан ўрганганман. Электронний-сини янаям яхши биламан. Ёнимиздаги дўконда электрон тарози бор.

Шу пайт харидор келди. Аёл харидор билан савдолашади.

Харидор:

– Бир ярим мингдан бўлса берақолинг.

– Майли, ола қолинг, бир ярим мингдан. Картошкамизга гап йўқ. Қанча?

– Беш кило, – дейди харидор.

– Қани болам, анави картошкадан тортчи! – буюрди аёл.

Саид бир бошдан челаққа солди, сўнг тортди.

– Сал майда бўлмадимми? – Харидор картошкаларга қараб норозидай бўлди.

– Йўқ, амаки, қаранг! – картошкаларни олиб кўрсатади Саид.

– Зўрсан-ку, – дейди кулиб харидор. Сендан бозорчи чиқади.

Харидор махсулотни кўздан кечиради, маъқул келди шекилли, қопчасини очади. Саид картошкани бўшатиб, харидорга қарайди. Харидор пулни беради. Саид пулни олиб, аёлга узатиб улгурмай, харидор устига харидор келаверди. Саид тортиб, пулни аёлга узатаверди. Ёнидаги сотувчи болага қараб кўяди.

– Болангизнинг оёғи енгил келди, – дейди у. – Харидорингиз ҳам кўп бўлди. Чаққонгина, бўладиган бола экан.

– Оллоҳ ҳамманинг ризқини ўзи беради, – дейди аёл Саидга қараб. – Эртага ҳам келасанми?

– Ҳар куни келаман, кел десангиз.

– Ўқишинг-чи?

– Ҳозир каникулдаман. Каникул тугаса тушдан кейин келаман.

– Бўлади. Яна ўқишдан айнитибсиз, деган маломатга қолмай. Ўзи ҳали исмингни ҳам сўрамабман-ку!

– Саидман.

Аёл қопларнинг устини ёпди. Очик қопдан бир елим халтачада картошка солиб, Саидга тутқазди. Бир даста пулдан бироз олди. – Мана, ўн минг пул, болам, картошкаларни уйингга олиб бор. Яна уёқ-буёққа бориб юрма.

– Тўғри уйимга бораман. Картошкани онамга қайнатиб бераман.

– Нега қайнатиб берасан?

– Ёғ тугаган. Қўлидаги пулини кўрсатади. – Бунга дори оламан, хола.

Аёл бироз ўйланиб турадида, яна пул беради.

– Мана, яна ўн минг. Нон билан ёғ олиб бор. Картошкани ковориб еларинг.

– Эртага шундай ишлаб бераман. Қарзимни узаман. Холажон, раҳмат.

– Борақол, – деди аёл Саиднинг елкасига уриб.

Саид хурсандлигидан оламга сиғмай, тез-тез юриб, бозордан чиқиб кетди.

Саид уйқудан турган кишидай кўзларини укалайди, рў-молчасини олиб, пешонасини артади:

– Ҳа, нимасини айтасан, хотин, у кунларни эслаб туриш керак экан. Сотувчилик ҳам, ҳаммоллик ҳам қилдим, машиналаб юк ҳам туширдим. “Мардикор” деган ном ҳам олдим. Ҳаммасига чидаганман. Ўша холани менга Худо йўлиқтирди. Шу хола туфайли Саидбойга айландим. Онам билан опа-сингил бўлиб қолишди. Отангни ҳам ўша хола кўндирганди.

– Онангиз билан хола бир-бирларига жуда боғланиб қолишганди. Тонготар суҳбатлар қилишарди. Хола ўтиш қилгач, онангиз бу дунёга сиғмай қолгандилар, бир ой ўтмай ўтиш қилгандилар.

Саидбек хўрсинди:

– Нимасини айтасан, хотин. У кишининг исmlарини ҳам сўрамаганман. Ҳамма “хола” дерди. Хола бўлиб ўтиб кетди-

лар. Бундай одамлар дунёга бир келади. Орзигулхоннинг ҳам қаерларидир холага ўхшаб кетади. Майли, болалар бахтли бўлишса, бўлгани.

Қуёш ҳали ўзининг ёрқин юзини кўрсатмаган. Тонг оқариб боради. Кўчаларда одамлар сийрак. Кўча ишчилари аллақачон ишга тушиб кетган.

Йўлақларни супуриб кўча ва ариқларга ташлаб кетилган елим сув идишлари, селофан тўла ахлат халталарни йиғиштириб, ҳар-ҳар жойга уйиб қўйишади. Улар кўчаларга фаришта-лар каби тарқаб, шаҳар орасталигини сақлашади.

Арча дарахтининг ёнида, холироқ жойда Қадам ва Дилдора ёнма-ён ўтириб олган. Дилдоранинг ёнида супурги. Қиз ерга нигоҳини қадаганча унинг гапларини эшитиб ўтирибди.

– Эртагаёқ совчи кўяман, керак бўлса... Ота-оналаримиз розилик берса, бермаса сизга уйланаман. Қарорим қатъий.

Дилдора кулади:

– Совчи?! Тонг саҳарлаб келиб совчи, дейсиз. Совчилар тушингизга кирганми? Ота-онангиз мени фаррош бўлиб ишлашимни билишса, инфаркт бўлиб қолишади-ку. Қўйинг, жа-а кўнглимни кўтариб юбордингиз.

Шу пайт улардан сал нарида “Шурик пиён” лақабли ишчи пайдо бўлади ва гандираклаб келиб, қўлидаги белкурагини бир четга улоқтирди, арчанинг тагини титкилаб, бир бутилкани топиб олди, уни меҳр билан ўпиб қўяди. Шурик пиённинг нигоҳи Қадам билан Дилдорга тушди, уларга қараб:

– Нечево. Сухбатни давом эттираверинглар, халакит бермайман. Дўст бўлсанг, ёнимга кел, – деб ўзидан сал нарида дарахт тагини юмшатаётган кишига қараб бақирди. – У киши атрофга олазарак қараб олди-да унинг ёнига чопди.

– Ҳа, Шурик, мен ҳамиша ёнингдаман, дўстим!..

Қадам Дилдорага қараб ўрнидан туради.

– Юринг, кетамиз. Эртага совчилар боришади. Уйизгача кузатиб бораман. Шу баҳожа манзилингизни ҳам билиб олам. Эртага совчилар овора бўлишмасин-да.

– Йўғ-е, ҳали-ҳали кимлигимни билмайдилар-ку. Қолаверса ҳали ишимни тугатганим йўқ.

Қадам кулади:

– Аллақачон билиб бўлишган. Аввалига йиғи-сиғи, дўқ-пўписа қилишди.

Шу пайт Дилдоранинг қаршисидан супуриб келаётган Анора яқинлашиб саломлашади. Дилдорага жилмайиб қарайди:

– Бора қол, ўзим тугатиб қўяман.

Дилдора ноилож супургисини ўраб, арча тагига қолдириб, Қадам билан кетди. Анора уларга узоқ тикилиб қолди.

Хиёбон. Кўк халат кийган ишчилар. Эркаклар дарахтларга шакл беради. Аёллар бирор жойда қоғозми, чўпми, баргми кўрсалар, қўлларидаги қопга олиб солишади. Чет эллик сайёҳлар кийимидаги кишиларнинг: “жуда гўзал, жуда озода шаҳар экан”, дейишлари эшитилиб туради. Фаррошлар, сувчилар, боғбонлар – ҳар ким ўз иши билан банд. Шўхроқ болалар ирғитган музқаймоқ қоғозими, йўловчилар томонидан қолдирилган ҳар қандай ташланган нарсани дарҳол териб олишади. Улар фақат иш билан банд. Ишчилар ахлат, бакалашка, сигарет қолдиғини ташлаб кетаётганларга бир қараб қўйиб, жимгина эътироз билдиришади. Бошларини маъноли кимирлатишади. На илож, озода шаҳар уларга керак гўё. Чикинди йиғиндиларини тележкага обориб тўкишади. Анора нафас ростлаш учун бир пас дам олиб турганда, яхшигина кийинган бир киши сигарета қутисини тозаланган жойга ирғитди. Анора шарт туриб, ғижимланган сигарета қутисини олди.

– Ҳой мулла ака, шошманг. Нарсангиз тушиб қолди, – дея ердаги сигарета қутисини олиб бориб унинг чўнтагига солади. Киши ҳайрон. Ҳам жаҳли чиқади.

– Ҳой тарбиясиз. Кастюмимни расво қилдинг-ку!

– Ҳой тарбия кўрган, ахлатингни тўғри келган жойга ташлаб кетаверсанми?

– Аҳмоқ! – дедию нимадандир кўркқандек тез юриб кетди.

Дилдора Аноранинг ёнига келди:

– Бопладингиз.

Иккиси кулишди. Анора Дилдорага караб сирли табассум қилади.

– Кечаги учрашув қандай бўлди? Гаплари ростга ўхшайди. Сenga боғланиб қолган. Балки шу бахтингдир. Учириб юборма.

Дилдора хаёлчан оғир тин олади, Анорага қарайди:

– Билмасам, совчи юборадиган бўлди. “Сизни дейман”, дейди. Лекин у обрўли хонадон боласи. Якка ўғил. Уйидагилари розилик беришига кўзим етмайди. Яна ким билади. Вақт ҳакам.

Жумакул нарвонда турганча токка ишлов бериб чарчаган кишидай нарвондан тушиб Саидбекнинг ёнига келиб ўтирди. Елкасидаги қийикчани олиб юзини артади.

Саидбек чой қуйиб узатади. Дастурхонда нон, қанд, мураббо, тарелкада колбаса, вазада олма. Хуллас дастурхон тўкин.

– Қани, Жумакул, олинг, тамадди қилиб олинг.

– Раҳмат. Қизим қўярда қўймай лағмон ичирганди. Қўли ширинда.

– Ҳа, қизингиз пиширган овқатларга гап йўқ. Чиқариб туради. Лағмонми, мантими, чучварами, сомсами, боплайди. Барака топкур. Янгангизга минг марта айтдим. Шу Захро кизимизни чақириб ўтиб бир манти қилинглар, деб. Қўйинг, уни ҳам иши кўп: ўқиш, уй ишлари, қолаверса, уялади, дейди янгангиз.

– Тўғри, уялади, сал тортинчок, киз бола-да.

– Бахтли бўлсин. Яхши киз! Кийиниши сал оврўпача-ю, фаросати зўр. Кўриши билан тўхтаб салом беради. Қўли кўк-сида.

– Тинмайди. Ўқиши, уй юмушлари – онасига иш қилгани қўймайди, – деди мағрурланиб Жумакул.

– Келин бўлиб борган хонадонини обод қилади.

– Илоҳим, айтганингиз келсин. Узоққа бермаймиз. Яқин ўртадан чиқса кўрамиз, қуда, э-э қўшни.

Кулишади.

Сокин кеча. Саидбек алахсираганча туш кўриб ухлаб ётибди.

Ним коронғу хона, кўрпачада Саидбек ўтирибди. Бир четда оппоқ кийинган раҳматли онаси пайдо бўлади. Ўғлига тескари қараб ўтириб олади.

“Она, онажон”, деб юборади. Онасига якин боради. “Унутдингми ўтмишингни?” – дейди она.

– Она, бу сизми? Сиз ахир... Мени яхши кўрардингиз-ку, нима бўлди?! Нега мендан юз ўтириб ўтирибсиз?..

– Сен бола туфайли гўримда ҳам тинч ётолмадим. Тинчимни йўқотдинг. Нега неварамни қийнайсан! Ўзинг ким эдинг. Ўтмишингни унутдингми?! Ўзинг ҳам бошида нима ишлар қилмагансан-а!.

– Эсимда. Мен яшаш учун курашганман. Бировларнинг ишини ҳам қилдим. Ёлланма ишчи ҳам, “мардикор” ҳам бўлдим. Мардикор, деган ном ҳам олганман. Лекин қинғир иш қилмаганман, она.

– Кўрдингми, бир пайтлар сен ҳалол одам бўлгансан. Ўғлинг ҳам сенга ўхшаб ҳалол йигит. Ўзига ўхшаган ҳалол бир кизни ёқтирибди. У киз эмас, фариштанинг ўзи. У киз савоб ишларни қилиб юради. Шу киз ўғлингнинг бахти ҳам, тахти ҳам, фариштаси ҳам.

– Нима қил, дейсиз, она?

– Руҳимни шод қиламан, десанг ўша кизни келин қил!

Руҳ аста-секин қоронғилик қаърига сингиб, кўздан ғойиб бўлади.

Саидбек чўчиб уйғониб кетди. Чўмилган кишидек ёнидаги сочиқ билан ҳаммаёғини артади. Тавба, тавба, деб кўяди. Онанинг руҳи безовта бўлибди.

– Она, онажон! Сиз айтгандай бўлади. Албатта, ўша кўча супурувчи кизни келин қиламан... Қадам, ҳой Қадам. Бу ёққа кел. Кел, ҳозирок кел!

Қадам кириб келди, ҳайратда. Ҳали тонг отмасдан отаси туриб олган. Саидбекнинг бутун вужуди титрарди.

– Ота сизга нима бўлди? Ким билан гаплашяпсиз? Мен келдим. Тинчликми?

– Йўқ. Тинчлик эмас. Момонг билан гаплашдим. Момонгга сўз бердим. Ўша қизни келин қиламиз. Онангни бугуноқ совчиликка юбораман. Чақир онангни, йўқ тўхта, ўзим кираман олдига.

Зулайхонинг олдига киради. Зулайҳо чала уйкуда. Гоҳ кўзини очади, гоҳ юмиб олиб ухламоқчи бўлади. Безовта. Ўтириб хаёл сурарди. Эрини кўриб ўрнидан туради:

– Тинчликми, калла-ю саҳарлаб хонамга бостириб кирдингиз?

– Тинчлик эмас. Тушимга онам кирди. Ўша фаррош қизни келин қил. Набирамни қийнама, дедилар. Сўз бердим. Бугуноқ ўша қизниқига қулчиликка бор. Гап тамом.

Зулайҳо эрининг гапидан анқайиб қолди. Кейин:

– Дадаси... – дейди бемажол.

– Бас, совчиликка борасизлар. Гап тамом, – дейди-да чикиб кетади.

Зулайҳо нима қилишни, нима дейишни билмай қотиб қолди.

Дилдора билан кўча ишчилари ишлаб турган пайт. Кимдир дарахтларга ишлов беради. Кимдир уюм ахлатларни одеялсимон қошларга солиб, тележкага ортади. Кимдир гулзорга ишлов беради. Уларга ўнта қиз яқин келди. Уларнинг бири Захро. Роса бўянган ҳолда. Захро бурни билан оғзини рўмолча билан беркитиб олган. Захро ишлаётганларнинг қаршисида тўхтади.

– Дилдорни қаердан топсам бўлади?

Дилдора ишдан тўхтаб унга қарайди:

– Қаршингиздаман, яхши қиз.

– “Отделний” гаплашмоқчиман. Четрокқа чиқайлик.

– Шу ерда ҳам гаплашавераман.

Захро ноилож шу жойда сўзлай бошлайди.

– Биласизми, Қадам ака иккимиз бирга ўсганмиз. Ака-сингилдекмиз. Уни тинч қўйинг. У сизнинг, сиз унинг тенги эмас-сиз.

– Йўғ-е, менга айтмаган экан. Соатингизга қаранг-чи, неча бўпти?

– Ўн икки, бешта кам, нимаиди? – деди ҳайрон бўлиб Захро.

– Шу гапларингизни ҳозир ўзига айтасиз. Тасодифни қаранг-а, ўн иккида келмоқчи эдилар. – Кулади. – Ана, ўзлари ҳам келиб қолдилар.

Қўлида бир даста гул кўтариб олган Қадамни кўрсатади. Қадам унга яқинлашиб гулни узатади. Дилдора олмайди.

Қадам Захрога қаради.

– Сиз нима қилиб юрибсиз бу ерда? – ҳайрон бўлиб сўради. Захро каловланади.

– Ўзим шунчаки, шу ердан ўтиб кетаётиб Дилдорахон билан танишгим келиб қолди.

Дилдора кулиб Қадамга юзланди.

– Ака-сингилдек ўсган экансиз. Бир оғиз синглингиздан рухсат олмасиз. Мен сизнинг тенгингиз эмас эканман. Балки ўзлари тенгингиздир.

Дилдора шарт бурилиб кетмоқчи бўлади. Қадам билагидан ушлаб, тўхтатди.

– Сиз ҳам эшитинг! – Захрога ғазаб билан қарайди. – Қачондан бери менга жонкуяр бўлиб қолдинг? Қанақасига ака-сингилмиз?! Бирор марта гаплашмаганман-ку. Нега бузғунчилик қиласан? Айт, ёлғонлигини! Сен билан бор-йўғи қўшни бўл-сак. Дилдорадан кечирим сўра.

– Онам “ўзингга қарат” дегандилар. Шунга... Мени кечиринглар...

– Бунча содда бўлмасанг. Ўша онангга айт, Қадамни суйган кизи бор, дегин. Ўлса ҳам ундан айрилмас экан, дегин. Хўпми, сингилжон, бошқа бундай иш қилма.

Захро биров қувгандек ўртоқлари билан тез-тез юриб кетиб қолди.

– Ўзи ёмон қиз эмас. Ростини айтди-қўйди. Ота-онасининг иши бу.

Қадам билан Дилдора уларнинг орқасидан кулганча қараб қолишади.

Ораста ховли. Қадамнинг ота-онаси чой ичиб ўтиришибди. Саидбек Зулайҳони шоширади:

– Онаси, бўл, кийин. Ўша қизни кига совчиликка борасан. Гап тамом. Бўл тезроқ.

– Дод! Бу боланинг дастидан дод! – Икки кўли бошида, ўр-нидан туради. – Энди ким деган одам бўламан? Сиз ҳам рози бўлди-ми? Келиб-келиб кўча супурувчиларга куда бўла-ми?! Келининг ким деса, қудангиз ким деса, кўча супурувчи, дейманми? Вой дод! Бу кунлар ҳам бормиди? – Саидбекка қарайди: – Бу ергина ютқур болани қайтаринг! Не-не орзуларим бор эди. Тўрабойними, Наби начальнийними, Туроб домлани-ми кизини кўзлаб юрувдим-а!

Яна уввос солиб йиғлайди.

– Бўлди қиле! Қўни-қўшнилар Зулайҳо опа жинни-пинни бўлиб қолибди, дейишмасин тағин. Ўзингни қўлга ол, балки яхши оиладир. Бир пайтлари сенинг отанг ҳам мени “ўқимаган, мардикор, бир сантехник-да” деганди, мана, ҳозир мен отангнинг энг суйган куёвман. Кимсан Саидбек бойман. Китобда ўқимаганмисан, ҳатто шаҳзода лўли қизга уйланган. Ҳамма худонинг бандаси. Ўзи китоб ўқимайсан-да, билмайсан. Ҳа, айтганча. Онам тушимга кирди... Қадамнинг айтганини қилинглар, деди. Бу бекорга бўлмаса керак.

– Елкамнинг чуқури кўрсин. Бормайман.

– Бормасанг бўлмайди. Онамнинг рухи безовта бўлади. Сўз бердим. Борасан онаси, борасан! Онам тушимга кириб: “шу қизни келин қил”, деди. Бекорга эмас. Арвоҳлар биз билмаган нарсаларни билишади. Онам ўша фаррошларни ҳалол одам эканликларини билган.

– Ўшалар бор, кўчаларимиз файзли. Маҳаллалар обод, – дейди китоб ўқиб турган Қадам гапга аралашиб.

Зулайҳо ўрнидан туради:

– Вой, воей! Профессор бўлиб кет-эй! Кўча супурувчилари бўлмаса, мусурга ботиб кетарканмиз, гапини қаранг буни! Ўзим тозалаб оламан, кўчамни. Бормайман, борсам Наби начальнийни кига ёки Туроб домлани кига бораман... Қолаверса, кўшнида ҳам қиз бор.

– Уларга ўзиз уйланинг, менга керакмас! – деди Қадам қвоғини солиб. – Фақат Дилдорага уйланаман. Бўлмаса умуми уйланмай ўтаман.

Саидбек ўткир нигоҳини хотинига қадайдди.

– Қўй болани қийнама! Бор, қизинг билан бориб кел, га тамом, вассалом! Ўзи аранг уйга қайтардик. Яна кетиб кетса нима қиласан? – Саидбек, боладимми дегандек ўғли мийиғида кулиб қараб қўйди.

– Раҳмат ота, – деди Қадам отасининг кулоғига.

– Энди, фалончи кўча супурувчини уйи, қаердасан д қидирарканман-да. – Йиғлайди. – Пешонам курсин-а! Ора ларим нима бўлди. Баланд, баланд жойларга куда бўлмоқ эдим. – Тиззаларига уриб баттар авжланади. – Бир кулоч с пургисини кўтариб келган аёлни кўрсатиб, кўриб қўйинг, (менинг кудажоним дейманми?! “Мусуровоз” машинасини м ниб келган одамни, келинимнинг отаси дейманми?! Кўшничи мусор қиларни олиб чиқинглар, кудама келди, деб бақирама ми, отаси?!

Саидбек хотинини кулимсираб кузатиб туради.

– Ҳа, кулинг! Ҳали кўраман бу машмашанинг охири ни билан тугаркин.

– Ҳар бир банданинг пешонасига берсин хотин, ҳаммам Оллоҳнинг бандасимиз. Олдин келинни олиб келайлик, кей бир ҳисоб бўлар. Бунинг устига уларни яхши билмайсан-ку Ота-онанг мени шундай обрўли одам бўлишимни билмай қа чалар йиғлашганини бир эслаб кўр. Йигитнинг пешонасига бе син, хотин. Кўпам ваҳима қилаверма-да, тайёргарлигингни кў

Кўча манзараси, атрофда сигарета қолдиқлари, елим қо чаларда ташлаб кетилган чиқиндилар, музқаймоқ қоғозлар тартибсиз сочилиб ётган оқ-қора салафан халталар, қову тарвуз пўчоқлари, уюб-уюб қўйилган барг-хазонлар. Кўча с пураётган аёллар, йўлак атрофини тозалаётган, кетмон, белк рак билан ишлаётган аёл-эркаклар. Дилдора билан Анора ҳа шулар орасида. Пиёдалар йўлагини супиришмоқда. Кўча машиналар, одамлар қатнови.

Анора ишлашдан тўхтаб Дилдорага қарайди:

– Дилдора бугун совчилар келади дегандинг. Эртароқ бориб ювиниб-тараниб олмайсанми?

– Ишни тугатай.

– Ўзим тугатиб қўяман. – Дилдоранинг қўлидан супургини олиб ерга қўяди. – Сени кўриб оғизлари очилиб қолсин, ўша оксуяк совчиларни.

Дилдора хайрлашиб кетади.

Зулайҳо билан кизи Сарвара кидириб-кидириб Дилдораларнинг уйини топишди.

Эшиқдан Сарвара мўралайди. Саранжон, саришга хонадон.

– Она, шинамгина ҳовли экан. Адашиб келмадикми? – Зулайҳо қўлидаги қоғозни кўрсатади. Шу пайт эшик олдига одми кийинган, истараси иссиқ жувон чиқади. Бу – Орзигул.

– Келинглар, келинглар. – Елкаларига уриб кўришишади.

– Адашдик шекилли. Биз Орзигул опанинг уйини излаб юрган эдик.

– Тўғри келибсизлар. Қани ичкарига марҳамат.

Она-бола бир-бирларига қараб олиб, ичкарига киришади, уй бекаси уларни тузалган дастурхон атрофига ўтказди. Атроф озода, чиройли кўрпачалар, оппоқ дастурхон, вазада мевалар, оппоқ салфеткалар, пахта гулли чинни пиёлалар. Учаласи юмшоқ кўрпачаларга ўтириб, фотиҳа қилишди.

Сарвара хонадон эгасидан иккиланиб, ҳали ишонмасдан сўрайди:

– Орзигул опа билан қизлари қанилар? Мабодо хизматчиларингиз эмасми улар?

Орзигул мийиғида чиройли табассум қилди:

– Ўша сиз сўраган Орзигул опа мен бўламан. Дилдоранинг онасиман. – Дераза томонга қараб овоз беради: – Қизим, чой дамлаб кел.

Эшик очилиб сочлари майда ўрилган, икки ўрим сочини олдига ташлаб олган, атлас кўйлак кийган кўҳликкина қиз чиқиб келди. Патнисда чой, шон олиб келиб, қўлини кўксига қўйиб, салом берди-да, ўзбекона илтифот билан чой қуйиб

узатди. Сарвара билан Зулайхо худди туш кўраётгандай хангу манг. Бир-бирларига маъноли қарашлар қилиб қўйишади.

– Кўчада... ҳалиги... нимаиди... – хаяжондан тили тугилиб гапиради-Зулайхо.

Орзигул кулимсираб эшита туриб жавоб қилади:

– Ҳа, ўша кўча супурувчиларимиз. Нима, уйда ҳам чанг-тўзонда яшашади, деб ўйладингизларми? Қир-чирларига ботиб яшайди, деб ўйлайсизми? Биз ҳам сизлардай инсонмиз. Орзуларимиз бир олам...

– Опажон! Ёмон хаёлларга борганимиз учун бизларни кечиринг! – дейди Сарвара охистагина.

Орзигул вазмин қиёфага киради:

– Истамай келгансизлар, чунки биз сизнинг тенгингиз эмасмиз. Қадамжонга айтинг, қизимиз ҳам рози эмас. Қизимиз шўх, ҳазил-мутойиба қилиб гаплашган. Шўхлиги учун калака қилишни яхши кўради, – деди Орзигул.

Зулайхо шошиб қолганди, ўзига келади.

– Қўйинг, бизлардан хафа бўлманг. Тўғрисини айтсам, сизни кига келгунча ўғлимни гўрдан олиб – гўрга солиб келгандим. Сизларни кўриб, янги бир оламга кириб қолгандай бўлдим. Дилдорахон ҳам, сиз ҳам бизга ёқдингиз.

– Кейин пушаймон қиласиз. Биз юқори табақадаги одамлар эмасмиз. Сизларнинг тенгингиз бўлолмаймиз. Бўлмайди! – Дераза томонга қараб, қизини чақиради. Қизи чиқиб келди. – Ўзинг айт дилингдагини. Эртага бизлардан ўпкалаб юрма.

– Ҳозиргина Қадам акага телефонда айтдим. Менинг тенгим кўчадаги супурувчими, боғбонми, ҳайдовчими... Иккимиз бир-биримизга тўғри келмаймиз, дедим. Тўғриси, ҳали у кишига кўнгил қўйганимча йўқ. Ҳазиллашган эдим – кўлини кўксига қўяди – Кечиринглар.

Кўзидаги ёшини беркитиб, шарт бурилиб ичкарига кириб кетади. Зулайхо билан қизи Сарвара ноилож қолишди. Зулайхо Орзигулга:

– Яна бир ўйлаб кўринглар. Биз бир тўхтамга келдик. Энди сизлар йўқ деманглар. Икки ёшга бахт тилайлик. Яна келамиз.

– Майли озроқ вақт ўтсин. Биз ҳам, ёшлар ҳам ўйлаб кўришсин.

Кўчагача кузатиб чиқиб, хайрлашишади.

Хиёбон. Қадам билан Дилдора. Иккаласининг ҳам чехрасида нотабий бир ҳолат. Қадам Дилдорага қарайди.

– Нега бирдан айниб қолдингиз? Совчилар боради, дедим. Индамадингиз.

– Ўйлаб кўрдим, кўп ўйладим. Бир-биримизга ҳечам тўғри келмас эканмиз. Дўстларингиз, қавму қариндошларингиз казо-казо одамлар.

– Нима бўпти?

– Менга ҳам, сизга ҳам қийин бўлади. Ўртоқларингиз кулади. Сиз бирига, иккисига чидарсиз, лекин барибир бу дашномлардан чарчайсиз. Мени, деб яқинларингиздан узоқлашасиз. Бир кун келиб “тўғри келмадик, бора қол, мени кечир” дейсизу, жавобимни берасиз, Қадам ака.

– Ҳечам ундай бўлмайди. Қолаверса ҳаммамиз ҳам якка-ю ягона Оллоҳнинг бандасимиз.

– Иккимиз икки олам одамларимиз. Тўғри келмаймиз. Тенгингизни топинг. Мени кечиринг, хайр. Илтимос, мени бошқа безовта қилманг!

Дилдора югурганча хиёбон оралаб кетади. Қадам унинг орқасидан “тўхтанг, Дилдора” деганча кўлидаги гули билан хомуш ўтириб қолди.

Жумакул билан Холисхон ойналари очик айвонда суҳбатлашиб ўтиришибди. Холисхон эрмакка тўн тикиб ўтирибди.

– Эшитдингми, ҳалиги супурувчи қизниқига совчи кўйишибди. Улар ноз килишибди. Тенгимиз эмассизлар, бўлмайди, деб қайтариб юборишибди.

– Ўзлари кўча ишчилари бўлиб, рози бўлишмабтими? Бу бизнинг фойдамиз, қизимизнинг бахти очиладиганга ўхшайди.

– Хотин, – дейди Жумакул чой ича туриб, ман санга айтсам, Саидбекнинг ҳам қизимизга меҳри тушганга ўхшайди. Қизимиз қилган овқатларни роса мақтади.

– Ёлғонимизнинг миси чикмасайди, деб қўрқаман. Бу қиз ҳеч ўрганай демайди. “Ҳади эрта” дейди.

– Аста-аста тайёрлаб бор, – деди Жумакул.

– Ҳаракат қиялпман. Ўжар, гапни олмайди, ғирт қайсар.

– Кўча-пўчани ҳам супуртир иложи бўлса. Қўшнилар томонга ҳам қарасин.

– Автомат тираб ҳам бу ишни қилдиrolмайман. Ўзингиз айтинг. – Холисхон ичкарига қараб Заҳрони чақиради. – Заҳро, қизим, чойни янгила, совуб қолибди .

Ичкаридан шим ва футболкада норози киефада Заҳро-чикиб келади.

– Чой ичишдан бошқа ишларингиз йўқми?

– Ҳа энди, дам олиш куни бўлса, чой ичиб ўтирибмиз-да, қизим. – Заҳро чойнакни олиб ичкарига кириб кетади. – Кўрдингизми, бу аҳволда бу кизни ким ҳам келин қиламан, деб кўзи учиб ўтирибди, – дейди жаҳл билан.

– Кийимига қара, уйда ўзбекча кийинсин. Шуғуллан!

– Шуғуллан, шуғуллан дейсиз. Ҳадеб кўшнига узатаман, деб куюнасиз. Аввал Заҳрога тарбия беринг. Отасиз, ўзингиз ҳам шуғулланинг. Ҳали келин бўлишга тайёр эмас, қизингиз мободо кўшнига келин бўлса, узок туролмайди. Яқин кўшни билан ёвлашиб қоласиз. Бир ҳафтада уйга ўтказиб юборишадди. Ўзи чет тилига ўкитиб адашдик. Мана, кўриб турибмизки, чет тили билан чет элча кийинишни ўргандию ўзимизни урф-одатларимизни эсдан чиқарди.

– Ҳамма ўқиганлар бунақа кийинмайди. Ана, опангнинг кизи. Немис тилини битирган. Атласдан шундай кийим тикиб киядики, ҳамманинг ҳавасини келтиради. Ҳамма айб онада, яъни сенда.

Холисхоннинг жаҳли чикди.

– Балки мендадир, нима қилай? Якка қиз, дедингиз. Уришма, дедингиз. Иш буюрсам ўзинг қил, дедингиз: мана оқибат. Қўйинг, шу кўшнига қуда бўлишдан нари бўлинг. Қадамдан гапирсам, энсаси қотади. Камгап, зерикарли эмиш...

Жумакул хонтахтага мушт туширади. Холисхон чўчиб тиқишдан тўхтади.

– Ён девор кошонага фақат менинг қизим эга бўлади!! Бошқа бирор қиз бу хонадонга келин бўлмайди! Бўлиб кўрсин-чи, ҳаётини дўзахга айлантираман. Менинг якка-ю ягона ниятим – қизим шу кошонага эга бўлишини хоҳлайман. Бу ко-

шона фақат Заҳроники!!! Ундан сўнг ўртадаги деворни олиб гашлайман, билдингми!? Қизим шу хонадоннинг келини бўлиши учун ҳамма нарсага тайёрман. Керак бўлса зўрлаб ҳам Қадамни куёв қиламан. Бор, қизинг билан гаплаш.

Холисхон зарда билан туриб, қизининг хонасига борди. Заҳро компютердан нигоҳини олиб, онасига қарайди. Она гапни узоқдан бошлайди:

– Мана иккинчи курсни ҳам тугатдинг. Кичкина қиз эмасан, энди. Рўзғор тутишни ҳам ўргансанг бўларди.

– Ўрганаман, ҳали эрта. Ҳа айтмоқчи, бир ойга Японияга борадиган бўлдим, учта талаба.

– Буниси яхши. Ҳали отанг юборадими, йўқми?

– Юборадилар.

– Барибир рўзғор тутишни ўрган, қизим. Қўшни сени зўр пазанда, деб юрибди.

– Юришса юришаверсин. Барибир ёлғонингизнинг миси чиқади. Ўзингиз қилган овқатларни қизим қилди, деб алдашга бало борми?

– Мободо уларга келин бўлиб қолсанг, ажаб эмас.

– Асло уларга келин бўлмайман.

– Нега, ёки...?

– Ёки эмас, бор, онажон, бор. Ўзим билан ўқийди.

Онасини кучоқлаб эркаланади. Холисхон бошини ушлаб, кизига қараб қолади.

– Жим, жим бўл. Отанг эшита кўрмасин! Отангнинг бирдан бир орзуси Саидбекка қуда бўлиш. Бу гапингни эшитса юраги тўхтайдди. Шунини аввалроқ айтсанг бўларди-ку!

– Имкон бермагансиз. Она бўлиб сирлашмадингиз.

Она қизининг бу гапидан тош бўлиб қотиб қолган, тили гапга келмайди.

Ҳовлидаги каравотда газета варақлаб турган Жумакулнинг ёнига ўғли Турди келиб ўтиради.

– Ота, суюнчи беринг, ишга жойлашдим, ойлиги ҳам яхши экан. Раҳбари: Саидбек акага жим бўласиз, девди, қариндошиман, дедим.

– Тўғри айтибсан, бир кун қариндош ҳам бўламиз. Қамалиб чиққанингни билмадими? – дейди Жумакул.

– Билди. Ҳозирги замонда яшириб бўлмайди. Компьютерга тушади. “Тухматга учрагандим, Саидбек тоғам чиқариб олдилар” дедим. Ишонишди.

– Эҳтиёт бўл, – дейди Жумакул ўрнидан туриб Саидбек билан ўртадаги девор ёнига бориб, қўллари билан сийпайди муштлайди, суриб кўради. Шу аҳволда девор бўйлаб унга қараганча юриб ўзича қандайдир режалар тузади. Холисхон ранги докадек оқариб, ташқарига чиқади.

Жумакул уни кўриб, ҳайратланганча қараб қолади.

Туман ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи Тўрабекнинг хонаси. Тўрда Тўрабек. Стол устида қоғозлар. Телефон Ундан пастрокда Қадам.

Тўрабек бошини қимирлатади. Қўлидаги ручка билан столни уради.

– Ҳеч бунақаси бўлмаган. Биз ҳам яхши кўрганмиз. Уч рашганмиз. Сизчалик далли-девона бўлмаганмиз. Хўш, биргиллаб нимага эришасиз? Ўқиш нима бўлади?

– Ишга олинг. Кейин нима бўлса бўлар. Мен Дилдоранин ёнида ишламоқчиман, холос.

– Отангизни танийман. Кўпнинг бошини силаган обрўл одам. У киши олдида нима деган одам бўламан. Бўлмайди.

– Ҳар ким ўзи учун яшайди. Илтимос, Тўрабек ака менга ишга олинг.

– Гап бундай. Ўқишингиз тугашига оз қолибди. Тугати келинг, ишга оламан.

– Йўқ, ҳозирдан ишламоқчиман.

– Жа ўжар экансиз. Шошманг. Дилдоранинг отаси билан гаплашай-чи.

– Керакмас, – дейди Қадам.

Тўрабек секин столга мушт туширади.

– Бўпти, кўймадингиз-кўймадингиз. Эртадан Дилдоранин ёнида ишлайверинг. Иш курули белкурак кўлингизда бўлсин

– Кулади – Бораверинг, ошиқ йигит!

Қадам чиқиб кетди.

Дилдора онаси билан иккиси кўрпача тикиб ўтиришибди. Телефон жиринглайди. Орзигул қизига қарайди:

- Олақол, ким экан?
- Салом, яхшимисиз, қизим. Ким бор? – нотаниш овоз.
- Онам борлар, кимсиз?
- Мен Тўрабек Калоновичман. Чақиринг.

Дилдора онасига қарайди.

- Сизни раис сўраяпти.
- Йўқ, деб юборсанг бўларди. Яна ишга чақираётгандирда. Бориб гўшакни олади:

– Ассалому алайкум, Тўрабек ака.

– Ваалайкум ассалом. Яхшимисан. Менга қара, ҳалиги лектор йигит бор-ку Қадамбой, у ҳамма танийдиган Саидбек аканинг ўғли экан. Лекин зўр бола экан. – Кулгу эшитилади. –

Бунақа ошиқни кўрмаганман...

- Сизга ҳам бордими? Дардини дoston қилгандир?..
- Унақанги ахмоқлардан эмас экан. Келди, илтимос, мени

Дилдоранинг бригадасига ишга олинг, деб туриб олди.

– Эси жойидами? Ўқиши нима бўлади?

– Қизинг учун ҳамма нарсадан кечадиганга ўхшайди.

Эртадан ишга чиқадиган бўлди. Ўйлаб кўрсин. Қизингга тушунтир. Бир сўзли йигитга ўхшайди. Гапидан қайтмайдиган. Бўпти, хайр. Хўжайинингга салом айт, – деб Тўрабек гапини тугатади.

Қиска гудок. Орзигул гўшакни кўйиб, қизига қараб туриб қолди.

– Ҳа, онажон, тинчликми, нима гап экан?

– Қадам сенинг бригаданга ишга кирибди. Жа, қизиқ йигит экан.

Дилдора кулиб юборди.

– Бизлар билан бирга ишларканми? Эртага лапаткасини кўтариб борса-я? – Яна кулади. – Вой жинни-ей!

– Кул-кул, бир бечорани йўлдан оздириб... Телефон қил.

Қайтар. Ўқишига борсин. Яна ишга келиб юрмасин.

Дилдора кулганча ичкарига кириб кетди.

Саидбек телефонда ким биландир гаплашмоқда. Бир кулиб, бир гапиреди.

– Қизи тушмагур юрагидан урибди-да. Икки ёш бахтли бўлса бўлгани. Ҳа, юбораман. Ҳозир юбораман. Раҳмат, Тўрабек. Биз қарздормиз. Одамлар гапидан кўрқадиганлардан эмасмиз. Хўп, соғ бўлинг. Ҳа, хонадан чиқмай ётибди. Ҳаммаси жойида бўлади. – Кўл телефонини ўчириб чўнтагига солади. – Қани кизинг билан физзилла.

– Йўқ дейишган. Ё бошқа жойгами?

– Ўша ҳалиги Дилдормиди, ўшаларникига, онаси.

– Рози бўлишибдимми? Ким телефон қилди?

– Раҳбари. Бориб кўринглар, деди. Тезроқ бўлинглар. Обориб кўйиб кетамиз.

– Борганимиз бўлсин, ҳозир.

Зулайҳо кийиниш учун шошганча хонасига кириб кетди.

Дилдоранинг хонадонига яна совчилар келган. Супада Орзигул, Зулайҳо ва Сарвара. Зулайҳонинг чехрасида табассум. Ўйланиб турган Орзигулнинг елкасига қўлини кўяди.

– Келинг, яхши ният билан тўй бошлайлик. Одамлар гапирса гапирар, нима бўпти. Ит ҳураар – карвон ўтар. Чумчуқдан кўрққан тарик экмайди, сингилжон.

– Айбга буюрмайсиз, Дилдора синглимизнинг йигити йўқмикан?.. – деди Сарвара.

Орзигул ялт этиб Сарварага қаради.

– Мендан сир бекитмайди. Битта ўша, укангиз Қадам. Бошқа биров билан гаплашмаган. Қолаверса, ишдан боши чиқмайди. Бунақа хаёлларга кейин ҳам бормайсизларми ўзи?

Зулайҳо кизига танбех берди:

– Майдалашма!

– Мабодо, ўзларингиз келишиб кўйганларингиз бўлса... Зулайҳохон кейин афсус қилиб юрманглар.

– Э, келинг. Яхшиси майда-чуйда гапларни қўяйлик. Тўй ҳақида ўйлайлик. Келишганми-йўқми, йигити борми, қизи борми, демасдан, маслаҳатни бир жойга қўяйлик, Орзигулхон.

– Оллоҳнинг айтгани бўлади. Қизим билан яна бир гаплашиб кўрай. Унгача сизлар ҳам яхшилаб ўйлаб олинглар. Қадамжонга ҳам айтинг, ўзларини кўлга олсинлар. Аввал ўқишларини битирсинлар...

– Биз бир қарорга келиб бўлдик. Қуда бўлсак ҳам, сиз билан қуда бўламиз. Келин қилсак ҳам, Дилдорани келин қиламиз!

– Зулайҳохон, иккаламиз гаплашиб олсак, гап бор. Фақат иккаламиз билишимиз керак бўлган гап бор.

Зулайҳо қизига қаради:

– Сарвара, машина келгандир, сен машинага чиқавер.

Қизи чиқиб кетди.

Ойнаванд деразалар билан тўсилган айвондаги хонтахта атрофида Орзигул билан Зулайҳо суҳбатлашиб ўтиришибди. Орзигул нигоҳини деразадан ташқарига тиккан.

– Мен Дилдорани мажбур қилолмайман, Зулайҳохон синглим.

– Онасиз, яхшилаб гаплашинг. Иккаласи бир-бирини яхши кўришади-ку. Нима жин урди, бирдан айнаб қолди. Олдин биз томондан озроқ англашилмовчилик ўтди. Адашган эканмиз. Қизингиз кечирсин.

– Отаси билан мен ҳам хайронман. Топган гапи “яхши кўриш бошқа, ҳаёт бошқа. Улар обрў-эътиборли, зиёли хонадон. Ўзларидек обрўли хонадондан келин қилишсин. Тўғри келмаймиз, тенги эмасман, деб йиғлайди.

– Илгари мен бу гапларни айтгандим. Энди сизлар. Мен тушундим. Бизлар ҳам сизлардек Оллоҳнинг бандасимиз. Осмондан тушмаганмиз. Чақиринг илтимос, Орзигулхон.

– Икки-уч кун бўлмайди.

– Нега бўлмайди? Қаерга кетган? Орқасидан бораман. Қадам ўғлим касал бўлиб қолади. Хонасини ичкаридан беркитиб олган. Овқат ҳам емайди. Унга бунақа совуқ хабар олиб боролмайман. Ўзини бир нима қилиб кўяди.

– Ҳаммамиз ҳам ёшлигимизда шунақа бўламиз, Зулайҳо опа. Ўтиб кетади.

– Ўтмайдиганга ўхшайди. Дилдора қизимиз қайси қариндошингиз ёки дугонасиникида, айта қолинг, бораман.

Орзигул бироз хаёлга чўмган, кўзига ёш олган бўлади.

– Онасиникига кетган.

– Онасиникига?! Нима? Қанақа онасиникига, сиз-чи?

– Мен, – Орзигул кўз ёшини артади, – ўгайман. Лекин болаларни жонимдан ортиқ кўраман. Уларни ўз фарзандларимдек вояга етказдим.

– Ўлай агар, ҳеч нимага тушунмаяпман!

– Мана кўрдингизми, фаррошлиги етмагандай, етим ҳам. Эрта бир кун келиб, ҳақиқатни билишларингизни билади. Шу сабаб Қадам билан турмуш қургиси йўқ.

– Тушунтириброк гапиринг. Тарс ёрилай деяпман. Ўзи нима бўлган, бундай тушунтириб гапиринг, илтимос, Орзигулхон?

– Бунинг тарихи узун. Эшитиб чарчайсиз.

– Керак бўлса, эрталабгача эшитаман. Билмасдан кетмайман. Қолиб кетаётган ишим йўқ. – Зулайҳонинг қўл телефони жиринглайди. – Отаси, у киши ҳам хушxabар кутяптилар. – Телефонга жавоб беради. – Ҳадеб телефон қилаверманг, Саидбек ака, ўзим телефон қиламан.

Саидбекнинг овози эшитилиб турарди.

– Хит қилиб юбординг-ку. Жа, қолиб кетдинг. Меҳмондорчилик қуюқми, дейман. Машина аллақачон борган, ташқарида кутяпти. Ишқилиб хушxabар билан қайтгин.

– Ҳозирча ҳеч гап йўқ, адаси.

– Нега?

– Негалигини билиш учун ўтирибман.

– Ўзим борайми? Отаси борми?

– Йўқ, келманг, отаси йўқ.

– Бунча чайналасан, ўзи нима гап?

– Борганимда биласиз! Агар билолсам. Ҳозирча хушxabар йўқ.

– Хушxabар билан қайт. Бўлмаса келма.

– Мен ҳам шу фикрдаман. Эрталабгача бўлса-да, бирор-бир яхшироқ гап олиб кетмоқчиман. – Телефонини ўчириб, Орзигулга қарайди. – Узр, уйимизда тинчлик йўқ. Еганимиз заҳар. Отаси ҳам безовта. Хушxabар билан кел, дейдилар. Нима қилайлик, якка ўғил. Ўгай қизлигининг сабабини айтмадингиз?!

– Айтсам, бирор нарса ўзгарармиди?

Зулайҳо Орзигулга яқинроқ сурилиб ўтиради:

– Нима, онаси бошқа турмуш қилганми ё ажралганми ёки биров билан юриб кетганми?

– Узоқ тарих. Эсламаганим маъқулроқмиди...

– Айтақолинг, сабрим тугади.

Орзигул оғир хўрсинади:

– Қўймадингиз-қўймадингизда, опажон. У пайтлар турмуши бузилган ёш аёл эдим. Холикул укангиз икки болани етаклаб ёнимиздаги боғчага қатнардилар...

Тонг отган пайт. Шаҳар кўчаларини тўлдирган одамлар, машиналар оқими. Майда ўрилган жамалак сочлари Дилдорага янада ширин қизалоқлик бағишлаган, сочлари ўзи билан баробар тебранади. Устидаги оқ-кизил гулли чит қўйлак ўзига ярашган. Орзигул кўчада сув сепиб, супураётган пайт. Холикул қизи ва ўғлини етаклаганча, Орзигулнинг олдидан ўтади. Бири Дилдора, бири Шохрух. Шохрух “боғчага бормаيمان, уйга кетаман”, деб йиғлайди. Орзигул уларни кузатганча, супургисини қўйиб, уларга қараб туради. Бу ҳол ҳар куни такрорланарди. Орзигул ҳар куни тонгда кўча супурганча ота-болаларни кутади. Супуришдан, гоҳ сув сепишдан тўхтаб, кўча бошига қараб қўяди. Узоқдан икки боласи билан Холикул кўринади. Орзигул ишини тўхтатиб, югуриб, ичкарига кириб кетади. Ҳамишагидек Холикул икки боласининг қўлидан ушлаб олган, Шохрух йиғлаб, ўзини орқага ташлаганча, аранг юради. Улар Орзигулнинг дарвозасига яқинлашганда, Орзигул дарвозадан чиқди. Унинг қўлида нимадир бор. Уларга қарайди. Дилдора энгил табассум қилади.

– Ассалому алайкум! – Орзигул уларга яқин борди. Холикулга қараб тортиниbroқ салом берди: – Ассалому алайкум, мулла ака, бир пас тўхтанг. – Тўхташади.

Орзигул иккала болага биттадан шоколад узатди. Шохрух йиғидан тўхтаб, шоколадни олади.

Дилдора одоб сақлайди:

– Йўк, керакмас.

– Олақол, исминг нима? – Орзигул ялиниш оҳангида сўрайди.

– Дилдора.

– Чиройли исм экан. Ма, олақол, Дилдора.

Дилдора отасига қарайди. Отаси соатига қарайди. Отасининг қовоғи солиқ.

– Йўк, ололмаيمان. Отажоним рухсат берсалар оламан.

Орзигул Холикулга қарайди:

– Илтимос, ола қолишсин.

Шохрух аллақачон шоколадни еб қўйганди. Лабларининг атрофи шоколад юки. Холикул кулиб, унинг оғзини артишга шайланади. Ундан олдин Орзигул дасрўмолчаси билан Шохрухнинг лабини, бурнини артиб қўйди. Дилдора ҳам олди.

– Раҳма-ат, холажон! – дейди болаларга хос ёкимли оҳангда.

Шохрух Орзигулга хафа бўлиб гапиради:

– Менинг отимни сўрамадиз-ку?

– Ўзинг айтақол, – Орзигул болани эркалаб, бошини силайди.

– Шохрух. Эртага ҳам берасизми?

– Ҳар куни.

– Қани, болалар. Бўлди, кетдик. – Орзигулга қараб, – хафа бўлмайсиз, ишга кечикаяпман.

Улар кетишади. Болалар орқасига қараб-қараб юришади. Ушбу ҳолат ҳар куни такрорланарди.

Яна ўша кўча. Орзигул сув сепиб, сўнг супуради. Тез-тез кўча бошига қараб қўяди. Йўл бошида яна ўша кастюм-шимда Холикул икки боласини икки ёнига олганча келмоқда. Ҳар иккала бола отасининг қўлидан силтаниб, чиқди, Орзигул томон югуришади. Етиб келиб, Орзигулни қучоқлаб олишади. Орзигул ҳам қучоқ очиб кутиб олди. Иккаласини бағрига босиб, юзларидан ўпиб қўяди. Холикулга қарайди.

– Ассалому алайкум, яхшимисиз? Хафа бўлмасангиз болаларни қолдириб кетаверинг. Ўзим боғчасига ўтказиб қўяман. Қолаверса, ҳали жуда эрта. Барибир қоровулнинг олдида туришади-ку. Ундан кўра биз бироз гаплашиб турамыз. – Дилдорага қарайди. – Дилдора, розимисан?

– Боғча опам биздан кейин келадилар. Нега бунча каллаи саҳарлаб келасанлар, деб хафа бўладилар.

Орзигул тортиниб, Холикулга қарайди. У бир болаларга, бир болаларни бағрига босиб турган Орзигулга қарайди.

– Уйингиздагилар бу бегона болаларни кўриб нима дейишаркан. Қўйинг, ортиқча гапга қолманг.

– Ҳеч нима демайдилар. Уйда битта нафақадаги онам борлар. Болаларни яхши кўрадилар, – дейди туфлиси билан ер чизганча Орзигул.

Холикул елка қисганча, ортига қайтиб кетди. Болалар “хайр, ада, хайр” деганча, қўл силкитиб қолишди. Холикул орқасига қарай-қарай кўринмай қолди. Орзигул болаларни бошлаб, ич-карига киради. Ҳовлида ҳар хил гуллар, райҳон хиди билан қоршиб, ёқимли бўй таратиб турибди. Дилдора югуриб бориб, очилиб турган кип-қизил атиргулни тўйиб-тўйиб хидлайди. Шохрух ҳам бир гулга маҳлиё бўлиб, термулиб қолади.

Дилдора қувончини ўзига сиғдиролмай:

– Вой, гулларнинг кўплигини, жуда чиройли, – деб гулларни тўйиб-тўйиб хидлайди.

Орзигул болаларнинг қўлидан ушлаб ичкарига, онаси Саломат аянинг олдига бошлаб кирди. Болалар тисарилиб, бўсағада тўхтаб қолишди. Буни кўрган Саломат ая болаларга очик чехрада якин келди.

– Вой ширинтойлар, қани-қани, келинглар. Ҳа, асалтойлар. – Иккаласини бир-бир бағрига босиб, икки юздан ўпадади. Хонтахта ёнидаги кўрпачада ёнига олиб ўтиради. – Ширин чой ичасизларми, ширинтойлар?

– Уйда ичдик, – дейди Дилдора тортиниб.

– Олма олсам майлими? – сўрайди Шохрух

– Олақол, ош бўлсин. Вой ақлли болажоним-эй.

– Отамга айтаман. – Шохрух олмани жойига қўймоқчи бўлади. Орзигул болани эркалаб бағрига босади.

– Отангга айтмайди. – Дилдорага қарайди. – Айтмайсан-а, айтмайди. Еяқол. – Дилдорага банан олиб узатади. Дилдора тортинибгина олади. Уларни ейишларига, айниқса, Шохрухнинг карсиллатиб олма ейишига қараб турган Саломат ая Орзигулни зимдан кузатиб, бошини кимирлатиб қўяди. Орзигул болаларга гоҳ мева, гоҳ ширинликлар едиради. Деворга осиглик соат саккизни кўрсатди.

Саломат ая Дилдорага қарайди:

– Асал қизим, оналаринг нима иш қилади?

Дилдора маънос тортади. Еяётган бананни дастурхонга кўяди.

– Онажонимиз йўк. Узоқларга кетганлар.

– Менга копток олиб келадилар, – дейди Шоҳрух.

Дилдора укасининг гапини бўлади:

– Келмайдилар, отам айтдилар-ку!

Орзигул онасига норози оҳангда, лабини тишлаганча қарайди, сўнг болаларга юзланади.

– Қани ширинтойлар, боғчага борамизми? Боғчада ўртокларинг билан ўйнайсизлар! Каша ейсизлар!

– Каша емайман. Колбаса ейман. Боғча опам: “е” деб уришадилар, кулоғимдан чўзадилар. Ўзиз боғча опа бўлинг. Ҳеч ҳам йиғламасдим, – дейди ялиниб Шоҳрух.

– Хўп, болажон, қани кетдик. Момонгизга хайр қилинглари-чи.

Дилдора оппок сочли кампирга қарайди:

– Хайр, моможон!

Шоҳрух “хайр” деб қўлини қимирлатади. Саломат ая ўрнидан туриб, иккисини ҳам юзидан ўпиб, бошини силаб, хайрлашади. Орзигул уларни қўлидан ушлаб, боғча томон юриб кетади.

Икки қаватли боғча. Ота-оналар, ака-опалар, бобо-бувилар – болаларни боғчага олиб кетаётган ва қўйиб кетаётганларнинг ҳисоби йўк. Баъзи бир болаларнинг “олиб кетинг, қолмайман”, дея хархаша қилиб йиғлаб бақиришлари эшитилиб, туради. Орзигул кичик ёшлилар бўлимига Шоҳрухни қолдирди. Шоҳрух Орзигул билан жимгина хайрлашиб қолади. Боғча опа Шоҳрухни йиғламасдан қолганига хайрон. Шоҳрух хайрлаша туриб:

– Ўзиз келасизми? Ўзиз олиб кетинг, хўпми?

– Хўп, яхши бола бўлсанг, ўзим олиб кетаман.

– Йиғламайман, каша ейман.

Боғча опа кулади. Орзигулга юзланади:

– Опажон, сиз буларнинг кими бўласиз? Илгари кўрмагандим...

– Аммаси, – тилига келган бу ёлғонга ўзи ҳам хайрон қолиб, мийиғида кулади. – Хайр.

Дилдорани кўлидан тутганча, тайёрлов гуруҳига олиб боради. Унинг юзидан ўпиб, елкасини силаб, ичкарига киритиб юборади.

Дилдора орқасига қайтиб чопиб келиб, Орзигулни кучади:

– Ростдан олиб кетгани ўзингиз келасиз-а? Отамни сизни-кида кутамиз, хўпми, амма?

– Хўп, сен айтгандай бўлади. – Орзигул кўз ёшини ҳеч кимга кўрсатмай артганча, боғчадан чиқиб кетди. Уйга хомуш қайтди.

Онасининг қаршисига келиб ўтирди. Она қизининг ёшланган кўзларига нигоҳи тушди.

– Хафа бўлма, кизим. Худо хоҳласа, сенинг ҳам бир этак тўла болаларинг бўлади...

– Беш йилда бўлмаган, эрим бошқага уйланиб кетганда бўлардимми?!

– Ҳали кўрасан, бахтиёр она бўласан. Ҳа, бу болалар кимники? Қандай танийсан?

Орзигул бир нуқтага хомуш тикилади. Ўрнидан туриб, деразадан ташқарига қарайди.

– Ҳар куни бир киши боғча эшиги очилмасдан, эшигимиз олдидан супуриб, сув сепаётган пайтимда ўтади. Кичкинаси йиғлаб ўтади. Юрагим эзилиб юргандим. Бир-икки ширинликлар билан сийладим. Шу-шу мени кўришлари билан югуриб келиб, бағримга отилишади. Бугун мана уйга олиб кирдим. Меҳрга зор кўринишади.

– Онаси ўтиш қилганми ёки ажралишганми?

– Болаларнинг бири узоққа кетган менга копток олиб келадилар, дейди. Қизалоқ келмайди, дейди. Билганим шу. Отасидан сўрашга ботинолмадим. Онаси иш билан узоқроққа кетганми, ажралиб кетганми, бошқа эркак билан кетиб қолганми, билмайман. Қолаверса, онаси ҳақида билишни менга қизиғи йўқ.

– Жумбоқ экан. Лекин болалар кийналган, меҳрга зор кўринади.

– Ҳа, майли ишга бориб келай. – Кийиниб, ишга отланади. Вактлироқ келарман. Болаларга боғчадан ўзим олишга ваъда бердим, кутиб туришади.

– Отасига айтганмисан, қизим? Яна нотўғри ўйламасин.
– Келар пайтини биламан, она. Ўша пайт ташқарига олиб чиқиб тураман.

– Ўзинг биласан, қизим. Яхши бориб кел, – дейди она ўйчан.
Орзигул чиқиб кетди.

Шаҳарнинг Амир Темур майдонидаги соат “беш”ни кўрсатиб турибди. Серкатнов кўчалар, йўлакларда одамлар. Орзигул бекатдан таксига миниб кетди. Машиналарнинг шовқини, сигналлари унга эшитилмайди. Хаёлида икки боланинг “ўзингиз олиб кетасизми”, деган хитоб такрорланади. Уларнинг маънос чехраси кўз ўнгидан кетмайди.

Орзигул таксидан тушиб югурганча боғчага кириб, болаларни боғчадан уйига олиб ўтди. Болалар хурсанд. Боғчадаги воқеалар ҳақида бири қўйиб, бири сўзлайди.

– Амма гуяппамиздан Рашит деганини боғча опамиз бурчакка туйғизиб қўйдилар, Соҳибани ургани учун, – дейди Шоҳрух.

Хонага киришади. Саломат ая билан ҳам эски кадрдонлардек кўришишади. Саломат ая эркалаб, ўпиб қўяди.

Орзигул Дилдорага қараб:

– Сен нима қилдинг боғчада?

– Боғча опага ёрдамлашдим. Сизни чиройли экан, дедилар.

Орзигул кийимларини алмаштириб чиқди. Бир чеккада турган елим халтадан жажжи кўғирчоқ олиб, Дилдорага беради. Дилдора қувончини ичига сиғдиролмай, Орзигулни кучиб олди.

– Раҳмат, аммажон!

Орзигул Шоҳрухга қарайди.

– Қани топ-чи, сенга нима бераман? – Елим халтага қараб елка қисди. Орзигул халтадан чиройли копток олиб, юмалатиб юборди. Шоҳрух югуриб бориб, ушлаб олди.

– Ура, копток! Энди маниям коптогим бор.

Коптокни айлантириб кўради, хонада думалатиб кўради. Қувончи чексиз. Дилдора тилла сочли кўғирчоқнинг сочларини силайди, айлантириб қарайди. Эзса “салом, мен кўғирчоқ-

ман” деган овоз чиқади. Саломат ая ҳам илиқ табассум билан болаларга қараб қолган. Орзигул бир болаларга, гоҳ деразадан ташқарига, гоҳ соатга қарайди.

Деразадан шошиб боғча томон келаётган Холикул Орзигулнинг уйи ёнидан ўтаётган пайт Орзигулнинг “Ҳой, тўхтанг, тўхтанг”, деган овозини эшитиб тўхтади. Атрофга, орқасига қарайди. Ҳеч ким йўқ. Елка қисади.

Орзигул деразани очиб:

– Ҳозир тўхтаб туринг, – деди қайта.

Холикул овоз келган томонга қаради. Деразада таниш чехра, болаларига ширинликлар берадиган жувон:

– Болалар бизникида. Ҳозир олиб чиқаман.

Холикул нима қилишини билмай жойида тўхтаб қолди. Орқасига машина келиб тўхтади. Сигнал беради. Чўчиб, ўзини четга олади.

Ҳайдовчи машина эшигини очиб Холикулга танбеҳ берди:

– Ҳой, барака топкур, йўлнинг четидан юрсангиз бўлмай-дими? Ўртада турганингизни қаранг. Кап-катта одамсиз.

– Узр, ука, бошим сал айлангандек бўлганди. Узр. – Ҳайдовчи машинасини юргизиб, узоклашди. – Ўзи менга нима бўляпти. Илгарироқ болаларга кулги бўлдим. – Ўзига-ўзи гапирди. – Битта масалани уч марта қайтарибман. Тушунарлими, деб сўрасам ҳам бошқа гап. “Бугун каср сонлар, каср сонлар деяверибман”. Болалар кулиб юборишмаса, билмадим, қанча такрорларканман. Даволанишим керак. Бу кетишда хотирадан айриламан.

Дарвоза очилади. Болалар югуриб келиб, отаси билан қучоқлашиб кўришишади. Иккаласининг қўлида ҳам елим халта. Дилдора халтадан кўғирчоғини олиб мактанди:

– Орзигул аммам кўғирчоқ бердилар.

Шоҳруҳ ҳам коптогини олиб кўрсатди.

– Ота, ота менга-чи, аммам копток бердилар. Энди коптогим бор.

Холикул болаларнинг қўлидан кўғирчоқ билан коптокни тортиб олди.

– Олинг. – Орзигулнинг қўлига тутқзади. – Ўзлариники бор. Болаларингизга беринг.

Дилдора билан Шоҳрух пиқиллаб, ўқиб-ўқиб йиғлаб юборишди, болаларнинг кўз ёшларини Орзигул арта туриб:

– Боладан Худо бермаган. – Қўғирчокни Дилдоранинг, коп-токни Шоҳрухнинг қўлига тутқазиб, тез-тез юриб, ичкарига кириб кетди.

– Узр, кечиринг, – деганча Орзикулнинг орқасидан қараб қолди Холикул.

Тўрт-беш қаватли уйлар. Улар олдида ҳар хил дарахтлар соя бериб турибди. Турли-туман машиналар кўзга ташланади. Катта-кичик одамлар. Холикулнинг икки қаватли уйнинг биринчи қаватдаги хонадони. Дилдора кўғирчокларини, Шоҳрух кубикларини ўйнайди. Холикул уй кийимида диванда ёнбошлаб ётганча, телевизор кўради. Эшик кўнғироғи жиринглаб қолди. Холикул бориб очди. Остонада кўшниси Зафар дўхтир.

– Келинг, Зафарбек.

– Уколингизни оласизми?

– Ўзингиз яхшисиз-куя, шу укол десангиз баданим титрайдиган бўлиб қолди. – Қулган бўлади.

– Бор-йўғи яна икки кун чидайсиз холос. Яхши бўлиб кетасиз. Холикул болаларга қарайди. Улар ўйин билан машғул.

– Ўйинчоқларни олиб, нариги хонага чиқиб турунглар. – Болалар ўйинчоқларни олиб, чиқиб кетишди.

Зафар Холикулнинг билагидан укол қилмоқда. Холикул афтини тириштирганча, ёнбошига қараб турибди. Зафар ишни тугатади.

– Холикул ака, уйку қандай?

– Яхши бўп қолди.

– Бош айланиши, кўз тиниши қолдими?

– Раҳмат, ука, қолди. Анча дурустман. Болалар боғчада қолиб кетишмоқда, кечикиб боряпман. У ёқдан мактабдан телефон килиб қўйишмаяпти. Эртадан ишга чиқсаммикан, деб турибман, нима дейсиз, Зафаржон?

– Сизга касаллик варақаси очилган. Яна тўрт кун бормайсиз. Озроқ кучга тўлиб олинг. Қолаверса, ака, бир гапни айтма-

сам бўлмайди. Асабларингиз жуда чарчаган. Шу муаллимликни бир-икки йил тўхтатиб турсангиз ҳам бўларди.

Холикул ўйланиб ҳорғин овозда жавоб беради.

– Болаларни, мактабни яхши кўраман, улар билан овунман-да, ука.

– Ўзингизга ҳам, болаларингизга ҳам кераксиз. Бошқа иш қилиб турунг. Хотиранингиздан айрилсангиз, болаларнинг ахволи нима кечади. Ҳайдовчилик гувоҳномам ҳам бор деганмидингиз?

– Ҳа, бор. Ўқишга киргунимча юк машинаси ҳайдаганман. Нима, бутунлай муаллим бўлиб ишламайманми?

– Жисмоний меҳнатнинг соғлиққа фойдаси бор. Бир ёки икки йилда бутунлай асаб тизимингиз тузалиб кетиши ҳеч гап эмас. Бошингиздан толиқиш кетса, ҳаммаси изига тушиб кетади, Холикул ака.

– Ҳа, бирор иш топарман. Шу болаларни боғчаси чаток бўляпти-да. Уйда зеркиб кетишди.

– Холикул ака, болаларни ҳам, ўзингизни ҳам қийнаманг. Хонадонингизга аёл керак. Уйланинг. Энди хотинингиздан умидни узинг. Ахир у турмуш қурди-қу.

– Ҳа, эрга теккан. Эри билан Россияга ишга кетибди. Энди ўша ерда яшармиш. “Болалар қалай”, деб, бирор мартаям кўнғироқ қилмади-я? Яна ким билади? Бирор кун эси кириб, болаларининг ёнига қайтадими? Яна озроқ сабр қилсакмикан?

– Қанақа эркаксиз? Шунчалар ҳам ўзингизни эрга урасизми. Ахир ташлаб кетди-ку!

– Болалар ўғай она кўлида ўсмасин, дейман-да. Етим ўсганман. Булар онасиз етим ўсмасин, дейман. Қолаверса, яхши кўрганман.

Зафар кўлини силтаб, ўрнидан туриб, хонада юради.

– Эркак бўлинг, юзингизни эрга қаратиб, бошқа эркакнинг этагини тутиб кетган аёлни унутинг. Ҳали-замон икки йил бўлади. Унутинг унақа бевафони! Болаларига ҳам ачинмади-ю. У инсон эмас. Фарзанд кўрмаган, эрдан чиққан яхши аёллар ҳам бор. Керак бўлса ўз онасидан ҳам яхши қарайди. Ўшанақасидан суриштириб топамиз.

– Ундайлар жуда кам. Болаларни қийнаб қўйса нима қиламан? Шундан кўрқаман.

- Унда яна бошқасини топамиз.
 - Одамлар кулади.
 - Сиз ўзингиз, болаларингиз учун яшанг. Биров учун эмас!
 - Эртага болаларни боғчага олиб бормасам бўлмас.
 - Эҳтиёт бўлиб бориб кела қолинг, Холикул ака.
- Зафар хайрлашиб чиқиб кетди.

Орзигул ҳар куни кўча пойлайди. Дилдора билан Шоҳрухдан дарак йўқ. Кўчада узоқ-узоқ туриб қолади. Қайта-қайта супуради. Ойнадан онаси кузатиб туради. Саломат ая қизида хомуш она сиймосини кўриб оғир тин олади. Боғчага келувчилар тугади. Саломат ая деразани очиб, қизига қарайди.

– Болам, ишингга кечикасан, кириб нонушта қил.

Орзигул ўзига келади. Супурги билан челақни олиб дарвоза томонга юради. Йўлга қараб-қараб кўяди. Улар йўқ. Ичкарига хоҳлаб-хоҳламай ноилож киради.

Ичкари хона. Орзигул хомуш нонушта қилмоқда. Хаёли паришон.

– Болалар бир ҳафтадан бери боғчага келишмаяпти, она, – деди ачиниш билан, – касал-пасал бўлмадимикин-а?

– Ким билади, касал бўлгандир. Иссиқ жоннинг иситмаси бўлади, болам.

– Худо асрасин, она, касал бўлишмасин! Менимча уларга қилган совғам отасига ёкмади. Шунга хафа бўлиб, болаларини боғчага олиб келмаяпти шекилли. Отаси бошқа боғчага ўтказдимикан-а?

– Боғчага кириб билиб чик, боғча опалари билишар.

– Билиб чиқдим. Улар ҳам келмаётганига ҳайрон. Нима бўлсаям тинч бўлишсин. Отасида телефон ҳам йўқ экан.

Саломат ая бир оз қизига қараб турди. Йўталган киши бўлиб, чой узатади.

– Қизим, бола олиш маслаҳатимиз нима бўлди? Бирор қарорга келдингми?

– Йўқ. Ўйлаяпман. Бир қарорга келишим қийин бўляпти, она! Кўзимнинг олдидан Дилдора билан Шоҳрух кетмаяпти. Нима қилай? Шуларга боғланиб қолибман.

– Шунинг учун ҳам болалар уйдан бола олгин, деяман-да.

– Иккисига ўхшайдигани учрайдими, йўқми? Катта бўлгач, ота-оналарини топиб, кетиб қолишадими, кинолардагидек.

Саломат ая қизининг елкасидан қучиб, бошини бошига суяйди.

– Қизим қўлингни сўраётганлар кўп. Битта ёки иккита боласи борларга розилик берсанг бўлармиди...

– Айтиш осон. Бошимдан ўтказдим. Туғсанг ҳам, туғмасанг ҳам сени дейман, деб юрган одам учинчи йили нима хунарларни кўрсатди. Сингилларига дўппослатди. Уйга камаб қўйишди. Сочимни юлишди. Эрим томоша қилиб турарди. Маст бўлиб келганда эргалабгача азоблаб урганлари. “Мушук туғади, ит туғади, эшак туғади, лекин бу туғмайди”, деб бакиришлари, аёзли кунларда кўчага чиқариб қийнаганлари эсимдан чиққани йўқ. Эр дегани шундай бўлса, шундай юрганим яхши.

– Унда тақдирга тан бер. Эрга тегмасанг, бола олиш учун бир қарорга кел.

Она ўрнидан туриб кизига қарайди. Дастурхонга фотиҳа ўқишади, Орзигул дастурхонни йиғиштира бошлайди.

– Бор, ишингга кетавер, ўзим қиламан. Бошқа қиладиган ишим йўқ-ку! Атрофимда ўйнаб юрган неваралар ҳам йўқ. Бори ҳам йўққа ўхшайди. Аканг билан уканг Америкада қолиб кетди. Ватанига бир йилда бир келади ёки йўқ. Болалари келишлари билан кетаманга тушади. Энди улар бегона. Санлар мени тушунаридиларинг. Эрга тегсанг, балким Худонинг раҳми келиб набира кўрармидим, дегандим, ушалмайдиган орзуга ўхшайди.

Саломат ая рўмолини учи билан кўз ёшини артади. Орзигул гапирмайди. Хонасига кириб кийиниб чиқади, кета туриб:

– Хайр. Яхши қолинг.

– Яхши бориб кел. Кечга бир сиқим ош қиламан.

– Ўзингиз биласиз, – Орзигул чиқиб кетди.

Саломат ая мунгли нигоҳлари, дард тўла қалби билан кузатиб, токи кўринмай қолгунча орқасидан қараб тураверди.

Кўча супураётган, дарахтларга сув бераётган ишчилар кўчаларни тўлдирган машиналар, йўлакларда шошиб кетаётган одамлар орасида Холикул ҳам икки боласини етаклаганча боғчага бормоқда. Улардан сал нарида икки фаррош кўчани тозалаб, супуриб келишмоқда. Йўловчилар яқинлашса, тўхташади. Ўтиб кетишгач, яна машғул бўлишади. Ташланган қоғозни, сарғайган халталарни, салафан тўла ахлатларни дарахтлар тагидан олишиб, бир жойга йиғишади. Кимнингдир уйи, дарвозасига яқин бўлиб қолса, хонадон эгаси уларга бакиради.

– Нега уйимни олдига йиғасанлар, олларинг бу ердан.

– Ҳозир тележка келади, укажон, ортиб юборамиз.

Хонадан соҳиби захрини солганча пўписа қилади:

– Олиб кетмасаларинг, кўрасанлар!..

Дилдора отасига икки хотинни кўрсатади.

– Булар ким? Нега ҳар куни кўчаларни тозалашади?

– Булар энг керакли одамлар, йўлимиз, шаҳримизни озода саклайдиган, кўча ва хиёбонларимизни дарахтзор, гулзор қиладиганлар шулар. Энг кўп савоб оладиганлар.

– Унда нега анави амаки уларга бакирди? – деди Дилдора.

– Унақалар ёмон одамлар. Меҳнатнинг қадрига етмайди-ганлар.

Орзигулнинг дарвозаси ёнида бирдан икки боласи тўхтаб қолди.

Шоҳрух отасига қараб ялинди:

– Аммача оборсинлар!

Дилдора ҳам тўхтаб:

– Аммамни кўрайлик. Соғиндим, адажон, – деб гапини тугатмасдан Саломат ая уларни кўриб, ялангоёқ болалар ёнига чопиб борганини ўзи ҳам билмай қолди. Болалар унинг бағрига отилди.

– Омонмисизлар, асал болаларим?

– Аммам қанилар, момо? – деди Шоҳрух билан Дилдора бараварига..

– Момо деган тилингга асал. Кутиб-кутиб кетди. Хавотирда эдик. Аммаларинг ҳар куни йўлларингни пойлади. Болаларим, сизларни роса кутди.

Холикул уларга бир оз қараб туради.

– Ассалому алайкум, ая. Тузукмисиз? Бир оз тобим бўлмай, болаларни олиб келолмадим.

– Отажонимга кўшни укол қилдилар. Ийнаси билан. Отам йиғламадилар.

Шоҳрух ҳам билганича гапирди:

– “Вах” дедилар-ку!

– Бўлди, кечикиб, боғча опангдан дакки эшитиб юрмай.

Юринглар.

Болалар юргиси келмайди.

– Шу момонникида қолайлик. Аммам келиб, боғчага олиб борадилар.

– Қолдира қолинг. Бир оздан кейин ўзим олиб бориб кўяман.

Болаларнинг бошини силайди.

– Анча кун келишмади. Ўзим тушунтириб айтмасам бўлмайди. Боғча опаси сал инжиқроқ.

– Болам, иложи бўлса қайтишда бизникига кириб, сизда гапим бор эди. Бир пиёла чой ичиб кетасиз.

Холикул елка қисди. “Бу танимайдиган кампирнинг менда нима гапи бўлиши мумкин”, деди ўзига ўзи.

– Майли. – Иккиланиб жавоб берди, – вақтлироқ келсам кираман.

– Кутаман, болам.

Холикул билан Саломат ая стол атрофида ўтиришибди. Саломат ая ўраб қўйилган чойнакни очиб, пиёлага чой қуйиб узатади. Дастурхонда нон, вазада узум, новвот, қанд ва мураб-болар.

– Қани олиб ўтириб, болам. Болалариз жудаям ёқимтой-да.

– Ҳа, энди...

– Ҳайрон бўлманг, болалар ҳусусида гаплашмоқчи эдим. Сал очикроқ гапирсам, хафа бўлманг. Болаларнинг онаси борми?

– Бор. Лекин йўқдай гап, бошқа турмуш қилиб кетган. Ундан ҳам бир боласи бор, деб эшитдим.

– Одамнинг юлдузи-юлдузига тўғри келмаса кийин экан. Боғчага ҳар доим ўзиз олиб ўтасиз. Яқинлардан...

– Яқинларим йўқ. Болалар уйда ўсганман. Ота-она меҳрини кўрмаганман. Одамлар, болаларни меҳрибонлик уйига топшир, каттароқ бўлганда оласан, дейишди. Ҳеч бўлмаса, ота меҳрига тўйиб ўссин, дедимда топширмадим, ая.

– Уйланмадингизми? Болаларга овқат, кир ювиш, уларга қараш эркак кишига оғир-ку.

– Ўрганиб кетганман. Ўғай онанинг кўлида хўрланмасин, дейман. Ҳаётимни шуларга бағишлаганман.

Саломат ая бир дақиқа унга тикилиб қолди. Гапни нимадан бошлашини билмаган кишидек.

– Бошида айтдим, хафа бўлмайсиз, деб. Қизим билан мен бола тарбиялаб олмоқчи бўлиб юргандик. Бирдан қизимни меҳри болаларингизга тушиб қолди.

Холикул ўрнидан туриб кетди:

– Мен, мен...

– Гапимни охиригача эшитинг, илтимос. Агар рози бўлсангиз, болалар бизникида юришаверишсин. Ишингизда ушланиб қолсангиз, бизникида қолсин. Болалар ҳам қизимни “амма”лаб, ўрганиб қолишган. Ишонсангиз, болалар тарбиясига ёрдамлашсак. Қизим фарзанд кўрмади. Турмуши бўлмади. Болаларни жон дилидан яхши кўради. Бизларга ҳам овунчоқ бўларди. Уйимиздан болалар кулгуси эшитилиб турса. Сизга мен тутинди она, Орзигул сингил бўлса, нима дейсиз? Бошқа ниятимиз йўқ.

– Яқинларингиз нима дейди?

– Яқинларимиз хурсанд бўлишади. Ҳаммаси ўзларига тўқ.

– Ўйлаб кўрай, – деди Холикул, – кейин айтаман.

– Ёмон ниятимиз йўқ, болам.

– Қани, дастурхонга омин қилиб берақолинг. Мен борай.

– Омин, Ё Оллоҳим, ўзинг кўлла. Ҳамма бало қазолардан ўзинг асрагин. Яхши ниятларимизга ўзинг йўл бер. Оллоху Акбар.

Саломат ая Холикулни дарвозахонагача кузатиб чиқди. Холикул қўлини кўксига қўяди:

– Хайр, яхши қолинг.

– Сиз ҳам болам, болалар ҳам омон бўлсинлар.

– Мабодо ишларингиз чиқиб қолса, бемалол битказиб келаверинг. Болалар бизникида бўлади, хафа бўлмасангиз.

Холикул болаларни боғчага қўйиб чиқиб нима қилишини билмай, боши қотиб, кетиб борарди. Ўзича гапиради “бу меҳрибонликнинг тагида бирор нарса йўқмикан? Улар менинг ҳаётимга қаердан кириб келди? Бир томондан муаллимлик мумкин эмас, деб туришганда болаларни қандай боқаман. Қанақа иш топилади, деб турганимда ҳаётимга булар кириб келди. Балки бу ҳам Худонинг меҳрибонлигидир. Болалар мендан узоқлашиб кетмасмикан? Меҳр кўзда дейишади. Яхшилаб ўйлаб кўриш керак. Ёки боғчасини алмаштирсаммикан? Майли, соғлиғимни тиклаб олай. Мактабнинг ўзидан бирор-бир иш беришар. Зафар “сизга шовқин мумкин эмас”, деди-ку. Мактаб бўлмайди. Хай, бир иш топилар.

Кўзлари тинди. Одамларга урилиб кетгудек бўлиб, маст одамдек гандираклаб кета бошлади. Бир дарахтга бориб суяниб, секин ўтирди. Одамлар ҳайрон. Баъзилар уни четлаб ўтишади. Кўчада уюм-уюм чиқиндиларни ортаётган, кўча супураётган фаррошлар ва тракторчини, дарахтга суяниб турган Холикулга кўзи тушди. Ёнига боришди.

Бир ўткинчи аёл унга қараб:

– Эрталабдан ичмай ҳар бало бўл! – дейди.

Яна бир эркак эса:

– Бир кайф қилибди-да! Кийинишидан дуппа-дуруст одамга ўхшайди, – деганча ўтиб кетади.

Фаррош ўткинчиларга қараб:

– Такси-пакси тутиб, уйига жўнатиб юборинглар, – дейди.

Бошқа бир йўловчи Холикулга яқин боради:

– Ичмаган, мазаси қочган.

Одамлар йиғилди.

Холикул одамларнинг шовқинидан сал ўзига келди:

– Бироз бошим айланиб кетди. Ўтиб кетади...

Турмоқчи бўлди, туrolмади. Шошаётганлар бир-бир қараб ўтиб кетади. Кимдир “Тез ёрдам”га кўнғироқ қилади.

Сирена чалиб етиб келган “Тез ёрдам” Холикулни олиб кетади.

Хонада Зафар билан Холикул. Холикул осма укол олиб ётибди...

– Яхшиям мен бориб қолдим. Сизнинг касалингизни билар эдим. Қувват йўқ. Касалхонага эмас, уйингизга олиб келдим. Унинг устига даволанаётган одамсиз. Яна икки кун боришмасам ҳам бўларди ўша боғчага.

Осма уколдаги суюқлик тугаб бўлгач, Зафар асбобларини йиғиштириб қўйди. Холикул унга қаради:

– Яхшиям, сиз бор экансиз. Бўлмаса... билмадим. Болалар боғчада қолиб кетармиди?

– Шифохонада ётқизишарди. У ёғи менга қоронғу. Ҳали ҳайдовчи ҳам ўтиргандир тўмтайиб. Кечқурун чиқаман. Уйдан чиқманг. Ётинг. Келинингиз овқат чиқаради. Боғчага эса қизим бориб келади.

Зафар чиқиб кетди. Холикул орқасидан қараб қолди.

Шом маҳали. Кўчаларда шошиб кетаётган одамлар. Тирбанд машиналар шовқини эшитилади. Аста-секин борлиқни зулмат босиб кела бошлайди.. Қоронғу кўчаларда бирдан ёнган чироклар теварак атрофни ёритиб юборди. Холикул эртаси кун зиналардан тушиб келаётганда Зафарга дуч келди.

– Ҳа, йўл бўлсин?

– Болалар кечга қолиб кетди.

– Ҳар доим айтаман. Келинингизга ёки қизимга айтсангиз обориб олиб келади, деб. Сиз бўлсангиз, билганингиздан қолмайсиз. Уйга киринг. Ўзим бориб келаман машинада. Бир кадам-ку.

Холикул тутилиброқ гапирди:

– Мабодо боғчада бўлмаса, йўқ, яхшиси боғчага етмасдан чап тарафдаги учинчи дарвозадан сўраб кўринг. Балки олишгандир.

Зафар ҳайратомуз унга тикилади.

– Ҳеч кимингиз йўқ эди-ку?

– Болалар топишган.

– Бориб келай, кейин гаплашамиз.

Зафар зиналардан тез-тез тушиб кетади. Унинг оёқ овозлари эшитилиб турарди.

– Хўп кўшним бор-да. – Холикул ўзига-ўзи гапирди. – Умридан барака топсин. Хотини ҳам ўзидан ўтади. Бир-бирлари билан янги келин-куёвларга ўхшаб муомала қилишади. Аёлнинг ҳам ҳар хили бор-да.

Уйга кириб кетади.

Орзигулнинг хонадони. Саломат ая тўрда болаларнинг овқат ейишига қараб сездирмай кулади. Бир томонда Орзигул икки болаинг ўртасида ўтириб олиб, ўзи овқат едирмоқда. Зафар бир ош ейди, бир болаларга ош едираётган Орзигулга, бир болаларга қарайди. Орзигул онасига ҳам, Зафарга ҳам эътибор бермайди. Гўё болалардан бошқа ҳеч ким йўқ.

– Қани Шохрух, энди сен. Қани, Дилдорахон энди сен. – Галма-галдан едиради, болалар ҳам хурсанд, гўё ўз уйларида ўтиргандек бемалол.

– Мен катта қизман. Ўзим еяқолай, – дейди Дилдора.

– Ўзим едирмоқчиман-да. Тўртгалаб гуруч ейишингда қачон катта бўласан.

Шохрух Орзигулнинг кўли яқинлашиши билан, куш болаларидек оғзини очади, қошиқни бўшатиб, чайнаб, ютинади.

– Амма, мен катта бўламан-а? Кўп овқат едим-ку!

Саломат Зафарга қараб:

– Олинг, болам, ош совуб қолади. Олиб ўтиринг.

– Ош жуда мазали бўпти! – ош ейишга тутинади.

– Қани, ким биринчи? – дейди Орзигул болаларни қизиқтириб.

Улар овқатни еб бўлишгач, сочиқчаларга қўлларини артишади.

– Қани болалар кетдикми? – дейди Зафар болаларга қараб.

– Кетмайман, аммам билан қоламан, – дейди Шохрух.

– Қола қолайлик, – дейди Дилдора ҳам.

– Қола қолишсин, – дейди Саломат ая Зафарга.

Орзигул ҳам гапга аралашади:

– Кеч бўлиб қолди. Қолишсин. Эрталаб ўзим боғчасига кўйиб кетаман.

Зафар иккиланиб қолади:

– Билмасам, отаси хафа бўладими...
– Илтмос! – дейди Дилдора ялинчоқ оҳангда.
– Илтмос! – дейди Шоҳрух эрқаланиб.
– Хай майли, – дейди Зафар Саломат аяга қараб, – иккимиз,
яъни сиз билан гаплашиб олсак. Кўп эмас, уч минут.

Саломат ая елка қисади. Ҳайрон бўлгандай мийғида кулади.

– Айтаверинг, болам, нима гап экан?

– Иккаламиз гаплашайлик.

Саломат ая Орзигулга қарайди:

– Нариги хонага болаларни олиб чиқиб тур.

– Шарт эмас. Йўл-йўлакай ҳам гаплашаверамиз. Ўтираверишсин.

Ўрнидан туришга шайланади.

Орзигул идиш-товоқларни йиғиштириб олади.

– Биз ошхонани йиғиштирамиз.

Болалар унга эргашади. Чиқиб кетишгач, Саломат ая Зафарга “нима гап” дегандек қарайди.

– Холажон, олдиндан айтиб кўяй. Мабодо гапим эриш туюлса хафа бўлмайсиз. Мен ёшлигимдан дангалчи бўлиб ўсганман.

– Гапираверинг, болаларни уйда олиб турганимиз ёкмадими? Қўрқманг, уларни нотўғри йўлга бошламаймиз.

– Аксинча, шундай меҳрибон одамлар борлигидан хурсанд бўлдим. Қизингиз ажралганга ўхшайди. Энди ярашмайдимми?

– Уйланиб кетган. Қизим фарзанд кўрмас эмиш. Болаларни яхши кўради. Шу болаларга ўрганиб қолган. Билмадим, келиб-келиб шу болалар ёкиб қолди. Бола олмоқчи эдик. Шулар билан танишгандан бери эсидан чиқиб кетди. Тонг саҳардан иккисининг йўлини пойлайди.

– Жуда соз! Буларни янада яқинлаштирамиз. Мен болаларнинг отаси билан кўшни яшайман. Зўр одам. Нонкўр хотини ўйнаш топиб, қочиб кетган. Кўр бўлади. Болаларнинг уволи урсин! Шундай эркакни кадрига етмади. Келинг, иккисини қовуштириб кўяйлик. Ўзим бош бўламан. Шу болаларга Орзигулхондан бошқаси оналик қилолмайди. Нима дейсиз?

– Ўзларининг ҳам гапларини олиш керак. Иккимизнинг розилигимиз билан иш битмайди. Уларнинг юрагига қўл солиб кўрайлик.

– Қизингиз билан сиз, мен Холиқул ака билан гаплашаман. Ўзим бош-қош бўламан. Келишдик-а, холажон.

– Аввал уларни эшитиб кўрайлик. Олдиндан бир нарса дейиш қийин.

– Чўзиб юрмаймиз. Тезлатинг. Жа, савоб иш бўлади. Сиз билан менга ҳам кўп нарса боғлиқ. Астойдил киришсак, ҳаммаси яхши бўлади, – дейди Зафар хайрлашаётиб.

– Онам билан Зафаржон иккимизни қовуштирган. Мен ўшандан бери болаларга онаман. Бор гап шу. Қолгани ўзизга маълум. – Чуқур хўрсиниб маржон ёшларини артади. – Турмуш қурдик. Болаларни катта қилдик. Борлигимни уларга бердим. Бир-биримизга ўғайлигимизни унутдик. Ўз оналаридек кўришди. Ҳеч ким болаларни камситмасин, деб Холиқул акамнинг домини ҳам, бизларни ҳовлини ҳам сотиб, шу маҳаллага кўчиб келганмиз.

– Юракларим эзилиб кетди. Мен ҳали сизнинг болаларингиз, деб тургандим. – Қойил сизга, – деб Зулайҳо Орзигулни бағрига босади.

– Ўзимники бўлса ҳам шунчалик бўлар. Бир гапимни икки қилишгани йўқ. Кўярга жой топишолмайди. Мана, ҳаммасини билдингиз. Уйингиздагилар билан маслаҳатлашинг. Қизимнинг ўтмишини эслатмайдиган хонадонга узатаман, деб юргандим. Қадам ва хўжайинингиздан бошқа ҳеч кимга айтманг, илтимос. Қасам ичинг, демаяпман, илтимос қилиб ялинаман. Ҳеч ким билмасин! Оналигимча қолай.

– Ҳеч ҳам хавотир олманг. Учаламиздан бошқа ҳеч ким билмайди. Саидбек акам нима десалар шу. Сизни жуда яхши кўриб қолдим, Орзигулхон. Ҳа, айтмоқчи, иккаларингизни қандай қилиб кўча ишига кириб қолганингизни айтмадингиз. Иккалангиз ҳам олий маълумотли экансизлар.

– Холиқул акага ақлий иш қилиш таъқиқланди. Зафаржон ободонлаштириш ишига жойлаштирди. Иккимизнинг тўйимиз сурила бошлади.

– Нега энди? – хайрон бўлиб сўради Зулайхо.

– Холиқул акам, Орзигул агроном, мен ишчи бўлсам. Бир кун келиб бошқасини топиб кетса нима қиламан, деб... – кулади, – кизлардек ноз қила бошладилар. Бир ҳафтадан кейин Холиқул ака ишлайдиган бригадага фаррош бўлиб ишга кирдим.

– Қойил! – Зулайхо бошини қимирлатади – Қойил! Кейин-чи?

– Кўриб, анқайиб қолди. “Нега бундай қилдингиз?” – деди. “Болалар учун”, “Сиз учун”, деб йиғлаб юбордим. “Болаларни нега қийнайсиз?”, дедим. Ана ўша куннинг эртаси никоҳимиз бўлган. Ҳамма гапдан вокиф бўлдингиз. Қолгани ўзингизга ҳавола.

Шаҳарнинг гавжум кўчалари. Пиёдалар юрадиган йўлак. Кекса, ёш, аёл-эркак ўтиб қайтиб турибди. Бир уюм йиғилиб қолган ахлатнинг ёнидан ўтаётган йўловчилар оғиз-бурунларини рўмолу, рўмолчалари билан беркитиб югуриб ўтишадди. Кимдир устига-устак ахлат тўла елим халтачани ирғитиб югурганча ўтиб кетади, яна кимдир шох келтириб ташлайди. Нотаниш нуроний киши ўткинчиларга қараб гапиради:

– Эй, одамзод. Ҳидига чидолмасдан югуришингни қара. Бу бетартиб ахлатлар уюмини ўзинг қилмоқдасан-ку! Сен қочиб ўтаётган ўша ахлатлардан шаҳар кўчаларини, сарамжон-саришта қилиб, эркин нафас олишингни таъмин этаётган ана у кўча фаришталарининг меҳнатини кадрла! Улар бўлмаса, шаҳар кўчалари чикиндиларга тўлиб кетарди. Пашша-чивину, кўзга кўринмас микроблар, бадбўй хидлардан қайга кочардинг?! Уларга таъзим қил! Таъзим қилмасанг ҳам уларни камситма! Уларга раҳмат дегин, ҳой инсон! Мен ҳам бир пайтлар шулардек кўча ишчиси бўлганман, уларнинг оғир меҳнатини биламан, уларга таъзим қилинглар, ҳой одамлар!

Нотаниш кишининг бу ҳайқириғидан ҳамма хайратда.

Кўча ишчилари, йўловчилар яна ҳаракатда. Хизматчилар уюмларни бирпасда тележкаларга ортишади. Ҳориб, чарчаган ишчилар озода кўчаларга қараб, ўзларининг ишларидан мамнун.

Дилдора терларини артди. Ҳалиги гапирган нуронийга ич-ичидан миннатдор бўлиб қараб қўйди. Аноранинг олдига келиб ўтирди.

– Одамларимизга инсоф бергин, Оллоҳим. Уларнинг ҳам меҳнатимиз қадрига етмоқликни ана у амакига ўхшаб қалбига солгин.

– Айтганинг ижобат бўлсин! – Юзларига фотиҳа тортишади.

Улардан сал нарида буклоғлик қоғоз. Анора оғриниб туради:

– Ҳозиргина тозалагандик-а. Қаёқдан пайдо бўлди? Бориб қоғозни олади. Қоғозга нимадир ўроғлик.

– Нима экан, ушлаб қолдингиз? – ҳазиломуз гапирди Дилдора. – Хазина топмадингизми?

– Билмадим, нимадир бор ичида. Сен айтгандек хазина бўлса-я?!

Дилдоранинг ёнига келади. Очади. Иккаласи бир-бирига қараб қолди. Қоғоз ичидан доллар кўринади.

– Қанча экан, сананг-чи? – дейди Дилдора.

Анора шошмай санайди:

– Саккиз юз эллик. Бир бечораники. Тушиб қолдиргандир-да. Нима киламиз? Уларнинг ёнига яна бир ишчи аёл гапларини эшитиб келди:

– Бўлишиб кўя қолайлик.

– Эгасини топиб бериш керак. Емай-ичмай йикқан бўлса керак, – деди Анора.

– Келинлар, эълон ёзиб қўямиз. Суммасини айтмаймиз. Сир бўлсин. Эгаси топилса берамиз. Қалай, тўғрими, – дейди Дилдора.

Дилдора эълонни ёзиб Анорага беради. Анора таги-га Дилдоранинг телефонини ёзади-да, эълонни симёғочга ёпиштиради.

– Дилдора, тагига телефон рақамингни ёзиб қўйдим.

– Ўзингизникини ёзсангиз бўларди.

– Биласан, поччанг рашкчи. Унинг устига сал очкўзрок. Долларни эшитсалар тамом. – Дилдорага долларларни узатади. – Ишончли бўлади. Сенда тура қолсин.

Дилдора долларларни олиб халатининг чўнтагига солди.

– Тўғри иш бўлди. Дилдора “честний”. Йўқотмайди. Ҳаммамизнинг олдимизда эгасига топширади. – дейди бояги аёл.

– Суюнчиси бўлиб қолса кабобхўрлик қиламиз.

Дилдора уйига келиб ювиниб, сочини тараб, ойнага қараб ўтирибди. Телефон жиринглайди. Оғриниб телефонни олади.

– Салом. Эълон бўйича. Мен тушириб қолдирганман. Ўша сиз топган долларни.

– Қанча эди?

– Эсимда йўқ.

– Кечирасиз, доллар сизники эмас, қанчалигини билмай-сиз. Бировнинг пулига эга чиқишдан уялмайсизми?

– Ўч-ей.

Телефон тинади. Дилдора яна сочини тараб ўра бошлайди. Яна кўррок

– О, опа. Долларни топган сизми? Раҳмат, ўша меники эди. Чўнтагимни ковлаганимда тушиб қолган. Суюнчи бор...

– Қанча эди?

– Қанчалиги билан нима ишингиз бор. Ҳаммаси юзталик.

– Суммасини билмадингиз. Демак сизники эмас. Қолаверса ҳаммаси юзталик эмас.

– Қасам ичишим мумкин.

– Кўйинг, яна қасам урмасин, – дейди Дилдора.

Овоз тинади. Дилдора ошхонага чиқади. Яна кўнғирок.

– Ало, эшитаман.

– Раҳмат сизга. Тоза виждонли инсон экансиз. Қандай олсам бўлади. Ҳалол пул-да. Меҳнат қилиб топганман.

– Қанча эди?

– Нима, ишонмаяпсизми?

– Қанчалигини айтинг. Сизники бўлса.

– Ҳой, қанақа аёлсиз? Меники дедим-ку. Бировники керакмас менга. Икки мингдан сал кам эди.

– Сизники эмас экан, топилма жуда оз. – Дилдора телефонини ўчириб қўяди.

Эрталаб. Кўчаларда одамлар. Тонг ёришиб келмоқда. Дилдора ва унинг шериклари иш билан банд. Улар ўтган жойлар

топ-тоза, ораста кўринади. Дилдоранинг ёнига Анора келди, кўришишади.

Қоғозга ўралган топилмани Дилдора Анорага узатди:

– Сизда тура қолсин. Телефон қилишавериб, қулоғимни коматга келтиришди. Дилдора кўярда қўймай Аноранинг кўлига тутқазди.

– Эгаси кўпайиб кетди. Ҳаммаси ёлғон гапирди. Тўғри одамлар бировникини меники, демайди. Олинг, ўзиз бир коризга ишлатинг.

– Ишлата олмайман. Яхшиси топилмалар бўлимига ишдан кейин берамиз, – деди Анора.

Яна ишга тушиб кетишди. Узоқдан бир кекса киши ҳамма ёқни, арчалар тагини ҳассаси билан титкилайди. Нимадир излайди. Қария Дилдора билан Аноранинг ёнидан ўтаётиб ҳам ўтларнинг орасидан нимадир излади. Уларга эътибор бермай ўтиб кета бошлади. Дилдора Анорага қарияни кўрсатди. Анорани нимадир эсига тушгандай бўлди. Қарияга яқин боради.

– Ассалому алайкум, амаки.

– Ваалайкум ассалом. – Ердан кўзини узмай алиқ олди қария.

– Нима қидираяпсиз, амаки?

– Пенсиямдан оз-оз йикқан пулимни йўқотиб кўйдим, қизим. Мабодо бу дунёдан ўтар бўлсам болаларимга оғирлигим тушмасин дегандим. Йўқотиб кўйдим. – Рўмолчаси билан юзини артади. – Тушиб қолганини кўрмай қолибман. Яхши бўлмади.

– Анча йилдан бери йиғиб юргандим. Билмайман. Қандай йўқотдим. Ҳар куни шу йўлдан дўконга бориб келардим...

– Қанча эди?

– Унча кўп эмас. Саккиз юз эллик эди.

Анора чўнтагидан доллар ўралган қоғозни олиб, қарияга узатди:

– Санаб олинг. – Қария долларларни кўздан кечиради. Қувончдан кўзлари чакнайди. Юзлари ёришади.

– Худди ўзи. – Дуога қўл очади. – Оллоҳим сизларга бахт, соғлиқ-саломатлик, узоқ умр берсин. Умрингиздан барака топинглар. Омин, Оллоҳу Акбар. – Қария юз долларни ажратиб,

уларга узатади. – Суюнчиси, олинглар, кизларим. Умрингиздан барака топинг, сизларга ўхшаган виждонли одамларнинг бориға шуқр, олинглар, мингдан минг рози бўлиб беряпман.

Дилдора билан Анора қўлларини кўксиларига қўйишади.

– Раҳмат амаки. Дуоингизни ўзи бизга мукофот.

Қария қайта-қайта раҳмат айтганича улардан узоқлашди. Анора билан Дилдора мамнун бўлганча қариянинг орқасидан қараб қолишди. Оғир бир юкдан қутулгандек бир-бирига қараб кулиб қўйишди.

Қадам ота-онаси, опаси билан бирға суҳбатлашиб ўтирибди.

Зулайҳо тилидан бол томиб Дилдорани мақтайди:

– Қизмисан, қиз экан. Аввал унга эътибор бермаган эканман. Нақд фариштаннинг ўзи-я! Кўриб ўзим ошиқ бўлиб қолдим. Онасини айтмайсизми, бирам кўркам аёлки... умуман биз розимиз, дедим.

Саидбек қафтларини столға уриб:

– Унда тўй-да! Нимани кутамиз.

– Ҳали улардан аниқ жавоб ололганимиз йўқ. Ўзлари айтишаркан.

– Рози қиламиз. Ота ўғил-да, танлашни билади... Қизи борнинг нози бор, бир-икки кун ноз қилади-да. Онанг билан эртаға бориб, уларни рози қиламиз. – Ўғлиға хурсанд қарайди. – Ҳа, ўғилбола, тўй бўлсин-а!

– Роса ўғлингизнинг юрагидан урган экан-да, дадаси. “Агар шу қиз бўлмаса, ўзимни сувға чўктираман”, дейди-я. Бу ўғлингиз сиздан ҳам ўтди.. Лекин қизни ҳам юрагидан урган экан ўғлингиз. Тилида йўқ, деди-да, лекин кўзига ёш олди. Адаси, насиб қилса тўй бўлади.

– Тўйға нима етсин!

– Шанба кун ота-онаси билан биз иккимиз миллий боғда учрашадиган бўлдик.

– Жуда яхши. Учрашсак-учрашамиз. Шанбаға ҳам уч кун қолди, – деб Саидбек ўрнидан туради. – Мен ишға борай. – Чиқиб кетади.

Миллий боғ. Ҳар хил атракционлар. Мўъжазгина кўл. Кўл атрофида дарахтлар, гуллар. Икки соҳилни бирлаштириб турган кўприк. Кўлда қайиқларда сузиб юрган ҳар хил ёшдаги одамлар. Алишер Навоийнинг салобатли ҳайкали. Боғнинг соя-салқин жойида шинамгина чойхона. Уч-тўртта супага кўрпачалар солинган. Супалардан сал нарида стол-стуллар. Холироқ жойда Холикул, Саидбек, Орзигул, Зулайҳо суҳбат қуриб туришибди. Суҳбат тўй ҳақида.

– Ошни “Регистон” тўйхонасида берадиган бўлсангиз жуда яхши. Никоҳ базмига «Версал»ни гаплашамиз – деди Саидбек.

– Ўзингиз биласизу, қийналиб нима қиласиз? Бир кунлик тўй ўтади кетади. “Версал”дан бундайроғи ҳам бўларди, – деди Холикул.

– Ният қилганлар... – деди Зулайҳо.

– Бир марта, ҳақ берсам, берибман-да, куда. Битта ўғил бўлса.

– Насиб қилса ҳали набираларни тўй қиларсиз, – деб кўшиб кўяди.

– Майли, ўзингиз биласиз. Ошга қанча одам билан келасиз, Саидбек ака?

Саидбек бир оз ўйлаиб олган киши бўлиб:

– Юзтача бўлар, кўп эмасми? – дейди.

Холикул бир даста оқ қоғозга ўралган таклифнома узатади.

– Юзта. Етмай қолса айтарсиз.

Зулайҳо сумкасида оқ қоғозга ўроғлик таклифномани олиб, Орзигулга узатади.

– Мана сизга икки юзта. Тўрт юзта жой айтилган.

– Кўп. Саксонга етади, – деди Орзигул.

– Қўрқмасдан айтаверинг. Тўрт юзтага жой айтилган.

– Йўқ Саидбек ака, болалар билан юзтага бориб қолади, кўпи кўп, – деди қаттиқ оҳангда Холикул.

Саидбек энди гапиришга чоғланганда, Зулайҳо уни секин туртиб кўяди. Холикулга қарайди.

– Юзта бўлса, юзта-да. Айтмоқчи, шу мебел... – Саидбекка қарайди. Эри гапни давом эттиради:

– Шу десангиз, мебель олманг. Келинингиз тушмагур ўғлимга деб, мебелларни ҳам олиб қўйган. Пешонамизга бир ўғил битган экан, куда.

Орзигул хафа бўлган оҳангда гапиради:

– Кўриб қўйгандик...қандай бўларкан...

– Хўп денглар. Майли, битта сандик, кўрпа-кўрпачалар бўлса бўлди.

– Сандик энди ота-боболаримиздан ўтиб келаётган удум, – гапга аралашди Зулайҳо..

– Кўпам сийлаб юборманг, Саидбек ака. Бизлар ҳам ният қилиб қўйганмиз.

– Холиқулбек, меники сеникени қўяйлик. Икки ёшга бахт тилайлик.

– Мол ёяр бўлмайдимиз? – деди Орзигул Зулайҳога қараб.

– Қилаверинг. Мебелларнинг тахи бузилмаган. Упаковкада. Болгарияники, ўралганича турибди.

– Пардаларни ҳам осиб келамиз. Қизимнинг ўзи тиккан.

– Пардалар ҳам осилган эди. Олиб қўямиз, майли. Келиникени оса қолинглар.

Зулайҳо ҳайратланган бўлди:

– Ўлчаб кетмовдингиз-ку?

– Куёвдан билиб олган экан, – кулади Орзигул, – ҳозирги ёшлар биздан олдинроқ юришади.

Кулишади.

– Қайси кун десангиз, ихтиёрингиз. Бемалол келаверинглар.

– Саидбек ака одамни кўп хижолатга қўяпсиз... – дейди Холиқул.

– Сизлар ҳам... Майли бўлмаса турайлик. Бирор гап чиқса, телефонлашамиз, – деб ўрнидан туради Саидбек..

Қолганлар ҳам ўрниларидан туриб, кўл ёқалаб, кўча томон юришди.

Боғ дарвозаси. Манзара. Кўлга бир маромда тушаётган сув. Сайр қилиб юрган одамлар. “Юртим жамоли” қўшиғи янграб турибди. Дарвозадан чиқиб, машиналарга ўтириб кетишди.

Музқаймоқлар павильони.

Қадам билан Дилдора бир четдаги столда ўтиришган ҳолда суҳбат қуришмоқда. Олдлариди музқаймоқ билан кола ва гул. Улардан сал нарида ёши катта хўрандалардан икки-уч нафари ўтиришибди.

Дилдора кулади:

– Сизнинг иш сўраб боришингизни билганимда оҳори тўқилмаган супургими, белкуракми, ўрокми олиб келардим “обмен товар” қилардик.

– Кулинг... нима бўпти иш сўраб борган бўлсам. Сувчи штати бор экан, бригадир штати бор экан. Бирорасига оламан, дедилар.

Дилдора бармоғи билан Қадамнинг елкасига эркалаб уради, бошига ишора қилади:

– Жойидами ўзи? Ўқшингиз-чи?!

– Икки ойдан кейин диплом ҳимоям, айтгандим-ку. Хотиранингизни даволанг, – деб кулади.

Дилдора жиддий уф тортади:

– Сизга қаёқдан ҳам йўлиқдим-а, бошимга оғриқ ортгирдим. Қадам ака, сизга тўғри келмайди, тўғри келмайди! Оилангиз шаънига ҳам тўғри келмайди. Етар, менинг ишлаётганим.

– Мен ўғирлик ё қаллоблик қилаётганим йўқ-ку, фақат сиз ишлаётган жойда ишламоқчиман. Нима сиз ишлаган жойда ишлаш айбми?! Ҳатто баъзи бир Европа мамлакатлариди вазирлар ишдан бўшаса, бензин қуювчими, кўча супурувчими... тўғри келган ишни қилаверишади. Ҳаммаси меҳнатку. Ҳалол меҳнатнинг уяти бўлар эканми? Қолаверса, энди ишламай турсам ҳам бўлади. Энди сиз ёнимда бўласиз-ку, тўғрими?!

– Бу ер сизга чет эл эмас. Ишдан кўра гап қилувчилар кўп. Қанийди ҳаммаям сизга ўхшаб меҳнатнинг яхши-ёмони бўлмаслигини билса. Негадир ҳамма бизга паст назар билан қарашга ўрганиб қолган. Ўзимиз ҳам шунга кўникиб кетганмиз.

– Ўзи аслиди меҳнатингизнинг тарғиботи йўқ. Газета, журналларда соҳани кўпроқ ёритиш керак. Охири журналист бўлиб кетмасайдим хали. Ўзим фаррошлар ҳақида ёзардим.

– Баракалла, ҳақ гапни гапирдиз. Бизларга бағишланган бирор та шеър ёки мақола ўқиганим йўқ. Шаҳримизни, кўчаларимизни озода тутайлик, дейишади. Бир кунлик ҳашарни тинимсиз тарғи қилишади. Бу барчамиз учун яхши. Бу ҳам бизга ёрдам. Лекин йил ўн икки ой ҳашар қилишмайди-ку! Йил ўн икки ой тозаликни сақлаб турадиганлар ким? Кўча ишчилари-ку! Айтадиган гапла кўп. Сиз ҳам ўшаларнинг бирисиз, хафа бўлманг, Қадам ака.

– Менинг ўз фикрим бор. Мен онгли мавжудотман, онгси махлуқ эмас, – дейди жиддий туриб Қадам.

– Сиз ота-онангизни орзусисиз. Яхшилаб ўйлаб кўринг Яккаю ёлғиз ўғилсиз. Ёшлиқ қилиб қўйманг.

– Мен сиздан бошқасини демайман. Тўй бўлар аснода га пираётган гапингизни қаранг, яна яхши кўрармишлар.

– Шаънимга шеър ҳам тўқирсиз. Қизил атиргулим ҳам дер сиз. Сизнинг ота-онангизга ўхшаганлар инсонларни табақалар га бўлишмоқда. Кўзга кўринмаган метин деворлар қуришмоқда

– Унчалик эмас. Отам ҳам, онам ҳам сизни маъкул кўри қолишди. Ҳозир улар ўзгарди. Аниқроғи сиз ва сизнинг ота онангиз ўзгартирди.

Дилдора жиддий, вазмин қиёфада нигоҳини узоқларга тик канча гапиради:

– Баъзи инсонларга ҳайрон қоламан. Уларнинг фарзанди ҳам, ватани ҳам, миллати ҳам, Оллоҳим мени кечирсину, улар нинг дини, иймони, Худоси ҳам пул-давлат, данғиллама имо рат. Ҳа, бу – ҳақиқат!

– Жа-а унчалик эмас, сизларнинг меҳнатингизни ҳам қадрлайдиганлар кўп. Қанчадан-қанча одамлар: “Шуларнинг отасига раҳмат! Барака топсин. Шулар туфайли кўчаларими обод”, дейишганини ўзим эшитганман. Ҳа, айтмоқчи бугун ота-оналаримиз учрашган-а?

– Ҳаммасини тушунтирдим. Ҳали ҳам ўйлаб кўришг вақтингиз бор. Кейин пушаймон қилиб юрманг, дейман-да Одамларнинг гап-сўзларига чидолсангиз мен розиман, дедим яна нима дейин Қадам ака, – дейди Дилдора.

– Бир-ярим гапирса гапиради-да, мен ўзим учун яшай ман-ку. Бундай майда-чуйда гапларга кулоқ солиб яшайдигай йигит эмасман!

Дилдора табассум қилади:

– Жуда қўймадингиз, қўймадингиз-да. Майли, мен борай, кеч бўлиб қолди. Овқат қилишим керак. Розилигимни аллақачон олиб бўлгансиз.

Қадам қизни кузатиб қўяди. Иккиси икки томонга бир-бирига қарай-қарай узоқлашади.

Кўча ишчиларидан Ҳайдар сувчи билан Зоир боғбон йўлакнинг четидаги дарахт соясида суҳбатлашиб туришибди. Ҳайдарнинг кўлида сув очқич, Зоирнинг кўлида гулқайчи. Ҳайдарнинг бир кўлида гул. Ҳар замонда аланглаб атрофига қараб қўяди. Безовта.

– Ҳайдарбой ука. – Зоир кўкрагига муштини уради. – Юракдан урганга ўхшайди-ёв. Бу Дилдор тушмагур.

– Нима дейсиз?! Пашшага ўхшаб мингилламасдан, баландроқ гапиринг! Минғир, минғир қилади, нон емаган одамдай, – дея зарда қилади Ҳайдар.

– Қулоғинг, ҳалиги чангга тўлиб қолган трубадай битиб қолган бўлса, ман нима қилай, бақираман-да.

– Труба дейсизми?! Хушвақт ўғриникида тикилиб ётибди... арзимаган пулга беради. Яримта арокқа ҳам бериб юборади. Хотини билмаса бўлди. Хотини жа-а ёмонда, “шантаж”. Хушвақт бечорага пул ушлагани қўймайди. Аммо, лекин бир томонига гап йўқ. Хушвақтни биласан “астоновкаси” ичади. Эмаклаб уйигача боради, лекин уйига кўтарила олмайди. Подъездигача боради-да, “хотин” деб, чакираганча гуппа кулайди.

Зоир тиззасига уриб кулади:

– Ўзиям қўзичокни кўтаргандай қўлтиклаб олиб чиқади. Хотиниям полвонмисан-полвонда. Лекин хотини унга барибир меҳрибон.

– Гапни ҳам чалғитиб юбординг, нима деяётгандинг?

Ҳайдарнинг кўлидаги гулга ишора қилади.

– Гулми? Ҳар қалай сизга эмас. Эгаси бор. Ҳали замон келиб ҳам қолар. Зўр қиз-да! Бугун келиши билан гулни бериб қўлини сўрайман. Агар менга турмушга чикмасанг ўзимни тоғдан отаман, дейман.

Зоир тескари қараб энсаси қотади:

– Ободончилик битта қардан қутулар экан-да. – Ҳайдарга қарайди. – Шаҳарда тоғ нима қилсин, галварс! Сувга отаман дегин, анҳор бор. Ҳар куни гул кўтариб келасан. Лекин беролмайсан. Гулинг қўлингда қолиб кетади.

– Гапирдингми? – қулоғига кафтини қарнай қилиб сўрайди Ҳайдар.

Зоир Ҳайдарнинг қулоғига қўлини қарнай қилиб:

– Сузишни биласанми?

Узоқдан Дилдора кўринди.

Ҳайдар кўксини кўрсатиб:

– Ўзимни юрагим ҳам сезиб турибди. Манга қаранг, кўришим “ничевоми”.

Зоир бош бармоғини кўрсатади:

– Зўр! – Йўлакни кўрсатади. – Ана Дилдор келяпти!

Дилдора билан Анора уларга яқин келди. Ҳайдар гулни ушлаганча қотиб турарди. Қизлар унинг қаршисига келиб тўхташди. Анора Ҳайдардаги гулга кўл чўзади.

– Сенга эмас! Эринг бор. Сенга поччам олиб берсин гулни. – Гулни Дилдорага узатади. Дилдора гулни олиб ҳидлайди. – Гулни олди, рози экан! – Ўйинга тушади. – Ўзи розимисан, – сўрайди жиддий тортиб.

– Йигитим бор, ака. Неча марта айтай? – деб бакиради Дилдора.

– Розиман дедингми! Ҳа, тилингга асал! Отамга рози, деб айтаверайми?

Югуриб кетмоқчи бўлади. Дилдор уни тўхтади.

Дилдора қўлини қарнай қилиб:

– Ҳайдар ака, сизни акамдек яхши кўраман. Йигитим бор. Яқинда тўйимиз бўлади.

Ҳайдар Зоирга қараб:

– Эшитдингизми, Зоир ака? Яхши кўраман деди! – Қувончдан рақсга тушиб кетади.

Уларнинг ёнига Қадам бир даста гул кўтариб келиб қолади. Гулни Дилдорага узатди. Дилдора тўйиб-тўйиб ҳидлайди. Ҳайдарнинг гулини Анорага беради.

– Ассалому алайкум, Қадам ака, яхши келдизми?

– Ваалайкум ассалом. Ўзларингиз яхшимизлар? – Ҳайдар оғзини очганча қараб қотиб турибди. Сесканиб ўзига келади. Дилдорага қарайди:

– Дилдор, бу ким бўлди?! Ошга пашша тушгандай қайси гўрдан пайдо бўлди?!

– Зоир ака, мана бу пашшани, – қўли билан кир сиқишни кўрсатиб, – бир сиқиб қовурғаларини синдириб, абжағини чиқариб ташлайми?!

– Қамалиб кетасан! – бакиради Зоир.

– Тўғри айтасан, тўғри келмайди. – Дилдорага қараб. – Ҳайдаб юбор, бу олифтани! Кўп пашшахўрда бўлмасин.

Дилдора қўлини карнай қилиб баланд овозда:

– Уни севаман, севаман, Ҳайдар ака!

Ҳайдар яна хурсанд бўлиб ўйингга тушади:

– Севади, севади!

Дилдора жаҳл билан уни ўйиндан тўхтатди. Кафтларини карнай қилиб, қулоғига бақирди.

– Сизни акамдек яхши кўраман, Ҳайдар ака.

– Яхши кўришингни эшитдим. Энди тўйми?

Дилдорани багтар жаҳли чиқади. Бориб Қадамни қўлтиқлайди:

– Қадам акани севаман, Қадам акани. – Иккалови қўлтиқлашиб кетишади.

– Эшитдим. – Ҳайдар шалпайиб ерга ўтириб қолади. – Уни севаркан, уни севаркан.

– Ободонлаштириш битта кардан ажралди-ёв, ажралди. Бўпти хайр, – деди Зоир бош чайқаб.

Ҳайдар дарахтлар соясига узала тушиб ётиб олди.

Орзигул тикиш билан машғул. Холикул гапни нимадан бошлашни билмайди. Хона бўйлаб юради.

– Ҳадеб юравермасдан ўтирсангиз-чи?

Холикул юришдан тўхтади.

– Орзигул, биласан, сендан яширадиган нарсам йўқ. Шу десанг, Саломат телефон қилди. Учрашайлик, деди.

– Қайси Саломат?

- Ўша Саломат-да. Эри бўла туриб, эрга тегиб кетган.
- Кундошинг, денг. Учрашаверинг.
- Эски ярамни янгилади. Эсимдан чиқарган эдим. Қайси гўрдан пайдо бўлди, билмадим.

Орзигул тикишдан тўхтаб, Холикулга қаради.

– Унга яна нима керак экан? Чамамда бор будингизни олиб кетган, шекилли, янги уй оламиз, деб йиғиб қўйганингизни ҳам олиб кетган бўлса. Қизик, майли, учрашинг-чи, балки, болаларини кўрмоқчидир.

– Мен ҳам шуни ўйлаб турибман...

– Майли кўрсин. Болаларнинг ўзларига қўйиб беринг. Ўзлари ҳал қилсин. Қачон учрашасиз?

– Кутиб турибди. Хадрада. Юр, бирга борамиз.

– Йўк, ўзингиз борақолинг.

Холикул кийиниб истар-истамай чиқиб кетди.

Хадра майдони. Фавворадан сув отилиб турибди. Ҳар хил ўйингоҳларда болалар ўйнашади. Саломат охори кетган қўйлақда, бошидаги эски рўмол билан ярим ўралган, бир четда болаларнинг ўйинига маҳлиё бўлиб қараб турибди. Холикул унга яқин келади ва томоқ қириб йўталади. Саломат чўчиган кишидек тез ўгирилиб қарайди.

– Салом, – дейди Саломат.

– Вaleyкум ассалом, – алик олади Холикул.

– Кечиринг, безовта қилдим.

– Оллоҳ кечирсин. Нега чақирдинг?

– Ёшарибсиз.

– Мақсадга ўт.

– Болаларни кўрдим, сизни ҳам бир кўрай, дедим.

– Мана кўрдинг, бошқа гапинг бўлмаса, мен кетдим.

Холикул кетмоқчи бўлади.

– Бир пас шошманг, кетасиз. Бошқа кўришмаймиз. Фақат билиб қўйинг, дедим. Мени йўлдан уриб, турмушимни бузиб кетган ўша эркак ҳамма пулларимни, тилла тақинчоқларимни олди. Бор-йўғи бир йилча яхши яшаган бўлдик. Сўнг уйга қамаб қўйиб, мени ҳар хил одамларга сотди. Қаршилик кўрсат-

гандим, аёвсиз савалади. – Юзидаги чандикларни кўрсатади. – Шу кўйга солди. Бу ҳам етмагандек, менга ўхшаб, алданган аёлларга тиламчилик қилдирарди. – Ҳикқилаб тебраниб-тебраниб йиғлайди. – Ҳеч ким мендек биринчи никоҳидан ажрамасин, дўзах азобидаман. Сизга қилганларимнинг азобини тортяпман. Фариштадек аёлингиз бор экан.

– Қочиб кетиб, органга борсанглар бўларди-ку!

– Ёнимизда кўриқчи бўларди, ҳеч қаёққа қочишга имкон бермасди. Ҳар қадамимиз назоратда эди.

– Мана мен билан учрашишга имкон топибсан-ку.

Саломат оғир тин олди.

– Ҳа, имкон топдим. Сиз билан учрашиб, ҳамма қилган гуноҳларим, сизга етказган жароҳатларим учун, тиз чўкиб, оёқларингизни ўпиб, кечирим сўрамоқчи эдим. Афсус, одамлар кўп. Кўпга кулги бўлманг. Фараз қилинг, оёқларингиз остига йиқилиб, кечирим сўраётган бир аёл, деб билинг. Ҳаммаси учун мени кечиринг! Мен адашган бир аёлман. Энди мени бошқа кўрмайсизлар, бошқа безовта қилмайман. Болаларимга менадан минг чандон яхшироқ оналик қилган, қилаётган фариштадек пок, меҳрибон онаси бор экан. Кўнглим тўқ бўлди. Майли, юрагимдаги бир дарддан қутулдим. Энди хотиржамман.

– Яна ўшанинг ёнига борасанми?

Саломат кўз ёшларини артди.

– Йўқ, мен... – улардан сал нарида турган икки аёлни кўрсатади, – бизлар ўша иблисни ўлдирдик. Энди ўзимизни органга топширамиз.

“Хайр” деганча, Саломат тез-тез, кўзларида шашқатор ёш билан шериклари томон кетди. Орқасидан Холикул маъюс қараб қолди.

Шаҳар осмонида юлдузлар милтираб кўрина бошлади. Шом. Қоронғи тушмоқда. Стол атрофида Дилдора, укаси Шоҳрух, онаси Орзигул тез-тез кўча эшик томонга қараб кўяди.

– Отанг бунча кечикиб қолди, тинчлик бўлсин-да?!

– Ишлари кўпайиб қолгандир, баъзида кўшимча топшириқлар беришади, биласиз-ку, она.

– Хўжайинлари бирорта бойвачча ўртоқларининг ҳовлисидаги мусорни олдиргани юборгандир. Нима кўп бошлиқнинг ўртоғи кўп, – дейди Шоҳрух.

– Борсалар, ҳақини беришади, болаларим.

Дилдора жаҳл билан гапиради:

– Ўргилдим, ўша ҳақини берганлардан. Тоғни урса, талқон қиладиган болалари кўлини совуқ сувга урмасдан томоша қилиб ўтиради. Тўғрими, Шоҳрух?

– Жимгина кузатиб турса ҳам майли, ”Ҳой, секинрок, ҳаммаёқни чангитиб юбординглар”, – деб бақирганларини айтмайсизми? – дейди Шоҳрух.

– Бир кун Анора опа иккимизни бир одамникига ишга юборди, бошлиқ. Ҳовлиси ахлатхонага айланган. Қизи, ҳаммаёқни расво қилдинглар, чангга аллергиям кўзгади, – деб бақирганди. – Бизгача ахлатхонага айланиб бўпти-ку. Одам боласи ҳам шундай яшайдими?! Ишласангиз бўлмайдими? Бу кетишда эгилолмай қоласиз-ку, – деб чақиб олдик.

– Тўра акани роса жаҳли чиққандир, – деди Орзигул кулиб.

– Роса мириқиб кулдилар. “Боплабсанлар”, – дедилар.

Кўча эшиқдан Холикул кириб келди. Елкасига ташлаб олган белбоғнинг бир четига пешонасидан оққан терини артади.

– Роса чарчадим! – Бориб кранда ювинади. Дилдора сочиқ узатади. – Раҳмат, кизим, умрингдан барака топ!

– Кечикиб қолдингиз, адаси? – маъноли қарайди Орзигул.

– Кайковус ариғи бор-ку, Чиғатой маҳалладан ўтадиган. Ҳашар бўлди. Ўзиям одамнинг жонидан бошқа ҳамма нарса бор. Суякми, товукнинг бошими, бакалашкаларни-ку, сон-саноғи йўқ, ўлган кучукми, мушукми... Одам ҳам шунчалик бўладими? Шу сувдан илгари одамлар ичишган, дейишади кексалар. Ҳозир аҳволига маймунлар йиғлайди. Сасиб кетган, туриб бўлмайди. Атрофидагилар қандай чидашади, билмадим. Уларга қойил қолмадим.

– Ўша атрофдаги одамларга қойил қолмай тўғри қиласиз. Бир кун шундай бизларга кўрсатиб, эшигини тагидан оқиб турган сувга бир челақ чикиндини ағдарди, кап-катта хотин. Опоқи ариқ кўмилиб қолади-ку, десак, “кўмилса сенга нима, кўчангни супур”, деб бақириб берди.

– Ҳа қизим, ўша ариқ бўйидагилар аксарияти мусулмон. Билмадим, шунча гапирилади, газетага ёзилади, телевизорда гапиришади, ҳеч таъсири йўқ, – дейди куюниб Орзигул.

Холикул гапга аралашди:

– Қўяверинглар, бир кун инсоф кирар. Ишимиз тозалаш, ахлатларни чиқариб ташлаш, супуриш. Сен билан мен куюн-ганим билан бирор нима ўзгариб қолармиди?

– Ота, анҳор бўйидаги ошхона, ресторанларни бузишга ким буйруқ берган бўлса, яшасин. Яхши бўлди, улар ҳам чиқиндию ахлатларни анҳорга оқизишар эди.

– Яхши ишлар ҳам кўп бўлмоқда, Дилдор қизим. Жон куйдирадиган ҳам, бепарво ҳам кўп. Майли, мен чарчаганман. Вақтлироқ дам олай.

– Шоҳрух, дарсингни қил. Дилдора, ошхонани йиғиштир. – Дилдора билан Шоҳрухни турғизиб юборади Орзигул. – Адаси, учрашдингизми? Нима гапи бор экан?

Холикул ачиниш оҳангида гапиради:

– У Саломатдан асар ҳам қолмаган, кўрсанг раҳминг келади. Оллоҳ жазосини берган чоғи, етмиш яшар кампир дейсан. Икки дугонаси билан хориждан қочиб келибди. Эри кўп аёлларни алдаб, ёмон жойларга сотган экан. Гумдон қилиб қочишибди. Хуллас, ўзларини органга топширгани кетишди. Сенга раҳмат айтди. “Болаларим бахтли бўлсин. Мени кўп эслатманг, мендан яхши оналари бор экан, кўнглим тўлди”, деб кетди. Мен ҳеч нарса демадим, лекин ачиндим.

– Ҳа, ҳеч банда йўлидан озмасин. Қийин бўлибди.

– Қўй, онаси бу ҳақида гаплашмайлик. Тўй масаласини гаплашайлик.

Иккаласи қоғоз олиб нималарнидир ёзишга киришиб кетишади.

Тун шаҳарга қора либосини ёйган. Кўчалар чироқлар ёруғидан кундек равшан. Озода ва ранго-ранг чироқлар билан безанган кўчаларда одамлар сайр қилиб юришибди.

Қадамнинг ота-онаси, амакиси, тоғалари, янгалари, Зулайҳонинг онаси ўтиришибди. Эшиқдан Зулайҳо билан Сарвара кириб келди.

– Хўш, қандай бўлди? – тоқати тоқ бўлиб кутиб турган Саидбек.

– Асалдек, – дейди Сарвара, – укамнинг дидига гап йўқ.

– Бу сафар сеп олиб келмасликка аранг рози қилдик.

– Элдан кам қилмаймиз, деб туриб олишди. Мен ҳам “юзига солмаймиз, биз мебель эмас, укамга келин оламиз”, дедим.

– Офарин, зўр гап айтибсан. Ўзимга ўхшабсан, қизим, – деб эркалади кизини.

– Бир амаллаб рози қилдик. Ишқилиб бахтли бўлишсин!

– Ҳалиги келин бўладиган кизни “уборшиқ” дедингизми, куёв? – сўрайди Ойқиз момо.

– Фаррош, она, фаррош.

– Фаррош, деганинг нима ўзи? Ўзбекчалаб тушунтир.

Саидбек четда турган супургини олиб, ер супуриб кўрса-тади.

– Кўча супуради, сиз билан биз юрадиган кўчаларни супуради.

– Барака топсин. Яхши келин топибсиз, куёв. Кўчангиз билан ховлиларга сон кираркан-да, болам. Ишчан бўлгани яхши. Жевачка чайнаб, тирноғини бўяб турадиганларни бошингга урасанми? Зўр келин топибсан. Мени айтди дейсан, уйингга фаришта киргандек бўлади.

– Ҳа, мақтанглар, мақтанглар. Ўртоқларинг “кўча супурувчидан келин қилдингми” деб, сўраса ўшанда кўрамиз, – деб ўрнидан туради Саидбекнинг акаси Тохир.

– Мен ҳам сизлардай ўйлагандим. Ҳозир пушаймондаман. Гулдек хонадон экан. Бир меҳнаткаш одамнинг нимаси ёмон, Тохир ака, – дейди Зулайҳо.

– Булар замондан орқада қолган. Телевизор билан кино бўлса бўлди. Ҳаммамиз бир хил инсон, Оллоҳнинг бандаси эканлигимизни англаб етишмаган. – Саидбек акасига қарайди.

– Ака, сериалингиз бошланди, – деб кулади.

Тоҳир шоша-пиша ўрнидан туриб, телевизор турган хонага йўл олади:

– Йе, бошландими?

– Бошланиб кетибди. – Тоҳирнинг орқасидан хотини ҳам туриб кетади.

– Сизлар кинони кўраверинглар, биз тўй кунини белгилаб улар билан телефонлашамиз, ака.

Сершовкин кўчаларда ҳар кунгидек одамлар, машиналар сувдек оқади. Кўчаларни, хиёбонларни оппоқ қор қоплаган. Кўча ишчилари тинимсиз ишлашади. Супурги, куракларини қўйиб, қўлларини оғизларига тутиб, илиқ нафаслари билан иситишади. Яна ишга тушиб кетишади. Йўлакларни қордан кураб, супуришади. Йўлакнинг икки қанотида қорлар уюми. Кураб супурилган жойларга махсус туз сепишади. Йўлакда тинимсиз одамлар окими.

Анора ишдан тўхтаб аёлларни ёнига чакиради. Аёллар ҳам бир пасда ишларини тўхтатиб, унинг олдига келишади.

– Бугун Дилдораникига муборак бўлсинга борамиз. Ҳамманг ясан-тусан қилиб келларинг.

Аёллар:

– Ҳамманинг кўзини ўйнатадиган бўлиб борамиз. У ёғидан парво қилма. Ахир бизлар тонг фаришталаримиз-а, ана шоир айтгандай. Кулишади. Уларнинг қулгилари кўча шовқинига қўшилиб кетади.

Айвонда чой ичиб ўтирганча Жумакул ўғли Турди билан дастурхон атрофида сирли суҳбат қуришган.

– Тўйни тўхтатиш керак. Ҳали вақт бор.

– Ота, энди қўяйлик. Тўй кунини белгилашибди. Билиб қолишса, тугайман, яна қамаламан.

– Ҳеч нарса бўлмайди. Органга айтишмайди. Обрўсидан кўркишади. Бу кошонани қўлдан чиқариш мумкин эмас. Тўхта, бир-ярим ўртоғингни юбориб, “Мени яхши кўрган қизимни тортиб оляпсанлар”, деб шовқин кўтариб келса-чи. Фақат ҳеч ким танимайдиган йигитни топиш керак.

– Бирга ўтирганлардан илтимос қиламан, рози қиламан, дейман. Битта шантажчи бор эди. Ўша билан гаплашиб кўраман. Зора кўнса.

Дарвозанинг олдида яхшигина кийинган йигит Саидбекнинг хотини Зулайҳога бақир-чақир килиб шовқин кўтармоқда.

Зулайҳо уни жим қилмоқчи. Унга ялинади.

– Ичкарига кириб гапиринг, жон болам, ичкарига кириг! Қанча гапингиз бўлса ичкарида гапиринг, илтимос.

Нотаниш йигит багтар авжига чиқади. Атайин атрофига одам йиғишга ҳаракат қилади:

– Кирмайман. Билиб кўйинг, мен Дилдорни, сиз ўғлингизга унаштирган, ваъдасида турмаган Дилдорнинг йигитиман. Ўғлингиз, сизлар бахтимизга зомин бўлдингизлар. – Атрофга кўни-кўшнилари йиғилади. – Уч йилдан бери бирга эдик. Тўйимиз бўлай деб турганди. Сизлар пайдо бўлдинглар, золимлар. Бахтимизни тортиб олдинглар. Билиб кўйинглар. У қиз эмас, – деди-ю, конвертга солинган расмни ташлаб, узоқда кутиб турган номери йўқ машинага ўтириб жўнаб қолди.

Зулайҳо юрагини чангаллаганча ўтириб қолди. Холисон Орзигулни қўлтиклаганча ичкарига олиб киради. Одамлар тарқалишади. Ҳамма ҳайрон. Ҳайратдан ёқа ушлашади. “Яхши иш бўлмади” дейишади.

Жумакул ўғли Турди билан уйларига қайтиб кириб, кулишиб ўтиришибди.

– Қаердан топдинг у йигитни, болади, ғирт артист экан. Ҳамма ишонди. Ҳали замон Қадам билан отаси эшитиб, фалаж бўлишади.

– Зонада бирга бўлганмиз. Актёр бўламан деб бўлолмаган.

– Ўйлаганимиздан ҳам ўтказиб рол ўйнади. Бошлаб ўйнади. Олган пулини ҳалоллади. Қўлга тушиб, сотмаса бўлди.

– Энди, икки дунёда ҳам ўша фаррош бу қошонага келин бўлолмайди. Булғанди. Ана энди томошани кўрасиз, ота, тўй бузилади.

– Бугун Саидбек бориб бошлаб келади. – кулишади. – Зуллайхо холангни иситмаси юз бўлди-ёв. Оғзига гап келмай ўтириб қолди, – дея кулади Жумакул.

Холисон кириб келди. Уларнинг гаплари бўлинади. Холисон бу ишдан норози бўлиб турмуш ўртоғи ва ўғлига нафрат билан қарайди.

– Яхши иш қилмадинглар. Шунча яхшиликларига ёмонлик қилдинглар. Оллоҳ асрасин, билиб қолишса, оқибати ёмон бўлади-ку. Худодан қўрқсаларинг бўларди.

– Нима қилсак, қизингнинг бахти учун қилдик.

– Бировнинг бахтини ўғирлаб, бахтли бўлолмайди қизимиз.

– Бор жўна, – ҳайдаб солади уни Жумакул.

– Ахир қизимиз нима дейди? Сўрадингларми? Захронинг кўнгил кўйгани бор, дегандим-ку. У сизларга ўхшамаган. Садқайи одам кетинглар, – деганча қўл силтаб нари кетади.

Хонадон эгалари жамулжам бўлишган.

Қадамнинг отаси ҳам, онаси ҳам асабий, Саидбек тинимсиз юради. Қўлларини мушт қилади. Онаси бир ўғлига, бир тинимсиз юраётган эрига қарайди. Саидбек ўғлининг қарши-сига келиб тўхтайтиди. Қадамнинг боши эгик. Саидбек ўғлининг ёқасидан ушлайтиди.

– Шарманда қилдинг-ку! Шарманда! Тўғри келган қизга кўнгил қўяверасанми?! Мана бошлади, бутун хонадонимизни бошлади. Энди бу маҳаллада қандай бош кўтариб юрамиз. Юруксиз бўлдик.

– Бундай бўлиши мумкин эмас. У ҳеч ким билан юрмаган. Саидбек ўғлига расми кўрсатади.

– Бу ҳам ёлғонми? Яхшилаб қара, йигитнинг қучоғида ўтирибди-ку.

– Бу фотомантаж бўлиши мумкин, – бўш келмайди Қадам. Саидбек ўғлини кўйиб юбориб, хотинининг ёнига боради.

– Совчиликка боришдан олдин яхшилаб суриштирганга бу шармандалик бўлмасди, аяси!

– Суриштирдим, роса суриштиргандим. Ҳамма мақтаганиди.

– Суриштирганмишлар, унда бу бало қаёқдан пайдо бўлди, хотин! – расмни Зулайҳога кўрсатиб бакиради Саидбек. – Қара!

– Эртага ҳаммасини аниқлайман. Агар шу гаплар рост бўлса, башарасига тупураман. Кейин хоҳлаган қизингизга уйланаман. Озгина муҳлат беринг, ота. – дейди Қадам отасининг кўлидан суратни олиб.

– Бир ҳафта муҳлат, бир ҳафтадан кейин мен айтган қизга уйланасан. Иккала кулоғинг билан ҳам эшитиб ол!

Саидбек эшикни қаттиқ ёпиб чиқиб кетади. Хонага сукунат чўкди.

Дилдорларнинг хонадони. Сарвара дарвоза четидаги кўнғироқ тугмасини узлуксиз босади. Ичкаридан Орзигулнинг “Ҳозир, ҳозир боряпман” деганига қарамасдан, кўнғироқнинг узлуксиз овози тинмайди. Орзигул бўлғуси қудаси ва куда сингилни кўриб шошиб қолади. Кўришишга кучоқ очади, кўллари ҳавода муаллақ қолади. Зулайҳо совуққина алиқ олади. Сарвара истар-истамас кўришади. Бу ҳолатни кўрган Орзигул ҳайрон.

– Қани ичкарига киришлар. Хуш кўрдик! – Таклиф қилади қайта-қайта Орзигул.

Зулайҳо уй соҳибасининг гапига кулоқ ҳам солгиси келмайди:

– Дарров қайтамиз, икки оғиз гапимиз бор, шу дарвозахонада гаплашиб кўя қолайлик.

Сарвара онасига қараб:

– Чўзиб нима қиласиз, шартта бор гапни айтинг, кетамиз.

Орзигул ўзини вазмин тутиб сўрайди:

– Ўзи нима гап, тинчликми?

Сарвара кўполлик қилади:

– Тинчлик эмас, кеча қизингизнинг хуштори келиб маҳаллада шарманда қилиб кетди. Неча йиллардан бери аҳди-паймон қилиб юришган экан. Шунини билармидинглар, нега айтмадинглар!

Зулайҳо қизига қарайди:

– Бас қил! – Орзигул томонга ўгирилади. – Хафа бўлмайсиз, тақдирдан қочиб қутилиб бўлмас экан. Энди қизингиз ўз йигити билан бахтли бўлсин. Ҳеч нарсани қайтаришга ҳожат йўқ. Ҳа

айтмоқчи, ўша йигит билан тушган сурати ҳам бор. Олиб келдик. Ўзингиз ҳам кўриб қўйинг, – деб суратни Орзигулга беришади. Орзигул кўрадио кўз олди қоронғилашди. Ерга ҳушсиз йиқилди.

– Бўлиши мумкин эмас, кизимнинг ҳеч қачон йигити бўлмаган, – дея алаҳсирайди.

Зулайҳонинг гапларини ичкарида, дераза олдида аранг чидаб эшитиб турган Дилдора онасининг йиқилганини кўрган заҳоти уйдан отилиб чиқиб келиб онасининг бошини кўтариб тиззасига олди. Укасига қараб бақирди:

– Тез сув олиб кел, “тез ёрдам”га қўнғироқ қил!

Сарвара онасига қараб истехзоли кулади. Қошларини чимиради.

– Она, бу аёл ғирт артист ҳам экан-ку, гапларимизни эшитмаслик учун ўзларини ҳушдан кетган қилиб кўрсатяптилар.

Дилдора ўтли ва қаҳрли нигоҳини Сарварага қадайд:

– Кетинглар, илтимос! Тўй бўлмаса бўлмасин. Кетинглар, деяпман!.. Бу тухмат, тухмат!

Зулайҳо билан Сарвара дарвозахонадан чиқиб кетишди. “Тез ёрдам” келиб Орзигулга тиббий ёрдам кўрсатди. Ичкарига олиб кириб ётқизишди. Орзигул сал ўзига келиб Дилдорага маъюс термулади.

– Шу гаплар ростми? Менга нигоҳларингни кўрсат. Тик қара! Дилдора онасининг кўзларига ёшли кўзларини қадайд:

– Тухмат, бу онажон, – ўксиб-ўксиб йиғлайди.

– Ростини айт, кизим, шу эшитганларим ростми, йигитинг борми? Йиғини бас қил. Уларнинг қўлида расминг бор-ку. Бу шармандалик-ку, кизим. Сени мажбур қилмагандик-ку.

– Шу пайтгача сиздан бирор-бир сиримни беркитмаганман-ку. Бу ғирт тухмат! Расм... бунни аниқлайман. Фотомонтаж, бу она. Бу йигитни умримда кўрмаганман. – Йиғлаб бошини она кўксига қўяди. Орзигул кизини бағрига босади. Қизининг бошини силайди. – Онажон, ҳеч кимга ёмонлигимиз йўқ-ку, нега бизга ёмонлик қилишади.

– Бу тухмат кимга керак бўлди экан. Бирор одамга душманлик қилмаган бўлсак.

– Бу ишнинг охирига етаман, ўзимни оқлайман, онажон.

– Сен жим ўтир. Бу иш менинг вазифам. Сенга тухмат қилиб, тўйингни бузганлар жазосини олади, илоҳим!?

Тонг ёришиб боради, кўчаларда қатнов бошланган, икки четида гуллар очилиб ётган кўча. Дилдора биринчи бўлиб ишга етиб келган, йиғлайвериб кўзлари қизариб кетган. Узоқдан Зоир билан Ҳайдар кўринади. Қўлларида атиргул. Келиб гулни Дилдорага узатди. Дилдора гулни олиб ерга қўяди.

– Кеча менга тухмат қилишди. Тўйимни бузишди, ака. Қадамларникига бориб, “Мен Дилдоранинг йигитиман, уч йилдан бери юрамиз”, – деб шовқин солибди бир нотаниш йигит.

Зоир билан Ҳайдар ҳайрон бўлиб қизга қарайди.

– Хафа бўлма, ҳали ҳаммаси яхши бўлади, бизни айтди дейсан, сингил?

Дилдора ўқиб йиғлайди. Иккиси нима қилишини билмайди.

– Қадам яхши йигит. Тўй бўлади. Ҳали тўйингда роса ўйнаймиз.

Дилдора сал кулган бўлади. Бундай содда ва самимий одамлар борлигига шукроналар қилади.

Дилдора сочилиб ётган гулларни териб олади. Бир қўлини кўксига қўйиб хурмат бажо келтиради:

– Раҳмат, Ҳайдар ака, раҳмат Зоир ака, шу кунларда мен ўзимда йўқман, – дейди.

Ҳайдар мамнун кулади.

– Бахтли бўлгин, синглим. Сен яхши қизсан. Қадам ҳам яхши йигит. Майли, мен борай, – деб кетади.

– Ким бўлди экан бу иблис, – деб ўз-ўзига савол беради, – барибир бу иғвони тагига етаман, – дея ўзини иш билан овутомқчи бўлади. Анора унинг қизарган кўзларига қарайди. Дилдора бўлган воқеаларни айтиб беради. Иккиси бир-бирларини бағрига босиб, узоқ ҳасратлашишади.

Қадам ўзига қарамай қўйган, кўриниши бир аҳволда. Соқоллари ўсган, сочлари таралмаган, юзлари сўлгин. Каравотга чалқанча ётганча Дилдоранинг суратига термулади. – Наҳотки шу рост бўлса, наҳотки мени эрмак қилиб юргансан? Ким у келган йигит, ким?! – ўзига-ўзи бақиради.

Кўз ўнгида ёв қараш қилган Дилдора билан бирга ишлайдиган, баланд бўйли полвон сифат йигит гавдаланади. Расмга қарайди. – “Йўк, расмдаги у эмас. Ким бўлди?” – ич этини ейди Қадам.

– Нега йигити борлигини айтмади. Ота-онам кўни-кўшни, таниш-билишлар олдида ким бўлди, қандай бош кўтариб юришади? Менга бўлган меҳринг ёлғонмиди, Дилдор?! Нега кўнгил кўйдим-а? Нега шунчалар каттиқ севдим-а? Юрагимни оғритдинг, Дилдор! Йигитим бор десанг бўларди-ку. Нега тўйга рози бўлдинг?!

Кўз ўнгида кулиб турган Дилдора гавдаланади. У билан бўлган бир суҳбатини эслайди:

– Қадам ака, бизни хонадон ҳам, мен ҳам сизга тўғри келмаймиз. “Тенг-тенги билан, Тезак қопи билан”, деган мақол бор. Бекорга айтилмаган. – Кулади. – Умуман тўғри келмаймиз. Шунақа ошиқ йигит. – Дилдора Қадамга сездирмай кўз ёшини артади. Куладию қалби йиғлайди, буни Қадам кўриб туради.

Қадам унга тик қарайди.

– Ҳаммамиз Аллоҳнинг бандасимиз. Мен одам ажратмайман.

– Шундоқ дейсизу ҳар куни чангга ботиб бораверсам. Жонингизга тегаман. Ёқимли духининг ҳиди қаёқдаю, чангга ботган киз қаёқда. Кўйинг, тенгизни топинг.

– Мен сизни севдим ёки сизни қалбингиздан бошқа бир инсон жой олганми?

Дилдора бошини кўтариб унга қарайди.

– Севги бошқа, ҳақиқий ҳаёт бошқа.

– Қалбингизга кулоқ солинг! Қалбингиз буюргангани қилинг!

– Қалбимми, қалбим сизни дейдиёв, – кулади.

– Ҳазиллашмай тўғриси айтинг. Бугун иккимизнинг тақдиримиз ҳал бўлади. Ҳақиқат қарор топиши керак.

– Жуда тўғри, ҳақиқатни қарор топтиринг. – Дилдора саробдек йўқолади...

Қадам ўрнидан туриб, хона бўйлаб юради. Расмни столнинг бир четига тескари қилиб қўяди: – Йигити борлигига ишонмайман. У тухматга учрагани рост. Бўлиши мумкин

эмас. У мени кўрганида хурсандчилигидан юзлари, қора кўзлари қувончдан порларди. Бу жумбок. Эй қодир Эгам, нега учратдинг, нега ажратяпсан, тақдиримиз шундай битилганми, Оллоҳим.

Хонада бетоқат юради. Онаси билан отаси кириб келади. Диванга бориб ўтиришади. Зулайҳога, қани бошла, дегандек қарайди Саидбек. Зулайҳо ўғлига яқин келади.

– Болам, бундай ўтир, хонангда бекиниб олиб, “ух” тортавериб ўзингни касал қилиб қўясан, отанг билан бир маслаҳатга келдик.

Қадамнинг ўтирмасдан юриши отасининг ғашини келтиради:

– Бундай ўтир ҳадеб юравермасдан, – ёнидан жой кўрсатади ота. – Сенга айтяпман, кел, бу ерга ўтир!

Қадам истар-истамас отасининг ёнига келиб ўтиради:

– Ўғлим ҳаммаси вақтида ошкор бўлди. Тўйинг ўтгандан кейин йигити келиб бақир-чақир қилса нима бўларди, Саидбек қилган келиннинг йигити бор экан, келиб шовкин кўтарибди, деган шармандаликка қандай чидардик. Аллоҳ асради, вақтида ошкор бўлди.

Қадам нигоҳи билан ер чизганча:

– Ҳали ҳам ишонмайман, негадир юрагимда ҳадик бор. Кимнингдир душманлигига ўхшайди хаёлимда, ота!

– Бўлди, энди уни эслама, болам, шунча гапдан кейин ҳам унга ишонасанми? – Зулайҳо ўғлини юпатади. – Бўлди, ўзингни қўлга ол, болам. Менга ҳам ёққан эди, наилож. Кўргулик экан.

Саидбек суратга ишора қилади:

– Бунга нима дейсан! Ол, яхшилаб қара. Зора ақлинг кирса.

– Ишонмайман, бундай бўлиши мумкин эмас.

Зулайҳо ўғлини кучоқлаб, эркалаб бошларини, елкаларини силайди.

– Қўй, бўлар иш бўлди. Отанг билан бизга қолса кўшнимиз Жумакул акангнинг Захро қизини келин қилсак.

Саидбек қўлларини тиззасига қўйганча:

– Жуда одобли киз. Қолаверса, кўз ўнгимизда вояга етди.

Мана-ман деган қиздан кам жойи йўқ.

Қадам шарт ўрнидан туради.

– Бўлмайди. Мени бир оз тинч қўйинглар. Ўзимга келиб олай. “Билганингни қил”, деб ота-она чиқиб кетишади.

Холиқул, Орзигул, Дилдора, Шоҳрух кечки овқатга йиғилишган. Орзигул бир аҳволда: боши боғлиқ. Холиқул тинмай чой ичади.

– Яхши иш бўлмади, кўшнилари ҳам хабар топибди. Ҳамма-нинг оғзида бизлар, онаси.

– Мендан бирор хатолик ўтганмиди, қизим, оналик қиллолмадимми? Бор меҳримини бергандим-а, – йиғлайди Орзигул.

– Сизни жуда яхши кўраман, онажон. Сиздан беркитадиган сирим йўқ. Фирт тухмат, онажон, тухмат. У расмдаги йигитни умримда кўрмаганман. Қадам акага ҳам айтдим. Қасам ичдим.

Шоҳрух гапга аралашди:

– Бунақа расмларни шест секундда компютерда тайёрлаб, монтаж қилса бўлади. Фақат суратлари ва видеотасвирлари бўлса бас.

– Бўлар иш бўлди, деб ўтираверсак бўлмас. Ички ишлар бўлимига ариза бераман, аниқлашади, – деди Холиқул.

– Бугуноқ бериб келдим, суратни ҳам ички ишларда қолдирдим. Топамиз. Айнан шу йигитни кидираётгандик. У бошқа қаллобликлар ҳам қилган, илгари қамалган, дейишди. Дадаси овра бўлиб юрманг.

Холиқул дастурхонга фотиҳа қилиб, хонадан чиқиб кетди.

Жумақулнинг хонадони. Холисхон қўлидаги чақирув қоғозини Жумақулга узатади. Хомуш ҳолда:

– Айтувдим, қилаётган ишларингиз яхшиликка олиб бормайди, деб. Дилдоранинг онаси милицияга арз қилган экан. Ҳақиқат қилинг, тухматга қолди қизим, деб. Ҳалиги Турдини ўртоғини ушлашибди. Жуда катта ўғри, қаллоб экан.

Жумақул чақирув қоғозига нигоҳ ташлайди:

– Қандай қўлга тушибди. Бизга, Турди ўғлимизга қандай алоқаси бор?

– Ҳамма айбларини бўйнига олган эмиш. «Дилдорани йигитиман», деб келиб, тўғни бузганини ҳам айтибди. Эртага борсин, сиз ҳам боринг. Нима иш қилиб қўйганингизни биласиз.

Жумакул ўтириб қолди.

– Энди нима қиламан, расво бўлдик, юриксиз бўлдик.

Бошини чангаллаб ушлайди.

– Газак олмасдан, Саидбек акани олдига ўтинг. Оёқларига йиқилинг, тавба қилиб, кечирим сўранг. Ўзи билса, сизларни аяб ўтирмайди. Ўтинг, бирга ўтайлик.

Жумакул ва Холисхон Саидбекникига олдинма-кейин кириб келишди.

Саидбек уларни илиқ кутиб олди:

– Қани Жумакулжон, юқорига чиқинг.

Зулайҳо Холисхон билан елкаларини уриб кўришишди:

– Келинглар, келинглар.

Улар ўтиришмайди. Жумакул Саидбекнинг қаршисида тиз чўқади.

– Бизни кечиринг Саид ака. Биз хиёнат қилдик.

– Қанақа хиёнат? Тушунмаяпман. Туринг, эй ўрнингиздан туринг.

– Ҳаммаси мени ишим. Дилдора келинингиз фариштадек пок ва тоза. Ҳаммаси мени ишим. Ўғлимга айтиб, мен уюштирганман. У йигит Дилдора келинингизни танимайди ҳам. Мени кечиринг.

Саидбекнинг ғазабдан бутун вужуди титради:

– Нима, ит эмган, ҳаммаси сенларнинг ишларингмиди ҳали?

– Наҳотки шунчалик разилликка бордиз? Икки ёшни азобга қўйдиз? Тўйни буздингиз, – деди Зулайҳо.

– Бўйин эгиб, кечирим сўраб чиқдик. Қилган ишларидан пушаймон. Мен учун кечиринглар, – ёлворди Холисхон.

– Бир бало қилиб қўймасимдан кетинглар. – Хотинига қараб дейди. – Тезроқ қудаларга телефон қил, узр сўра. Йўқ, бориб ҳозироқ кечирим сўраймиз.

Кўчада бақир-чақир, йиғи овози эшитилади. Ҳамма кўчага чиқди. Қўлларига кишан солинган Жумакул ва ўғли Турдибекни милиция машинасига солишмоқда. Холисхон ва Заҳро уларнинг ордидан йиғлаб қолади.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
“Ijod” jamoat fondi
“Adib va jamiyat”

TONGGI FARISHTA

(badiiy-hujjatli qissa)

«Kamalak» nashriyoti
Toshkent – 2019

Muallifdan

Men Toshkent, Samarqand va Qarshi shahar obodonlashtirish bosh boshqarmasi ishchi va xizmatchilarining hayotini o'rganishga kirishganimda, nari borsa ikki uchta ocherkdan iborat kitobcha bo'lar, deb o'ylagan edim. Ammo, qisqa o'ylabman. Soha xizmatchilarining hayoti va faoliyati bilan chuqurroq tanisharkanman, fikrim, aniqrog'i ularga bo'lgan munosabatim tamoman o'zgarib ketdi. Va ular haqida ikki-uchta ocherk emas, balki butun boshli badiiy asarlar yaratish mumkin, hatto zarur ekan degan xulosaga keldim.

Yaponlarda "Avval tozalik – keyin baraka" degan gap bor. O'zimizda esa "Supuriqsiz hovlidan farishta qochadi", deyishadi. Farishta qochgan hovlidan baraka ham ketadi-da. Shundan kelib chiqib, men bu soha kishilarini farroshlar emas, farishtalar deb atagim keldi. Boisi, ular tong-azonlab ko'cha supuradilar, gullar, daraxtlar ekadilar, mehr berib parvarish qiladilar, o'z burchlarini halol-pokiza ado etib, borliq husniga husn qo'shadilar. Orasta hovlidan chiqib, orasta ko'cha, yo'laklar, xiyobonlardan o'tib borarkansiz, ko'zingiz quvnaydi. Ming turli anvoyi gullar xush bo'yidan bahri dilingiz ochiladi. Ruhingiz tozaradi, yuksaladi. Ishingizda unum, xayr-baraka bo'ladi. Lekin, afsuski, aksar ko'pchiligimiz bularning barida biz ko'cha xizmatchilari, deb biladigan insonlarning ham katta hissasi borligi xususida o'ylab ham ko'rmaymiz. Vaholanki, ularning xizmatizisiz loaqal bir kunimizni tasavvur qila olamizmi: supuriqsiz ivirsib yotgan ko'chalar, xiyobonlar, qurib-qaqshagan gulu gulzorlar... asabingizni qaqshatmaydimi?! Ha, bir qarashda ko'pchilikning nazariga tushavermaydigan, kamtargina, odmigina kasb egalaringning kundalik hayotimizdagi, jamiyatimizdagi o'rni benihoya kattadir. Ular haqiqatdan ham ezgulik xizmatchilari – farishtalardir.

Ushbu qo‘lingizdagi mo‘jazgina asarim – “Tonggi farishta” nomli badiiy-hujjatli qissa ana shunday xayrli o‘y-xayollar mahsuli sifatida dunyoga keldi. Men uni katta ehtirom bilan yurtimizdagi barcha obodonlashtirish bosh boshqarmasi zahmatkash ishchi va xizmatchilariga bag‘ishladim.

Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi ishchi va xizmatchilari, avtotransport vositalari bilan shahar markaziy ko‘chalarini, ichki yo‘llarini ozoda saqlash, yoz, kuz, qish mavsumlarida texnika va ishchi kuchlari bilan ko‘cha va xiyobonlarni tozalab ozoda saqlash, avtomobil yo‘llari, piyoda yo‘lak bo‘ylaridagi daraxt va gulzorlar, yashil ko‘katlarni sug‘orish; kuz mavsumida xazonrezgidan tozalash, qish mavsumida qorlardan tozalab, tuz, qum sepib, transport va piyodalarning erkin harakatini ta‘minlash bilan shug‘ullanadi.

TONGGI FARISHTA

Daraxtga osig'liq radio yangraydi.

Birinchi bo'lib shahar ko'chalariga farroshlar chiqadi. Ular bilan oldinma keyin obodonchilik boshqarmasi suvchilari, yuk ortuvchilari, yuk tashuvchi traktor va mashinalar chiqadi. Bular birinchilardan bo'lib tongni qarshi oladi, quyoshning yoniq chehrasini ko'radi. Tong yorishgan payt. Ko'chada og'zi, burnini ro'mol bilan o'rab olgan ishchilar. Hammayoqda sochilib yotgan chiqindilardan yo'laklarni, ko'cha chetlarini tozalashga kirishadilar. Ko'cha supurayotgan, o'roq, ketmon, belkurak bilan ishlayotgan ayol-erkak, bir xil maxsus kiyimdagi ishchilar. Ular faqat ish bilan band. So'zlashmaydi, u yoq-bu yoqqa qaramaydi. Ishlaydi. Ularning tepasida turib buyruq beruvchi yo'q, kerak ham emas. O'z ishini biladi. Yo'lovchilardan ular norozi. Gapiraverib charchashgan. Boshlarini ma'noli qimirlatishadi. Kimdir saqichini, tamaki qoldig'ini, yoki qutisini g'ijimlab tashlaydi, kimdir esa tupuradi. Ishchilar ularga bir qarab qo'yib, sochilib yotgan chiqindilarni supurib, har-har joyga uyishadi. Ular o'tgan joy top-toza bo'lib boraveradi. Tozalik himoyachilari orasida Dildora ham bor. Ko'chalarning tozaligi shaharga ko'rk, fayz beradi. Ko'cha va yo'lak chetidagi gullar, manzarali daraxtlar kishi dilini yayratadi. Dildora gullar ichida yana bir atirgul bo'lib ko'rinadi. Hammo uni yaxshi ko'radi. U biror kun kelmay qolsa, sheriklari o'zini nimanidir yo'qotganday his qiladi.

Dildora o'qimoqchi edi. Birinchi yil omadi kelmadi. Atigi ikki ball etmadi. Ko'p kuyunmadi, tantiq qizlardek yig'lamadi. Onasi ishlaydigan obodonlashtirish boshqarmasiga ishga kirdi. Ko'pchilik bunday ko'hlikina qizni changga botib ishlashni tanlaganiga hayron qoldi. "Boshqacharoq ishga kirsang bo'lmasmidi" deyishganda "Bu ham ishk-u, kimdir ko'cha tozalashi ham kerak-ku" derdi kulib.

Dildoraning xonadoni: dasturxon atrofida Dildora, otasi Xoliqul, onasi Orzigul va ukasi Shohrux nonushta qilmoqda. Dasturxonda non, qand-qurs, mevalar. Dildora bo'shagan piyolaga

choy quyib, uzatadi. Atrofdan xo‘roz qichqirig‘i eshitaladi. Xoliqul ovqatlanib, tez-tez choyini ho‘plab, o‘g‘li Shohruxga qaradi.

– O‘g‘lim, soatingga qarab yubor!

Shohrux qo‘lidagi piyolani dasturxonga qo‘yib, qo‘l telefoniga qaradi:

– Soat to‘rt yarim bo‘libdi.

– Bunday bir bemalol o‘tirib choy ham ichib bo‘lmaydi bizning ishda. Onasi, Dildor qizim, bo‘laqolinglar, sizlarni ham mashinada tashlab o‘taman, – dedi dasturxonga fotiha qilib.

– Otajon, siz boravering. Bugun yo‘limiz teskari ekan. Katta ko‘chaga yordamga borar ekanmiz, – dedi dasturxonni yig‘ishtirayotgan Dildora. – O‘zim boraman. Hali vaqtli. Soat oltilarga bor-sam ham bo‘ladi.

Xoliqul qiziga qaradi.

– Yuraver biz bilan, bir o‘zing qorong‘ida yurasanmi? Tashlab o‘tamiz. Qo‘yaver, dasturxonni ukang yig‘ishtiradi.

Hammalari o‘rinlaridan turishdi. Dildora bilan Orzigul ish kiyimlarini kiyib, qo‘llarida supurgi ko‘tarib, Xoliqulning orqasidan chiqib ketishdi.

Shohruh norozi ohangda o‘z-o‘ziga gapirdi:

– Yana hammasi o‘zimga qoldi. Haliyam hamma ishni o‘zim qilmayman-ku. Nima bo‘pti bitta dasturxon yig‘ishtirib qo‘yish. Qoyilman otam bilan onamga, ertadan kechgacha ish bilan band. Boshqa ish qurib ketganmi? Onda-sonda ko‘rishmasa televizor ham ko‘rishmaydi. Kitob, gazeta, jurnal desang tomdan tashlashadi. Umuman bularning bo‘sh vaqti yo‘q. Men shunday sharoitda arang 4-5 ga o‘qiyman. O‘qishim kerak emish... “Bizlardek qora mehnatning quli bo‘lib qolma, bolam. O‘qigan yutadi”, deyishlariga o‘laymi? Ishga tushib ketadi. – O‘zlari o‘qib nima bo‘lishgan, diplomlari chang bosib yotibdi. Yana ensamni qotirib: “O‘qi-o‘qi, doktor bo‘lasan”, deyishlari-chi... Hali g‘ira-shira tong qorong‘isida yulduzlar chamani o‘zini ko‘z-ko‘z qilib turardi.

Toshkent shahrida asosiy ko‘chalar soni 77 ta bo‘lib, umumiy maydoni 7347700 metr² kvadratni tashkil qiladi. Ularning soni va hajmi har yili ko‘payib boradi.


Shaharda tong otib yangi kun kirib kelayotgan palla. Markaziy serqatnov yo'llardan biri. Yo'ning ikki chetida daraxtlar. Piyodalar yo'lagi. Har zamonda mashinalar o'tib turibdi. Yo'lakda piyodalar yurib ketyapti. Quyosh yog'du sochgancha asta-sekin ko'tarilib, olam va kishilar qalbini yorita boshladi. Ko'chalar qushlarning chug'ur-lashlariga to'lib ketgan. Suv sepib borayotgan mashinalar. Chiroqlar yog'dusidan quyosh yog'dusiga o'tgan ko'chalar. Ko'cha ishchilari. Kun chiqib yana shaharda hayot qaynaydi. Hamma o'z yumushi bilan band. Anora bilan Dildora yo'lakni supurib, o'tlarni yulib tozalaydi.

Anora qaddini rostlab bellarini ushlaydi.

– Dildor, maktabni ham, kollejini ham yaxshi baholarga bitir-gansan. Senga shu chang ichida balo bormidi? Men o'ringda bo'lganimda, birorta boyvachchaga tegib olardim yoki kotibami, tikuvchimi bo'lardim. Sening husni jamoling menda bo'lganida edi... Endi “ko'cha supuruvchi” degan unvonni olding. Senday ko'cha supuruvchini kim ham kelin qilardi. O'z baxtingni o'zing changga almashtirding.

Dildora ham bir muddat ishdan to'xtadi. Belini ushlagancha qaddini rostladi.

– Nima, qizlar ko'cha supuruvchi bo'lib ishlamasligi kerakmi?! Bilasizmi, Anora opa, chet ellarda ko'cha supuruvchilarga katta hur-mat ko'rsatishar ekan. Ular ham odmi, sipo kiyinib yurishadi. Biz ham ishdan keyin yaxshi kiyinib yursak bo'ladi-ku. Ayb o'zimiz-da, o'zimizni-o'zimiz farrosh, ko'cha supuruvchi, deb kamsitamiz. Nega birovning haqiga xiyonat qilayotganlar, g'iybatchilar, fitnachi-lar, tekinox'rlar uyalmaydi-yu, biz halol ishimizdan, mehnatimizdan uyalishimiz kerak?! Qolaversa savob ish qilyapmiz.



Shahar aholisiga qulayliklar yaratish uchun har yili juda kat-ta miqdordagi ishlar amalga oshiriladi. Transport qatnovlaridagi tiqinlarni oldini olish, qulay sharoit yaratish uchun shu kungacha 84 ta ko'prik qurilgan (ularning soni har yili ortib boradi). Bu ko'priklarni toza va ozoda saqlash, obodonlashtirish ishchilarning zimmasida.

Anora unga kulib qaradi:

– Lektor bo‘lib ket-ey. Endi, to‘y-po‘ylarga borganimda, qalarda ishlaysiz, deb so‘rashganida nima deyishimni bilmay qolaman-da. Bir kuni “farroshman”, desam mendan nariroq surilib o‘tirishdi. Eh, singiljon, nimasini aytasan, o‘shanda yuragim ezilib ketdi. Menda xuddi yuqumli kasallik borday, ajratib qo‘yishdi... Sani falsafang quruq gap. Mana, bugun ham erimni o‘rtog‘inikida yig‘in bor. Nima kiyishimni bilmay turibman. Bormay desam erimning jahli chiqadi. Ilojim yo‘q, boraman...

Anoraning uyi: saranjom-sarishta hovli. Erining qistovi bilan Anora kiyinmoqda. Dilshod betoqat yuradi. Rayhondan uzib hidlaydi. Ochiq turgan deraza tomonga, so‘ng soatiga qaradi.

– Bo‘l tezroq, kechga qolamiz. Sardorning yonida turishim kerak.
– Mana bo‘ldim, chiqyapman.

Yasan-tusani o‘ziga yarashgan, ko‘hlikina ayol bo‘lib uydan chiqib keldi.

Dilshod biroz unga tikilib turib hazil qildi.

– Ja-a ochilib ketibsanmi? Bo‘larkan-ku kiyinsang.

Anora erkalanib Dilshodga qaradi.

– Mazax qilmang. Bir kiyibman-da. Do‘stingizning uyiga boramizmi?

– Ha, ayol-a, o‘qimagan, uyiga bormay, restoranga boramizmi? Hammasi bo‘lib oltita o‘rtoqmiz shunday katta shaharda. Bir ko‘rishaylik deyishibdi. Xotinlar ham tanishsin dedik-da.

Anora erining qochirmasiga qochirma qildi.

– H.ay, o‘qigan. Men qaydan bilay. Tushuntiribroq gapirmagan bo‘lsangiz. Tabaka qilib ol tog‘oraga, dedingiz. Bir tog‘ora qildim.

– Nima? – to‘xtaydi? – Bir tog‘ora to‘lami? Ha o‘qimagan-a, ha bir-ikki kilo pishirib, ustiga to‘rtta non qo‘ysang to‘lardi-ku. Bor yarmini uyga qo‘yib chiq, keyin rahmat aytasan. O‘n ikkita oyoq qolsa bo‘ladi. Ustiga salafan tort-da, undan keyin non bos. Hechqisi yo‘q. Erta-indin qolganini eymiz.

– Nonni qayoqdan olaman shu topda. Sizga obro‘ bo‘ladi, degandim-da dadajonisi. Yana tog‘oraning qatini buzmaylik. O‘zi chiroyli qilib joylashtirilgan.

– Ha, noshud xotin-a, bu ketishda meni kasod qilasan-ov? Bo‘lar ish bo‘pti, yur. Kambag‘al mard bo‘lishini ko‘rib qo‘yishsin.

– Sizni pulingizga tegib bo‘ladimi? Baqirib olamni buzasiz. O‘zimning pulimga oldim.

– O‘zi seni lotareyada yutganman-da! – Erkalab gapiradi. – Barakali ayolsanda.

– Maoshim ham siznikidan ko‘p, – Anora dadillashdi.

– Tongdan-shomgacha ko‘cha changitib ishlaganingdan keyin sen ko‘p olmay, men ko‘p olaymi muzeyda ishlab. Kuni bilan gapirish oson emas. Sen qo‘l bilan ishlaysan, men til bilan, xotin.

Hovlidan oldinma-keyin chiqib ketishdi.

Ko‘p qavatli uylar. Uylar oldi did bilan ekilgan gullarning chiroyli manzarasi. Dilshod bilan Anora manzil yozilgan qog‘ozga qarashdi. So‘ng uy raqamiga.

– Keldik. – Atrofiga qaradi, – duxi sepganmisan? – Yaqinlashib hidlagan bo‘ladi. – Yaxshi, zo‘ridan shekilli?

Anora miyig‘ida jilmaydi.

– O‘zingizning sovg‘angiz...

– Bilamiz-da, eng qimmatidan olganman. Narxi qancha edi?

– Yigirma besh mingligidan. Eng qimmatini besh yuzdan yuqori turadi.

– Bo‘ldi, bo‘ldi. Keyingi oyligingdan olaqol. Ayollarning oldida o‘zingni boyvuchcha xotinlardek tut. Ochko‘zlik qilma. Boy xotinlarday o‘tir.

Yo‘lakka kirib “32”- raqamli eshik oldida to‘xtashdi. Dilshod qo‘ng‘iroq tugmasini bosdi. Eshik ochilib, o‘rtog‘i Sardor ko‘rindi.

– Kelinglar-kelinglar. Sardor quchoqlashib ko‘rishdi. – Onasi mehmonni kutib ol.

Poytaxt aholisi va shaharga kelayotgan mehmonlar uchun qulay, xavfsiz bo‘lishi uchun 40 ta ko‘prik, 40 ta piyodalar eyrosti o‘tish yo‘llari ayni paytgacha barpo etilgan. Har yili ularning soni ortib boradi, tozaligiga qattiq e‘tibor beriladi. Albatta bu ishlarni Obodonlashtirish boshqarmasi ishchilari bajaradi.

Ostonada to'ladan kelgan, istarasi issiq ayol paydo bo'ldi.

– Keling, keling! Anoraning qo'lidagi tog'orani olib, elkasiga kaftini qo'yib ko'rishdi.

Anorani ayollar o'tirgan xonaga, Dilshodni erkaklar o'tirgan xonaga boshlab kirib ketishdi.

Ayollar o'tirgan xona. Xonada to'rtta xotin. O'rtada stol-stul. Usti durustgina bezatilgan. Muhayyo ularni bir-biri bilan tanishtiradi.

– Anoraxon – Dilshod akaning umr yo'ldoshlari.

Ayollar bir-bir ko'rishib, joylariga o'tirishadi. Anora ham bo'sh stullardan biriga o'tiradi.

1-AYOL: (choy quyib uzatadi) Yaxshi keldingizmi, eson-omon yuribsizmi?

2-AYOL: Qani olib o'tiring.

3-AYOL: Uydagilar yaxshimi? O'zingiz charchamasdan ishlab yuribsizmi?

4-AYOL: Xush ko'rdik.

MUHAYYO: Mana, tanishib ham oldik. Dasturxonga marhamat. Suhbat qizg'in. Anoraning ham hurmatini joyiga qo'yib, "Siz ham gapiring" – deb qo'yishadi.

1-AYOL: Anoraxon, pistadan olib o'tiring.

3-AYOL: (Ancha yirik, to'lishgan xotin) Anoraxon tortinmang.

4-AYOL: Hech nima emayapsiz? Uyalmay olib o'tiring.

2-AYOL: Ko'ylagingizni qaerda tiktirgansiz? Juda ixcham tikilgan ekan.

ANORA: O'zim tikkanman.

1-AYOL: Materiali ham zo'r ekan. Yangi modadan.

4-AYOL: Tikuvchi ham tekin bo'ladigan bo'ldi.

Hammaning diqqati Anorada. Uning oldiga biri choy, biri sharbat, biri meva qo'yadi. Anora xijolat. Sekingina "Rahmat-rahmat" deb qo'yadi.

Ko'cha ishchilarini buyuk Amir Temur bobokalonimiz ham juda hurmat qilgan. "Shahrimiz obodchiligining sarbozlari deya ular oldidan o'tayotganda to'xtab, "Hormanglar, barakalla!" degan.

3-AYOL: Tikuvchimisiz?

ANORA: Yo‘q, farroshman. Ko‘cha supuramiz. Shahar ozodaligini ta‘minlaymiz. Bo‘sh vaqtimda o‘zimni, yaqinlarimni kiyimlarini bichib tikaman.

MUHAYYO: Juda og‘ir ish-a?

4-AYOL: Musur-axlatga botib ishlash...

ANORA: Odamlar ham qiziq. Chiqindilarni, yo‘llarning chetida maxsus qutilar qo‘yilgan bo‘lsa-da, duch kelgan joyga tashlab ketaverishadi. Har kuni saharmardondan ko‘chalarni supurib tozalab chiqamiz.

2-AYOL: Uyingizga ham bir dunyo mikroob bilan borsangiz kerak?..

ANORA: (O‘ng‘aysizlanib) Yo‘g‘-e. Unaqamas. Qo‘lqoplarda, maxsus kiyimlarda ishlaymiz. Har kuni ishdan so‘ng yuvinib-taranamiz.

1-AYOL: Nega har xil gaplarni gapirasizlar-a.

Anoraning yonidagi ayol sezdirmaslikka harakat qilib sekinalgina nariroq surilib o‘tiradi. Bu yonidagi ayol nopisandona burnini jiyiradi. To‘g‘risida turgan ayol esa Anoraga sinchkovlik bilan razm soladi. Anora battar o‘ng‘aysizlandi.

Muhayyo o‘rtadagi xijolatpazlikka barham bermoqchi bo‘ldi:

– Anoraxon, shuning uchun ham ixchamgina ekansiz-da? Jismoniy mehnat qomatni chiroyli qiladi. Qaniydi men ham sizdek sog‘lom va ixcham bo‘lsam. Sizga havasim keldi. Hamma narsam: dang‘illama uy, mashinam bor, lekin, sog‘lig‘im kundan-kunga pand beryapti. Sog‘ligim uchun har qanday qora mehnatga rozi edim. Ammo g‘urur o‘lgur qo‘ymaydi-da.

Muhayyo patnisda Anora olib kelgan tovuq oyoqlarini uzata boshlaydi.

– Qani sovub qolmasin, olib o‘tiringlar.

Rim imperatori Yuliy Sezar shahar ko‘chalarining ozodaligi bilan shug‘ullanuvchi qullarni harqanaqa tahqirlashdan, azoblashdan himoya qilgan.

1-AYOL: Bay-bay, boplabsiz. Ishtaham ochilib ketdi. Juda mazali bo‘libdi. Qo‘lingiz dard ko‘rmasin, Muhayyoxon.

– O‘rtog‘im hamma ishni do‘ndiradi. Anoraxonga qoyil qolish kerak. Buni ular pishirib kelgan.

Ishtaha bilan eyayotgan ayollardan uchtasi xuddi chaqmoq ur-ganday chaynashdan to‘xtab, qo‘lidagi pishgan tovuq oyoqlarini qaytarib taqsimchaga qo‘yib, aftini tirishtirdi. Orada sovuq bir ho-lat paydo bo‘ldi. Anora o‘rnidan turib tashqariga chiqdi.

2-AYOL: Kim biladi nimalarni ushlagan qo‘llari bilan pishirgan? Qancha mikrobyuqqan. Bilganimda kelmasdim.

1-AYOL: Unday demanglar. Juda pokiza ayolga o‘xshaydi. Xafa qildinglar. Chakki bo‘ldi. Anoraxonga o‘xshagan ishchilar bo‘lmaganda ko‘chalar axlat uyumlariga to‘lib ketgan bo‘lardi. Chakki qildinglar.

Anora ko‘ziga yosh olib, tog‘orani ham olmasdan eshikdan chiqib ketdi.

Anoraning so‘zlaridan Dildora jahli chiqib titrardi.

– Aytmadingizmi?! Sizlar yurgan yo‘llarni tozalab yuraman, chiqindi uyumi bosmasin, deb. Agar biz bo‘lmasak, o‘sha yaltir-yul-tir kiyimlaringizgacha, uyingizgacha musur bo‘lardi, atrofingiz chivin-pashshaga, axlatga to‘lardi, deb. Yana bizdan jirkanasizmi, demadingizmi? Eh! Anora opa! Ular emas, biz ulardan qochishimiz kerak. Biz farishtalarmiz, opa. Eng savobli ishni bizlar qilamiz. Siz bundan uyalmang, faxrlaning. Keling, jinday dam olaylik.

Supurgilarini yonlariga qo‘yib, archa daraxtining yonida-gi o‘rindiqlarga o‘tirishdi. Uylaridan olib kelgan termosdan piy-olaga hovuri chiqib turgan choydan quyishdi. Dasturxon yozib, piyoladagi choydan xo‘plashadi. Ko‘chada yo‘lovchilar o‘tib-qa-ytib turibdi. Ulardan biri: “Bularning uyi ham, oshxonasi ham ko‘cha” – deb kuladi. Anora unga jahl bilan qaradi.

– Kuling, bizning uyimiz yo‘q, ko‘chada ovqatlanamiz, mulla aka, kennoyi, ha, bizning uy – ko‘cha.

Dildora ham gapga aralashdi.

– Keling, katta aka, bir piyola choy ichib keting. Supuruvchi-lar choyida tuproq ta‘mi bo‘ladi, tuproq mazasini ham biling-da.

Onamiz, otamiz, momomiz, hayotimiz tuproq. Bu tuproqdan jirkanmang. Tuproqdan yaralgansiz, tuproqqa borasiz. Chang ham o'zimizniki, lekin shu tuproqni ham, shahrimizni ham iflos qilayotgan siz va sizga o'xshagan befarqlar.

Yo'lovchi gapirganiga pushaymon bo'lib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ulardan sal narida paket ko'targan Qadam kelib to'xtadi.

Anora Dildorani turtib, Qadamga ishora qildi.

– Kechagi yigit seni yaxshi ko'rib qolganga o'xshaydi. Yo boshingni aylantirmoqchimi?

Ular gapini tugatar-tugatmas, yigit paketni qizlarning yoniga qo'ydi.

– Choy bilan icharsizlar. Suyunchi olmadinglar?..

Dildora paketni ochib qaradi.

–Voy-bo', rosa siylabsiz-ku! Non, meva-cheva, somsa, kola, shokolad. Har kuni kelib turing, bunday saxiy ekansiz. Yoqib qoldingiz. Kulishadi, narsalarni qaytarib paketga sola boshlaydi. Qadam qizning qo'lidan ushlab to'xtatmoqchi bo'ladi.

– Iltimos, olinglar, tushlik qilaszlar, qaytarmang! Bu narsalarni men chin ko'ngildan olib keldim.

– Dildora, qo'y, qiynama, niyat qilib olib kelibdilar, – deb Anora kulib qo'ydi.

– Ertagayam biror bahona qilib kelmaysizmi o'zi? – qoshlarini chimirib, sirli tabassum qildi Dildora.

– Kel desangiz, kelaman, kelma desangiz...

Anora yigitga kulib qaraydi.

– Ukam! Mabodo oshiq bo'lib qolmadingizmi? Qarashlaringiz boshqacha. Biz supurgi sohiblariniyam siylaydiganlar bor ekan...

O'zbek xalqining atoqli va mashhur yozuvchisi Odil Yoqubov "Tungi farishtalar o'rnini olgan tonggi farishtalar. Ular hammadan ko'p tahsinga sazovor insonlardir! Ammo ularning mehnatini hamisha ham qadrlayvermaymiz. Aslida ular hammamizning sog'lig'imiz uchun mehnat qiladilar. Shaharlarimizni o'z uylarini ozoda tutgandek ozoda, saranjom- sarishtalab turgan insonlardir" degan edi.

– Farrosh qizni boshiga uradilarmi! Qadam akaga bashang kiyingan, o‘qimishli qizlar yoqadi! Yo gapim noto‘g‘rimi? – dedi Dildora jiddiy ohangda.

– Nega o‘zingizni kamsitasiz? Eng savobli ishni qilasizlar sizlar! Siz bo‘lmasangiz, bu ko‘chalar axlatxonaga aylanib ketardi.

Ishlarni ko‘zdan kechirib yurgan obodonlashtirish boshqarmasi raisi Qadamning gapini biroz eshitib turadi. Qadam gapida davom etdi:

– Sizlar tufayli shahar, ko‘chalar obod. Hech ham o‘zingizni kamsitmang.

To‘rabek Qadamning yoniga kelib qo‘lini siqib ko‘rishdi.

– Ofarin! Bor gapni gapirding, uka! Shu ko‘cha supuruvchilari, bog‘bonlari, chiqindi tashuvchilari bo‘lmasa, ko‘chalar xarob bo‘lardi. Epidemiya tarqalardi! Tasavvur qilyapsanmi, hamma erda mikroblar, kasalliklar... Zo‘r tushungan yigit ekansan! Uka, mana shu gaplaringni bizni hamma xizmatchilar eshitsin. Shanba kuni bayramoldi kichkina tadbirimiz bor. Oshi ham bor. Hamma yig‘iladi. O‘shanda shu gaplaringni yana bir marotaba qaytargin, ukam. Kim ekanliklarini bilib qo‘ysinlar.

Qadam uyalinqirab erga qaradi.

– Qo‘ysangiz-chi! Yoshi kattaroq odamlardan chaqiring, olimlar bor, yozuvchi-shoirilar bor, mashhurlar bor... men hali talabaman.

– Talabamisan, talaba emasmisan, menga chepuxa. Shu erda aytgan gaplaringni yana bir bor aytasan, vassalom. Men hali umrimda birovdan iltimos qilgan odammasman. Hamma mendan iltimos qiladi. Meni To‘rabek deydilar!

– Yo‘q, men uddasidan chiqolmayman. Borolmayman.

Dildora gapga aralashadi.

– Ismingiz nima edi? Qaysi o‘qishda o‘qiyman degandingiz?

– Ismim Qadam. Milliy universitetning tarix fakultetida o‘qiyman.

O‘zbekning ulug‘ shoiri Abdulla Oripov farroshlarning oldidan o‘tayotganda ular qarshisida to‘xtab, “Baraka topinglar, sizlarga ming bor rahmat!” deb o‘tib ketardi. Shoirning ortidan hammalari “Abdulla Oripov maqtadi bizni” deb qolishardi.

– Bir qadam ranjida qilarsiz! Iltimos... – deydi kulib ta’zim qilarkan Dildora. Tarixdan so’zlersiz. Bizning kasb haqida gapirsangiz ham mayli.

– Kalaka qilmang, egilmang! Boraman, – deydi Qadam Dildoraga qarab. – Borganim bo’lsin.

To’rabek kaftlari bilan Qadamning elkasiga urdi:

– Gap bunday bo’libdida, o’g’il bola! – Qadamni qo’lini siqib, qizlarga qaradi, – tushunchasi baland, zo’r yigit ekan-a? Bo’ladigan bolaga o’xshaydi. Tarix bu ulug’ fan, to’g’rimi, qizlar?

Anora boshliqni o’tirishga undadi:

– Dasturxonga marhamat. E-e, stulcha kerak-ku rais bobomga. Hozir. Anora katta oq salafan xaltani ochib, yig’ma stulcha oldi, artib, dasturxon chetiga qo’ydi, – Qani, rais bobo, o’tiring. Zo’r yigit olib kelgan zo’r narsalaridan eb ko’ring.

To’rabek u bu totingan kishi bo’ladi-da, birdan dasturxondan qo’lini tortdi.

– Ertalab ovqatlanib olganman. Lekin choydan ichsa bo’ladi. – Esiga bir nima tushganday, – nega endi bu yigit sovg’a-salom qiladi?! Har kimning narsasini olavermanglar. Sizlar tilanchi emas! Gordiy bo’lish kerak, haligi... mag’rur bo’linglar! Ayting, bizlar ham oylik olamiz, o’zimizga to’qmiz, denglar. Oyligimiz katta denglar, xo’pmi?

Anora izoh beradi:

– Kecha tongda, Dildora bekatdan sumka topib oldi, ichida kitoblar, diplom ishi, 100 ming so’mcha pul, qo’l telefoni bor ekan. O’sha narsalar shu yigitniki ekan. Keldi, so’radi, biz ko’rsatdik, ichidagi narsalarni to’g’ri aytdi va biz qaytarib berdik. Suyunchi puli berdi, biz olmadik. Evaziga bugun paket qilib kelibdi. Ana shu bor gap, rais bobo.

Dildora Anoraning gapini tasdiqlagan bo’ldi.

– Ha, rais bobo. Kecha suyunchi puli deb yigirma ming berdi, o’zimizni gordiy tutdik, rais bobo, olmadik.

To’rabek qizlarning gapidan xursand bo’ldi. Tomoq qirib yo’talib oldi:

– Ko’rdingmi, yigit. – To’rabek qizlarni ko’rsatadi. – Bizning ishchilar birovning sariq chaqasiga ham xiyonat qilmaydi. – Dildora bilan Anoraga qaraydi. – Malades! Shunday chestniy bo’lish

kerak. Qadamga qarab gapiradi. – Bizning ishchilar topilmalar idorasini ham to‘ldirib yuborgan. Topilmalarni egasiga qaytarish, ta‘magir bo‘lmaslik kerak. Aytiladigan rahmatni, shanba kuni bo‘ladigan yig‘ilishda aytgin. Men ham ularga tashakkurnoma e‘lon qilaman. Bilsinlar! Ko‘cha supuruvchi vijdonli odam.

Ular gaplashib turganda bir ayol archa panasiga axlat to‘la salafan xaltani tashlaganini ko‘rib, Dildora ayolni to‘xtatdi.

– Opajon, oling axlatingizni, borib axlatxonaga tashlasangiz bo‘lmaydimi, uyalmaysizmi?! Shu ko‘chadan o‘zingiz, bolalarinigiz yurasizlar-ku!

Axlat tashlagan ayol bo‘sh kelmadi:

– Vazifang bu! Oylik olyapsanmi, bajarasan-da! – yuzini burishtirib. – Aql o‘rgatishiga qarang, – deya keta boshlaydi.

Qadam ayolning surbetligiga chidab turolmadi. Ularning gapiga aralashdi.

– Bu ko‘chalar hammamizniki-ku, opajon. Siz tashlasangiz, sizdan ko‘rib boshqalar ham tashlasa, ko‘chalar axlatxonaga aylanib ketadi-ku. Hozir tozalab qo‘yishgan joyga axlat tashlashingizni qarang. Uyingizni ozoda qilaman, deb ko‘chalarimizni iflos qilishingiz yaxshimi?

– E, bor-ey! Sen aralashma, bularning vazifasi. Shoshib turibman, qochlaring yo‘limdan. – Ayol axlatini olmasdan ketdi.

– Hoy opa! Shu ishingiz insofdanmi?! – degancha qoldi Qadam.

To‘rabek eshitib kuzatib turdi, barakalla deb ularga yaqin keldi va Qadamning qo‘lini siqdi.

– Ko‘rishguncha, ukam. Kutaman-a. Tez-tez kelib tursang, teatrta tushishingga xo‘jat qolmaydi. Har xil odamlarni ko‘rasan.

Obodonlashtirish boshqarmasining ishchi va xizmatchilari shahar aholisi, shaharga tashrif buyurgan sayyohlarga qulaylik tug‘dirish uchun har kuni tong saharlab shahar ko‘chalariga farishtalardek tarqalishadi, ko‘chalarni tozalashadi, sanitariya holatini maromida saqlash maqsadida supurish, suvquyish, yuvish, changdan, qordan tozalash, sirpanchiqlikning oldini olish uchun har to‘rt fasl har kuni mehnat qiladilar.

Mayli, bizga ruxsat, – deb xayrlashib ketdi To‘rabek. To‘rabekning orqasidan Qadam ham ular bilan xayrlashdi. Dildora bilan Anora nim tabassum qilganicha kuzatib, uning orqasidan qarab turishgandi, Qadam ularga qayrilib qaradi.

– Xayr, yaxshi qolinglar.

– Xayr, rais boboning gapi esingizdan chiqmasin-a, – tabassum bilan tayinladi Dildora.

Qadam ulardan uzoqlashib, ko‘rinmay qolgach, ikki kishi oldini to‘sib chiqdi. Ulardan biri Zoir, ikkinchisi Haydar – Obodonlashtirish ishchilari.

– Hoy olifta, abjag‘ingni chiqaraymi!? – Haydar Qadamga yaqinlashdi.

Zoir Haydarning yo‘lini to‘sdi.

– Qamalib ketasan, o‘zingning abjag‘ing chiqadi.

– Qoch yo‘limdan.

Haydar Zoirmi itarib yubordi, u o‘tirib qoldi.

– Hozir ko‘rasan, – borib Qadamning yoqasidan bo‘g‘ib ushladi. – Yana uning yonida pashshaxo‘rda bo‘lsang, boshingni koptok qilib tepaman.

– O‘zi nima gap, qo‘yvoring?! – dedi hayron bo‘lgancha Qadam.

Zoir qulog‘ini ko‘rsatdi:

– Baqirib gapir, qulog‘i eshitmaydi. O‘zi nega ularning yoniga kelding?

– Yo‘qotgan narsamni topib berishganiga rahmat aytgani keldim.

Zoir Haydarning qulog‘iga qo‘lini karnay qilib baqiradi:

– Buning narsalarini topib berishgan ekan. Rahmat aytgani kelibdi.

Ispan elchisi Klavixo Samarqandni aylanayotganda, tong saharlab kelinchaklar va qizlarning ko‘chalarni suv sepib, supurayotganini ko‘rib hayratga tushgan. Shunchalar ham ko‘p ishchi ishlaydimi, deb o‘ylagan. So‘ng qiz, juvonlarning o‘zlari tong saharlab tekin ishlashlarini bilgach, bu odat faqatgina o‘zbek va tojik qavmlarida borligidan hayratga tushgan.

Haydar Qadamning yoqasini qo'yib yubordi.

– Boshqa kelma, yomon bo'ladi. U meniki, bildingmi!

Qadam Haydarga nazar tashladi. Yuzi quyoshda kuygan, qo'llari qadoq. Mehnatkash bu insonga achinganday bo'ldi.

– Ixtiyor o'zida, – deb shart burilib ketdi.

Ko'cha ishchilari ishga tushib ketgan. Ularning butun diqqat-e'tibori ishda, ba'zi yo'lovchilar kiyimiga chang o'tirmasin deb, yugurib o'tadi. Ko'cha supurayotgan, yo'lak atrofini tozalayotgan, o'roq, ketmon, belkurak tutgan ayol-erkaklar bir xil maxsus kiyimda. Ular faqat ish bilan band. So'zlamaydi, uyoq-buyoqqa qaramaydi. Ishlashadi. Ko'chalarni tozalashadi. Yo'lovchilardan kimdir sigaret qoldig'ini, kimdir sigaret qutisini g'ijimlab tashlashi kundalik hol, yana kimdir saqichini tashlaydi, kimdir tupuradi. Bu ishchilar hammasiga chidashadi. Ularga qarab qo'yib, jimgina es-siz, degandek boshlarini qimirlatib, ichki e'tirozlarini bildirishadi. Dildora ham sheriklari singari ba'zi yo'lovchilarning ishlaridan norozi bo'lgancho yo'lak supuradi. Dildoradan sal narida o'tkinchilardan ikki kishi daraxt tagiga ishora qilib to'xtab qoldi.

Ulardan sal narida loyga belanib yotgan kishi. Unga o'tkinchilar be'etibor qarashib, o'tib ketaverishadi. Ikki kishi to'xtab, unga yaqin borishdi.

BIRINCHI KISHI: O'ldirib ketishganga o'xshaydi. Hamma joyi qon-ku!

IKKINCHI KISHI: (burnini ro'molcha bilan berkitib, uning yuziga qaraydi). Tirik, nafas olyapti. Tez yordam chaqirish kerak.

BIRINCHI KISHI: Militsiyaga xabar berish kerak.

IKKINCHI KISHI: Nima qilamiz ortiqcha bosh og'riqni. (Dildora bilan Anoraga ishora qilishadi) Ularga aytamiz. Kimni chaqirishsa, chaqirishar.

BIRINCHI KISHI: (Dildora bilan Anoraga yuzlanib) Qizlarim, manavi joyda odam yotibdi. Xabar berarsizlar militsiyaga.

ANORA: O'zingiz xabar qilsangiz bo'lmaydimi?

IKKINCHI KISHI: Ishga kechikaypmiz, qizim.

DILDORA: Ish insondan aziz bo'libdimi? Bu kishining o'rni-da siz yotganingizda nima bo'lardi?

BIRINCHI KISHI: Gapirgin-u qoch bulardan. Lo‘lidan ham battar bular.

ANORA: Aslida sizlardan qochish kerak. Bir bechoraga yordam berish o‘miga qochyapsizlar. Axir, bir musulmon bandasi yotibdi-ku! Ko‘rmayapsizmi, boshida do‘ppisi ham bor. Lo‘lilar ham bor oramizda. Ammo ular sizlardan yaxshiroq. Sizlar yuradigan yo‘llaringizni supirishadi. Savob ish qilishadi. Siz-chi, bir insonga yordam berolmasdan o‘z xoliga tashlab ketyapsiz. Uyalinglar-ey! Sadqayi odam ketinglar!

Ular eshitmaganga solib tez-tez yurgancha ketishdi. Dildora o‘zlaridan sal narida ishlayotgan ko‘cha ishchilarini chaqirdi. Ish qurollarini bir chetga qo‘yib kelishdi. Ular erda yotgan kishini daraxt soyasiga yotqizishib, boshiga xalatlarini yostiq qilib qo‘yishdi. Piyolaga suv quyib, ichirishdi. Dildora ham u erga bordi. Dildora notanish odamga shirin choy qilib ichirdi. U birozdan so‘ng o‘ziga kelib boshini ko‘tardi

– Rahmat sizlarga, baraka topinglar. Boshim aylanib yiqilibman. Ikki kundan beri bemor onamning tepasida edim. Charchabman shekilli, xushimdan ketibman. Boringizga shukr! Xayriyat siz yaxshilar bor ekansiz. Ming rahmat.

Dildoraning shinamgina hovlisi, olmalar hosilining ko‘pligidan shoxlari erga tegay-tegay deydi. Dildora gullarga ishlov bermoqda. Onasi tog‘oraga somsa joylaydi. Shohrux sap-sariq pishgan o‘riklarni terib, chelakka soladi. O‘rik shohlarining barglari orasida pishgan mevalar o‘zgacha bir fusun baxsh etgan. Mo‘jizaning o‘zi. Ko‘zlar quvonadi. Xoliqul xotinini shoshiradi:

– Somsani tezroq obormaysanmi?

– Dildorani kutyapman. — dedi Orzigul xona eshigiga tikilganча.

Har bahor kelishi bilan yo‘l va yo‘lak atroflarini yumshatib, milyonlab turfagul, maysa va daraxtlar ekib, shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shishadi.

Dildora derazadan qaraydi:

– O‘zim boraman, ona. Siz otam bilan boravering. Anora opaning
erlari oborib qo‘yarkan. Anora opaga sherik bo‘laman bugun.

Xoliqulning xunobi oshib xotiniga buyurdi:

– Bo‘l kiyinib chiq! Bir-biringni kutib kech qolasanlar.

– Kiyinganman.

– Shumi kiyinganing? Ishga emas, bayramga boryapsan. Hov u
kuni to‘yga kiyib borgan atlas ko‘ylagingni kiyib chiq! Ja yarashgandi.

Orzigul ichkari kirib ketdi. Dildora xonadan chiqib kelib
gullarning yonida to‘xtadi. Ota qizining ishini kuzatib turdi. Dil-
dora qip-qizil ochilgan bir gulning barglarini ohista siladi. Egilib
hidladi. Chehrasida o‘zgacha bir tabassum yugurdi.

– Ota, mana shu gulning hidi juda yoqimli... Siz ekkansiz-a?

– Hidi ham, tarovati ham kishiga zavq beradi. Onang ekan. Onang
gullarni yaxshi ko‘radi. Shahar ko‘chalarida gullab turgan gullarning
ko‘pini onang ekan. Onang cho‘p eksa ham ko‘karib ketadi.

Ayvonda atlas ko‘ylak, qizil guli oq ro‘molda Orzigul paydo
bo‘ldi. Orzigul iymanib zinadan tog‘orasini ko‘tarib tushib keldi.

Dildora maftun bo‘lib otasiga qaradi:

– Qarang onam ochilib ketibdila. Ko‘zmunchoq taqib qo‘ying.
Ko‘z tegmasin.

Otasi ham qaraydi:

– Bay-bay. Atlas ko‘ylak onangga xo‘p yarashibdi-da, qizim.
Yosharganini qara.

Hovlining bir chetida kitob o‘qib turgan Shohrux kitobini bir
chetga qo‘yib, onasiga yaqin keldi.

– Rostdan yarashibdi, ona. O‘zi sizga atlas ko‘ylak boshqacha
o‘tiradi.

– Eytar. Yana gapirsalaring hozir almashtirib chiqaman.

– Bo‘ldi onasi, yur kedik.

– O‘g‘lim, hamma yoqqa qarab, uyda o‘tirgin-a.

*Ko‘chalarga biriktirilgan ishchilar o‘z ishini vijdonan yurak-
dan bajaradi. Ularni nazorat qilishga hojat yo‘q. Bu insonlarni
kiyimiga qarab emas, ishlariga qarab baho berish kerak.*

– Xo‘p bo‘ladi, onajon.

Xoliqul bilan Orzigul chiqib ketdi. Ularning orqasidan opa-uka qarab qoldi.

Shaharning obod ko‘chalari. Odamlar va mashinalarning tinimsiz qatnovi. Yo‘l atrofidagi daraxt va gullar ko‘chaga fayz berib turibdi. Qadam bilan Sherzod yo‘lak bo‘ylab suhbatlashib, katta darvoza oldida to‘xtashdi. Eshik tepasida “Tuman obodonlashtirish boshqarmasi” degan yozuv. Hovlida odam gavjum. Devorda ozodalik bilan bog‘liq bo‘lgan shiorlar: “Ozodalik – ham-mamizning burchimizdir!”, “Ozodalik – ozod shahrim ko‘rki!”. O‘rtada yig‘ilishga mo‘ljallangan joy. To‘rda To‘rabek savlat to‘kib o‘tiribdi. Stol ustida oppoq choyshab yoyilgan, har xil suvlar, paxta gulli piyolalar. Qorovul hovliqib kirib keldi.

– Xo‘jayin, o‘-o‘, xo‘jayin! Galstukli, yaxshi kiyingan ikki kishi, bilmadim, komissiyami, kattalardanmi, kirmoqchi. Nima qilay, xo‘jayin, “xo‘jayin yo‘q”, deb yuboraymi?

Qorovulning qulog‘i og‘irroq, qulog‘iga kaftini trubka qilib, xiyol To‘rabekka egiladi:

– A-a, labbay!

– **Chaqir!**

Qorovul qulog‘idagi paxtani oldi.

– Esdan chiqibdi, biroz quloq og‘riydi-da, xo‘jayin.

To‘rabekning jahli chiqdi.

– Qulog‘ingga tom bitganmi! Chaqir!

– Nima? Quloqmi, shamollagan.

To‘rabekning jig‘ibiyroni chiqib, qorovulga baqirdi.

– Hozir chaqiraman. Quloq paxtasi esdan chiqibdi-da, xo‘jayin.

Qorovul zaldan sekin yurgancha chiqib ketdi va zum o‘tmay ikki yigitni boshlab kirdi. To‘rabek o‘rnidan turib, qarsak chaldi.

Turfa gullar va yam-yashil maysalar, yo‘llarga soya solib turgan daraxtlar kishi ko‘zini quvontiradi. Bular o‘z-o‘zidan bo‘lma-gan. Siz va biz har kuni qo‘lida supurgi, ketmon, belkurak, o‘roq tutib ishlayotgan Obodonlashtirish boshqarmasi degan xizmat kiyimlaridagi ana u ayol va erkaklar mehnati mahsulidir.

Pastda o'tirganlar ham unga qo'shilib qarsak chalishdi. Ikkalasini minbarga olib chiqib, yoniga o'tkazdi.

To'rabek ikkisini kutib turgan ekanmi, so'rasha solib, yig'ilishni boshlab yubordi:

– Hurmatli jamoadoshlar! Mana bugun hammamizning bayramimiz. Bayram bilan tabriklash uchun mehmon ham chaqirdim. Aytmoqchi, ularning biri shoir, taniqli shoir, biri lektor. Birinchi so'z lektor ukamizga. Qadamga qaraydi. Qadamboy tortinib, minbar tomonga yurdi. Tutilib-tutulib so'zlay boshladi.

– Aziz onaxonlar, otaxonlar, opa-uka, aka-singillar! Sizlarning mehnatingizga, xizmatigingizga ofarinlar aytgim keladi. Sizlar bilan bugun yurt obod...

Gapni bo'lib savol beradi bir juvon:

– Mukofot beriladimi? Mukofot! Oldingi oyda meni mukofotdan qoldirishgandi, lektor ukam.

– Chalg'itilmasin! Mukofot bo'ladi. Qarsaklar. Qadamga qarab. – Qani davom ettiring.

Qadam o'zini ancha bosib olgan, zalga o'rgangan edi.

– Agar sizlarning mehnatingiz bo'lmaganida shaharlarning ko'chalari chiqindiga to'lib ketib, yashab bo'lmas darajaga etardi. Men sizlarni ko'p kuzataman. Ba'zi bir befarosat kishilar, ko'chaga chiqindilarni irg'itadi, sigaret, muzqaymoq qog'ozlarini va boshqa narsalarini uloqtiradi... eng savobli ishni esa siz qilasiz, azizlar. Yana aytaman, siz bilan obod bu shahar! Odamlarning sog'lig'ini ham saqlab turuvchi – siz. Chunki, tozalik, musaffo havo sog'liq-salamatlik garovidir. Sizlarga rahmat deyish kerak. O'zim va do'stlarim nomidan sizlarga ming bor tashakkur deyman. Omon bo'linglar!

Davomli qarsaklar boshlandi. «Yashavor lektor», «Ofarin», «Otangga rahmat», «Mehnatimizning qadrini biladiganlar ham bor ekan-ku», degan qichqiriqlar va olqishlar zalni egalladi. Konsertlarda ham bunday qarsagu olqishlar bo'lmagan. Zaldagilar o'rinlaridan turib olib, to'xtovsiz qarsak chalishardi.

To'rabek bo'ldi degandek qo'lini ko'tardi, odamlar qarsak chalishdan to'xtab o'tirishdi.

– Ko'rdinglarmi sizlar qanday ulug', shahar uchun kerakli odamlarsiz! Hali sizlar haqingizda shoir ukamiz ham gapirmoqchilar. So'z shoir ukamiz Sherzod Osmoniyga!

Minbarga Sherzod chiqdi. Zalga bir nigoh tashladi, hammaning nigohi unga qadalgan.

– Ey falak, bu malaklar... – Gapni bir yigit shart bo‘ldi. Qo‘lini paxsa qilib shoirga o‘qtaldi:

– Malak dema! O‘zing malaksan, og‘zingga qarab gapir! Ana u lektor ukamizga o‘xshab gapir. Palak ham, malak ham o‘zingsan.

Hamma kuldi. Shovqin ko‘tarildi. To‘rabek o‘rnidan turdi:

– Jim o‘rtoqlar, nima bu shovqin. Davom eting, shoir ukam!

Shoir o‘tirganlarga bir muddat qarab turadi-da, kutilmaganda so‘zlay ketadi. – Sizlar borki, dunyo bor! Mana bu she‘rim sizlarga bag‘ishlanadi – she‘rini o‘qiy boshladi:

*Asli siz bilan go‘zal bu diyor!
Sizni olqishlaydi ona tabiat,
Insonlar yuzidagi xatto nur ham
Musaffo havo-yu, tozalikdandir.*

*Sizlar tong farishtalari,
Ko‘chalarimiz sarishtalari.
Quvonadi barcha, yoshu qari,
Ozodalik buning sababi.*

*Mehnatingiz ko‘rolmaganni,
Qadringizni bilolmaganni.
Insofini bersin Xudoyim,
Mehnat bilan tirik har odam.*

Yaxshiyam shaharlarda Obodonlashtirish idoralari va ularning ishchilari bor. Shular tufayli ko‘chalarimiz obod, shahrimiz ozoda. Mabodo shu ko‘cha ishchilari bo‘lmaganda shahar aholisining holiga maymunlar yig‘lardi. Shahar chiqindi uyumlariga to‘lib ketar, unda inson qanday nafas olib yashardi. Men ularga ta‘zim qilaman, degandi shoir haqida hujjatli film olayotganimizda O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri ErkinVohidov.

*Ming ofarin sizga azizlar,
Kuch-quvvatga to'linglar sizlar.
Olqishlaydi sizni butun-olam,
Olqishlaydi bugun shoir ham.*

Zalni hayqiriqlar larzaga soladi: «Yashavor, qoyil». «Shoir degani mana shunday yozsa-da», «bu shoirimiz so'zlari uchun qit-tak-qittak olish kerak». Dildora va bir nechta ishchi Qadam bilan o'rtog'iga gullar berishdi. Shoirni bir chol cho'lpillatib o'pib ham qo'yadi. Osmoniy xursand, zaldagilar shod. To'rabek viqor bilan o'rnidan turadi. Zalga bir-bir qaraydi. Hamma jim. Zalda pashsha uchsa sezilarli darajadagi sukunat. Yo'talib oldi, qarsaklar. To'rabek jim, degandek yana qo'lini ko'tardi. Hamma qarsak chalishdan to'xtadi.

To'rabek rahbarlarga xos vazminlik bilan gap boshladi:

– Ko'rdinglarmi, – Qo'lini yuqori ko'tarib bigiz qilib gapirdi.
– Sizlar qanday mas'ul odamlarsizlar. Harbiylarning quroli miltiq bo'lsa, sizlarning qurollaringiz, belkurak, supurgi, xokandoz. To'g'rimi! – Pastdan “to'g'ri xo'jayin” degan hayqiriqlar yangraydi. – Mana, shoirlar sizlarga she'r to'qiganining guvohi bo'ldingiz. Hammaga ham shoirlar she'r yozavermaydilar. Sizlar zamon qahramonisizlar. Sizlar tozalikning egalarisizlar. Umuman, majlis yaxshi bo'ldi. Ish ko'p, gapni kami yaxshi-a, nima dedinglar? Sizlar ishlarini qoyil qiladigan odamlar. Sizlarga ofarin aytib, majlisni tugatamiz. O'ynab-kulib dam olinglar. Dasturxonidagi noz-ne'matlar sizga muntazir.

Zalda qarsaklar va ovozlar: – Xo'jayin, osh oldidan... ozgina charchoqbosdi qilsak yomon bo'lmasdi. Dezinfeksiya bo'larmidi... o'zingiz aytgandek.

Zalda kulgu ko'tarildi. To'rabek ularga tanbeh berdi:

Toshkent shahar ko'chalari, xiyobonlari, bulvarlari, yodgorlik majmualari, umumiy foydalanish maydonlari, daraxtzorlarni saqlash, parvarishlash, ko'kalamzor va gulzorlarni har xil zararkunandalardan saqlash ham shu fidoyi insonlar zimmasida.

– Ishxonada ichilmaydi. Yana o‘zlaring bilasizlar.

ZALDAN: Mayli, ruxsat bersangiz bo‘lgani. Qolganini o‘zimiz eplaymiz.

– Uyat! Mehmonlar bor. Hech bo‘lmasa mehmonlarni kuza-taylik. Hamma dasturxonga marhamat. (Qadam tomonga o‘grilib) Qurmag‘urlar, ichgani bilan zo‘r, ishni qoyil qilishadi. Ozroq er-kaliklari ham bor... O‘lgan mushuk-kuchuklarning o‘liklaridan, ko‘chalarni tozalashdan jirkanishmaydi. Shularning boriga shukr.

– Haqiqatdan ham bularning barchasi bir dunyo ekan. Bilmas ekanman.

Osmoniyning bu gapi To‘rabekka yoqib qoldi.

–Vo! To‘g‘ri gap, kitob qilsa arziydi. Rang-barangligini ayt-maysizmi bularning, aqllisi ham, nimentagi ham, qamalib chiqqa-ni ham, yosh qiz-juvonlar ham, xullas hammasidan bor. Lekin, ularning maqsadi bitta: tozalik. (Yigitlarga qarab) Endi ozgina choyimiz bor edi.

Qadam To‘rabek tomonga qaradi:

– Rahmat, To‘rabek aka, boshqa safar. Darsimiz bor. Domlamiz qattiqqo‘l.

– O‘zim aytib qo‘yaman. Ko‘pchilikning ishini bitkazib ber-ganman. So‘zimiz o‘tadi, hamma joyda hurmatimiz bor.

– Bizga ruxsat bersangiz, – deb uzr so‘radi shoir Sherzod Os-moniy.

– Ha, ketishimiz kerak, – Sherzodni qo‘lladi Qadam.

– Jindak chaqchaqlashib, choylashamiz, degandim. Attang, ni-mayam derdik, zorimiz bor, zo‘rimiz yo‘q. Ha, aytgancha, ishxo-nangizga rahmatnoma yozib beray.

– Yo‘q, kerakmas. Ishlamaymiz, o‘qiymiz? – dedi Qadam kulib.

Hamma zaldan chiqib ketdi. Dildora engil tabassum bilan Qa-damga qaradi. Nigohlar to‘qnashdi.

Dildora sehrli tabassum qildi:

– Xayr, kelib turing.

– Xayr. Omon bo‘ling. – Ko‘zini qizdan uzolmasdi Qadam. Uzoqdan Haydar xo‘mrayib, Qadamga qo‘lini musht qilib ko‘rsat-di. Qadam kulib qo‘ydi-da hovlidan chiqib ketdi.

Tong. Ko'chada hamma yangi kunni boshlagan. Hamma harakatda. Har-har joyda sigareta qoldiqlari, elim qopchalar-da tashlab ketilgan chiqindilar, muzqaymoq qog'ozlari, sochilib yotgan olma-anor po'choqlari, har joyda uyulib yotgan daraxt barglari. Ko'cha supurayotgan, yo'lak atrofini tozalayotgan ayollar, o'roq, ketmon, belkurak bilan ishlayotgan ayol-erkak bir xil maxsus kiyimdagi ishchilar. Ular faqat ish bilan band. Churq etgan ovoz eshitilmaydi.

Qadam, ko'cha supuruvchilarni, ariq tozalayotgan erkaklarni, dov-daraxtlarga ishlov berayotgan bog'bonlarni, gullar va daraxtlarga suv berayotgan suvchilar ishini kuzatib, bir chetda o'tiribdi. Uning yonida o'rtog'i Sherzod.

Qadam ulardan nigohini uzmay gapirardi:

– Dunyodagi “obod shahar”, “toza shahar”, “yashil shahar”, deymiz. Ozodaligiga havas qilasan, deymiz. Lekin... Tilimizdan bol tomib maqtaymiz. Ekranida ko'ringan orasta ko'chalarni, xiyobonlarni ko'rib quvonamiz. Lekin o'sha orastalik, go'zallik kimlar orqali, ular haqida kam gapiramiz. Aslida (ishchi va farroshlarga ishora qiladi) shular shahar va ko'chalar obodligining jonkuyarlari. Shular orqali obod bu yurt ham. Shular tufayli olam obod, borliq orasta.

– Haqiqatdan ham ana shu ishchilarning ulushi borligini unutamiz. Kecha qandaydir kinochi ko'chada surat olayotgandi. Bir farrosh xotin yaqin keldi. Haligi kinochi: “Hoy, iflos kiyimigiz bilan nima qilib turibsiz bu erda? Kadrni rasvo qildingiz-ku!” deb, irkitona ovozda rosa baqirdi. Kadrga tushib qolsa nima qilibdi, axir shular emasmi shaharlarimiz chiroyiga chiroy qo'shayotgan, ozodalik farishtalari!

Har yili Toshkent shahrida bunyod etilgan va etilayotgan mas-siv va mahallalarda 100 minglab daraxt va gul ko'chatlari ekiladi, parvarish qilinadi.

– Shunga kuyamanda. O‘zimni haq qilib ko‘rsatmoqchi emasmanu, nega ularga past nazarda qaraymiz. Aslida ishlarning eng og‘iri shular zimmasida emasmi?! Bilasanmi, tabaqalanishning eng jirkanch ko‘rinishi bu! – deya asabiy yura boshladi Qadam. Sherzod tegajoqlik qildi.

– Aqlu hushingni olgan ham shularning birida. Sendan yaxshi himoyachi chiqadi.

Uzoqdan Dildora bilan Anora ko‘rindi. Ular bir kampir bilan kuyib-pishib, gaplashib turishardi.

Dildora bilan Anora nimalarnidir deb yolvorishardi. Qariya ularning gapiga kirmasdan ishida davom etardi. Oftobxon ayaning ustida xalat, boshida ro‘mol, qo‘lida uzun supurgi. Yo‘lak atroflarini supurmoqda.

Dildora qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, kampirga yolvoradi:

– Xolajon, bizlar bor-ku, o‘zimiz supurib qo‘yamiz. Mazza qilib choyingizni ichib, yonboshlab yotmaysizmi keksalik gashtini surib?

– Hay bolalarim-a, huda-behudaga yotaverish, o‘tiraverishdan nima foyda. Shu ermak tufayli sog‘lomman-ku axir. – deydi Oftobxon aya.

Anora gapga aralashadi:

– Siz supurasiz, domdagilar bizni tekintomoqlar, ishyoqmaslar, deb o‘ylashadi.

Oftobxon aya qaddini rostlab, ikkisiga qaradi:

– Yo‘q, unday deyishmaydi. O‘rganib qolishgan. Kelin bo‘lib kelganimdan buyon supuraman. Rahmatlik erim quvonardi. Suv sepib berardi. Shunaqa, uyimizning oldi toza tursa quvonaman. Domdagilarning rahmatini aytmaysizmi. Parvo qilmanglar, qizlarim. O‘rganib qolganman. Ermakda. Iltimos qizlarim, shu ishlardan ayirmanglar. Bu joylarni menga qoldiringlar.

Poytaxtimiz ko‘chalarida sayr qilib yurgan sayyohlar son-sanoqsiz gullarga, turfa xilda gullarga to‘la ko‘cha va xiyobonlardagi ozodalikni ko‘rib lol qolishadi. Yurtlariga borgach, birinchi aytadigan so‘zlari: “Juda ozoda va ko‘rkam, gullarga burkangan ajoyib shahar ekan” deyishadi.

– Xolajon, eytmishga kirdim dedingizmi? – so‘radi Dildora.

– Ona qizim, eytmish sakkizga kiraman, nasib bo‘lsa bir oydan keyin. Oftobxon aya nimanidir eslaganday yuziga engil tabassum yayraydi. – Men kelin bo‘lib kelganimda, domda yana beshta yangi kelin bor ekan. Tong sahar tushib yo‘laklarni supurib, suv separdik, hamma “rahmat, umrlaringdan baraka topinglar”, deb o‘tishardi. Rahmatlaridan rohatlanardik. Hammamiz inoq edik. Har tongda besh kelinchak ko‘rishardik.

– Besh kelin rosa joy talashib supurgan bo‘lsangiz kerak, – so‘radi Anora.

– Men bilan oltita edik. Har yili yangi kelinlar kelardi domimizga. Domimiz ham kattada.

Dildora Oftobxon ayaga yaqinroq keldi:

– Keyin sizlarga ish qolmagandir?

– Qaydam, keyin-keyin keladigan kelinlar uzog‘i bilan besh-o‘n kun kirish yo‘laklarini supurib, so‘ng yig‘ishtirib qo‘yishadi. Yana o‘zimiz. Bir tomondan yaxshi. Bugun kech qoldim. Saharlab chiqardim. Hech kim ko‘rmasdi.

– Har kuni kim bizlarni siylayapti desak, siz ekansiz-da? – kuldi Anora.

– Ha, qizlarim. Mayli, sizlarni ishdan qoldirmay. Charchasalarining kiringlar, birinchi qavatdagi, ichkarisida gullar unib turgan derazani ko‘rsatdi. – Derazani taqqillatsalaring bo‘ldi. O‘zim ham ko‘chaga qarab turaman. Darrov chiqaman.

– O‘ziz turasizmi?

– O‘g‘lim, kelinim, uch nabiram bor. Uyga sig‘may ketaman. Suyagim mehnatda qotgan. Mayli, xayr qizlarim. Oftobxon kampir chelagi bilan supurgisini ko‘tarib, uyi tomon ketdi.

– Xo‘p ajoyib aya ekanlami? Har kuni kim supurib qo‘yadi, deb yurgandik, mana bildik, Anora opa.

– Ba‘zi bir odamlarning eshigini tagigacha tozalab bersang ham rahmat demaydi. Xuddi bir joyi kamayib qolayotganday.

– Nimasini aytasiz, Anora opa. Har xili bor. Bizning ko‘chadagi ayollar darvozasi oldini chinnidek qilib qo‘yadi. Ba‘zi birlari supurish nari tursin, qo‘shnisi tomonni ham axlatga to‘ldiradi.

Anora uzoqdan gul ko‘tarib kelayotgan Qadam tomonga ishora qildi kulib.

– Lektoring kepti. Men boray. Mendan uyalib o‘tirmasin.

– Ketmang, yonida shoiri ham bor-ku.

Qadam bilan shoir yaqinlashadi.

– Yaxshimisiz? – deydi eyrga qaragancha Qadam.

– Salom, tong farishtalari! – kulib salom beradi Sherzod.

– Salom, shoir aka. – Qadamga qaraydi. Ko‘zi gulga tushadi. –

Siz tuzukmisiz, Qadam aka?

Sherzod o‘zini ortiqcha sezdi:

– Sizlarga xayr. Menga javob.

– Boraqol. She‘ringni yoz. – deydi Qadam.

– Mayli, qolaqosinlar. She‘rlaridan eshitardik.

Sherzod Qadamga ishora qildi:

– Qadamning ham she‘riy dostonlari ko‘p. O‘qib bersin. Kuladi. – Xayr yoshlarga. – Keta turib birdan to‘xtadi. – Yor yurgan yo‘lning farroshi bo‘lsam koshki – Chustiy domla shunday degan, – deb kulib tez-tez yurib ketdi.

Ikkisi xoliroq joyga borib o‘tirishadi.

Archa yoniga qo‘yilgan kursida Qadam bilan Dildora suhbatlashib o‘tirishibdi. Qiz mayda o‘rilgan sochlarini o‘ynaydi. Qadam qo‘lidagi gulni Dildoraga uzatdi.

– Bu sizga.

Dildora gulni olib hidlaydi:

– Rahmat, ovora bo‘bsiz-da, Qadam aka. – Ajoyib she‘r ekan. “Yor yurgan yo‘lning farroshi bo‘lsam koshki”. Yana bir bor qaytaradi.

– Gulga gul yarashadi. Siz o‘zingiz ham gulg‘unchaga o‘xshaysiz. Shaharning go‘zali va donosisiz. Chustiy domla ham bekorga bu she‘mi yozmagan.

Qoraqalpog‘istondan kelib, har yili shahrimizda sayr qiladigan taniqli ijodkor Abdusodiq Hayitboy to‘lqinlanib shunday deydi: “Qadimiy ajdodlarimiz aqidalariga ko‘ra qut-baraka faqat poklangan, tozalangan joyga tushadi. Shunga ko‘ra ko‘cha ishchilarining ham, o‘z ko‘chasini tozalayotgan qiz va kelinchaklarning mehnati oxir-oqibatda yashayotgan dunyomizga yaratgan inoyatining ko‘proq tushishiga qaratilgan.

– Qo‘ying-e, ustimdan kulmang. Jiddiylashadi. – Meni ermak qilgani keldingizmi? Men bir oddiy oilaning qiziman, bitta supurgining egasi – ko‘cha supuruvchiman. Meni ermak qilmang-a, xafa bo‘lsam, yomon xafa bo‘laman! Lekin o‘rtog‘ingiz topgan bayt yoqdi. Hamma farroshlarga aytib beraman.

– Men ermak qilish uchun kelayotganim yo‘q. Sizni... sizni... Bilasizmi, shaharlarning ko‘cha supuruvchilari haqida ko‘p shoir va yozuvchilar, ularning mehnatlarini ulug‘lab asarlar bitishgan. Hammasidan hazrat Mir Alisher Navoiy juda ajoyib o‘xshatish qilganlar. G‘azallarda o‘xshatishni qarang: Go‘yo kunduz siz farroshlar kabi yer yuzini o‘zining zarrin nurlaridan supurgi to‘qib, har xil ifloslardan tozalasa, kechasi oy oppoq nurlaridan supurgi to‘qib yer yuzini tozalab farroshlarga ko‘mak berarkan.

– Voy, bu kishining gaplaridan erib ketaman-ov! – Gulni qaytarib yigitga tutqazadi. – Boshqa gul ko‘tarib ovora bo‘lmang. Menga gul-pul kerak emas. Rahmdillik qilayotgan bo‘lsangiz, menga rahm-shafqatingiz ham kerak emas. Qolaversa o‘sha kungi chaqchaqlashib ketayotgan qizlaringizga oborib beraqoling, bularni. Siz o‘qiyotgan “Universitet” ko‘chasini supurayotgan edik. Qizlar bilan chaqchaqlashib, meni ko‘rmaganga olib o‘tib ketdingiz. Shunday qilgan odamning bu so‘zlariga qanday ishonaman. Hatto, salomlashishni ham or bildingiz. Ko‘cha supuruvchi qiz tanishingiz ekanidan uyaldingiz, Qadam aka! Hayot boshqa, haqiqat boshqa. Qo‘ying o‘z tengingizni toping. Menga ham biror bir inson uchrar. Mana, ikkimiz ancha-muncha hazil o‘yin qildik. Eytar endi o‘yinni to‘xtataylik. Biz farroshlarni ulug‘laydigan Alisher Navoiy bobomizdan keltirgan iboralar uchun rahmat.

– Ko‘rmaganman, Xudo haqqi ko‘rmaganman! Siz o‘ylagan yigitlardan emasman. – Qizning qo‘lidan ushladi. – Ishoning ko‘rmaganman.

Amir Temur bobomiz 1370 yili Samarqandni o‘z mamlakatining poytaxti deb e‘lon qiladi. Shu davrdan boshlab, Samarqandning yangi yuksalish pallasi boshlanadi va dunyoga taniladi.

Dildora chaqnaq turgan nigohini Qadamga qadadi:

– Uylanasizmi?! Yo‘g‘-e... Qo‘limni qo‘yib yuboring.

Qadam bir daqiqa jim xayolan uzoq-uzoqlarga qaragancha ko‘z o‘ngida o‘sha kungi manzara tiklandi.

Talabalar shaharchasi, o‘quv dargohi binolari, piyodalar yo‘laklarini to‘ldirgan yoshlar. Qadam kursdoshlari qurshovida ketib bormoqda. Sho‘x qizlar kulishgan, uni tabriklashgan. U o‘zida yo‘q xursand. Tug‘ilgan kuni edi. Tug‘ilgan kuniga qo‘shimcha yana bir xushxabar: boks bo‘yicha universitet chempioni bo‘ldi. Uning qo‘lini ko‘tarib g‘olibligini e‘lon qilishlari bilan kursdoshlarining tabriklari ko‘z o‘ngidan bir-bir o‘tadi.

Dildora qo‘li bilan Qadamni turtdi:

– Hov yigit uxlab qoldizmi? Men ketdim.

Qadam sergak tortdi. Qadam seskanib uyqudan turgandek hovliqib o‘ziga keladi:

– Ketmang. O‘sha kuni tug‘ilgan kunim edi. Chempion bo‘lgan kunim ham o‘sha kunga to‘g‘ri keldi. Haqiqatdan xursandchiligimdan mast edim. Sizni ko‘rmoqchi edim. Telefoningizni topolmadim.

– Umuman telefonim yo‘q. Tutmayman. – Dildora kuldi. – Bilganimda tabrik telegrammasi yuborardim, essiz!

– Kinoya qilmang, men sizni har kuni ko‘rgani kelaman. Ko‘rgim keladi.

– Ko‘rib nima qilasiz?

– ...

– Rasmimni beraymi? Supurgi ko‘tarib tushgan suratim bor.
– Miriqib tizzasiga urib kuldi. – Kelib ovora bo‘lmasdan ko‘rib yuraverasiz.

– Bering, unda o‘sha suratingizni.

– Pochtadan yuboraman.

– O‘zimga berib qo‘yaqoling.

– Ota-onangizga nima deysiz? “Bu supurgi ko‘targan alvasti kim” desa, Qadam aka.

– Farishtam, mening farishtam, deyman.

Dildora o‘rnidan turdi, gulni bag‘riga bosdi. Yigitga yaqin bordi. Ikki yuzidan shart etib o‘padi-yu, yugurib ketdi. Qadam yuzini ushlagancha hayajondan qotib qoldi. Dildora o‘pgandan so‘ng bir

dunyo hayajon va quvonchdan karaxt edi. Nima qilarini bilmay uning orqasidan qarab turardi.

Dildora bilan Qadamni gaplashib turganini qo'shnisi Ziyoda ko'rib qoldi. Bu ayol o'zining fitna-fasodlari bilan mashhur. Mahalladigilar uni ko'rishini bilanoq qochishadi. Panalab har joydan qo'lini soyabon qilib qaraydi. O'zicha qarsak chaladi. Kuladi. Telefon apparati bilan suratga ola boshlaydi.

– Qo'lga tushding, Zulayhaxon. G'oz yurgan qaddingni egadigan bo'ldim. – Dildora bilan gaplashib turganini, qiz uni o'pganini, o'pichdan so'ng Qadam qotib qolganini suratga oladi. – Boplaydigan bo'ldim. Soyamga salom beradigan bo'lding. – Yana suratga oldi. Qizning yugurishini yana bitta olay. – telefonini Dildoraga to'g'ir-laydi. – Zo'r bo'ldi, ayniqsa o'pishganini ko'rishsa, yiqilishadi.

Ikki xonadon eshigi. Biri hashamdor, biri o'rtacha. Ziyoda hashamdor eshik tepasidagi qo'ng'iroqni bosdi. Qo'ng'iroq ovozi eshitildi. So'ng "hozir, kim u?" degan Zulayhoning ovozi.


– Men, haligi qo'shningiz, Ziyodaxonman. – qo'llarini beliga qo'yadi. Eshikdan Zulayho chiqib keldi. Elka qoqishib ko'rishishadi.

– Keling, qo'shni, keling. Qani, ichkariga kiring. Bo'sag'ada turmang.

– Bizga shu er ham bo'laveradi. Shu desangiz, sizni xabardor qilib qo'yay. Yon qo'shnim deb, chiqdim-da.

– To'y boshladingizmi? Muborak bo'lsin, Ziyodaxon!

– To'yni siz boshlaydiganga o'xshaysiz. Tasodifan bir ko'chadan o'tib ketayotsam, o'g'lingiz Qadamjon bir ko'cha supurayot-



Amir Temur tozalikka juda e'tibor bergan. Ko'cha ishchilariga shunchalik e'tibori baland bo'lganki, ularning oylik maoshlarini eng yuqori qilib belgilab, uysizlarga uylar qurdirib beradi. Sarishtalik peshvolari bo'lmisⁿ farroshlar mehnati tufayli ozoda va fayzli shaharga ollohning marhamati yog'iladi, deb biladi sohibqiron.

gan qizni qo‘lidan ushlab o‘tirgan ekan. Kelin topganga o‘xshaydi. O‘ziyam, kelinning yonida bir quloch supurgisi ham bor.

– Sekinroq, qo‘shnijon, sekinroq. Sharmanda qilmang. Birovga o‘xshatgandirsiz, – deydi Zulayho.

– Qo‘lini ushlab turganini o‘zim ko‘rdim. Menga ishonmasangiz telefondagi suratlarga ishonarsiz. Shpionlar tutadigan telefonim yaxshi suratga oladi. Ovoldim sizga kerak bo‘lar, deb.

– Hali suratga oladigan telefoningiz ham bormi?

Ziyoda telefonini ishlatadi. Olgan suratini topadi. Telefonini uzatadi:

– Mana ko‘ring. Mani kim, deb o‘ylovdiz?

Zulayho telefondagi suratni ko‘radi. Suratdagi o‘g‘li bir qizning qo‘lini ushlab turganini ko‘rib, holsiz erga o‘tirib qoldi.

– Nima bo‘ldi, qo‘shnijon?! – Javob yo‘q – “Kaput”. Ketdi shekilli u yoqqa? – Atrofiga alanglab qaraydi – Tag‘in baloga qolmay. Qochish kerak!

Ziyoda tez-tez yurib, atrofga qarab-qarab, uyi tomon ketdi.

Karavotda Zulayho holsiz yotibdi. Atrofida Saidbek, qizi Sarvara va Qadam parvona. Biri suv tutgan, birovi yelpigan. Saidbek betoqat uyoqdan bu yoqqa yuradi. Yurishdan to‘xtab Qadamga qaraydi.

– O‘zi sen bola, nimalar qilib yuribsan-a?! Onangni infarkt qilishingga sal qolibdi-ku. O‘lib qolsa nima qilarding? Kelib-kelib ko‘cha supuradigan qizga oshiq bo‘lasanmi? Lapashang!



Samarqand shahrining obod va ko‘rkam bo‘lishi uchun obodonlashtirish xizmatchilari tinimsiz izlanishda. 2019- yilning fevralida Turkiya ishbiarmon doiralari bilan hamkorlikda Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi huzurida gul ko‘chatlarini yetishtirish, parvarishlash, shahar ko‘chalarini ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha “Autsorsing” xizmati uchun Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasiga issiqxonalar qurishga 2,8 gektar eyr ajratildi.

Zulayho yotgan joyidan xiyol boshini ko'taradi:

– Onasi ham ko'cha supuruvchi ekan. Otasi axlat tashiydigan mashina haydar ekan.

– Bu gapni ming marta aytding, onasi – Qadamga qaradi. – Yana o'sha qizni oldiga boradigan bo'lsang, bu xonadonga oyog'ingni bosma! Oq qilaman! – dedi Saidbek.

– Kelmasdim, o'ziz kel, o'ylab ko'ramiz, – dediz, keldim. Ular ham inson-ku. Meni tanlaganim shu. Ketaman, ketishim kerak bo'lsa.

Sarvara nigohini Qadamga qadaydi:

– O'ylab gapiryapsanmi, ukajon. Tenging emas-ku ular, tengingni top, ketaman, deb qo'rqitmasdan.

– Opajon, topganim shu. Bir qarorga kelib bo'lganman. Ular yaxshi odamlar. Halol ishlab, halol eyishadi.

Saidbekning jahli chiqadi. O'g'liga yaqin boradi.

– Nima, meni topganim halol emasmi-a? – Bor yo'qol – eshikni ko'rsatib – yo'qol! – Baqiradi.

– Ketaman, ketganim bo'lsin!

Saidbek hamon asabiy. Qadamga qo'llarini paxsa qilib turardi.


– Hoy, bola “uje” o'rtoqlarim kulib boshlashdi! “o'g'ling zo'r kelin topibdi. Supurgisi ikki metr emish”, deb. Ziyoda opangning eri hammaga doston qilganga o'xshaydi.

– Telefoni bilan suratga olgan. Hammaga ko'rsatib yuribdi, – holsizgina gapiradi Zulayho.

– Gap tamom! Yo o'sha supuruvchi qizni deysan, yo bizni, – dedi Saidbek.

Qadam o'rnidan turib eshik tomon yurdi: – Xayr, men ketdim.

Zulayho yotgan joyidan boshini ko'tardi:



Samarqand viloyat hokimiyati rahbarlarining va O'zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi harakati bilan viloyat delegatsiyasi 2019-yil 25 fevralidan 3 martigacha o'zaro tajriba almashish maqsadida Anqara va Istanbul shaharlarining ish tajribalari bilan tanishib qaytdi. Delegatsiya tarkibida Samarqand shahar Obodonlashtirish boshqarmasi rahbari va ishchilari bor edi.

– Shoshmay tur-chi! Namuncha! – Saidbekka qaraydi – Adasi, aytgandim-ku buningiz duo egan, zo‘ridan edirishgan – deb. O‘qitish kerak.

– Bilganingni qil! – Saidbek zarda bilan boshqa xonaga chiqib ketadi.

Zulayho o‘rnidan turib, Qadamning yo‘lini to‘sdi.

– Hech qayoqqa ketmaysan – yig‘laydi – tiriklayin so‘yima, bolam, o‘zim yarim jon bo‘lsam. Ketma?! – holsiz o‘tiradi – peshonam qursin, kelib-kelib topgan qizingni qara. O‘tir. Ketaman, deb hadeb qo‘rqitavermasdan. Bizga vaqt ber.

Qadam va otasi Saidbek xontaxta atrofida bir-biriga qarama-qarshi o‘tirishibdi. Saidbek g‘azab otiga mingan.

– Hoy, aqlini egan bola, shu tutgan yo‘ling to‘g‘rimi?!

– To‘g‘ri, ular ham bizga o‘xshagan Ollohning bandasi.

Saidbek o‘rnidan turib ketadi, o‘g‘liga yaqin bordi.

– Yakka-yu yagona o‘g‘limsan, hech bo‘lmaganda ikki o‘g‘il bo‘lganingizda ham mayli edi; akasi bo‘lmasa ukasiga o‘zim xohlagan xonadondan kelin olaman, deb ovunardim...

– Nima, Dildora siz aytgandek kelin bo‘lolmaydimi?

Saidbek yana joyiga kelib o‘tirdi:

– O‘g‘lim bunday bir o‘ylab ko‘r. Man katta bir dargohning rahbariman. Tanish-bilishlarning hammasi kazo-kazo odamlar. Biror yig‘in o‘tkazsam, ko‘chamizga mashinalar sig‘may ketadi. Onangni ham, meni ham hurmatimiz baland.

– Buni menga, Dildoraga nima daxli bor?

– Hoy bola, kallangni ishlat! “Kelin kimlardan, ota-onasi nima ish qiladi?” – desalar, nima deyman? Onasi farrosh, otasi axlat mashina haydovchisi, deymanmi? “O‘l-a topgan qudang ko‘cha ishchilarimi?” – deb ustimizdan kulishadi-ku!

– Ular halol mehnat qiladilar. Egan luqmalari sutdek halol.

– Ko‘chalardan axlat yig‘ib ketadigan “axlat” mashina haydaydi. Ko‘rganlar: “ana Saidbek akaning qudasi” deb, orqamizdan gapiradi. Baribir ko‘cha ishchisi, – biroz yumshaydi. – O‘g‘lim, qo‘y, to‘g‘ri kelmaydi. O‘shalarni unut, hamma aytganlaringni qilaman. Xohlasang mashina olib beraman. Mazza qilib yurasan.

Yigitlikning gashtini surmaysanmi, nodon, mening soyamda. Hali bunaqa qizlardan qancha-qanchasi uchraydi. Axir sen, kimsan, shaharning o'nta boyidan birining o'g'lisan.

– To'g'ri kelgan qiz bilan ko'ngil ocharlik qilsam, yo'ldan ursam, insonligim qayda qoladi?! Qolaversa, ularning ham orzu-umidlari bor. Hissiz, ongsiz mavjudot emas. Men qarg'ishga qolishni istamayman. Uylansam Dildoraga uylanaman, vassalom.

Xonaga Qadamning onasi Zulayho kirib keladi.

– Adasi, “davleniyam” osmonga sakrayapti, do'xtir chaqiring!
– Kresloga holsiz o'tiradi – Boshimga eytadi buniz!

– Qon bosimingni ham tuturug'i qolmadi. Do'xtirlar ham kelaverib charchadi. Undan ko'ra, o'g'ling bilan bir yaxshilab gaplash. Men hovliga chiqib kelaman.

Zulayho boshini ushlagancha oh-vohlab gapiradi:

– Bu bilan gaplashib bo'ldim. Kim biladi, haligi supuruvchi qiz duo-puo eydirganmi, o'shani deb turib olgan. Hech bo'lmasa, do'konchimi, domlanimi qizi bo'lsa ham go'rga edi. Bu kishining topganlari “farrosh”, ya'ni, ko'cha supuruvchi, shallaqi odamlar ekan. Zo'r joylarga quda-anda bo'lish orzularim bor edi. Qudangiz kimlardan desalar, falonchi boy, falonchi direktor, deb kerilgim keldi. Endi nima degan odam bo'ldim? Sharmanda bo'ldim, yuriqsiz bo'ldim. – Tizzasiga shapatilab urib ko'z yoshsiz yig'laydi.

Qadam o'rnidan turib onasi tomonga qaraydi.

– Hoy onajon! Meni ham eshiting. Bu nima ko'rgulik. Badavlat oilaning o'g'li oddiy xonadon qiziga uylanolmasa. Oddiy xonadon qizi do'kondor yoki olim oilaga kelin bo'la olmasa! Mamlakatlarini simto'siqlar ajratdi. Shahar bilan qishloqni ma'naviyatsizlik,

Turkiyada ko'rib o'rganilgan tajribadan kelib chiqib, Samarqand shahar hududidagi bo'sh eyr maydonlarida landshaft dizayni asosida xiyobon shaklidagi manzarali ekohududlar tashkil qilishga kirishilgan. Turkiyadagi 5 yarim million aholi yashaydigan Anqara shahrida 465 ta dam olish, hordiq chiqarish va manzarali ekobog'larni ko'rib, Samarqandda ham shunday ekobog'lar tashkil etishga kirishilgan.

kalta fikrlar ajratdi. Insoniyatni, eldoshu millatdoshlarni, do'stlarni "tabaqalanish" degan jirkanch g'oyaning qora pardasi ajratib bormoqda. E, Xudo, nahotki tabaqalar orasidagi chegaralar "ruxsatnoma"lar bilan belgilansa. Bu ne ko'rgulik bo'ldi! Axir, hamma-miz "inson" degan buyuk nomning vakillarimiz-ku! Bu tabaqalanish, bu to'siqlar eyr yuzini do'xaxga aylantirib tashlamasmikan, onajon?!

Zulayho o'g'lining gaplarini eshitib hayron, tez-tez ko'ksiga tuflaydi. "Tuf-tuf. Astofirulloh" Boshini barmog'i bilan ko'rsatib: "tomi ketib qolmadimikin buni, adasi" deydi. Saidbek uning ishorasiga parvo qilmaydi. O'tirgan joyidan turib qarsak chaladi.

– Barakalla, bolam, barakalla, «faylasuf» bo'lib ketibsan-ku. Bilmagan ekanmiz. – Unga yaqin keladi.

– Adajon, ehtiyot bo'ling, ehtiyot bo'ling, – qo'llarini otasi tomonga uzatib to'xtatadi. – Devor bor, urilib ketmang. Peshonangiz g'urra bo'lmasin, beton devor qurgansiz, esingizdami. To'xtang, beton devorga urilib ketmang.

Saidbek hayratdan qotib lablari qimirlaydi, ovozi chiqmaydi, qo'llarini cho'zib, xuddi devorni paypaslayotganday, muallaq bo'shliqni siypalayotgandek harakat qiladi. Xonaning bir chetida turgan Zulayho har xil qiliqlar qilayotgan Saidbekka qarab baqirib yuboradi.

– Otasi! Saidbek aka!

Saidbek to'xtaydi.

– Onasi, ehtiyot bo'l, o'zingni devorga urib olma, – deydi o'g'lini mazax qilgandek. – O'g'ling devorning narigi betida qolibdi. Buldozor chaqir, devorni buzamiz.

Zulayho boshini mushtlaydi:

Shahar va qishloqlarda xalq hashari e'lon qilinadi. Bir kunlik hashar haqida tinimsiz ko'rsatuvlar, radioeshittirishlar, gazetalar-da maqolalar e'lon qilinadi. Go'yo bir kunlik hasharda hammayoq saranjom-sarishta bo'lgandek. Ammo har kuni ertalabdan kechgacha shahar ozodaligi bilan mashg'ul ko'chaishchilarining mash-aqqatli mehnati haqida juda kam gapiramiz.

– Men esimni yo‘qotganim eytmaganday, siz ham haligiday, jinni-pinni bo‘lib qolmadingizmi o‘zi? Bu hammamizni aqlan ozdiradi. Jin chalganga o‘xshaydi. O‘qitish kerak. Ona dovdirab har tomonga yura boshlaydi. Saidbek qarsak chalgancha xonadan chiqib ketdi.

Jumaqulning xonadoni. Devor tagida karovat. Jumaqul bilan xotini qo‘shni xonadonda bo‘layotgan voqealarni kuzatib, tik turgancha, eshitib turibdi. Qo‘shnikida tortishuv tindi. Xotini Xolisxonning oldiga kelib o‘tirdi.

– Payti keldi onasi. Otingni qamchilab qol. O‘t, qayt, qizingni ishga sol.

– Qaniydi! – deydi Xolisxon. – To‘g‘ri aytyapsiz, otasi. Bu kosho-na qizimizniki bo‘lsa, bizga ham yaxshi. Hiyla ishlatish kerak, hiyla.

– O‘chir. Birov eshitib qolsa nima bo‘ladi? Sekinroq gapiring-lar. Eshitdingmi, “o‘qituvchimi, sotuvchimi bo‘lsayam go‘rga edi” deyapti. Foydalan. “Qizimizga sovchi kelib, boshimizni qotirib tashlashyapti, yaqinroqqa uzatmoqchiman”, degin.

– Farroshdan ko‘ra, sizning qizingizni kelin qilaman, deb qol-sa-ya?! Zo‘r bo‘lardi. Adasi, yana kim biladi, peshonaga yozilgani bo‘ladi deyishadi.

Jumaqul xotini bilan ayvonga o‘tishadi. Ular yonma-yon o‘tirib choy ichishadi. O‘rtalarida kichik aylana stol.

– Hammasi qizingniki bo‘lardi. Peshonasiga bitilgani bo‘ladi deb angrayib o‘tirmay, harakat qil.

– Qizingiz parvoyi palak. Boshqa qiz bo‘lganda boyning bolasining boshini aylantirib olardi.

– O‘rgat, qo‘ldan chiqarmaslik kerak. O‘zini ishchan qilib ko‘rsatsin. Ko‘chalarni supurib-sidirsin!

Samarqandga kelgan sayyohlar kishini lol qoldiradigan buyuk o‘tmishimizdan so‘zlaguvchi obidalar bilan birga rango-rang gul-larga burkangan, turli-tuman daraxtlarga to‘la ko‘cha va xiyo-bonlarni ko‘rib, shaharga mahliyo bo‘lib qolishadi.

– Aytdim, o‘rgatdim. Ish yoqmaydi. Uyqu, televizor, kompyuter bo‘lsa bo‘lgani. O‘ziz taltaytirib yubordiz, bitta qiz, deb.

– Tushuntirmadingmi, ana shu saroyning bekasi bo‘lasan, xizmatkorlaring bo‘ladi, deb. Qo‘ldan chiqarmaslik kerak. Butun boyligiga ega bo‘lish kerak. Tushuntir.

– Aytmagan gapim qolmadi. “Katta uyning tashvishi, ishi ham katta bo‘ladi”, deydi. “Kuyov o‘zimdanda past tabaqadan bo‘lsa, so‘zimni o‘tkazaman”, deydi. Sizga o‘xshab qaysar-da!

– Harakat qil. Sanobar lo‘lining duosi zo‘r, deyishadi. Ikkalasini isitadigan duo qilib bersin.

– O‘qitib, ikkalasiga ham ichirdim, foyda bo‘lmadi. Bekorga yuz dollor pulim ketdi.

– Ikkalasi gaplashadi-ku?

– Shunchalik qo‘shnichilik yuzasidan gaplashishar emish. Shunaqa deydi qizingiz.

– Qo‘ldan chiqarmaslik kerak. Yo‘lini top. Qizingni yo‘lga sol!

– Qadamning sevgani borgan o‘xshaydi. Faqat Dildora degan qizni gapirib turadi, deydi.

– Zahroga o‘rgat, uni yo‘lga solsini. U kirishsa, hammasi bo‘ladi. Hamma gap qizingda qolgan. Aytmadingmi, ana shu saroyga beka bo‘lsang, hayoting malikalarnikidek bo‘ladi, deb. Hammaning xurmatida bo‘lasan. Qadam muloyimgina yigit, yo‘lingga solib olasan, – demadingmi.

– Aytmagan gapim qolmadi. O‘zida unchalik xohish yo‘q.

Jumaqul derazadan qo‘shnini ko‘zni yashnatadigan hovlisini ko‘rsatadi. Xotini ham qaraydi.

– Shaharchada bitta-da. Nabiralarim shu saroyda mazza qilib yayrab, o‘sganiga nima etsin. Kimsan Saidbek qudamiz. Saxiyligi tutib ketib, bizlarga ham o‘zinikidek bo‘lmasa-da, bundayroq ikki qavatli uy qurib berarmidi.

Xolisxon eriga norozi nigohda qaradi:

– Uyimiz shu xolida ham ko‘chadagi zo‘r uylardan biri. Ko‘pam o‘zingizni erga uravermang. Shu hovliga yopishib oldizda, otajonisi. Qo‘ying, o‘zimizning peshonamizga bersin. Ovqatga qarab kelay.

– Qizingchi?

– Bilmayman, kompyuterda nimadir qilayotgandir.

– Hamma ayb senda, tikish qilayotganingda yoningga olmay-san, o'rgat, odamlarning havasi keladigan qiz bo'lsin, deyman. Hamma ish qo'lidan kelsin deyman, quloq solmaysan.

– O'zida bo'lmasa nima qilay?

– Zahro, Zahro, deyapman. Bu yoqqa kel, – deb baqirdi Jumaqul.

Eshikdan shim, yigitlar kiyadigan ko'ylak kiyib olgan Zahro kirib keldi.

– Nima deysiz? Baqirishingizni qarang.

– Bor ko'ylak kiyib chiq!

– Kiyganman-ku!

Jumaqul xotiniga g'azab bilan qaradi.

– Buningga ayt, shu ham ko'ylak bo'ldimi?

– Bor, sal uzunroq ko'ylagingni kiyib chiq. Yigitlarga o'xshab kiyinmasang asakang ketmas.

– Moda shu. – Zahro chiqib ketishga shaylandi. – Gapingiz bo'lsa gapiring. Koreyadagi o'rtog'im bilan gaplashayotgandim.

– Bu yurishingda sovchi kelmaydi.

– Kelsin, deb turganim yo'q.

Xolisxonni jahli chiqdi:

– Hoy, qiz, tilingga erk berma. Otang bilan gaplashyapsan-a?!

– O'zlaring ham xit qilib yubordinglar-ku.

– Hoy, qizim, nima deb gapirayotganingni bilasanmi? Toming ketmaganmi?

– Maniki-ku joyida, o'zlaringniki ketmaganmi? Bitta gapga yopishib oldizlar.

– O'sha yo'q o'rtoqlaringni deb o'qishdan ayrilib qolma. Ular senga el bo'lmaydi. O'zgar endi, yosh bola emassan-ku. Qadamni boy berma! Shunday boyvachcha, yakka farzandga qani edi turmushga chiqsang. O'ringda boshqa qiz bo'lganida qo'ldan boy bermasdi.

Samarqandga kelgan sayyohlar kishini lol qoldiradigan buyuk o'tmishimizdan so'zlaguvchi obidalar bilan birga rango-rang gullarga burkangan, tugli-tuman daraxtlarga to'la ko'cha va xiyo-bonlarni ko'rib, shaharga mahliyo bo'lib qolishadi.

– Qanday ushlay, to‘rt og‘iz gapini ham qizg‘anadi. Gaplashgisi kelmaydi. O‘zini olib qochadi. Tengim chiqib qolar.

Jumaqul asabiy qo‘l siltadi.

– Bilganingni qil!

Xolisxon qizining yoniga kelib o‘tirdi:

– Men aytgandek qiz bo‘lsang, atrofingda girdikapalak bo‘lar-di. Lozim kiy, uzun ko‘ylak kiy, boshingga ro‘mol o‘ra, ularning eshigi oldiga ham suv sep, supur. O‘zingni hayoli qiz qilib ko‘rsat-chi, qaramay qayoqqa boradi.

Zahroning qoshlari chimirildi:

– Voy, anavi kishini, ko‘cha supuraymi, qul bo‘laymi? Hechamda.

– Hech bo‘lmasa onang aytgandek kiyinib yur. – dedi Jumaqul.

– Odamlardan uyalyapman, gapirishyapti.

– Bo‘pti-da. O‘sha lozim-ko‘ylagingizni kiyaman, bo‘ldimi! – Eshikni qarsillatib, yopib chiqib ketadi.

– O‘ziyam xohlaydi. Lekin bu takasaltangni bu yurishi kimga yoqardi. Mayli, har qalay kiyaman dedi-ku! O‘zgarar. Bu xonadonga kim kelin bo‘lishni xohlamaydi, hamma qizlar xohlaydi. Asta-asta egiladi.

– Men aytgandek kiyinsa, chiroylikkina qizga aylanadi.

– Kiyintirib, qo‘shnilarning oldidan olib o‘tib tur. Ko‘p gapirmasin. O‘zini tortinchoq qilib ko‘rsatsin.

– Voy, oshim tagiga olib ketdi, yov, hidi kelyapti.

Hovliqib chiqib ketdi.

Saidbek ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olgan. Zulayho isiriq tutatib, xonani aylanadi. «Ins-jinslar ketlaring, ketlaring» – deydi. Saidbek tutunga chidayolmay qo‘li bilan haydaydi.

– Bas qil, onasi, ins-jinslaring ham bu tutunda o‘lib bo‘ldi, bas qil! Meni ham ins-jinslarga qo‘shib o‘ldirmoqchimisani?!

Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasining fidoyi rahbari Bobur Aliev ba‘zi bir anglashilmovchilik tufayli uch marotaba vazifasidan ozod etilib yana tiklangan. Bu mehnatkash, sofdil, tinib-tinchimas inson tinim nimaligini bilmaydi. Borlig‘ini Samarqandning go‘zal va ozoda bo‘lib turishiga baxshida qilgan inson. Ko‘cha ishchilari uni rahbar emas, o‘z og‘alaridek biladi.

– Ko‘rdingiz-ku, ikkimizning ham esdan og‘ishimizga oz qoldi.
– O‘g‘lingni haziliga men ham hazil qilgandim.
– Hazil qilmay keting-ey, o‘takamni yordingiz-ku!
O‘g‘limizning esi og‘ib qolganga o‘xshaydi. Ko‘rsatish kerak.

– Hech balo bo‘lmagan.

– Baribir qiliqlari, gaplari boshqacha.

– Sevgi ko‘zini xiralashtirgan. O‘ziga kelib qoladi. Sen ham, men ham o‘zimizni tortib tursak, o‘zi gapiradi. Kechirim ham so‘raydi. Ozroq vaqt o‘tsin.

– Hech nima eymadi. O‘zi o‘sha qiz qanaqa ekan. Ja yopishib olibdi. Yuragidan urgan. Yoki yaxshigina duo ichirgan o‘ziga qaratadigan qilib.

– Bo‘ldi dedim, ins-jinslarni asfalasofinga jo‘natib bo‘lding. Bor, hokandozni qo‘yib kel, gap bor.

Zulayho eshikdan chiqib ketib, darrov qaytib keldi. Saidbekka yaqin o‘tirdi. Toqatsizlandi.

– Ayting, nima gap ekan? Mahtal qilmang.

– Hech kimga bildirmay o‘sha Dildorasini surishtir. Ja-a, bo‘lmag‘ur bo‘lsa, senam o‘g‘lingni undan sovutadigan duo qildir. O‘zi-ku ishonmayman. Mayli bir ko‘r-chi.

– Bir paytlar otamni rozi qilamiz, deb o‘ntacha duo qildirganmiz, foydasi bo‘lmagan. Lekin bittasi foyda bergan. Otam duoni ichib ertasi kuni sizga bermayman, degan odam birdan rozi bo‘lgandi.

– Bilganingni qil, agar ja bo‘lmag‘ur bo‘lsa, o‘sha qizdan aynit. Balki kim biladi...

– Sevgi deganlari ham chatoqda, odamni jinni qilib qo‘yadi. Siz ham menga shunday bo‘lgansiz, adasi. Esingizdami, ertadan kechgacha yo‘limni poylardiz, – kuladi Zulayho.

Qarshi shahar obodonlashtirish boshqarmasida 761 nafar ishchi xizmat qiladi. 171,7 gektar maydon supiriladigan ko‘cha, yo‘lak va xiyobonlar, 337,6 ko‘kalamzorlashtirilgan maydon, shundan 28,2 gektar gul ko‘chatlari, 62,8 daraxtzor va daraxt ekiladigan maydon.

– O‘g‘liz ham sizday demoqchimisan? Men unga o‘xshab su-
purgi ko‘targanni emas, obro‘-e’tiborli oilaning qizini sevganman.
Farroshning suratini stolga qo‘yib olib, termulmaganman.

– Ha aytganday, ertalabdan beri kelgani yo‘q. Telefon qilsam,
“bormayman”, deydi. Qaerlarda ekan, – Zulayho yig‘lab, ko‘ziga
yosh oladi.

Saidbek xonada biroz yurdi, cho‘ntagidan telefonni olib, raqam
terdi. Uzun-uzun chaqiriq. So‘ng “Allo” degan ovoz.

– Hoy, faylasuf bolam, achchiq qilma. Ko‘chada sang‘ib yur-
masdan to‘g‘ri uyga kel. Ha, anavi qizning adresini ham olib kel.
Bir o‘ylashib ko‘ramiz.

Zulayho engil kulib eriga yuzlanadi.

– O‘tgan kunlaringizni esladingizmi?

Saidbek og‘ir kunlarini bir-bir eslar, xotiralar uni o‘z domiga
tobora tortib ketayotgandi.

Kichkinagina hovli joy. Uylarning somon suvoqlari devordan
ajralib tushgan. Go‘yo tashlandiq bir joyga o‘xshaydi. Saidning
ota-onasi, akasi – to‘rtovlon bir xonada o‘tirishibdi. Ona chopon
qavish bilan mashg‘ul, ota tinimsiz yo‘taladi. Onasi o‘rnidan tu-
rib pechkaning ustidagi chovgumdan qaynoq suvni piyolaga olib
otasiga ichiradi. Yo‘tal qolganday bo‘ladi. Saidbekning otasi Umid
xotiniga qaradi. Yo‘taldan to‘xtab:

– Onasi, seni ham qiynab qo‘ydim. Olloh ham omonatini tez-
roq olmaydi.

Nabira tikish tika turib, javob qildi.

– Adasi, yaxshi niyat qiling, hali hech narsa ko‘rmagandek
bo‘lib ketasiz. Ertalab choponni egasi pulini olib kelsa, qo‘y
go‘sh tidan sho‘rva qilib beraman. Terlab tuzalib ketasiz.

Umid xotini Nabiraga mehr bilan boqdi:

– Yaxshiyam sendek mehribon ayolim bor. Sendan qarzdor-
man. O‘n yildan beri tekin tomoq bo‘lib yotdim. Ro‘zg‘orning
og‘ir yuki elkangga tushdi. Bir og‘iz dilimni og‘ritadigan gap ayt-
mading. Xotindan yolchidim. Bir tasodif bo‘lsa-yu, oyoqqa turib
ketsam, qo‘lingni sovuq suvga urdirmasdim.

Nabira uyalgan bo‘ldi. Bolalariga qaraydi. Biri kitob o‘qib, biri
rasm chizish bilan ovora. Miyig‘ida kuladi.

– Havas qilsa qilgudek yashadik. Kinoga ham, boqqa ham, toqqa ham olib bordingiz. Birovdan kam qilmadingiz. Har doim ardoqladingiz. Bir og‘iz so‘kmabsizam. – Kuladi. – Hamma havas qilardi ikkimizga. – Maftunkor tabassum qilib. Qo‘li bilan Umidning boshini ko‘tarib, yostig‘ini to‘g‘rilab qo‘yadi. – Ja-a ajoyib edingizda, har kuni gul ko‘tarib kelardingiz. Tohirjon maktabga boradigan bo‘lganda ham gul berardingiz.

– Tuzalsam yana gullar olib kelardim... – og‘ir tin oladi. Nasib qilarmikan?... Ovozi bo‘g‘ilib ko‘zi yoshlanadi.

Said ro‘molcha bilan otasining ko‘z yoshini artidi.

– Otajon, kattalar ham yig‘laydimi?

Umid qo‘li bilan Saidbekning boshini silaydi:

– Ko‘z yoshi katta-kichik, deb o‘tirmaydi. Kattalar hayajondan, quvonchdan ko‘ziga yosh oladi. Chaqaloqlar och qolsa, biror joyi og‘riganda yig‘laydi, bolam. Men xursandligimdan, bu ko‘z yoshlar sizlarning, onangning mehribonligidan, bolam. Onangga rahmat, onangdan ko‘p qarzdoran.

– Ota, men katta bo‘lib ko‘p pul topaman, keyin sizni do‘xtirga ko‘rsataman, tuzataman.

Tohir rasm chizishdan to‘xtab otasiga yuzlanadi:

– Men rasmlarimni sotib, chet elga yuborib, sizni davolataman.

Ota-ona mamnun jilmayishadi.

– Rahmat, endi kitoblaringni o‘qinglar, – dedi Nabira.

– Hozir ta‘til-ku! – og‘rindi Said.

– Tuzalganday bo‘ldim, mehribon bolalarim, rahmat. Endi chiroqni o‘chirsanglar, biroz dam olardim.

Tohir bilan Said o‘z xonalariga chiqib ketishdi.

– Joylaring to‘shalgan, yaxshi uxlanglar. – deb qoldi bolalarining orqasidan.

Shahar obodonlashtirish boshqarmasi rahbarligida shaharni ko‘kalamzorlashtirish, yanada obod shaharga aylantirish uchun tinimsiz izlanishda. Ko‘chalar va xiyobonlarga yaqin yillar ichida 540 dona Qrim sasnasi, 12 dona oblonka archasi, 10 dona shamshod kustarnigi, 13 ming dona mavsumiy gullar, 900 dona palma daraxtlari, 860 dona yapon sakorasi ekilgan.

Qorong'ulik. Tohir bilan Said uxlab qolishgan. Yarim tunda onasining "Voy dod, otasi! Bizni tashlab ketgan yo'ldoshim-y. Xudoyim endi, bu yorug' dunyoda men nima qilaman?!" degan chinqirig'i borliqni larzaga soldi.

Nabira judolikka chidolmay, yotib qoldi. Uy-ro'zg'or ishlari ham Said bilan Tohirning elkasiga tushdi. Said bozor oralab yuribdi. Sotuvchilarning yoniga boradi.

– Amaki, yordamchi kerakmasmi?

– Yo'q.

Boshqasiga uchrashadi.

– Amaki, yordamchi kerakmasmi?

Sotuvchi unga bepisand qaraydi:

– Voy, no'xotpolvon-ey, sen ishlaysanmi? Ona suting og'zingdan ketmagan-ku!

– Kulmang, onam kasal, ishlashim kerak.

Uning gapini eshitib turgan kartoshka sotuvchi ayol yoniga chaqirdi.


– Bu yoqqa kel, bolam. Menga yordamchi kerak. – Yoniga chaqirib oladi-da, toshlarni ko'rsata boshlaydi. Manavi bir kiloli, bunisi ikki kilo. Bu kattasi, besh kilo. Tarozining posangisi baravar tursa, to'g'ri tortilgan bo'ladi.

– Ozigina bilaman, kinolardan o'rganganman. Elektronniysini yanayam yaxshi bilaman. Yonimizdagi do'konda elektron tarozi bor.

Shu payt xaridor keldi. Ayol xaridor bilan savdolashadi.

Xaridor: – Bir yarim mingdan bo'lsa beraqoling.

– Mayli, ola qoling, bir yarim mingdan. Kartoshkamizga gap yo'q. Qancha?



Qarshiga kiraverishda Qashqadaryo to'silib, aholining dam olish sayilgohiga aylantirilgan. Kunduz va kechalar dam oluvchilar bilan gavjum. Daryoda qayiqlarda suzib, sohil bo'ylarida hordiq chiqaradigan maftunkor bu joyning ham ozodaligi uchun Obodonlashtirish ishchilari mas'ul.

– Besh kilo, – deydi xaridor.

– Qani bolam, anavi kartoshkadan tortchi! – buyurdi ayol.

Said bir boshdan chelakka soldi, so‘ng tortdi.

– Sal mayda bo‘lmadimi? – Xaridor kartoshkalarga qarab noroziday bo‘ldi.

– Yo‘q, amaki, qarang! – kartoshkalarni olib ko‘rsatadi Said.

– Zo‘rsan-ku, – deydi kulib xaridor. – Sendan bozorchi chiqadi.

Xaridor mahsulotni ko‘zdan kechiradi, ma‘qul keldi shekilli, qopchasini ochadi. Said kartoshkani bo‘shatib, xaridorga qaraydi. Xaridor pulni beradi. Said pulni olib, ayolga uzatib ulgurmay, xaridor ustiga xaridor kelaverdi. Said tortib, pulni ayolga uzataverdi. Yonidagi sotuvchi bolaga qarab qo‘yadi.

– Bolangizning oyog‘i engil keldi. – deydi u. – Xaridoringiz ham ko‘p bo‘ldi. Chaqqongina, bo‘ladigan bola ekan.

Ayol: – Oллоh hammaning rizqini o‘zi beradi. – deydi Saidga qarab. – Ertaga ham kelasanmi?

– Har kuni kelaman, kel desangiz.

– O‘qishing-chi?

– Hozir kanikuldaman. Kanikul tugasa tushdan keyin kelaman.

– Bo‘ladi. Yana o‘qishdan aynitibsiz, degan malomatga qolmay. O‘zi hali ismingni ham so‘ramabman-ku!

– Saidman.

Ayol qoplarning ustini yopdi. Ochiq qopdan bir elim xaltachada kartoshka solib, Saidga tutqazdi. Bir dasta puldan biroz oldi. – Mana, o‘n ming pul, bolam, kartoshkalarni uyingga olib bor. Yana uyoq-buyoqqa borib yurma.

– To‘g‘ri uyimga boraman. Kartoshkani onamga qaynatib beraman.

– Nega qaynatib berasan?

– Yog‘ tugagan. Qo‘lidagi pulini ko‘rsatadi. – Bunga dori olaman, xola.

Ayol biroz o‘ylanib turadida, yana pul beradi.

– Mana, yana o‘n ming. Non bilan yog‘ olib bor. Kartoshkani qovurib elaring.

– Ertaga shunday ishlab beraman. Qarzimni uzaman. Xolajon, rahmat.

– Boraqol, – dedi ayol Saidning elkasiga urib.

Said xursandligidan olamga sig'may, tez-tez yurib, bozordan chiqib ketdi.

Said uyqudan turgan kishiday ko'zlarini uqalaydi, ro'molchasini olib, peshonasini artadi:

– Ha, nimasini aytasan, xotin, u kunlarni eslab turish kerak ekan. Sotuvchilik ham, hammollik ham qildim, mashinalab yuk ham tushirdim. “Mardikor” degan nom ham oldim. Hammasiga chidaganman. O'sha xolani menga Xudo yo'liqtirdi. Shu xola tu-fayli Saidboyga aylandim. Onam bilan opa-singil bo'lib qolishdi. Otangni ham o'sha xola ko'ndirgandi.

– Onangiz bilan “xola” bir-birlariga juda bog'lanib qolishgan-di. Tongotar suhbatlar qilishardi. Xola o'tish qilgach, onangiz bu dunyoga sig'may qolgandilar, bir oy o'tmay o'tish qilgandilar.

Saidbek xo'rsindi:

– Nimasini aytasan, xotin. U kishining ismlarini ham so'ra-maganman. Hamma “xola” derdi. Xola bo'lib o'tib ketdilar. Bun-day odamlar dunyoga bir keladi. Mayli, bolalar baxtli bo'lishsa, bo'lgani.

Quyosh hali o'zining yorqin yuzini ko'rsatmagan. Tong oq-rib boradi. Ko'chalarda odamlar siyrak. Ko'cha ishchilari allaqa-chon ishga tushib ketgan. Yo'laklarni supurib ko'cha va ariqlarga tashlab ketilgan elim suv idishlari, selofan to'la axlat xaltalarni yig'ishtirib, har-har joyga uyib qo'yishadi. Ular ko'chalarga far-ishtalar kabi tarqab, shahar orastaligini saqlashadi.

Archa daraxtining yonida, xoliroq joyda Qadam va Dildora yonma-yon o'tirib olgan. Dildoraning yonida supurgi. Qiz erga nigohini qadagancha uning gaplarini eshitib o'tiribdi.

Dunyo va shaharlarimizdagi ozodalik, ekoholatni saqlab, aholining sog'lig'iga putur eytadigan har xil holatlardan asrayot-gan aynan shu ko'chaishchilari – farishtalardir...

– Ertagayoq sovchi qo‘yaman, kerak bo‘lsa... Ota-onalarimiz rozilik bersa, bermasa sizga uylanaman. Qarorim qat‘iy.

Dildora kuladi:

– Sovchi?! Tong saharlab kelib sovchi, deysiz. Sovchilar tushingizga kirganmi? Ota-onangiz meni farrosh bo‘lib ishlashimni bilishsa, infarkt bo‘lib qolishadi-ku. Qo‘ying, ja-a ko‘nglimni ko‘tarib yubordingiz.

Shu payt ulardan sal narida “Shurik piyon” laqabli ishchi paydo bo‘ladi va gandarab kelib, qo‘lidagi belkuragini bir chetga uloqtirdi, archaning tagini titkilab, bir butilkani topib oldi, uni mehr bilan o‘pib qo‘yadi. Shurik piyonning nigohi Qadam bilan Dildorga tushdi, ularga qarab:

– Nechevo. Suhbatni davom ettiraveringlar, xalaqit bermayman. Do‘st bo‘lsang, yonimga kel, deb o‘zidan sal narida daraxt tagini yumshatayotgan kishiga qarab baqirdi.

U kishi atrofga olazarak qarab oldi-da uning yoniga chopadi.

– Ha, Shurik, men hamisha yoningdaman, do‘stim!..

Qadam Dildoraga qarab o‘rmidan turadi.

– Yuring, ketamiz. Ertaga sovchilar borishadi. Uyizgacha kuzatib boraman. Shu bahona manzilingizni ham bilib olaman. Ertaga sovchilar ovora bo‘lishmasin-da.

– Yo‘g‘-e, hali-hali kimligimni bilmaydilar-ku. Qolaversa hali ishimni tugatganim yo‘q.

Qadam kuladi:

– Allaqachon bilib bo‘lishgan. Avvaliga yig‘i-sig‘i, do‘q-po‘pisa qilishdi.

Shu payt Dildoraning qarshisidan supurib kelayotgan Anora yaqinlashib salomlashadi. Dildoraga jilmayib qaraydi:

– Bora qol, o‘zim tugatib qo‘yaman.

Dildora noiloj supurgisini o‘rab archa tagiga qoldirib, Qadam bilan ketadi. Anora ularga uzoq tikilib qoldi.

Xiyobon. Ko‘k xalat kiygan ishchilar. Erkaklar daraxtlarga shakl beradi. Ayollar biror joyda qog‘ozmi, cho‘pmi, bargmi ko‘rsalar, qo‘llaridagi qopga olib sotishadi. Chet ellik sayyohlar kiyimidagi kishilarning: “juda go‘zal, juda ozoda shahar ekan” deyishlari eshit-

ilib turadi. Farroshlar, suvchilar, bog‘bonlar – har kim o‘z ishi bilan band. Sho‘xroq bolalar irg‘itgan muzqaymoq qog‘ozimi, yo‘lovchilar tomonidan qoldirilgan har qanday tashlangan narsani darhol terib olishadi. Ular faqat ish bilan band. Ishchilar axlat, bakalashka, sigaret qoldig‘ini tashlab ketayotganlarga bir qarab qo‘yib, jimgina e‘tiroz bildirishadi. Boshlarini ma‘noli qimirlatishadi. Na iloj ozoda shahar ularga kerak go‘yo. Chiqindi yig‘indilarini telejkaga oborib to‘kishadi. Anora nafas rostlash uchun bir pas dam olib turganda, yaxshigina kiyingan bir kishi sigareta qutisini tozalangan joyga irg‘itdi. Anora shart turib, g‘ijimlangan sigareta qutisini oldi.

– Hoy mulla aka, shoshmang. Narsangiz tushib qoldi, deya yerdagi sigareta qutisini olib borib cho‘ntagiga soladi. Kishi hayron. Ham jahli chiqadi.

– Hoy tarbiyasiz. Kastyumimni rasvo qilding-ku!

– Hoy tarbiya ko‘rgan, axlatingni to‘g‘ri kelgan joyga tashlab ketaverasanmi?

– Axmoq! – dediyu u nimadandir qo‘rqqandek tez yurib ketdi.

Dildora Anoraning yoniga keldi:

– Bopladingiz, – ikkisi kulishdi. Anora bir oz Dildoraga qarab sirli tabassum qiladi.

– Kechagi uchrashuv qanday bo‘ldi? Gapdari rostga o‘xshaydi. Senga bog‘lanib qolgan. Balki shu baxtingdir. Uchirib yuborma.

Dildora xayolchan og‘ir tin oladi, Anoraga qaraydi:

– Bilmasam, sovchi yuboradigan bo‘ldi. “Sizni deyman”, deydi. Lekin u obro‘li xonadon bolasi. Yakka o‘g‘il. Uyidagilari rozilik berishiga ko‘zim etmaydi. Yana kim biladi. Vaqt hakam.

Ba‘zi bir rivoyatlarga qaraganda Qarshi nomi mo‘g‘ul istilochisi Chingizxon tomonidan berilgan. Ungacha Nasaf, Naxshab nomlari bilan yuritilgan. Chigizxon tomonidan “Qarshi” nomining berilishiga sabab, qancha-qancha shaharlarni qisqa bir muddatlarda yengan Chingizxon, Qarshiga qilgan yurishda qattiq qarshilikka uchraydi va Qarshi nomini beradi, deyilsa. Ba‘zi bir manbalarda Chingizxonning nabirasi Kepekxon tomonidan berilgan deyiladi.

Jumaqul narvonda turgancha tokka ishlov berib charchagan kishiday narvondan tushib Saidbekning yoniga kelib o'tirdi. Elkasidagi qiyiqchani olib yuzini artadi.

Saidbek choy quyib uzatadi. Dasturxonda non, qand, murabbo, tarelkada kolbasa, vazada olma. Xullas dasturxon to'kin.

– Qani, Jumaqul, oling, tamaddi qilib oling.

– Rahmat. Qizim qo'yarda qo'ymay lag'mon ichirgandi. Qo'li shirinda.

– Ha, qizingiz pishirgan ovqatlarga gap yo'q. Chiqarib tura-di. Lag'monmi, mantimi, chuchvarami, somsami, boplaydi. Baraka topkur. Yangangizga ming marta aytdim. Shu Zahro qizimizni chaqirib o'tib bir manti qilinglar, deb. Qo'ying, uni ham ishi ko'p: o'qish, uy ishlari, qolaversa, uyaladi, deydi yangangiz.

– To'g'ri, uyaladi, sal tortinchoq, qiz bola-da.

– Baxtli bo'lsin. Yaxshi qiz! Kiyinishi sal ovro'pacha-yu, farosati zo'r. Ko'rishi bilan to'xtab salom beradi. Qo'li ko'ksida.

– Tinmaydi. O'qishi, uy yumushlari – onasiga ish qilgani qo'ymaydi, dedi mag'rurlanib Jumaqul.

– Kelin bo'lib borgan xonadonini obod qiladi.

– Ilohim, aytganingiz kelsin. Uzoqqa bermaymiz. Yaqin o'rtadan chiqsa ko'ramiz, quda, e-e qo'shni. – kulishadi.

Sokin kecha. Saidbek alahsiragancha tush ko'rib uxlab yotibdi.

Nim qorong'u xona, ko'rpachada Saidbek o'tiribdi. Bir chetda oppoq kiyingan rahmatli onasi paydo bo'ladi. O'g'liga teskari qarab o'tirib oladi.

“Ona, onajon”, – deb yuboradi. Onasiga yaqin boradi. “Unutdingmi o'tmishingni?” – deydi ona.

– Ona, bu sizmi? Siz axir... Meni yaxshi ko'radingiz-ku, nima bo'ldi?! Nega mendan yuz o'girib o'tiribsiz?..

– Sen bola tufayli go'rimda ham tinch yotolmadim. Tinchimni yo'qotding. Nega nevaramni qiynaysan! O'zing kim eding. O'tmishingni unutdingmi?! O'zing ham boshida nima ishlar qil-magansan-a!

– Esimda. Men yashash uchun kurashganman. Birovlarning ishini ham qildim. Yollanma ishchi ham, “mardikor” ham bo'ldim.

Mardikor, degan nom ham olganman. Lekin qing'ir ish qilmaganman, ona.

– Ko'rdingmi, bir paytlar sen halol odam bo'lgansan. O'g'ling ham senga o'xshab halol yigit. O'ziga o'xshagan halol bir qizni yoqtribdi. U qiz emas farishtaning o'zi. U qiz savob ishlarni qilib yuradi. Shu qiz o'g'lingning baxti ham, taxti ham, farishtasi ham.

– Nima qil, deysiz ona.

– Ruhimni shod qilaman, desang o'sha qizni kelin qil!

Ruh asta-sekin qorong'ilik qa'riga singib, ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Saidbek baqirgancha uyg'onib ketdi. Cho'milgan kishidek yonidagi sochiq bilan hammayog'ini artadi. "Tavba, tavba", deb qo'yadi. Onamning ruhi bezovta bo'libdi.

– Ona, onajon! Siz aytganday bo'ladi. Albatta, o'sha ko'cha supuruvchi qizni kelin qilaman. – Qadam, hoy Qadam. Bu yoqqa kel. Kel, hoziroq kel!

Qadam kirib keldi, hayratda. Hali tong otmasdan otasi turib olgan. Saidbekning butun vujudi titrardi.

– Ota sizga nima bo'ldi? Kim bilan gaplashyapsiz? Men keldim. Tinchlikmi?

– Yo'q. Tinchlik emas. Momong bilan gaplashdim. Momongga so'z berdim. O'sha qizni kelin qilamiz. Onangni bugunoq sovchilikka yuboraman. Chaqir onangni, yo'q to'xta, o'zim kiraman oldiga. Zulayhoning oldiga kiradi. Zulayho chala uyquda. Goh ko'zini ochadi, goh yumib olib uxlamochi bo'ladi. Bezovta. O'tirib xayol surardi. Erini ko'rib o'rnidan turadi:

– Tinchlikmi, kalla-yu saharlab xonamga bostirib kirdingiz?

– Tinchlik emas. Tushimga onam kirdi. O'sha farrosh qizni kelin qil. Nabiramni qiynama, dedilar. So'z berdim. Bugunoq o'sha qiznikiga qulchilikka bor. Gap tamom.

Zulayho erining gapidan anqayib unga qaradi:

– Dadasi...

– Bas, sovchilikka borasizlar. Gap tamom, – dedi-da chiqib ketadi. Zulayho nima qilishini bilmay qotib qoldi.

Dildora bilan ko'cha ishchilari ishlab turgan payt. Kimdir daraxtdarga ishlov beradi. Kimdir uyum axlatlarni odeyalsimon qop-

larga solib, telejkaga ortadi. Kimdir gulzorga ishlov beradi. Ularga o'nta qiz yaqin keldi. Ularning biri Zahro. Rosa bo'yangan holda. Zahro burni bilan og'zini ro'molcha bilan berkitib olgan. Zahro ishlayotganlarning qarshisida to'xtadi.

– Dildorni qaerdan topsam bo'ladi?

Dildora ishdan to'xtab unga qaraydi:

– Qarshingizdaman, yaxshi qiz.

– “Otdelniy” gaplashmoqchiman. Chetroqqa chiqaylik.

– Shu erda ham gaplashaveraman.

Zahro noiloj shu joyda so'zlay boshlaydi.

– Bilasizmi, men bilan Qadam aka birga o'sganmiz. Aka-singildekmiz. Uni tinch qo'ying. U sizning, siz uning tengi emassiz.

– Yo'g'-e, menga aytmagan ekan. Soatingizga qarang-chi, necha bo'pti?

– O'n ikki, beshtakam, nimaydi? – dedi hayron bo'lib Zahro.

– Shu gaplaringizni hozir o'ziga aytasiz. Tasodifni qarang-a, o'n ikkida kelmoqchi edilar – Kuladi. – Ana, o'zlari ham kelib qoldilar.

Qo'lida bir dasta gul ko'tarib olgan Qadamni ko'rsatadi. Qadam yaqinlashib gulni uzatadi. Dildora olmaydi.

Qadam Zahroga qaradi.

– Siz nima qilib yuribsiz bu erda? – hayron bo'lib so'radi.

Zahro kalovlanib qoladi.

– O'zim shunchaki, shu erdan o'tib ketayotib Dildoraxon bilan tanishgim kelib qoldi.

Dildora kulib Qadamga yuzlandi.

– Aka-singildek o'sgan ekansiz. Bir og'iz singlingizdan ruxsat olmabsiz. Men sizning tengingiz emas ekanman. Balki o'zlari tengingizdir.

Dildora shart burilib ketmoqchi bo'ladi. Qadam bilagidan ushlab, to'xtatdi.

– Siz ham eshiting. – Zahroga g'azab bilan qaraydi: – Qachondan beri menga jonkuyar bo'lib qolding? Qanaqasiga yaqinmiz? Biror marta gaplashmaganman-ku. Nega buzg'unchilik qilasan? Ayt, yolg'onligini! Sen bilan bor-yo'g'i qo'shni bo'lsak. Dildoradan kechirim so'ra.

– Onam “o'zingga qarat” degandilar. Meni kechiringlar...

– Buncha sodda bo‘lmasang. O‘sha ota-onanga ayt, Qadamni suygan qizi bor, degin. Undan o‘lsa ham ayrilmas ekan, degin. Xo‘pmi, singiljon, boshqa bunday ish qilma.

Zahro birov quvgandek o‘rtoqlari bilan tez-tez yurib ketib qoldi.

– O‘zi yomon qiz emas. Rostini aytdi qo‘ydi. Ota-onasining ishi bu.

Qadam bilan Dildora ularning orqasidan kulgancha qarab qolishadi.

Kishining ko‘zini quvontiradigan xonadon; hovlida stol-stul qo‘yilgan, Qadamning ota-onasi choy ichib o‘tirishibdi. Saidbek Zulayhoni shoshiradi:

– Onasi, bo‘l, kiyin. O‘sha qiznikiga sovchilikka borasan. Gap tamom. Bo‘l tezroq.

– Dod! Bu bolaning dastidan dod! – Ikki qo‘li boshida, o‘rnidan turadi. – Endi kim degan odam bo‘laman? Siz ham rozi bo‘ldizmi? Kelib-kelib ko‘cha supuruvchilarga quda bo‘lamizmi?! Keling kim desa, qudangiz kim desa, ko‘cha supuruvchilar, deymanni? Voy dod! Bu kunlar ham bormidi? – Saidbekka qaraydi:

– Bu eyrgina yutkur bolani qaytaring! Ne-ne orzularim bor edi. To‘raboynimi, Nabi nachalniynimi, Turob domlanimi qizini ko‘zlab yuruvdim-a!

Yana uvvos solib yig‘laydi.

– Bo‘ldi qil, hadeb baqiraverma! Qo‘ni-qo‘shnilar Zulayho opa jinni-pinni bo‘lib qolibdi, deyishmasin tag‘in. O‘zingni qo‘lga ol, balki yaxshi oiladir. Bir paytlari sening otang ham meni “o‘qimagan, mardikor, bir santexnik-da” degandi, mana, hozir men otangning suygan kuyovlaridanman. Kimsan Saidbekboyman. Kitoblardan ma‘lumki, hatto shahzoda lo‘li qizga uylangan. Hamma xudoning bandasi. Sen kitob o‘qimagansan, shuning uchun bilmaysan. Ha, aytgancha. Onam tushimga kirdi... Qadamning aytganini qilinglar, dedilar. Bu belgi bekorga bo‘lmasa kerak.

– Elkamning chuquri ko‘rsin. Bormayman.

– Bormasang bo‘lmaydi. Onamning ruhi bezovta bo‘ladi. So‘z berdim. Borasan onasi, borasan! Onam tushimga kirib: “shu qizni

kelin qil”, dedilar. O’sha onam aytayotgan farroshlar halol odamlar. Tushungan odamlar ularni hurmat qilishadi.

– O’shalar bor, ko’chalarimiz fayzli. Mahallalar obod, – deydi kitob o’qib turgan Qadam.

Zulayho o’rnidan turadi:

– Voy, voey! Professor bo’lib ket-ey! Ko’cha supuruvchilari bo’lmasa, musurga botib ketarkanmiz, gapini qarang buni! O’zim tozalab olaman, ko’chamni. Bormayman, borsam Nabi nachalni-yunikiga yoki Turob domlanikiga boraman... Qolaversa, qo’shnida ham qiz bor.

Qadam:

– Ularga o’ziz uylaning, menga kerakmas! Faqat Dildoraga uylanaman. U bo’lmasa tanho o’taman.

Saidbek o’tkir nigohini xotiniga qadadi.

– Qo’y bolani qiynama! Bor, qizing bilan borib kel, gap tamom, vassalom! O’zi arang uyga qaytardik. Yana ketib qolsa nima qilasan? – Saidbek, bopladimmi degandek o’g’liga miyig’ida kulib qarab qo’ydi.

– Rahmat ota, – dedi Qadam otasining qulog’iga.

– Endi qaerdasan, falonchi ko’cha supuruvchini uyi, deb qidirarkanmanda. – Yig’laydi. – Peshonam qursin-a! Orzularim nima bo’ldi. Baland, baland joylarga quda bo’lmoqchi edim, – Tizzalariga urib yig’laydi. – Bir quloch supurgisini ko’tarib kelgan ayolni ko’rsatib, ko’rib qo’ying bu qudajonim deymanmi?! Uning ustiga bibillatib, “musurovoz” mashinasini minib kelgan odamni, kelinimning otasi deymanmi?! Qo’shnilar musoringlarni olib chiqinglar, qudam keldi, deb baqiramanmi, otasi?!

Saidbekka qaraydi. Saidbek xotinini kulimsirab kuzatib turadi.

– Ha, kuling! Hali ko’raman bu mashmashaning oxiri nima bilan tugarkin.

– Har bir bandaning peshonasiga bersin xotin, har birimiz Ollohning bandasimiz. Oldin kelinni olib kelaylik, keyin bir xisob bo’lar. Buning ustiga ularni yaxshi bilmaysan-ku?! Ota-onang meni shunday obro’li odam bo’lishimni bilmay qanchalar yig’lashganini bir eslab ko’r. Har bandaning peshonasiga bersin.

Ko'cha manzarasi, har-har joyda sigareta qoldiqlari, elim qopchalarda tashlab ketilgan chiqindilar, muzqaymoq qog'ozlari, oq-qora rangdagi tartibsiz yotgan salafan xaltalar, sochilib yotgan qovun-tarvuz po'choqlari, har joyda uyulib yotgan daraxt barglari. Ko'cha supurayotgan ayollar, yo'lak atrofini tozalayotgan, o'roq, ketmon, belkurak bilan ishlayotgan ayol-erkak. Uyoq-buyoqqa qarashmaydi. Dildora bilan Anora ham shular orasida. Piyodalar yo'lagini supirishmoqda. Ko'chada mashinalar, odamlar qatnovi.

Anora ishlashdan to'xtab Dildoraga qaraydi:

– Dildora bugun sovchilar keladi deganding. Borib yuvinib-taranib ol. O'zingga oro ber.

– Ishni tugatay.

– O'zim tugatib qo'yaman. – Dildoraning qo'lidan supurgini olib erga qo'yadi. – Seni ko'rib og'izlari ochilib qolsin; o'sha oq-suyak sovchilarni.

Dildora xayrlashib ketadi.

Zulayho bilan qizi Sarvara qidirib-qidirib Dildorlarning uyini topishdi.

Eshikdan Sarvara mo'ralab ichkariga qaraydi. Saranjon, sarishta xonadon.

– Ona, shinamgina hovli ekan. Adashib kelmadikmi? – Zulayho qo'lidagi qog'ozni ko'rsatadi. Shu payt eshik oldiga odmi kiyingan, istarasi issiq juvon chiqadi. Bu – Orzigul.

– Kelinglar, kelinglar – Elkalariga urib ko'rishishadi.

– Adashdik shekilli. Biz Orzigul opaning uyini izlab yurgan edik.

– To'g'ri kelibsizlar. Qani ichkariga marhamat.

Ona-bola bir-birlariga qarab ichkariga kirishadi, uy bekasi ularni tuzatilgan dasturxon atrofiga o'tkazdi. Atrof ozoda, chiroyli ko'rpachalar, oppoq dasturxon, vazada mevalar, oppoq salfetkalar, paxta gulli chinni piyolalar. Uchalasi yumshoq ko'rpachalarga o'tirib, fотиha qilishdi.

Sarvara xonadon egasidan ikkilanib, hali ishonmasdan so'raydi:

– Orzigul opa bilan qizlari qanilar? Mobodo xizmatchilaringiz emasmi ular?

Orzigul miyig'ida chiroyli tabassum qildi:

– O'sha siz so'ragan Orzigul men bo'laman. Dildoraning onasiman – Deraza tomonga qarab:

– Qizim issiq choy damlab kel, – deydi.

Eshik ochilib sochlari mayda o'rilgan, ikki o'rim sochini oldiga tashlab olgan. Egnida atlas ko'ylak kiygan ko'hlikkina qiz chiqib keldi. Patnisda choy, non olib kelib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, salom berdi-da, o'zbekona iltifot bilan choy quyib, uzatdi. Sarvara bilan Zulayho xuddi tush ko'rayotganday hangu mang. Bir-birlariga sirli boqishadi.

– Ko'chada... haligi... nimayidi... – hayajondan tili tutilib gapiradi Zulayho.

Orzigul kulimsirab eshita turib javob qiladi:

– Ha, o'sha ko'cha supuruvchilarimiz. Nima, uyda ham chang-to'zonda yashashadi, deb o'yladingizlarmi? Kir-chirlariga botib yashaydi, deb o'ylaysizmi? Biz ham sizlarday insonmiz. Orzularimiz bir olam...

– Opajon! Yomon xayollarga borganimiz uchun bizlarni kechiring! – deydi Sarvara ohistagina.

Orzigul vazmin qiyofaga kiradi:

– Istamay kelgansizlar, chunki biz sizning tengingiz emasmiz. Qadamjonga ayting qizimiz ham rozi emas. Qizimiz sho'x, xazilmutoyiba qilib gaplashgan. Sho'xligi uchun kalaka qilishni yaxshi ko'radi, – dedi Orzigul.

Zulayho shoshib qolgandi, o'ziga keladi.

– Qo'ying, bizlardan xafa bo'lmang. To'g'risini aytsam, siznikiga kelguncha o'g'limni go'rdan olib-go'rga solib kelgandim. Sizlarni ko'rib, yangi bir olamga kirib qolganday bo'ldim. Dildoraxon ham, siz ham bizga yoqdingiz.

– Keyin pushaymon qilasiz. Biz yuqori tabaqadagi odamlar emasmiz. Sizlarning tengingiz bo'lolmaymiz. Bo'lmaydi! – Deraza tomonga qarab, qizini chaqiradi. Qizi chiqib keldi. – O'zing ayt dilingdagini. Ertaga bizlardan o'pkalab yurma.

– Hozirgina Qadam akaga telefonda aytdim. Mening tengim ko'chadagi supuruvchimi, bog'bonmi, haydovchimi... Ikkimiz bir-birimizga to'g'ri kelmaymiz, dedim. To'g'risi, hali u kishiga ko'ngil qo'yganimcha yo'q. Hazillashgan edim – qo'lini ko'ksiga qo'yadi – Kechiringlar.

Ko'zidagi yoshini berkitib, shart burilib ichkariga kirib ketadi. Zulayho bilan qizi Sarvara noiloj qolishdi. Zulayho Orzigulga:

– Yana bir o'ylab ko'ringlar. Biz bir to'xtamga keldik. Endi sizlar yo'q demanglar. Ikki yoshga baxt tilaylik. Yana kelamiz.

– Mayli ozroq vaqt o'tsin. Biz ham, yoshlar ham o'ylab ko'rishsin.

Ko'chagacha kuzatib chiqib, xayrlashishadi.

Xiyobon. Qadam bilan Dildora. Ikkalasining ham chehrasida notabiiy bir holat. Qadam Dildoraga qaraydi.

– Nega birdan aynib qoldingiz? Sovchilar boradi, dedim. Indamadingiz.

– O'ylab ko'rdim, ko'p o'yladim. Bir-birimizga hecham to'g'ri kelmas ekanmiz. Do'stlaringiz, qavmu qarindoshlaringiz kazo-kazo odamlar.

– Nima bo'пти?

– Menga ham, sizga ham qiyin bo'ladi. O'rtoqlaringiz kuladi. Siz biriga, ikkisiga chidarsiz, lekin baribir bu dashnomlardan charchaysiz. Meni, deb yaqinlaringizdan uzoqlashasiz. Bir kun kelib “to'g'ri kelmadik, bora qol, meni kechir” deysizu, javobimni berasiz, Qadam aka.

– Hecham unday bo'lmaydi. Qolaversa hammamiz ham yakka-yu yagona Ollohning bandasimiz.

– Ikkimiz ikki olam odamlarimiz. To'g'ri kelmaymiz. Tengingizni toping. Meni kechiring, xayr. Iltimos, meni boshqa bezovta qilmang!

Dildora yugurgancha xiyobon oralab ketadi. Qadam uning orqasidan “to'xtang, Dildora” degancha qo'lidagi guli bilan homush o'tirib qoldi.

Jumaqul bilan Xolisxon oynalari ochiq ayvonda suhbatlashib o'tirishibdi. Xolisxon ermakka to'n tikib o'tiribdi.

– Eshitingmi, haligi supuruvchi qiznikiga sovchi qo'yishibdi. Ular noz qilishibdi. Tengimiz emassizlar, bo'lmaydi, deb qaytarib yuborishibdi.

– O‘zlari ko‘cha ishchilari bo‘lib, rozi bo‘lishmabtimi? – Bu bizning foydamiz, qizimizning baxti ochiladiganga o‘xshaydi.

– Xotin, – deydi Jumaqul choy icha turib, man sanga aytsam, Saidbekning ham qizimizga mehri tushganga o‘xshaydi. Qizimiz qilgan ovqatlarni rosa maqtadi.

– Yolg‘onimizning misi chiqmasaydi, deb qo‘rqaman. Bu qiz hech o‘rganay demaydi. “Hali erta” deydi.

– Asta-asta tayyorlab bor, – dedi Jumaqul.

– Harakat qilyapman. O‘jar, gapni olmaydi, g‘irt qaysar.

– Ko‘cha-po‘chani ham supurtir iloji bo‘lsa. Qo‘shnilar tomonga ham qarasin.

– Avtomat tirab ham bu ishni qildirolmayman. O‘zingiz ayting – Xolisxon ichkariga qarab Zahroni chaqiradi – Zahro, qizim, choyni yangila, sovub qolibdi .

Ichkaridan shim va futbolda norozi qiyofada Zahro chiqib keladi.

– Choy ichishdan boshqa ishlaringiz yo‘qmi?

– Ha endi, dam olish kuni bo‘lsa, choy ichib o‘tiribmizda, qizim – Zahro choynakni olib ichkariga kirib ketadi. Xolisxon eriga qizini ko‘rsatib:

– Ko‘rdingizmi, bu ahvolda bu qizni kim ham kelin qilaman, deb ko‘zi uchib o‘tiribdi.

– Kiyimiga qara, uyda o‘zbekcha kiyinsin. Shug‘ullan!

– Shug‘ullan, shug‘ullan deysiz. Hadeb qo‘shniga uzataman, deb kuyunasiz. Avval Zahroga tarbiya bering. Otasiz, o‘zingiz ham shug‘ullaning. Hali kelin bo‘lishga tayyor emas, qizingiz mobodo qo‘shniga kelin bo‘lsa, uzoq turolmaydi. Yaqin qo‘shni bilan yovlashib qolasiz. Bir haftada uyga o‘tkazib yuborishadi. O‘zi chet tiliga o‘qitib adashdik. Mana, ko‘rib turibmizki, chet tili bilan chet elcha kiyinishni o‘rgandiyu milliy urf-odatlarimizni esdan chiqardi.

– Hamma o‘qiganlar bunaqa kiyinmaydi. Ana opangning qizi. Nemis tilini bitirgan. Atlasdan shunday kiyim tikib kiyadiki, hammaning havasini keltiradi. Hamma ayb onada – ya‘ni senda.

Xolisxonning jahli chiqdi.

– Balki mendadir, nima qilay? Yakka qiz, dedingiz. Urishma, dedingiz. Ish buyursam o‘zing qil, dedingiz: mana oqibat. Qo‘ying,

shu qo'shniga quda bo'lishdan nari bo'ling. Qadamdan gapirsam, ensasi qotadi. Kamgap, zerikarli emish...

Jumaqul shart etib xontaxtaga musht tushiradi. Xolisxon cho'chib tikishdan to'xtaydi.

– Yon devor koshonaga faqat mening qizim ega bo'ladi!! Boshqa biror qiz bu xonadonga kelin bo'lmaydi! Bo'lib ko'rsin-chi, hayotini do'zaxga aylantiraman. Mening yakka-yu yagona niyatim – qizim shu koshonaga ega bo'lishini xohlayman. Bu koshona faqat Zahroniki!!! Undan so'ng o'rtadagi devorni olib tashlayman, bildingmi!? Qizim shu xonadonning kelini bo'lishi uchun hamma narsaga tayyorman. Kerak bo'lsa zo'rlab ham Qadamni kuyov qilaman. Bor, qizing bilan gaplash.

Xolisxon zarda bilan turib, qizining xonasiga bordi. Zahro kompyuterdan nigohini olib, onasiga qaraydi. Ona gapni uzoqdan boshlaydi:

– Mana ikkinchi kursni ham tugatding. Kichkina qiz emassan, endi. Ro'zg'or tutishni ham o'rgansang bo'lardi.

– O'rganaman, hali erta. Ha aytmoqchi, bir oyga Yaponiyaga boradigan bo'ldim, uchta talaba.

– Bunisi yaxshi. Hali otang yuboradimi, yo'qmi?

– Yuboradilar.

– Baribir ro'zg'or tutishni o'rgan, qizim. Qo'shni seni zo'r pazanda, deb yuribdi.

– Yurishsa yurishaversin. Baribir yolg'oningizning misini chiqardi. O'zingiz qilgan ovqatlarni qizim qildi, deb aldashga balo bormi?

– Mobodo ularga kelin bo'lib qolsang, ajab emas.

– Aslo ularga kelin bo'lmayman.

– Nega, yoki...?

– Yoki emas, bor, onajon, bor. O'zim bilan o'qiydi.

Onasini quchoqlab erkalanadi. Xolisxon boshini ushlab, qiziga qarab qoladi.

– Jim, jim bo'l. Otang eshita ko'rmasin! Otangning birdan bir orzusi Saidbekka quda bo'lish. Bu gapingni eshitsa yuragi to'xtaydi. Shuni avvalroq aytsang bo'lardi-ku!

– Imkon bermagansiz. Ona bo'lib sirlashmadingiz.

Ona qizining bu gapidan tosh bo'lib qotib qolgan, tili gapga kelmaydi.

Hovlidagi karavotda gazeta varaqlab turgan Jumaqulning yoniga o'g'li Turdi kelib o'tiradi.

– Ota, suyunchi bering, ishga joylashdim, oyligi ham yaxshi ekan. Rahbari: Saidbek akaga kim bo'lasiz, devdi, qarindoshiman, dedim.

– To'g'ri aytibsan, bir kun qarindosh ham bo'lamiz. Qamalib chiqqaningni bilmadimi? – deydi Jumaqul.

– Bildi. Hozirgi zamonda yashirib bo'lmaydi. Kompyuterga tushadi. “Tuhmatga uchragandim, Saidbek tog'am chiqarib oldilar” dedim. Ishonishdi.

– Ehtiyot bo'l, – deydi Jumaqul o'rnidan turib Saidbek bilan o'rtadagi devor yoniga borib, qo'llari bilan siypaydi, mushtlaydi, surib ko'radi. Shu ahvolda devor bo'ylab unga qaragancha yurib o'zicha qandaydir rejalar tuzadi. Xolisxon rangi dokadek oqarib, tashqariga chiqadi.

Jumaqul uni ko'rib, hayratlangancha qarab qoladi.

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i To'rabekning xonasi. To'rda To'rabek. Stol ustida qog'ozlar. Telefon. Undan pastroqda Qadam. To'rabek boshini qimirlatadi. Qo'lidagi ruchka bilan stolni uradi.

– Hech bunaqasi bo'lmagan. Biz ham yaxshi ko'rganmiz. Uchrashganmiz. Sizchalik dalli-devona bo'lmaganmiz. Xo'sh, birga ishlab nimaga erishasiz? O'qish nima bo'ladi?

– Ishga oling. Keyin nima bo'lsa bo'lar. Men Dildoraning yonida ishlamoqchiman, xolos.

– Otangizni taniyman. Ko'pning boshini silagan obro'li odam. U kishi oldida nima degan odam bo'laman. Bo'lmaydi.

– Har kim o'zi uchun yashaydi. Iltimos, To'rabek aka, meni ishga oling.

– Gap bunday. O'qishingiz tugashiga oz qolibdi. Tugatib keling, ishga olaman.

– Yo'q, hozirdan ishlamoqchiman.

– Ja o'jar ekansiz. Sho'hmang. Dildoraning otasi bilan gaplashaychi.

– Kerakmas, – dedi Qadam.

To‘rabek sekin stolga musht tushiradi.

– Bo‘pti, qo‘ymadingiz-qo‘ymadingiz. Ertadan Dildoraning yonida ishlayvering. Ish quroli belkurak qo‘lingizda bo‘lsin! – Kuladi – Boravering, oshiq yigit!

Qadam chiqib ketdi.

Dildora bilan onasi ikkisi ko‘rpacha tikib o‘tirishibdi. Telefon jiringlaydi. Orzigul qiziga qaraydi:

– Olaqol, kim ekan?

– Salom, yaxshimisiz, qizim. Kim bor? – notanish ovoz.

– Onam borlar, kimsiz?

– Men To‘rabek Kalonovichman. Chaqiring.

Dildora onasiga qaraydi.

– Sizni rais so‘rayapti.

– Yo‘q, deb yuborsang bo‘lardi. Yana ishga chaqirayotgandirda.

Borib go‘shakni oladi:

– Assalomu alaykum, To‘rabek aka.

– Vaalaykum assalom. Yaxshimisan. Menga qara, haligi lektor yigit bor-ku Qadamboy, u hamma taniydigan Saidbek akaning o‘g‘li ekan. Lekin zo‘r bola ekan. – Kulgu eshitiladi. – Bunaqa oshiqni ko‘rmaganman...

– Sizga ham bordimi? Dardini doston qilgandir?..

– Unaqangi axmoqlardan emas ekan. Keldi, iltimos, meni Dildoraning brigadasiga ishga oling, deb turib oldi.

– Esi joyidami? O‘qishi nima bo‘ladi?

– Qizing uchun hamma narsadan kechadiganga o‘xshaydi. Ertadan ishga chiqadigan bo‘ldi. O‘ylab ko‘rsin. Qizingga tushuntir. Bir so‘zli yigitga o‘xshaydi. Gapidan qaytmaydigan. Bo‘pti, xayr. Xo‘jayiningga salom ayt, – deb To‘rabek gapini tugatadi.

Qisqa gudok. Orzigul go‘shakni qo‘yib, qiziga qarab turib qoldi.

– Ha, onajon, tinchlikmi, nima gap ekan? – Qadam sening brigadanga ishga kiribdi. Ja, qiziq yigit ekan.

Dildora kulib yubordi.

– Bizlar bilan birga ishlarkanmi? Ertaga lapatkasini ko‘tarib borsa-ya? – Yana kuladi – Voy jinni-ey!

– Kul-kul, bir bechorani yo‘ldan ozdirib... Telefon qil. Qaytar. O‘qishiga borsin. Yana ishga kelib yurmasin.
Dildora kulganicha ichkariga kirib ketdi.

Saidbek telefonda kim bilandir gaplashmoqda. Bir kulib, bir gapiradi.

– Qizi tushmagur yuragidan uribdi-da. Ikki yosh baxtli bo‘lsa bo‘lgani. Ha, yuboraman. Hozir yuboraman. Rahmat, To‘rabek. Biz qarzdormiz. Odamlar gapidan qo‘rqadiganlardan emasmiz. Xo‘p, sog‘ bo‘ling. Ha, xonadan chiqmay yotibdi. Hammasi joyida bo‘ladi. – Qo‘l telefonini o‘chirib cho‘ntagiga soladi – Qani qizing bilan g‘izzilla.

– Yo‘q deyishgan. Yo boshqa joygami?

– O‘sha haligi Dildormidi, o‘shalarnikiga, onasi.

– Rozi bo‘lishibdimi? Kim telefon qildi?

– Rahbari. Borib ko‘ringlar, dedi. Tezroq bo‘linglar. Oborib qo‘yib ketamiz.

– Borganimiz bo‘lsin, hozir.

Zulayho kiyinish uchun shoshganicha xonasiga kirib ketdi.

Dildoraning xonadoniga yana sovchilar kelgan. Supada Orzigul, Zulayho va Sarvara. Zulayhoning chehrasida tabassum. O‘ylanib turgan Orzigulning elkasiga qo‘lini qo‘yadi.

– Keling, yaxshi niyat bilan to‘y boshlaylik. Odamlar gapirsa gapirar, nima bo‘pti. It hurar – karvon o‘tar. Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmaydi, singiljon.

– Aybga buyurmaysiz, Dildora singlimizning yigiti yo‘qmi-kan? – dedi Sarvara.

Orzigul yalt etib Sarvaraga qaradi.

– Mendan sir bekitmaydi. Bitta o‘sha, ukangiz Qadam. Boshqa birov bilan gaplashmagan. Qolaversa, ishdan boshi chiqmaydi. Bunaqa xayollarga keyin ham bormaysizlarmi o‘zi?

Zulayho qiziga tanbeh berdi:

– Maydalashma!

– Mobodo, o‘zlarinigiz kelishib qo‘yganlaringiz bo‘lsa... Zulayhoxon keyin afsus qilib yurmanglar.

– E keling. Yaxshisi mayda-chuyda gaplarni qo‘yaylik. To‘y haqida o‘ylaylik. Kelishganmi-yo‘qmi, yigiti bormi, qizi bormi, demasdan, maslahatni bir joyga qo‘yaylik, Orzigulxon.

– Ollohning aytgani bo‘ladi. Qizim bilan yana bir gaplashib ko‘ray. Ungacha sizlar ham yaxshilab o‘ylab olinglar. Qadamjonga ham ayting, o‘zlarini qo‘lga olsinlar. Avval o‘qishlarini bitirsinlar...

Zulayhoxon:

– Biz bir qarorga kelib bo‘ldik. Quda bo‘lsak ham, siz bilan quda bo‘lamiz. Kelin qilsak ham, Dildorani kelin qilamiz!

– Zulayhoxon, ikkalamiz gaplashib olsak, gap bor. Faqat ikkalamiz bilishimiz kerak bo‘lgan gap bor.

Zulayho qiziga qaradi:

– Sarvara, mashina kelgandir, sen mashinaga chiqaver.

Qizi chiqib ketdi.

Oynavand derazalar bilan to‘silgan ayvondagi xontaxta atrofi-da Orzigul bilan Zulayho suhbatlashib o‘tirishibdi.

Orzigul xayolchan nigohini derazadan tashqariga tikkan:

– Men Dildorani majbur qilolmayman, Zulayhoxon singlim.

– Onasiz, yaxshilab gaplashing. Ikkalasi bir-birini yaxshi ko‘rishadi-ku. Nima jin urdi, birdan aynab qoldi. Oldin biz tomondan ozroq anglashilmovchilik o‘tdi. Adashgan ekanmiz. Qizingiz kechirsin.

– Otasi bilan men ham hayronman. Topgan gapi “yaxshi ko‘rish boshqa, hayot boshqa. Ular obro‘-e‘tiborli, ziyoli xonadon. O‘zlaridek obro‘li xonadondan kelin qilishsin. To‘g‘ri kelmaymiz, tengi emasman, deb yig‘laydi.

– Ilgari men bu gaplarni aytgandim. Endi sizlar. Men tushundim. Bizlar ham sizlardek Ollohning bandasimiz. Osmondan tushmaganmiz. Chaqiring iltimos, Orzigulxon.

– Ikki-uch kun bo‘lmaydi.

– Nega bo‘lmaydi? Qaerga ketgan? Orqasidan boraman. Qadam o‘g‘lim kasal bo‘lib qoladi. Xonasini ichkaridan berkitib olgan. Ovqat ham emaydi. Unga bunaqa sovuq xabar olib borolmayman. O‘zini bir nima qilib qo‘yadi.

– Hammamiz ham yoshligimizda shunaqa bo‘lamiz, Zulayho opa. O‘tib ketadi.

– O‘tmaydiganga o‘xshaydi. Dildora qizimiz qaysi qarindoshingiz yoki dugonasinikida, ayta qoling, boraman.

Orzigul biroz xayolga cho‘mgan, ko‘ziga yosh olgan bo‘ladi.

– Onasinikiga ketgan.

– Onasinikiga?! Nima? Qanaqa onasinikiga, siz-chi?

– Men, – Orzigul ko‘z yoshini artadi – O‘gayman. Lekin bolalarni jonimdan ortiq ko‘raman. Ularni o‘z farzandlarimdek voyaga etkazdim.

– O‘lay agar, hech nimaga tushunmayapman!

– Mana ko‘rdingizmi, farroshligi etmaganday, etim ham. Erta bir kun kelib, haqiqatni bilishlaringizni biladi. Shu sabab Qadam bilan turmush qurgisi yo‘q.

– Tushuntiribroq gapiring. Tars yorilay deyapman. O‘zi nima bo‘lgan, bunday tushuntirib gapiring, iltimos, Orzigulxon?

– Buni tarixi uzun. Eshitib charchaysiz.

– Kerak bo‘lsa, ertalabgacha eshitaman. Bilmasdan ketmayman. Qolib ketayotgan ishim yo‘q. – Zulayhoning qo‘l telefoni jiringlaydi, – Otasi, u kishi ham xushxabar kutyaptilar. – Telefonga javob beradi. – Hadeb telefon qilavermang, Saidbek aka, o‘zim telefon qilaman.

Saidbekning ovozi eshilib turardi.

– Xit qilib yubording-ku. Ja, qolib ketding. Mehmondorchilik quyuqmi, deyman. Mashina allaqachon borgan, tashqarida kutyapti. Ishqilib xushxabar bilan qaytg'in.

– Hozircha hech gap yo‘q, adasi.

– Nega?

– Negaligini bilish uchun o‘tiribman.

– O‘zim boraymi? Otasi bormi?

– Yo‘q, kelmang, otasi yo‘q.

– Buncha chaynalasan, o‘zi nima gap?

– Borganimda bilasiz! Agar bilolsam. Hozircha xushxabar yo‘q.

– Xushxabar bilan qayt. Bo‘lmasa kelma.

– Men ham shu fikrdaman. Ertalabgacha bo‘lsa-da, biror-bir yaxshiroq gap olib ketmoqchiman. – Telefonini o‘chirib, Orzigulga qaraydi – Uzr, uyimizda tinchlik yo‘q. Yeganimiz zahar. Otasi ham bezovta. Xushxabar bilan kel, deydilar. Nima qilaylik, yakka o‘g‘il. O‘gay qizligining sababini aytmadingiz?!

– Aytsam, biror narsa o‘zgararmidi?

Zulayho Orzigulga yaqinroq surilib o'tiradi:

– Nima, onasi boshqa turmush qilganmi yo ajralganmi yoki birov bilan yurib ketganmi?

– Uzoq tarix. Eslamaganim ma'qulroqmidi...

– Aytaqoling, sabrim tugadi.

Orzigul og'ir xo'rsinadi:

– Qo'ymadingiz-qo'ymadingizda, opajon. U paytlar turmushi buzilgan yosh ayol edim. Xoliqul ukangiz ikki bolani etaklab yonimizdagi bog'chaga qatnardilar...

Tong otgan payt. Shahar ko'chalarini to'ldirgan odamlar, mashinalar oqimi. Mayda o'rilgan jamalak sochlari Dildoraga yanada shirin qizaloqlik bag'ishlagan, sochlari o'zi bilan barobar tebranadi. Ustidagi oq-qizil gulli chit ko'ylak o'ziga yarashgan. Orzigul ko'chada suv sepib, supurayotgan payt. Xoliqul qizi va o'g'lini etaklagancha, Orzigulning oldidan o'tadi. Biri Dildora, biri Shohrux. Shohrux "bog'chaga bormayman, uyga ketaman" – deb yig'laydi. Orzigul supurgisini qo'yib, ularni kuzatgancha, qarab turadi. Bu hol har kuni takrorlanardi. Orzigul har kuni tongda ko'cha supurgancha ota-bolalarni kutadi. Supurishdan, goh suv sepishdan to'xtab, ko'cha boshiga qarab qo'yadi. Uzoqdan ikki bolasi bilan Xoliqulni ko'radi. Orzigul ishini to'xtatib, yugurib, ichkariga kirib ketadi. Hamishagidek Xoliqul ikki bolasining qo'lidan ushlab olgan, Shohrux yig'lab, o'zini orqaga tashlagancha, arang yuradi. Ular Orzigulning darvozasiga yaqinlashganda, Orzigul darvozadan chiqdi. Uning qo'lida nimadir bor. Ularga qaraydi. Dildora engil tabassum qiladi.

– Assalomu alaykum! – Orzigul ularga yaqin bordi. Xoliqulga qarab tortinibroq salom berdi:

– Assalomu alaykum, mullaka, bir pas to'xtang. – To'xtashadi.

Orzigul ikkala bolaga bittadan shokolad uzatdi. Shohrux yig'idan to'xtab, shokoladni oladi.

Dildora odob saqlaydi:

– Yo'q, kerakmas.

– Olaqol, isming nima? – Orzigul yalinish ohangida so'raydi.

– Dildora.

– Chiroyli ism ekan. Ma, olaqol, Dildora.

Dildora otasiga qaraydi. Otasi soatiga qaraydi. Otasining qovog‘i soliq.

– Yo‘q, ololmayman. Otajonim ruxsat bersalar olaman.

Orzigul Xoliqulga qaraydi:

– Iltimos, ola qolishsin.

Shohrux allaqachon shokoladni eb qo‘ygandi. Lablarining atrofi shokolad yuqi. Xoliqul kulib, uning og‘zini artishga shaylanadi. Undan oldin Orzigul dasro‘molchasi bilan Shohruxning labini, burnini artib qo‘ydi. Dildora ham oladi.

– Rahma-at, xolajon! – deydi bolalarga xos yoqimli ohangda.

Shohrux Orzigulga xafa bo‘lib gapiradi:

– Mening otimni so‘ramadiz-ku?

– O‘zing aytaqol, – Orzigul bolani erkalab, boshini silaydi.

– Shohrux. Ertaga ham berasizmi?

– Har kuni.

– Qani, bolalar. Bo‘ldi, ketdik. – Orzigulga qarab – Xafa bo‘lmaysiz, ishga kechikayapman.

Ular ketishadi. Bolalar orqasiga qarab-qarab yurishadi. Ushbu holat har kuni takrorlanardi.

Yana o‘sha ko‘cha. Orzigul suv sepib, so‘ng supuradi. Tez-tez ko‘cha boshiga qarab qo‘yadi. Yo‘l boshida yana o‘sha kastyum-shimda Xoliqul ikki bolasini ikki yoniga olganча kelmoqda. Har ikkala bola otasining qo‘lidan siltanib, chiqa solib, Orzigul tomon yugurishadi. Etib kelib, Orzigulni quchoqlab olishadi. Orzigul ham quchoq ochib kutib oldi. Ikkalasini bag‘riga bosib, yuzlaridan o‘pib qo‘yadi. Xoliqulga qaraydi.

– Assalomu alaykum, yaxshimisiz? Xafa bo‘lmasangiz bolalarni qoldirib ketavering. O‘zim bog‘chasiga o‘tkazib qo‘yaman. Qolaversa, hali juda erta. Baribir qorovulning oldida turishadi-ku. Undan ko‘ra biz biroz gaplashib turamiz – Dildoraga qaraydi – Dildora, rozimisan?

– Bog‘cha opam bizdan keyin keladilar. Nega buncha kallai saharlab kelasanlar, deb xafa bo‘ladilar.

Orzigul tortinib, Xoliqulga qaraydi. U bir bolalarga, bir bolalarni bag‘riga bosib turgan Orzigulga qaraydi.

– Uyingizdagilar bu begona bolalarni ko‘rib nima deyisharkan. Qo‘ying, ortiqcha gapga qolmang.

– Hech nima demaydilar. Uyda bitta nafaqadagi onam borlar. Bolalarni yaxshi ko‘radilar, – deydi tufisi bilan er chizgancha Orzigul.

Xoliqul elka qisgancha, ortiga qaytib ketdi. Bolalar “xayr, ada, xayr” degancha, qo‘l silkitib qolishdi. Xoliqul orqasiga qaray-qaray ko‘rinmay qoldi. Orzigul bolalarni boshlab, ichkariga kiradi. Hovlida har xil gullar, rayhon hidi bilan qorishib, yoqimli bo‘y taratib turibdi. Dildora yugurib borib, ochilib turgan qip-qizil atirgulni to‘yib-to‘yib hidlaydi. Shohrux ham bir gulga mahliyo bo‘lib, termulib qoladi.

Dildora quvonchini o‘ziga sig‘dirolmay:

– Voy, gullarning ko‘pligini, juda chiroyli, deb gullarni to‘yib-to‘yib hidlaydi.

Orzigul bolalarning qo‘lidan ushlab ichkariga, onasi Salomat ayaning oldiga boshlab kirdi. Bolalar tisarilib, bo‘sag‘ada to‘xtab qolishdi. Buni ko‘rgan Salomat aya bolalarga ochiq chehrada yaqin keldi.

– Voy shirintoylar, qani-qani, kelinglar. Ha, asaltoylar – Ikka-lasini bir-bir bag‘riga bosib, ikki yuzidan o‘padi. Xontaxta yonidagi ko‘rpachada yoniga olib o‘tiradi. – Shirin choy ichasizlarmi, shirintoylar?

– Uyda ichdik, – deydi Dildora tortinib.

– Olma olsam maylimi? – so‘raydi Shohrux.

– Olaqol, osh bo‘lsin. Voy aqlli bolajonim-ey.

– Otanga aytaman. – Shohrux olmani joyiga qo‘ymoqchi bo‘ladi – Orzigul bolani erkalab bag‘riga bosadi.

– Otangga aytmaydi. – Dildoraga qaraydi. – Aytmay-san-a, aytmaydi. Eyaqol. – Dildoraga banan olib uzatadi. Dildora tortinibgina oladi. Ularni eyishlariga, ayniqsa, Shohruxning qarsillatib olma eyishiga qarab turgan Salomat aya Orzigulni zimdan kuza-tib, boshini qimirlatib qo‘yadi. Orzigul bolalarga goh meva, goh shirinliklar ediradi. Devorga osig‘liq soat sakkizni ko‘rsatdi.

Salomat aya Dildoraga qaraydi:

– Asal qizim, onalaring nima ish qiladi?

Dildora ma‘yus tortadi. Eyayotgan bananni dasturxonga qo‘yadi.

- Onajonimiz yo‘q. Uzoqlarga ketganlar.
- Menga koptok olib keladilar, – deydi Shohrux.

Dildora ukasining gapini bo‘ladi:

- Kelmaydilar, otam aytdilar-ku!

Orzigul onasiga norozi ohangda, labini tishlagancha qaraydi, so‘ng bolalarga yuzlanadi.

– Qani shirintoylar, bog‘chaga boramizmi? Bog‘chada o‘rtoqlaring bilan o‘ynaysizlar! Kasha eysizlar!

– Kasha emayman. Kolbasa eyman. Bog‘cha opam: “ey” deb urishadilar, qulog‘imdan cho‘zadilar. O‘ziz bog‘cha opa bo‘ling. Hech ham yig‘lamasdim, – deydi yalinib Shohrux.

- Xo‘p, bolajon, qani ketdik. Momongizga xayr qilinglar-chi.

Dildora oppoq sochli kampirga qaraydi:

- Xayr, momojon!

Shohrux “xayr” deb qo‘lini qimirlatadi. Salomat aya o‘rnidan turib, ikkisini ham yuzidan o‘pib, boshini silab, xayrlashadi. Orzigul ularni qo‘lidan ushlab, bog‘cha tomon yurib ketadi.

Ikki qavatli bog‘cha. Ota-onalar, aka-opalar, bobo-buvilar – bolalarni bog‘chaga olib ketayotgan va qo‘yib ketayotganlarning hisobi yo‘q. Ba‘zi bir bolalarning “olib keting, qolmayman”, deya xarxasha qilib yig‘lab baqirishlari eshitilib, turadi. Orzigul kichik yoshlilar bo‘limiga Shohruxni qoldirdi. Shohrux Orzigul bilan jimgina xayrlashib qoladi. Bog‘cha opa Shohruxni yig‘lamasdan qolganiga hayron. Shohrux xayrlasha turib:

- O‘ziz kelasizmi? O‘ziz olib keting, xo‘pmi?

- Xo‘p, yaxshi bola bo‘lsang, o‘zim olib ketaman.

- Yig‘lamayman, kasha eyman.

Bog‘cha opa kuladi. Va Orzigulga yuzlanadi:

- Opajon, siz bularning kimi bo‘lasiz? Ilgari ko‘rmagandim...

– Ammasi, – tiliga kelgan bu yolg‘onga o‘zi ham hayron qolib, miyig‘ida kulib, – xayr, deb Dildorani qo‘lidan tutgancha, tayyorlov guruhiga olib boradi. Dildoraning yuzidan o‘pib, elkasini silab, ichkariga kiritib yuboradi.

Dildora orqasiga qaytib chopib kelib, Orzigulni quchadi:

– Rostdan olib ketgani, o‘zingiz kelasiz-a? Otamni siznikida kutamiz, xo‘pmi, amma?

– Xo‘p, sen aytganday bo‘ladi. – Orzigul ko‘z yoshini hech kimga ko‘rsatmay artgancha, bog‘chadan chiqib ketdi. Uyga xomush qaytdi.

Onasining qarshisiga kelib o‘tirdi. Ona qizining yoshlangan ko‘zlariga nigohi tushdi.

– Xafa bo‘lma, qizim. Xudo xohlasa sening ham bir etak to‘la bolalaring bo‘ladi...

– Besh yilda bo‘lmagan, erim boshqaga uylanib ketganda bo‘lardimi?!

– Hali ko‘rasan, baxtiyor ona bo‘lasan. Ha, bu bolalar kimniki? Qanday taniysan?

Orzigul bir nuqtaga xomush tikiladi. O‘rnidan turib, derazadan tashqariga qaraydi.

– Har kuni bir kishi bog‘cha eshigi ochilmasdan, eshigimiz oldidan supurib, suv sepayotgan paytimda o‘tadi. Kichkinasi yig‘lab o‘tadi. Yuragim ezilib yurgandim. Bir-ikki shirinliklar bilan siyladim. Shu-shu meni ko‘rishlari bilan yugurib kelib, bag‘rimga otilishadi. Bugun mana uyga olib kirdim. Mehrga zor ko‘rinishadi.

– Onasi o‘tish qilganmi yoki ajralishganmi?

– Bolalarning biri uzoqqa ketgan menga koptok olib keladilar, deydi. Qizaloq kelmaydi, deydi. Bilganim shu. Otasidan so‘rashga botinolmadim. Onasi ish bilan uzoqroqqa ketganmi, ajralib ketganmi, boshqa erkak bilan ketib qolganmi, bilmayman. Qolaversa, onasi haqida bilishni menga qizig‘i yo‘q.

– Jumboq ekan. Lekin bolalar qiynalgan, mehrga zor ko‘rinadi.

– Ha, mayli ishga borib kelay. – Kiyinib, ishga otlanadi. Vaqtliroq kelarman. Bolalarga bog‘chadan o‘zim olishga va‘da berdim, kutib turishadi.

– Otasiga aytganmisan, qizim? Yana noto‘g‘ri o‘ylamasin.

– Kelar paytini bilaman, ona. O‘sha payt tashqariga olib chiqib turaman.

– O‘zing bilasan, qizim. Yaxshi borib kel, – deydi ona o‘ychan. Orzigul chiqib ketdi.

Shaharning Amir Temur maydonidagi soat “besh”ni ko‘rsatib turibdi. Serqatnev ko‘chalar, yo‘laklarda odamlar. Orzigul bekat-

dan taksiga minib ketdi. Mashinalarning shovqini, signallari unga eshitilmaydi. Xayolida ikki bolaning “o‘zingiz olib ketasizmi”, degan xitobi takrorlanadi. Ularning ma‘yus chehrasi ko‘z o‘ngidan ketmaydi.

Orzigul taksidan tushib yugurgancha bog‘chaga kirib, bolalarni bog‘chadan uyiga olib o‘tdi. Bolalar xursand. Bog‘chadagi voqealar haqida biri qo‘yib, biri so‘zlaydi.

– Amma guyuppamizdan Rashid deganini bog‘cha opamiz burchakka tuyg‘izib qo‘ydilar, Sohibani urgani uchun, deydi Shohrux.

Xonaga kirishadi. Salomat aya bilan ham eski qadrdonlardek ko‘rishishadi. Salomat aya erkalab, o‘pib qo‘yadi.

Orzigul Dildoraga qarab:

– Sen nima qilding bog‘chada?

– Bog‘cha opaga yordamlashdim. Sizni chiroyli ekan, dedilar.

Orzigul kiyimlarini almashtirib chiqdi. Bir chekkada turgan elim xaltadan jajji qo‘g‘irchoq olib, Dildoraga beradi. Dildora quvonchini ichiga sig‘dirolmay, Orzigulni quchib oldi.

– Rahmat, ammajon!

Orzigul Shohruxga qaraydi.

– Qani top-chi, senga nima beraman? – Elim xaltaga qarab elka qisdi. Orzigul xaltadan chiroyli koptok olib, yumalatib yubordi. Shohrux yugurib borib, ushlab oldi.

– Ura, koptok! Endi maniyam koptogim bor.

Koptokni aylantirib ko‘radi, xonada dumalatib ko‘radi. Quvonchi cheksiz. Dildora tilla sochli qo‘g‘irchoqning sochlarini silaydi, aylantirib qaraydi. Ezsa “salom, men qo‘g‘irchoqman” degan ovoz chiqadi. Salomat aya ham iliq tabassum bilan bolalarga qarab qolgan. Orzigul bir bolalarga, goh derazadan tashqariga, goh soatga qaraydi.

Derazadan shoshib bog‘cha tomon kelayotgan Xoliqul Orzigulning uyi yonidan o‘tayotgan payt Orzigulning “Hoy, to‘xtang, to‘xtang”, degan ovozini eshitib to‘xtadi. Atrofga, orqasiga qaraydi. Hech kim yo‘q. Elka qisadi.

Orzigul derazani ochib:

– Hozir to‘xtab turing – dedi qayta.

Xoliqul ovoz kelgan tomonga qaradi. Derazada tanish chehra, bolalariga shirinliklar beradigan juvon:

– Bolalar biznikida. Hozir olib chiqaman.

Xoliqul nima qilishini bilmay joyida to‘xtab qoldi. Orqasiga mashina kelib to‘xtadi. Signal beradi. Cho‘chib, o‘zini chetga oladi.

Haydovchi mashina eshigini ochib Xoliqulga tanbeh berdi:

– Hoy, baraka topkur, yo‘lning chetidan yursangiz bo‘lmaydimi? O‘rtada turganingizni qarang. Kap-katta odamsiz.

– Uzur, uka, boshim sal aylangandek bo‘lgandi. Uzur. – Haydovchi mashinasini yurgizib, uzoqlashdi – O‘zi menga nima bo‘lyapti. Ilgariroq bolalarga kulgi bo‘ldim. – O‘ziga-o‘zi gapiradi – Bit-ta masalani uch marta qaytaribman. Tushunarlimi, deb so‘rasam ham boshqa gap. “Bugun kasr sonlar, kasr sonlar deyaveribman”. Bolalar kulib yuborishmasa, bilmadim, qancha takrorlarkanman. Davolanishim kerak. Bu ketishda xotiradan ayrilaman.

Darvoza ochiladi. Bolalar yugurib kelib, otasi bilan quchoqlashib ko‘rishishadi. Ikkalasining qo‘lida ham elim xalta. Dildora xaltadan qo‘g‘irchog‘ini olib maqtandi:

– Orzigul ammam qo‘g‘irchoq berdilar.

Shohrux ham koptogini olib ko‘rsatdi.

– Ota, ota menga-chi, ammam koptok berdilar. Endi koptogim bor.

Xoliqul bolalarning qo‘lidan qo‘g‘irchoq bilan koptokni tortib oldi.

– Oling. – Orzigulning qo‘liga tutqazadi. – O‘zlariniki bor. Bolalaringizga bering.

Dildora bilan Shohrux piqillab, o‘ksib-o‘ksib yig‘lab yuborishdi, bolalarning ko‘z yoshlarini Orzigul arta turib:

– Boladan Xudo bermagan. – Qo‘g‘irchoqni Dildoraning, koptokni Shohruxning qo‘liga tutqazib, tez-tez yurib, ichkariga kirib ketdi.

– Uzur, kechiring, – degancha Orziqulning orqasidan qarab qoldi Xoliqul.

To‘rt-besh qavatli uylar. Ular oldida har xil daraxtlar soya berib turibdi. Turli-tuman mashinalar ko‘zga tashlanadi. Katta-kichik odamlar. Xoliqulning ikki qavatli uyning birinchi qavatdagi xonadoni. Dildora qo‘g‘irchoqlarini, Shohrux kubiklarini o‘ynaydi.

Xoliqul uy kiyimida divanda yonboshlab yotgancha, televizor ko'radi. Eshik qo'ng'irog'i jiringlab qoldi. Xoliqul borib ochdi. Ostonada qo'shnisi Zafar do'xtir.

– Keling, Zafarbek.

– Ukolingizni olasizmi?

– O'zingiz yaxshisiz-kuya, shu ukol desangiz badanim titraydigan bo'lib qoldi. – Kulgan bo'ladi.

– Bor-yo'g'i yana ikki kun chidaysiz xolos. Yaxshi bo'lib ketasiz. Xoliqul bolalarga qaraydi. Ular o'yin bilan mashg'ul.

– O'yinchoqlarni olib, narigi xonaga chiqib turinglar.

Bolalar o'yinchoqlarni olib, chiqib ketishdi.

Zafar Xoliqulning bilagidan ukol qilmoqda. Xoliqul aftini tirishtirgancha, yonboshiga qarab turibdi. Zafar ishni tugatadi.

– Xoliqul aka, uyqu qanday?

– Yaxshi bo'p qoldi.

– Bosh aylanishi, ko'z tinishi qoldimi?

– Rahmat, uka, qoldi. Ancha durustman. Bolalar bog'chada qolib ketishmoqda, kechikib boryapman. U yoqdan maktabdan telefon qilib qo'yishmayapti. Ertadan ishga chiqsamman, deb turibman, nima deysiz, Zafarjon?

– Sizga kasallik varaqasi ochilgan. Yana to'rt kun bormaysiz. Ozroq kuchga to'lib oling. Qolaversa, aka, bir gapni aytmamam bo'lmaydi. Asablaringiz juda charchagan. Shu muallimlikni bir-ikki yil to'xtatib tursangiz ham bo'lardi.

Xoliqul o'ylanib horg'in ovozda javob beradi.

– Bolalarni, maktabni yaxshi ko'raman, ular bilan ovunamanda, uka.

– O'zingizga ham, bolalaringizga ham keraksiz. Boshqa ish qilib turing. Xotirangizdan ayrilsangiz, bolalarning ahvoli nima kechadi. Haydovchilik guvohnomam ham bor deganmidangiz?

– Ha, bor. O'qishga kirgungimcha yuk mashinasi haydaganman. Nima, butunlay muallim bo'lib ishlamaymanmi?

– Jismoniy mehnatning sog'liqqa foydasi bor. Bir yoki ikki yilda butunlay asab tizimingiz tuzalib ketishi hech gap emas. Boshingizdan toliqish ketsa, hammasi iziga tushib ketadi, Xoliqul aka.

– Ha, biror ish toparman. Shu bolalarni bog'chasi chatoq bo'lyapti-da. Uyda zerikib ketishdi.

– Xoliqul aka, bolalarni ham, o‘zingizni ham qiynamang. Xonadoningizga ayol kerak. Uylaning. Endi xotiningizdan umidni uzing. Axir u turmush qurdi-qu.

– Ha, erga tekkan. Eri bilan Rossiyaga ishga ketibdi. Endi o‘sha erda yasharmish. “Bolalar qalay”, deb, biror martayam qo‘ng‘iroq qilmadi-ya? Yana kim biladi? Biror kun esi kirib, bolalarining yoniga qaytadimi? Yana ozroq sabr qilsakmikan?

– Qanaqa erkaksiz? Shunchalar ham o‘zingizni erga urasizmi. Axir tashlab ketdi-ku!

– Bolalar o‘g‘ay ona qo‘lida o‘smasin, deyman-da. Yetim o‘sganman. Bular onasiz etim o‘smasin, deyman. Qolaversa, yaxshi ko‘rganman.

Zafar qo‘lini siltab, o‘rnidan turib, xonada yuradi.

– Erkak bo‘ling, yuzingizni erga qaratib, boshqa erkakning etagini tutib ketgan ayolni unuting. Hali-zamon ikki yil bo‘ladi. Unuting unaqa bevafo! Bolalariga ham achinmadi-yu. U inson emas. Farzand ko‘rmagan, erdan chiqqan yaxshi ayollar ham bor. Kerak bo‘lsa o‘z onasidan ham yaxshi qaraydi. O‘shanaqasidan surishtirib topamiz.

– Undaylar juda kam. Bolalarni qiynab qo‘ysa nima qilaman? Shundan qo‘rqaman.

– Unda yana boshqasini topamiz.

– Odamlar kuladi.

– Siz o‘zingiz, bolalaringiz uchun yashang. Birov uchun emas!

– Ertaga bolalarni bog‘chaga olib bormasam bo‘lmas.

– Ehtiyot bo‘lib borib kela qoling, Xoliqul aka.

Zafar xayrlashib chiqib ketdi.

Orzigul har kuni ko‘cha poylaydi. Dildora bilan Shohruxdan darak yo‘q. Ko‘chada uzoq-uzoq turib qoladi. Qayta-qayta supuradi. Oynadan onasi kuzatib turadi. Salomat aya qizida xomush ona siymosini ko‘rib og‘ir tin oladi. Bog‘chaga keluvchilar tugadi. Salomat aya derazani ochib, qiziga qaraydi.

– Bolam, ishingga kechikasan, kirib nonushta qil.

Orzigul o‘ziga keladi. Supurgi bilan chelakni olib darvoza tomonga yuradi. Yo‘lga qarab-qarab qo‘yadi. Ular yo‘q. Ichkariga xohlab-xohlamay noiloj kiradi.

Ichkari xona. Orzigul xomush nonushta qilmoqda. Xayoli parishon.

– Bolalar bir haftadan beri bog‘chaga kelishmayapti, ona, – dedi achinish bilan – kasal-pasal bo‘lmadimikin-a?

– Kim biladi, kasal bo‘lgandir. Issiq jonning isitmasi bo‘ladi, bolam.

– Xudo asrasin, ona, kasal bo‘lishmasin! Menimcha ularga qilgan sovg‘am otasiga yoqmadi. Shunga xafa bo‘lib, bolalarini bog‘chaga olib kelmayapti shekilli. Otasi boshqa bog‘chaga o‘tkazdimikan-a?

– Bog‘chaga kirib bilib chiq, bog‘cha opalari bilishar.

– Bilib chiqdim. Ular ham kelmayotganiga hayron. Nima bo‘lsayam tinch bo‘lishsin. Otasida telefon ham yo‘q ekan.

Salomat aya bir oz qiziga qarab turdi. Yo‘talgan kishi bo‘lib, choy uzatadi.

– Qizim, bola olish maslahatimiz nima bo‘ldi? Biror qarorga keldingmi?

– Yo‘q. O‘ylayapman. Bir qarorga kelishim qiyin bo‘lyapti, ona! Ko‘zimning oldidan Dildora bilan Shohrux ketmayapti. Nima qilay? Shularga bog‘lanib qolibman.

– Shuning uchun ham bolalar uyidan bola olgin, deyapman-da.

– Ikkisiga o‘xshaydigani uchraydimi, yo‘qmi? Katta bo‘lgach, ota-onalarini topib, ketib qolishadimi, kinolardagidek.

Salomat aya qizining elkasidan quchib, boshini boshiga suyaydi.

– Qizim qo‘lingni so‘rayotganlar ko‘p. Bitta yoki ikkita bolasi borlarga rozilik bersang bo‘larmidi...

– Aytish oson. Boshimdan o‘tkazdim. Tug‘sang ham, tug‘masang ham seni deyman, deb yurgan odam uchinchi yili nima hunarlarni ko‘rsatdi. Singillariga do‘pposlatdi. Uyga qamab qo‘yishdi. Sochimni yulishdi. Erim tomosha qilib turardi. Mast bo‘lib keldanda ertalabgacha azoblab urganlari. “Mushuk tug‘adi, it tug‘adi, eshak tug‘adi, lekin bu tug‘maydi”, deb baqirishlari, ayozli kunlarda ko‘chaga chiqarib qiynaganlari esimdan chiqqani yo‘q. Er degani shunday bo‘lsa, shunday yurganim yaxshi.

– Unda taqdirga tan ber. Erga tegmasang, bola olish uchun bir qarorga kel. – ona o‘rnidan turib qiziga qaraydi. Dasturxonga fotiha o‘qishadi, Orzigul dasturxonni yig‘ishtira boshlaydi.

– Bor, ishingga ketaver, o‘zim qilaman. Boshqa qiladigan ishim yo‘q-ku! Atrofimda o‘ynab yurgan nevaralar ham yo‘q. Bori ham yo‘qqa o‘xshaydi. Akang bilan ukang Amerikada qolib ketdi. Vataniga bir yilda bir keladi yoki yo‘q. Bolalari kelishlari bilan ketamanga tushadi. Endi ular begona. Sanlar meni tushunarmidilaring. Erga tegsang, balkim Xudoning rahmi kelib nabira ko‘rarmidim, degandim, ushalmaydigan orzuga o‘xshaydi.

Salomat aya ro‘molini uchi bilan ko‘z yoshini artadi. Orzigul gapirmaydi. Xonasiga kirib kiyinib chiqadi, keta turib:

– Xayr. Yaxshi qoling.

– Yaxshi borib kel. Kechga bir siqim osh qilaman.

– O‘zingiz bilasiz, – Orzigul chiqib ketdi.

Salomat aya mungli nigohlari, dard to‘la qalbi bilan kuzatib, toki ko‘rinmay qolguncha orqasidan qarab turaverdi.

Ko‘cha supurayotgan, daraxtlarga suv berayotgan ishchilar ko‘chalarni to‘ldirgan mashinalar, yo‘laklarda shoshib ketayotgan odamlar orasida Xoliqul ham ikki bolasini etaklagancha bog‘chaga bormoqda. Ulardan sal narida ikki farrosh ko‘chani tozalab, supurib kelishmoqda. Yo‘lovchilar yaqinlashsa, to‘xtashadi. O‘tib ketishgach, yana mashg‘ul bo‘lishadi. Tashlangan qog‘ozni, sarg‘aygan xaltalarni, salafan to‘la axlatlarni daraxtlar tagidan olishib, bir joyga yig‘ishadi. Kimningdir uyi, darvozasiga yaqin bo‘lib qolsa, xonadon egasi ularga baqiradi.

– Nega uyimni oldiga yig‘asanlar, ollaring bu erdan.

– Hozir telejka keladi, ukajon, ortib yuboramiz.

Xonadan sohibi zahrini solgancha po‘pisa qiladi:

– Olib ketmasalaring, ko‘rasanlar!..

Dildora otasiga ikki xotinni ko‘rsatadi.

– Bular kim? Nega har kuni ko‘chalarni tozalashadi?

– Bular eng kerakli odamlar, yo‘limiz, shahrimizni ozoda saqlaydigan, ko‘cha va xiyobonlarimizni daraxtzor, gulzor qiladiganlar shular. Eng ko‘p savob oladiganlar.

– Unda nega anavi amaki ularga baqirdi? – dedi Dildora.

– Unaqalar yomon odamlar. Mehnatning qadriga etmagaydiganlar.

Orzigulning darvozasi yonida birdan ikki bolasi to'xtab qoldi.

Shohrux otasiga qarab yalindi:

– Ammacha oborsinlar!

Dildora ham to'xtab:

– Ammamni ko'raylik. Sog'indim, adajon, – deb gapini tugatmasdan Salomat aya ularni ko'rib, yalangoyoq bolalar yoniga chopib borganini o'zi ham bilmay qoldi. Bolalar uning bag'riga o'tildi.

– Omonmisizlar, asal bolalarim?

– Ammam qanilar, momo? – dedi Shohrux bilan Dildor baravariga.

– Momo degan tilingga asal. Kutib-kutib ketdi. Xavotirda edik. Ammalar har kuni yo'llaringni poyladi. Bolalarim, sizlarni rosa kutdi.

Xoliqul ularga bir oz qarab turadi.

– Assalomu alaykum, aya. Tuzukmisiz? Bir oz tobim bo'lmay, bolalarni olib kelolmadim.

– Otajonimga qo'shni ukol qildilar. Iynasi bilan. Otam yig'lamadilar.

Shohrux ham bilganicha gapirdi:

– “Vah” dedilar-ku!

– Bo'ldi, kechikib, bog'cha opangdan dakki eshitib yurmay. Yuringlar.

Bolalar yurgisi kelmaydi.

– Shu momomnikida qolaylik. Ammam kelib, bog'chaga olib boradilar.

– Qoldira qoling. Bir ozdan keyin o'zim olib borib qo'yaman.

Bolalarning boshini silaydi.

– Ancha kun kelishmadi. O'zim tushuntirib aytmasam bo'lmaydi. Bog'cha opasi sal injiqroq.

– Bolam, iloji bo'lsa qaytishda biznikiga kiring, sizda gapim bor edi. Bir piyola choy ichib ketasiz.

Xoliqul elka qisdi. “Bu tanimaydigan kampirning menda nima gapi bo'lishi mumkin”, dedi o'ziga o'zi.

– Mayli. – Ikkilanib javob berdi, – vaqtlitiroq kelsam kiraman.

– Kutaman, bolam.

Xoliqul bilan Salomat aya stol atrofida o‘tirishibdi. Salomat aya o‘rab qo‘yilgan choynakni ochib, piyolaga choy quyib uzatadi. Dasturxonda non, vazada uzum, novvot, qand va murabbolar.

– Qani olib o‘tiring, bolam. Bolalariz judayam yoqimtoy-da.

– Ha, endi...

– Hayron bo‘lmang, bolalar xususida gaplashmoqchi edim. Sal ochiqroq gapirsam, xafa bo‘lmang. Bolalarning onasi bormi?

– Bor. Lekin yo‘qday gap, boshqa turmush qilib ketgan. Undan ham bir bolasi bor, deb eshitdim.

– Odamning yulduzi-yulduziga to‘g‘ri kelmasa qiyin ekan. Bog‘chaga har doim o‘ziz olib o‘tasiz. Yaqinlardan...

– Yaqinlarim yo‘q. Bolalar uyida o‘sganman. Ota-ona mehri-ni ko‘rmaganman. Odamlar, bolalarni mehribonlik uyiga topshir. Kattaroq bo‘lganda olasan, deyishdi. Hech bo‘lmasa, ota mehriga to‘yib o‘ssin, dedimda topshirmadim, aya.

– Uylanmadingizmi? Bolalarga ovqat, kir yuvish, ularga qarash erkak kishiga og‘ir-ku.

– O‘rganib ketganman. O‘gay onaning qo‘lida xo‘rlanmasin, deyman. Hayotimni shularga bag‘ishlaganman.

Salomat aya bir daqiqa unga tikilib qoldi. Gapni nimadan boshlashini bilmagan kishidek.

– Boshida aytdim, xafa bo‘lmaysiz, deb. Qizim bilan men bola tarbiyalab olmoqchi bo‘lib yurgandik. Birdan qizimni mehri bolalaringizga tushib qoldi.

Xoliqul o‘rnidan turib ketdi:

– Men, men...

– Gapimni oxirigacha eshiting, iltimos. Agar rozi bo‘lsangiz bolalar biznikida yurishaverishsin. Ishingizda ushlanib qolsangiz, biznikida qolsin. Bolalar ham qizimni “amma”lab, o‘rganib qolishgan. Ishonsangiz bolalar tarbiyasiga yordamlashsak. Qizim farzand ko‘rmadi. Turmushi bo‘lmadi. Bolalarni jon dilidan yaxshi ko‘radi. Bizlarga ham ovunchoq bo‘lardi. Uyimizdan bolalar kulgusi eshilib tursa. Sizga men tutindi ona, Orzigul singil bo‘lsa, nima deysiz? Boshqa niyatimiz yo‘q.

– Yaqinlaringiz nima deydi?

– Yaqinlarimiz xursand bo‘lishadi. Hammasi o‘zlariga to‘q.

– O‘ylab ko‘ray. – dedi Xoliqul – keyin aytaman.
– Bizlarnngi yomon niyatimiz yo‘q, bolam.
– Qani, dasturxonga omin qilib beraqoling. Men boray.
– Omin, Yo Oллоhim, o‘zing qo‘lla, o‘zing asragin. Hamma balo qazolardan. Yaxshi niyatlarimizga o‘zing yo‘l ber. Oллоhu Akbar.

Salomat aya Xoliqulni darvozaxonagacha kuzatib chiqdi. Xoliqul qo‘lini ko‘ksiga qo‘yadi:

– Xayr, yaxshi qoling.
– Siz ham bolam, bolalar ham omon bo‘lsinlar.
– Mabodo ishlaringiz chiqib qolsa, bemalol bitkazib kelave-ring. Bolalar biznikida bo‘ladi, xafa bo‘lmasangiz.

Xoliqul bolalarni bog‘chaga qo‘yib chiqib nima qilishini bil-may, boshi qotib, ketib borardi. O‘zicha gapiradi “bu mehribon-likning tagida biror narsa yo‘qmikan? Ular mening hayotimga qaerdan kirib keldi? Bir tomondan muallimlik mumkin emas, deb turishganda bolalarni qanday boqaman. Qanaqa ish topiladi, deb turganimda hayotimga bular kirib keldi. Balki bu ham Xudoning mehribonchiligidir. Bolalar mendan uzoqlashib ketmasmikan? Mehr ko‘zda deyishadi. Yaxshilab o‘ylab ko‘rish kerak. Yoki bog‘chasini almashtirsammikan. Mayli, sog‘lig‘imni tiklab olay. Maktabning o‘zidan biror-bir ish berishar. Zafar “sizga shovqin mumkin emas”, dedi-ku. Maktab bo‘lmaydi. Hay, bir ish topilar.

Ko‘zlari tindi. Odamlarga urilib ketgudek bo‘lib, mast odam-dek gandraklab keta boshladi. Bir daraxtga borib, suyanib, sekin o‘tirdi. Odamlar hayron. Ba‘zilar uni chetlab o‘tishardi. Ko‘chada uyum-uyum chiqindilarni ortayotgan, ko‘cha supurayotgan far-roshlar va traktorchini, daraxtga suyanib turgan Xoliqulga ko‘zi tushdi. Yoniga borishdi.

Bir o‘tkinchi ayol unga qarab:

– Ertalabdan ichmay har balo bo‘l! – deydi.

Yana bir erkak esa:

– Bir kayf qilibdi-da! Kiyinishidan duppa-durust odamga o‘xshaydi. – deganча o‘tib ketadi.

Farrosh o‘tkinchilarga qarab:

– Taksi-paksi tutib, uyiga jo‘natib yuboringlar, – deydi.

Boshqa bir yo‘lovchi Xoliqulga yaqin boradi:

– Ichmagan, mazasi qochgan.

Odamlar yig'ildi.

Xoliqul odamlarning shovqinidan sal o'ziga keldi:

– Biroz boshim aylanib ketdi. O'tib ketadi...

Turmoqchi bo'ldi, turolmadi. Shoshayotganlar bir-bir qarab o'tib ketadi. Kimdir “Tez yordam”ga qo'ng'iroq qiladi.

Sirena chalib etib kelgan “Tez yordam” Xoliqulni olib ketdi.

Xonada Zafar bilan Xoliqul. Xoliqul osma ukol olib yotibdi...

– Yaxshiyam men borib qoldim. Sizning kasalingizni bilar edim. Quvvat yo'q. Kasalxonaga emas, uyingizga olib keldim. Uning ustiga davolanayotgan odamsiz. Yana ikki kun borishmasa ham bo'lardi o'sha bog'chaga.

Osma ukoldagi suyuqlik tugab bo'lgach, Zafar asboblarini yig'ishtirib qo'ydi. Xoliqul unga qaradi:

– Yaxshiyam, siz bor ekansiz. Bo'lmasa... bilmadim. Bolalar bog'chada qolib ketarmidi?

– Shifoxonada yotqizishardi. U yog'i menga qorong'u. Hali haydovchi ham o'tirgandir to'mtayib. Kechqurun chiqaman. Uydan chiqmang. Yoting. Keliningiz ovqat chiqaradi. Bog'chaga esa qizim borib keladi.

Zafar chiqib ketdi. Xoliqul orqasidan qarab qoldi.

Shom mahali. Ko'chalarda shoshib ketayotgan odamlar. Tirband mashinalar shovqini eshitaladi. Asta-sekin borliqni zulmat bosib kela boshlaydi. Qorong'u ko'chalarda birdan yongan chiroqlar tevarak atrofni yoritib yubordi. Xoliqul ertasi kun zinalardan tushib kelayotganda Zafarga duch keladi.

– Ha, yo'l bo'lsin?

– Bolalar kechga qolib ketdi.

– Har doim aytaman. Keliningizga yoki qizimga aytsangiz oborib olib keladi, deb. Siz bo'lsangiz, bilganingizdan qolmaysiz. Uyg'a kiring. O'zim borib kelaman mashinada. Bir qadam-ku.

Xoliqul tutilibroq gapiradi:

– Mobodo bog'chada bo'lmasa, yo'q, yaxshisi bog'chaga etmasdan chap tarafdagi uchinchi darvozadan so'rab ko'ring. Balki olishgandir.

Zafar hayratomuz unga tikiladi.

– Hech kimingiz yo‘q edi-ku?

– Bolalar topishgan.

– Borib kelay, keyin gaplashamiz.

Zafar zinalardan tez-tez tushib ketadi. Uning oyoq ovozlari eshilib turardi.

– Xo‘p qo‘shnim bor-da. – Xoliqul o‘ziga-o‘zi gapirdi. – Umridan baraka topsin. Xotini ham o‘zidan o‘tadi. Bir-birlari bilan yangi kelin-kuyovlarga o‘xshab muomala qilishadi. Ayolning ham har xili bor-da.

Uyga kirib ketadi.

Orzigulning xonadoni. Salomat aya to‘rda bolalarning ovqat eyishiga qarab sezdirmay kuladi. Bir tomonda Orzigul ikki bolaning o‘rtasida o‘tirib olib, o‘zi ovqat edirmoqda. Zafar bir osh eydi, bir bolalarga osh edirayotgan Orzigulga, bir bolalarga qaraydi. Orzigul onasiga ham, Zafarga ham e‘tibor bermaydi. Go‘yo bolalardan boshqa hech kim yo‘q.

– Qani Shohrux, endi sen. Qani, Dildoraxon endi sen. – galmagaldan ediradi, bolalar ham xursand, go‘yo o‘z uylarida o‘tirgandek bemalol.

– Men katta qizman. O‘zim eyaqolay. – deydi Dildora.

– O‘zim edirmoqchiman-da. To‘rttalab guruch eyishingda qachon katta bo‘lasan.

Shohrux Orzigulning qo‘li yaqinlashishi bilan, qush bolalaridek og‘zini ochadi, qoshiqni bo‘shatib, chaynab, yutinadi.

– Amma, men katta bo‘laman-a? Ko‘p ovqat edim-ku!

Salomat Zafarga qarab:

– Oling, bolam, osh sovub qoladi. Olib o‘tiring.

– Osh juda mazali bo‘pti! – Osh eyishga tutinadi.

– Qani, kim birinchi? – deydi Orzigul bolalarni qiziqtirib.

Ular ovqatni eb bo‘lishgach, sochiqchalarga qo‘llarini artishadi.

– Qani bolalar ketdikmi? – deydi Zafar bolalarga qarab.

– Ketmayman, amman bilan qolaman, – deydi Shohrux.

– Qola qolaylik, – deydi Dildora ham.

- Qola qolishsin, – deydi Salomat aya Zafarga.
 Orzigul ham gapga aralashadi:
 – Kech bo‘lib qoldi. Qolishsin. Ertalab o‘zim bog‘chasiga qo‘yib ketaman.
 Zafar ikkilanib qoladi:
 – Bilmasam, otasi xafa bo‘ladimi...
 Dildora bolalarga xos yalingan ohangda:
 – Iltimos! – deydi.
 Shohrux:
 – Iltimos!
 Yalinib erkalanishadi.
 – Hay mayli. – Salomat ayaga qaraydi. – Ikkimiz, ya‘ni siz bilan gaplashgim kelib qoldi. Ko‘p emas, uch minut.
 Salomat aya elka qisadi. Hayron bo‘lganday miyig‘ida kuladi.
 – Aytavering, bolam, nima gap ekan?
 – Ikkalamiz gaplashaylik.
 Salomat aya Orzigulga qaraydi:
 – Narigi xonaga bolalarni olib chiqib tur.
 – Shart emas. Yo‘l-yo‘lakay tashqarida ham gaplashaveramiz.
 O‘tiraverishsin.
 O‘rnidan turishga shaylanadi.
 Orzigul idish-tovoqlarni yig‘ishtirib oladi.
 – Biz oshxonani yig‘ishtiramiz.
 Bolalar unga ergashadi. Chiqib ketishgach, Salomat aya Zafarga “nima gap” degandek qaraydi.
 – Xolajon, oldindan aytib qo‘yay. Mabodo gapim erish tuyulsa xafa bo‘lmaysiz. Men yoshligimdan dangalchi bo‘lib o‘sganman.
 – Gapiravering, bolalarni uyda olib turganimiz yoqmadimi? Qo‘rqmang, ularni noto‘g‘ri yo‘lga boshlamaymiz.
 – Aksincha, shunday mehribon odamlar borligidan xursand bo‘ldim. Qizingiz ajralganga o‘xshaydi. Endi yarashmaydimi?
 – Uylanib ketgan. Qizim farzand ko‘rmas emish. Bolalarni yaxshi ko‘radi. Shu bolalarga o‘rganib qolgan. Bilmadim, kelib-kelib shu bolalar yoqib qoldi. Bola olmoqchi edik. Shular bilan tanishgandan beri esidan chiqib ketdi. Tong sahardan ikkisining yo‘lini poylaydi.

– Juda soz! Bularni yanada yaqinlashtiramiz. Men bolarning otasi bilan qo‘shni yashayman. Zo‘r odam. Nonko‘r xotini o‘ynash topib, qochib ketgan. Ko‘r bo‘ladi. Bolalarning uvoli ursin! Shunday erkakni qadriga etmadi. Keling, ikkisini qovushtirib qo‘yaylik. O‘zim bosh bo‘laman. Shu bolalarga Orzigulxondan boshqasi onalik qilolmaydi. Nima deysiz?

– O‘zlarining ham gaplarini olish kerak. Ikkimizning roziligimiz bilan ish bitmaydi. Ularning yuragiga qo‘l solib ko‘raylik.

– Qizingiz bilan siz, men Xoliqul aka bilan gaplashaman. O‘zim bosh-qosh bo‘laman. Kelishdik-a, xolajon.

– Avval ularni eshitib ko‘raylik. Oldindan bir narsa deyish qiyin.

– Cho‘zib yurmaymiz. Tezlatning. Ja, savob ish bo‘ladi. Siz bilan menga ham ko‘p narsa bog‘liq. – Zafar xayrlashib chiqib keta turib – Astoydil kirishsak, hammasi yaxshi bo‘ladi, – deydi.

– Onam bilan Zafarjon ikkimizni qovushtirgan. Men o‘shandan beri bolalarga onaman. Bor gap shu. Qolgani o‘zizga ma‘lum. – Chuqur xo‘rsinib marjon yoshlarini artadi. – Turmush qurdik. Bolalarni katta qildik. Borlig‘imni ularga berdim. O‘gayligimni men ham, ular ham unutdik. O‘z onalaridek ko‘rishdi. Hech kim bolalarni kamsitmasin, deb Xoliqul akamning domini ham, bizlarni hovlini ham sotib, shu mahallaga ko‘chib kelganmiz.

– Yuraklarim ezilib ketdi. Men hali sizning bolalaringiz, deb turgandim. – Qoyil sizga, – deb Zulayho Orzigulni bag‘riga bosadi.

– O‘zimniki bo‘lsa ham shunchalik bo‘lar. Bir gapimni ikki qilishgani yo‘q. Qo‘yarga joy topisholmaydi. Mana, hammasini bildingiz. Uyingizdagilar bilan maslahatlashing. Qizimning o‘tmishini eslatmaydigan xonadonga uzataman, deb yurgandim. Qadam va xo‘jayiningizdan boshqa hech kimga aytmang, iltimos. Qasam iching, demayapman, iltimos qilib yalinaman. Hech kim bilmasin! Onaligimcha qolay.

– Hech ham xavotir olmang. Uchalamizdan boshqa hech kim bilmaydi. Saidbek akam nima desalar shu. Sizni juda yaxshi ko‘rib

goldim, Orzigulxon. Ha, aytmqchi, ikkalalaringizni qanday qilib ko'cha ishiga kirib qolganingizni aytmadingiz. Ikkalangiz ham oliy ma'lumotli ekansizlar.

– Xoliqul akaga aqliy ish qilish ta'qiqlandi. Zafarjon obodonlashtirish ishiga joylashtirdi. Ikkimizning to'yimiz surila boshladi.

– Nega endi? – hayron bo'lib so'radi Zulayho.

– Xoliqul akam, Orzigul agronom, men ishchi bo'lsam. Bir kun kelib boshqasini topib ketsa nima qilaman, deb, – kuladi, – qizlardek noz qila boshladilar. Bir haftadan keyin Xoliqul aka ishlaydigan brigadaga farrosh bo'lib ishga kirdim.

– Qoyil! – Zulayho boshini qimirlatadi – Qoyil! Keyin-chi?

– Ko'rib, anqayib qoldi. “Nega bunday qildingiz?” – dedi. “Bolalar uchun”, “Siz uchun”, deb yig'lab yubordim. “Bolalarni nega qiynaysiz?”, dedim. Ana o'sha kunning ertasi nikohimiz bo'lgan. Hamma gapdan voqif bo'ldingiz. Qolgani o'zingizga havola.

Shaharning gavjum ko'chalari. Piyodalar yuradigan yo'lak. Keksa, yosh, ayol-erkak o'tib qaytib turibdi. Bir uyum yig'ilib qolgan axlatning yonidan o'tayotgan yo'lovchilar og'iz-burunlarini ro'molu, ro'molchalari bilan berkitib yugurib o'tishadi. Kimdir ustiga-ustak axlat to'la elim xaltachani irg'itib yugurgancha o'tib ketadi, yana kimdir shox keltirib tashlaydi. Notanish nuroniy kishi o'tkinchilarga qarab gapiradi:

– Ey, odamzod. Hidiga chidolmasdan yugurishingni qara. Bu betartib axlatlar uyumini o'zing qilmoqdasan-ku! Sen qochib o'tayotgan o'sha axlatlardan shahar ko'chalarini, saramjon-sarish-ta qilib, erkin nafas olishingni ta'min etayotgan ana u ko'cha farishtalarining mehnatini qadrla! Ular bo'lmasa, shahar ko'chalari chiqindilarga to'lib ketardi. Pashsha-chivinu, ko'zga ko'rinmas mikroblar, badbo'y hidlardan qayga qocharding?! Ularga ta'zim qil! Ta'zim qilmasang ham ularni kamsitma! Ularga rahmat degin, hoy inson! Men ham bir paytlar shulardek ko'cha ishchisi bo'lganman, ularning og'ir mehnatini bilaman, ularga ta'zim qilinglar, hoy odamlar!

Notanish kishining bu hayqirig'idan hamma hayratda.

Ko'cha ishchilari, yo'lovchilar yana harakatda. Xizmatchilar uyumlarni birpasda telejkalarga ortishadi. Horib, charchagan ishchilar ozoda ko'chalarga qarab, o'zlarining ishlaridan mamnun.

Dildora terlarini artidi. Haligi gapirgan nuroniyga ich-ichidan minnatdor bo'lib qarab qo'ydi. Anoraning oldiga kelib o'tirdi.

– Odamlarimizga insof bergin, Oллоhim. Ularning ham mehnatimiz qadriga etmoqlikni ana u amakiga o'xshab qalbiga solgin.

– Aytganing ijobat bo'lsin! – Yuzlariga fотиha tortishadi.

Ulardan sal narida buklog'lik qog'oz. Anora og'rinib turadi:

– Hozirgina tozalagandik-a. Qayoqdan paydo bo'ldi? Borib qog'ozni oladi. Qog'ozga nimadir o'rog'liq.

– Nima ekan, ushlab qoldingiz? – hazilomuz gapirdi Dildora. – Xazina topmadingizmi?

– Bilmadim, nimadir bor ichida. Sen aytgandek xazina bo'lsa-ya?!

Dildoraning yoniga keldi. Ochadi. Ikkalasi bir-biriga qarab qoldi. Qog'oz ichidan dollar ko'rinadi.

– Qancha ekan, sanangchi? – deydi Dildora.

Anora shoshmay sanaydi:

– Sakkiz yuz ellik. Bir bechoraniki. Tushib qoldirgandir-da. Nima qilamiz? Ularning yoniga yana bir ishchi ayol gaplarini eshitib keldi:

– Bo'lishib qo'ya qolaylik.

– Egasini topib berish kerak. Emay-ichmay yiqqan bo'lsa kerak, – dedi Anora.

– Kelinglar, e'lon yozib qo'yamiz. Summasini aytmaymiz. Sir bo'lsin. Egasi topilsa beramiz. Qalay, to'g'rimi, – deydi Dildora.

Dildora e'lonni yozib Anoraga beradi. Anora tagiga Dildoraning telefonini yozadi-da, e'lonni simyog'ochga yopishtiradi.

– Dildora, tagiga telefon raqamingni yozib qo'ydim.

– O'zingiznikini yozsangiz bo'lardi.

– Bilasan, pochchang rashkchi. Uning ustiga sal ochko'zroq. Dollarni eshitsalar tamom! – Dildoraga dollarlarni uzatadi. – Ishonchli bo'ladi. Senda tura qolsin.

Dildora dollarlarni olib xalatining cho'ntagiga soldi.

– To'g'ri ish bo'ldi. Dildora “chestniy”. Yo'qotmaydi. Hammamizning oldimizda egasiga topshiradi. – deydi boyagi ayol.

– Suyunchisi bo'lib qolsa kabobxo'rlik qilamiz.

Dildora uyiga kelib yuvinib, sochini tarab, oynaga qarab o'tiribdi. Telefon jiringladyi. Og'rinib telefonni oladi.

– Salom. E'lon bo'yicha. Men tushirib qoldirganman. O'sha siz topgan dollarni.

– Qancha edi?

– Esimda yo'q.

– Kechirasiz, dollar sizniki emas, qanchaligini bilmaysiz. Birovning puliga ega chiqishdan uyalmaysizmi?

– O'ch-ey.

Telefon tinadi. Dildora yana sochini tarab o'ra boshlaydi. Yana qo'ng'iroq

– Alo, opa. Dollarni topgan sizmi? Rahmat, o'sha meniki edi. Cho'ntagimni kovlaganimda tushib qolgan. Suyunchi bor...

– Qancha edi?

– Qanchaligi bilan nima ishingiz bor. Hammasi yuztalik.

– Summasini bilmadingiz. Demak sizniki emas. Qolaversa hammasi yuztalik emas.

– Qasam ichishim mumkin.

– Qo'ying, yana qasam urmasin, – deydi Dildora.

Ovoz tinadi. Dildora oshxonaga chiqadi. Yana qo'ng'iroq.

– Alo, eshitaman.

– Rahmat sizga. Toza vijdonli inson ekansiz. Qanday olsam bo'ladi. Halol pul-da. Mehnat qilib topganman.

– Qancha edi?

– Nima, ishonmayapsizmi?

– Qanchaligini ayting. Sizniki bo'lsa.

– Hoy, qanaqa ayolsiz? Meniki dedim-ku. Birovniki kerakmas menga. Ikki mingdan sal kam edi.

– Sizniki emas ekan, topilma juda oz. Dildora telefonini o'chirib qo'yadi.

Ertalab ko'chalarda odamlar. Tong yorishib kelmoqda. Dildora va uning sheriklari ish bilan band. Ular o'tgan joylar top-toza, orasta ko'rinadi. Dildoraning yoniga Anora keldi, ko'rishishdi.

Qog'ozga o'ralgan topilmani Dildora Anoraga uzatdi:

– Sizda tura qolsin. Telefon qilishaverib, qulog'imni qomatga keltirishdi. Dildora qo'yarda qo'ymay Anoraning qo'liga tutqazdi.

– Egasi ko'payib ketdi. Hammasi yolg'on gapirdi. To'g'ri odamlar birovnikini meniki, demaydi. Oling, o'ziz bir korizga ish-lating.

– Ishlata olmayman. Yaxshisi topilmalar bo'limiga ishdan ke-yin beramiz, – dedi Anora.

Yana ishga tushib ketishdi. Uzoqdan bir kekxa kishi hamma yoqni, archalar tagini hassasi bilan titkilaydi. Nimadir izlaydi. Qariya Dildora bilan Anoraning yonidan o'tayotib ham o'tlarning orasidan nimadir izladi. Ularga e'tibor bermay o'tib keta boshladi. Dildora Anoraga qariyani ko'rsatdi. Anorani nimadir esiga tush-ganday bo'ldi. Qariyaga yaqin boradi.

– Assalomu alaykum, amaki. – Salom beradi Anora.

– Vaalaykum assalom. – erdan ko'zini uzmay alik oldi qariya.

– Nima qidirayapsiz, amaki?

– Pensiyamdan oz-oz yiqqan pulimni yo'qotib qo'ydim, qizim. Mobodo bu dunyodan o'tar bo'lsam bolalarimga og'irligim tushmasin degandim. Yo'qotib qo'ydim. – Ro'mol-chasi bilan yuzini artadi. – Tushib qolganini ko'rmay qolibman. Yaxshi bo'lmadi.

– Ancha yildan beri yig'ib yurgandim. Bilmayman. Qanday yo'qotdim. Har kuni shu yo'ldan do'konga borib kelardim...

– Qancha edi?

– Uncha ko'p emas. Sakkiz yuz ellik edi.

Anora cho'ntagidan dollar o'ralgan qog'ozni olib, qariyaga uzatdi:

– Sanab oling. – Qariya dollarlarni ko'zdan kechiradi. Quvonchdan ko'zlari chaqnaydi. Yuzlari yorishadi.

– Xuddi o'zi. Duoga qo'l ochadi:

– Ollohim sizlarga baxt, sog'liq-salomatlik, uzoq umr ber-sin. Umringizdan baraka topinglar. Omin, Ollohu Akbar. – Qa-riya yuz dollarni ajratib, ularga uzatadi. – Suyunchisi, olinglar, qizlarim. Umringizdan baraka toping, sizlarga o'xshagan vijdon-li odamlarning boriga shukr, olinglar, mingdan ming rozi bo'lib beryapman.

Dildora bilan Anora qo'llarini ko'ksilariga qo'yishadi.

– Rahmat amaki. Duoingizni o'zi bizga mukofot.

Qariya qayta-qayta rahmat aytganicha ulardan uzoqlashdi. Anora bilan Dildora mamnun bo'lganicha qariyaning orqasidan qarab qolishdi. Og'ir bir yukdan qutulgandek bir-biriga qarab kulib qo'yishdi.

Qadam ota-onasi, opasi bilan birga suhbatlashib o'tiribdi.

Zulayho tilidan bol tomib Dildorani maqtaydi:

– Qizmisan, qiz ekan. Avval unga e'tibor bermagan ekanman. Naqd farishtaning o'zi-ya! Ko'rib o'zim oshiq bo'lib qoldim. Onasini aytmaysizmi, biram ko'rkam ayolki... umuman biz ro-zimiz, dedim.

Saidbek kaftlarini stolga urib:

– Unda to'yda! Nimani kutamiz.

– Hali ulardan aniq javob ololganimiz yo'q. O'zlari ayti-sharkan.

– Rozi qilamiz. Ota o'g'il-da, tanlashni biladi... Qizi borning nozi bor, bir-ikki kun noz qiladi-da. Onang bilan ertaga borib, ular-ni rozi qilamiz. – O'g'liga xursand qaraydi. – Ha, o'g'ilbola, to'y bo'lsin-a!

– Rosa o'g'lingizning yuragidan urgan ekan-da, dadasi. “Agar shu qiz bo'lmasa, o'zimni suvga cho'ktiraman”, deydi-ya. Bu o'g'lingiz sizdan ham o'tdi.. Lekin qizni ham yuragidan urgan ekan o'g'lingiz. Tilida yo'q, dedi-da, lekin ko'ziga yosh oldi. Ada-si, nasib qilsa to'y bo'ladi.

– To'yga nima etsin!

– Shanba kuni ota-onasi bilan biz ikkimiz milliy bog'da uchra-shadigan bo'ldik.

– Juda yaxshi. Uchrashsak-uchrashamiz. Shanbaga ham uch kun qoldi, – deb Saidbek o'rnidan turadi. – Men ishga boray. – Chiqib ketadi.

Milliy bog'. Har xil atraksionlar. Mo'jazgina ko'l. Ko'l atrofida daraxtlar, gullar. Ikki sohilni birlashtirib turgan ko'p-

rik. Ko'lda qayiqlarda suzib yurgan har xil yoshdagi odamlar. Alisher Navoiyning salobatli haykali. Bog'ning soya-salqin joyida shinamgina choyxona. Uch-to'rtta supaga ko'rpachalar solingan. Supalardan sal narida stol-stullar. Xoliroq joyda Xoliqul, Saidbek, Orzigul, Zulayho suhbat qurib turishibdi. Suhbat to'y haqida.

Saidbek xursand:

– Oshni “Registon” to'yxonasida beradigan bo'lsangiz juda yaxshi. Nikoh bazmiga “Versal”ni gaplashamiz.

– O'zingiz bilasizu, qiynalib nima qilasiz? Bir kunlik to'y o'tadi ketadi. “Versal”dan bundayrog'i ham bo'lardi, – dedi Xoliqul.

– Niyat qilganlar... – dedi Zulayho.

– Bir marta haq bersam, beribman-da, quda. Bir o'g'il bo'lsa.

– Nasib bo'lsa hali nabiralarni to'y qilarsiz – deb qo'shib qo'yadi.

– Mayli, o'zingiz bilasiz. Oshga qancha odam bilan kelasiz, Saidbek aka?

Bir oz o'ylanib olgan kishi bo'ladi:

– Yuztacha bo'lar, ko'p emasmi?

Xoliqul bir dasta oq qog'ozga o'ralgan taklifnoma uzatadi.

– Yuzta. Etmay qolsa aytarsiz.

Zulayho sumkasidan oq qog'ozga o'rog'lik taklifnomani olib, Orzigulga uzatadi.

– Mana sizga ikki yuzta. To'rt yuzta joy aytilgan.

– Ko'p. Saksonta etadi, – dedi Orzigul.

– Qo'rqmasdan aytavering. To'rt yuztaga joy aytilgan.

– Yo'q Saidbek aka, bolalar bilan yuztaga borib qoladi, ko'pi ko'p, – dedi qattiq ohangda Xoliqul.

Saidbek endi gapirishga chog'langanda, Zulayho uni sekin turib qo'yadi. Xoliqulga qaraydi.

– Yuzta bo'lsa, yuzta-da. Aytmoqchi, shu mebel...– Saidbekka qaraydi. Eri gapni davom ettiradi:

– Shu desangiz, mebel olmang. Keliningiz tushmagur o'g'limga deb, mebellarni ham olib qo'ygan. Peshonamizga bir o'g'il bitgan ekan, quda.

Orzigul xafa bo'lgan ohangda gapiradi:

– Ko'rib qo'ygandik...qanday bo'larkan...

– Xo‘p denglar. Mayli, bitta sandiq, ko‘rpa-ko‘rpachalar bo‘lsa bo‘ldi. Sandiq endi ota-bobolarimizdan o‘tib kelayotgan udum – aralashdi Zulayho..

– Ko‘pam siylab yubormang, Saidbek aka. Bizlar ham niyat qilib qo‘yganmiz.

– Xoliqulbek, meniki senikini qo‘yaylik. Ikki yoshga baxt tiylaylik.

– Mol yor bo‘lmaydimi? – dedi Orzigul Zulayhoga qarab.

– Qilavering. Mebellarning taxi buzilmagan. “Upakovkada”. Bolgariyaniki, o‘ralganicha turibdi.

– Pardalarni ham osib kelamiz. Qizimning o‘zi tikkan.

– Pardalar ham osilgan edi. Olib qo‘yamiz, mayli. Kelinnikini osa qolinglar.

Zulayho hayratlangan bo‘ldi:

– O‘lchab ketmovdingiz-ku?

– Kuyovdan bilib olgan ekan – kuladi Orzigul – hozirgi yoshlar bizdan oldinroq yurishadi.

Kulishadi.

– Qaysi kun desangiz, ixtiyoringiz. Bermalol kelaveringlar.

– Saidbek aka odamni ko‘p xijolatga qo‘yapsiz... – dedi Xoliqul.

– Sizlar ham... Mayli bo‘lmasa turaylik. Biror gap chiqsa, telefonlashamiz, – deb o‘rnidan turadi Saidbek..

Qolganlar ham o‘rnilaridan turib, ko‘l yoqalab, ko‘cha tomon yurishdi.

Bog‘ning darvozasi. Manzara. Ko‘lga bir maromda tushayotgan suv. Sayr qilib yurgan odamlar. “Yurtim jamoli” qo‘shig‘i yangrab turibdi. Darvozadan chiqib, mashinalarga o‘tirib ketishdi.

Muzqaymoqlar bilan savdo qilinadigan kichkina tamaddixonona. Qadam bilan Dildora bir chetdagi stolda o‘tirishgan holda suhbat qurishmoqda. Oldilarida muzqaymoq bilan kola va gul. Ulardan sal narida yoshi katta xo‘randalardan ikki-uch nafari o‘tirishibdi.

Dildora kuladi:

– Sizning ish so‘rab borishingizni bilganimda ohori to‘kilman supurgimi, belkurakmi, o‘roqmi olib kelardim “obmen tovar” qilardik.

– Kuling... nima bo‘pti ish so‘rab borgan bo‘lsam. Suvchi shtati bor ekan, brigadir shtati bor ekan. Birortasiga olaman, dedilar.

Dildora barmog‘i bilan Qadamning elkasiga erkalab uradi, boshiga ishora qiladi:

– Joyidami o‘zi? O‘qishingiz-chi?!

– Ikki oydan keyin diplom himoyam, aytgandim-ku. Xotirangizni davolang – kuladi.

Dildora jiddiy uf tortadi:

– Sizga qayoqdan ham yo‘liqdim-a, boshimga og‘riq orttirdim. Qadam aka, sizga to‘g‘ri kelmaydi, to‘g‘ri kelmaydi! Oilangiz sha‘niga ham to‘g‘ri kelmaydi. Etar, mening ishlayotganim.

– Men o‘g‘irlik yo qalloblik qilayotganim yo‘q-ku, faqat siz ishlayotgan joyda ishlamoqchiman. Nima siz ishlagan joyda ishlash aybmi?! Hatto ba‘zi bir Evropa mamlakatlarida vazirlar ishdan bo‘shasa, benzin quyuvchimi, ko‘cha supuruvchimi... to‘g‘ri kelgan ishni qilaverishadi. Hammasi mehnat-ku. Halol mehnatning uyati bo‘lar ekanmi? Qolaversa, endi ishlaymay tursam ham bo‘ladi. Endi siz yonimda bo‘lasiz-ku, to‘g‘rimi?!

– Bu eyr sizga chet el emas. Ishdan ko‘ra gap qiluvchilar ko‘p. Qaniydi hammayam sizga o‘xshab mehnatning yaxshi-yomoni bo‘lmasligini bilsa. Negadir hamma bizga past nazar bilan qarashga o‘rganib qolgan. Bizlar ham shunga ko‘nikib ketganmiz.

– O‘zi aslida mehnatingizning targ‘iboti yo‘q. Gazeta, jurnallarda sohani ko‘proq yoritish kerak. Oxiri jurnalist bo‘lib ketmasaydim hali. O‘zim farroshlar haqida yozardim.

– Barakalla, haq gapni gapirdiz. Bizlarga bag‘ishlangan birorta she‘r yoki maqola o‘qiganim yo‘q. Shahrimizni, ko‘chalarimizni ozoda tutaylik, deyishadi. Bir kunlik hasharni tinimsiz targ‘ib qilishadi. Bu barchamiz uchun yaxshi. Bu ham bizga yordam. Lekin yil o‘n ikki oy hashar qilishmaydi-ku! Yil o‘n ikki oy tozalikni saqlab turadiganlar kim? Ko‘cha ishchilari-ku! Aytadigan gaplar ko‘p. Siz ham o‘shalarning birisiz, xafa bo‘lmang, Qadam aka.

– Mening o‘z fikrim bor. Men ongli mavjudotman, ongsiz mahluq emas, – deydi jiddiy turib Qadam.

– Siz ota-onangizni orzulisiz. Yaxshilab o‘ylab ko‘ring. Yakkayu yolg‘iz o‘g‘ilsiz. Yoshlik qilib qo‘ymang.

– Men sizdan boshqasini demayman. To‘y bo‘lar asnoda gapirayotgan gapingizni qarang, yana yaxshi ko‘rarmishlar.

– Sha‘nimga she‘r ham to‘qirsiz. Qizil atirgulim ham dersiz. Sizning ota-onangizga o‘xshaganlar insonlarni tabaqalarga bo‘lishmoqda. Ko‘zga ko‘rinmagan metin devorlar qurishmoqda.

– Unchalik emas. Otam ham, onam ham sizni ma‘qul ko‘rib qolishdi. Hozir ular o‘zgardi. Aniqrog‘i siz va sizning ota-onangiz o‘zgartirdi.

Dildora jiddiy, vazmin qiyofada nigohini uzoqlarga tikkancha gapirardi:

– Ba‘zi insonlarga hayron qolaman. Ularning farzandi ham, vatani ham, millati ham, Oллоhim meni kechirsinu, ularning dini, iymoni, Xudosi ham pul-davlat, dang‘illama imorat. Ha, bu – haqiqat!

– Ja-a unchalik emas, sizlarning mehnatingizni ham qadrlaydiganlar ko‘p. Qanchadan-qancha odamlar: “Shularning otasiga rahmat! Baraka topsin. Shular tufayli ko‘chalarimiz obod” deyishganini o‘zim eshitganman. Ha, aytmoqchi bugun ota-onalarimiz uchrashgan-a?

– Hammasini tushuntirdim. Hali ham o‘ylab ko‘rishga vaqtinigiz bor. Keyin pushaymon qilib yurmang, deyman-da. Odamlarning gap-so‘zlariga chidolsangiz men roziman, dedim, yana nima deyin Qadam aka, – deydi Dildora.

– Bir-yarim gapirsa gapiradi-da, men o‘zim uchun yashayman-ku. Bunday mayda-chuyda gaplarga quloq solib yashaydigan yigit emasman!

Dildora tabassum qilib:

– Juda qo‘ymadingiz, qo‘ymadingiz-da. Mayli, men boray, kech bo‘lib qoldi. Ovqat qilishim kerak. Roziligimni allaqachon olib bo‘lgansiz.

Qadam qizni kuzatib qo‘yadi. Ikkisi ikki tomonga bir-biriga qaray-qaray uzoqlashadi.

Ko'cha ishchilaridan Haydar suvchi bilan Zoir bog'bon yo'lakning chetidagi daraxt soyasida suhbatlashib turishibdi. Haydarning qo'lida suv ochkich, Zoirning qo'lida gulqaychi. Haydarning bir qo'lida gul. Har zamonda alanglab atrofiga qarab qo'yadi. Bezovta.

– Haydarboy uka. – Zoir ko'kragiga mushtini uradi, – Yurakdan urganga o'xshaydi-yov. Bu Dildor tushmagur.

– Nima deysiz?! Pashshaga o'xshab ming'illamasdan, balandroq gapiring! Ming'ir, ming'ir qiladi, non emagan odamday. – zarda qiladi Haydar

– Qulog'ing, haligi changga to'lib qolgan trubaday bitib qolgan bo'lsa, man nima qilay, baqiraman-da.

– Truba deysizmi?! Xushvaqt o'g'rinikida tiqilib yotibdi... arzimagan pulga beradi. Yarimta aroqqa ham berib yuboradi. Xotini bilmasa bo'ldi. Xotini ja-a yomonda, "shantaj". Xushvaqt bechoraga pul ushlagani qo'ymaydi. Ammo, lekin bir tomoniga gap yo'q. Xushvaqtini bilasan "astonovkasiz" ichadi. Emaklab uyigacha boradi, lekin uyiga ko'tarila olmaydi. Pod'ezdigacha boradi-da, "xotin" deb, chaqirgancha guppa qulaydi.

Zoir tizzasiga urib kuladi:

– O'ziyam qo'zichoqni ko'targanday qo'ltiqlab olib chiqadi. Xotiniyam polvonmisan-polvonda. Lekin xotini unga baribir mehribon.

– Gapni ham chalg'itib yubording, nima deyayotganding?

Haydarning qo'lidagi gulga ishora qiladi.

– Gulmi? Har qalay sizga emas. Egasi bor. Hali zamon kelib ham qolar. Zo'r qiz-da! Bugun kelishi bilan gulni berib qo'lini so'rayman. Agar menga turmushga chiqmasang o'zimni tog'dan otaman, deyman.

Zoir teskari qarab ensasi qotadi:

– Obodonchilik bitta kardan qutular ekan-da. – Haydarga qaraydi – Shaharda tog' nima qilsin, galvars! Suvga otaman degin, anhor bor. Har kuni gul ko'tarib kelasan. Lekin berolmaysan. Guling qo'lingda qolib ketadi.

– Gapirdingmi? – qulog'iga kaftini karnay qilib so'raydi Haydar.

Zoir Haydarning qulog'iga qo'lini karnay qilib:

– Suzishni bilasanmi?

Uzoqdan Dildora ko'rindi.

Haydar ko'ksini ko'rsatib:

– O'zimni yuragim ham sezib turibdi. Manga qarang ko'rinishim “nichevomi”.

Zoir bosh barmog'ini ko'rsatadi:

– Zo'r! – Yo'lakni ko'rsatadi – Ana Dildor kelyapti!

Dildora bilan Anora ularga yaqin keldi. Haydar gulni ushlagancha qotib turardi. Qizlar uning qarshisiga kelib to'xtashdi. Anora Haydardagi gulga qo'l cho'zadi.

– Senga emas! Ering bor. Senga pochcham olib bersin gulni. – Gulni Dildoraga uzatadi. Dildora gulni olib hidlaydi – Gulni oldi, rozi ekan! – O'yinga tushadi – O'zi rozimisan, – so'raydi jiddiy tortib.

– Yigitim bor, aka. Necha marta aytay? – deb baqiradi Dildora.

– Roziman dedingmi! Ha, tilingga asal! Otamga rozi, deb aytaveraymi?

Yugurib ketmoqchi bo'ladi. Dildor uni to'xtadi.

Dildora qo'lini karnay qilib:

– Haydar aka, sizni akamdek yaxshi ko'raman. Yigitim bor. Yaqinda to'yimiz bo'ladi.

Haydar Zoirga qarab:

– Eshitingizmi, Zoir aka? Yaxshi ko'raman dedi! – Quvonchdan raqsga tushib ketadi.

Ularning yoniga Qadam bir dasta gul ko'tarib kelib qoladi. Gulni Dildoraga uzatdi. Dildora to'yib-to'yib hidlaydi. Haydarning gulini Anoraga beradi.

– Assalomu alaykum, Qadam aka, yaxshi keldizmi?

– Vaalaykum assalom. O'z'laringiz yaxshimizlar? – Haydar og'zini ochgancha qarab qotib turibdi. Seskanib o'ziga keladi. Dildoraga qaraydi:

– Dildor, bu kim bo'ldi?! Oshga pashsha tushganday qaysi go'rdan paydo bo'ldi?! – Zoir aka mana bu pashshani, – qo'li bilan kir siqishni ko'rsatib – Bir siqib qovurg'alarini sindirib, abjag'ini chiqarib tashlaymi?! – deydi asabiy holda Haydar.

– Qamalib ketasan! – Baqiradi Zoir.

– To‘g‘ri aytasan, to‘g‘ri kelmaydi. – Dildoraga qarab – Haydab yubor bu oliftani! Ko‘p pashshaxo‘rda bo‘lmasin.

Dildora qo‘lini karnay qilib baland ovozda:

– Uni sevaman, sevaman, Haydar aka!

Haydar yana xursand bo‘lib o‘yingga tushadi:

– Sevadi, sevadi!

Dildora jahl bilan uni o‘yindan to‘xtatdi. Kaftlarini karnay qilib, qulog‘iga baqirdi.

– Sizni akamdek yaxshi ko‘raman, Haydar aka.

– Yaxshi ko‘rishingni eshitdim. Endi to‘ymi?

Dildorani battar jahli chiqadi. Borib Qadamni qo‘ltiqlaydi:

– Qadam akani sevaman, Qadam akani. – Ikkalovi qo‘ltiqlashib ketishadi.

– Eshitdim. – Haydar shalpayib yerga o‘tirib qoladi. – Uni sevarkan, uni sevarkan.

– Obodonlashtirish bitta kardan ajraldi-yov-ajraldi. Bo‘pti xayr.

Haydar daraxtlar soyasiga uzala tushib yotib oldi.

Orzigul tikish bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tiribdi. Xoliqul gapni nimadan boshlashni bilmaydi. Xona bo‘ylab yuradi.

– Hadeb yuravermasdan o‘tirsangiz-chi?

Xoliqul yurishdan to‘xtaydi.

– Orzi, bilasan, sendan yashiradigan hech narsam yo‘q. Shu desang, Salomat telefon qildi. Uchrashaylik, dedi.

– Qaysi Salomat?

– O‘sha Salomat-da. Eri bo‘la turib, erga tegib ketgan.

– Kundoshing, deng. Uchrashavering.

– Eski yaramni yangiladi. Esimdan chiqargan edim. Qaysi go‘rdan paydo bo‘ldi, bilmadim.

Orzigul tikishdan to‘xtab, Xoliqulga qaradi.

– Unga yana nima kerak ekan? Chamamda bor budingizni olib ketgan, shekilli, yangi uy olamiz, deb yig‘ib qo‘yganingizni ham olib ketgan bo‘lsa. Qiziq, mayli, uchrashingchi, balki, bolalarini ko‘rmoqchidir.

– Men ham shuni o‘ylab turibman...

– Muammo emas, bolalarning o‘zlariga qo‘yib bering. O‘zlari hal qilsin. Mayli, baribir onasini ko‘rib gaplashishlariga izn bering. Qachon uchrashasiz?

– Kutib turibdi. Xadra maydonida. Yur, birga boramiz.

– Yo‘q, o‘zingiz boraqoling.

Xoliqul kiyinib istar-istamay chiqib ketdi.

Xadra maydoni. Favvoradan suv otilib turibdi. Har xil o‘yingohlarda bolalar o‘ynashadi. Salomat bir chetda bolalarning o‘yiniga mahliyo bo‘lib qarab qolgan. Xoliqul unga yaqin keladi. Ohori ketgan ko‘ylak, boshidagi eski ro‘mol bilan yarim o‘ralgan. Xoliqul tomoq qirib yo‘taladi. Salomat cho‘chigan kishidek tez o‘girilib qaraydi.

– Salom, – deydi Salomat.

– Valeykum, – alik oladi Xoliqul.

– Kechiring, bezovta qildim.

– Olloh kechirsin. Nega chaqirding?

– Yosharibsiz.

– Maqsadga o‘t.

– Bolalarni ko‘rdim, sizni ham bir ko‘ray, dedim.

– Mana ko‘rding, boshqa gaping bo‘lmasa, men ketdim.

Xoliqul ketmoqchi bo‘ladi.

– Bir pas shoshmang, ketasiz. Boshqa ko‘rishmaymiz. Faqat bilib qo‘ying, dedim. Meni yo‘ldan urib, turmushimni buzib ketgan o‘sha erkak hamma pullarimni, tilla taqinchoqlarimni oldi. Bor-yo‘g‘i bir yilcha yaxshi yashagan bo‘ldi. So‘ng uyga qamab qo‘yib, meni har xil odamlarga sotdi. Qarshilik ko‘rsatgandim, ayovsiz savaladi. – Yuzidagi chandiqlarni ko‘rsatadi – Shu ko‘yga soldi. Bu ham etmagandek, menga o‘xshab, aldangan ayollarga tilamchilik qildirardi. – hiqqilab tebranib-tebranib yig‘laydi – hech kim mendek birinchi nikohidan ajramasin, do‘zax azobidaman. Sizga qilganlarimning azobini tortyapman. Farishtadek ayolingiz bor ekan.

– Qochib ketib, organga borsanglar bo‘lardi-ku!

– Yonimizda qo‘riqchi bo‘lardi, hech qayoqqa qochishga imkon bermasdi. Har qadamimiz nazoratda edi.

– Mana men bilan uchrashishga imkon topibsanz-ku.

Salomat og'ir tin oldi.

– Ha, imkon topdim. Siz bilan uchrashib, hamma qilgan gunohlarim, sizga etkazgan jarohatlarim uchun, tiz cho'kib, oyoqlaringizni o'pib, kechirim so'ramoqchi edim. Afsus, odamlar ko'p. Ko'pga kulgi bo'lmang. Faraz qiling oyoqlaringiz ostiga yiqilib, kechirim so'rayotgan bir ayol, deb biling. Hammasi uchun meni kechiring. Men adashgan bir ayolman. Endi meni boshqa ko'rmasizlar, boshqa bezovta qilmayman. Bolalarimga mendan ming chandon yaxshiroq onalik qilgan, qilayotgan farishtadek pok, mehribon onasi bor ekan. Ko'nglim to'q bo'ldi. Mayli, yuragimdagi bir darddan qutuldim. Endi xotirjamman.

– Yana o'shaning yoniga borasanmi?

Salomat ko'z yoshlarini artdi.

– Yo'q, men...– ulardan sal narida turgan ikki ayolni ko'rsatadi – bizlar o'sha iblisning qotili. Endi o'zimizni organga topshiramiz.

“Xayr” deganicha, Salomat tez-tez, ko'zlarida shashqator yosh bilan sheriklari tomon ketdi. Orqasidan Xoliqul ma'yus qarab qoldi.

Shahar osmonida yulduzlar miltirab ko'rina boshladi. Shom. Qorong'i tushmoqda. Stol atrofida Dildora, ukasi Shohrux, onasi Orzigul tez-tez ko'cha eshik tomonga qarab qo'yadi.

– Otang buncha kechikib qoldi, tinchlik bo'lsin-da?!

– Ishlari ko'payib qolgandir, ba'zida qo'shimcha topshiriqlar berishadi, bilasiz-ku, ona.

– Xo'jayinlari birorta boyvachcha o'rtoqlarining hovlisidagi musorini oldirgani yuborgandir. Nima ko'p boshliqning o'rtog'i ko'p, – deydi Shohrux.

– Borsalar, haqini berishadi, bolalarim.

Dildora jahl bilan gapiradi:

– O'rgildim, o'sha haqini berganlardan. Tog'ni ursa, talqon qiladigan bolalari qo'lini sovaq suvga urmasdan tomosha qilib o'tiradi. To'g'rimi, Shohrux?

– Jimgina kuzatib tursa ham mayli, “Hoy, changitmanglar, hammayoqni chang qilib yubordinglar”, – deb baqirganlarini ayt-maysizmi? – deb qo‘shiladi Shohrux.

– Bir kun Anora ona bilan ikkimizni bir odamnikiga ishga yubordi, boshliq. Hovlisi axlatxonaga aylangan. Qizi, hammayoqni rasvo qildinglar, changga allergiyam qo‘zg‘adi, – deb baqir-gandi. – Bizgacha axlatxonaga aylanib bo‘libdi-ku. Odam bolasi ham shunday yashaydimi?! Ishlasangiz bo‘lmaydimi? Bu ketishda egilolmay qolasizku, – deb shart chaqib oldik.

Orzigul kulib:

– To‘rakani rosa jahli chiqqandir.

– Rosa miriqib kuldilar. “Boplabsanlar”, – dedilar.

Ko‘cha eshikdan Xoliqul kirib keldi. Elkasiga tashlab olgan ro‘molning bir chetiga peshonasidan oqqan terini artadi.

– Rosa charchadim! – Borib krandan yuvingan bo‘ladi. Dildo-ra osig‘liq sochiqni otasiga uzatdi. – Rahmat, qizim, umringdan baraka top!

– Kechikib qoldingiz, adasi? – ma‘noli qaraydi Orzigul.

– Kaykovus arig‘i bor-ku, Chig‘atoy mahalladan o‘tadigan. Ha-shar bo‘ldi. O‘ziyam odamning jonidan boshqa hamma narsa bor. Suyakmi, tovuqning boshimi, bakalashkalarni-ku son-hisobi yo‘q, o‘lgan kuchukmi, mushukmi, qolgan ovqatmi. Odam ham shunchalik bo‘ladimi? Shu suvdan ilgari odamlar ichishgan, deyishadi keksalar. Hozir ahvoliga maymunlar yig‘laydi. Sasib ketgan, turib bo‘lmaydi. Atrofidagilar qanday chidashadi, bilmadim. Ularga qoyil qolmadim.

– O‘sha atrofdagi odamlarga qoyil qolmay to‘g‘ri qilasiz. Bir kun shunday bizlarga ko‘rsatib, eshigini tagidan oqib turgan suvga bir chelak chiqindini ag‘dardi, kap-katta xotin. Opoqi ariq ko‘milib qoladi-ku, desak, “ko‘milsa senga nima, ko‘changni supur”, – deb baqirib berdi.

– Ha qizim, o‘sha ariq bo‘yidagilarning aksariyati musulmon. Bilmadim, shuncha gapiriladi, gazetaga yoziladi, televizorda ga-pirishadi, hech ta‘siri yo‘q, – deydi kuyinib Orzigul.

Xoliqul gapga aralashdi:

– Qo‘yaveringlar, bir kun insof kirar. Ishimiz tozalash, axlatlar-ni chiqarib tashlash, supurish. Sen bilan men kuyunganim bilan biror nima o‘zgarib qolarmidi?

– Ota, anhor bo‘yidagi oshxona, restoranlarni buzishga kim buyruq bergan bo‘lsa, yashasin. Yaxshi bo‘ldi, ular ham chiqindi-yu qoldiqlarni anhorga oqizishar edi.

– Yaxshi ishlar ham ko‘p bo‘lmoqda, Dildor qizim. Jon kuydiradigan ham, beparvo ham ko‘p. Mayli, men charchaganman. Vaqtlitiroq dam olay.

– Shohrux, darsingni qil. Dildora, oshxonani yig‘ishtir. – Dildora bilan Shohruxni turg‘izib yuboradi Orzigul. – Adasi, uchrashdingizmi? Nima gapi bor ekan?

Xoliqul achinish ohangida gapiradi:

– U Salomatdan asar ham qolmagan, ko‘rsang rahming keladi. Oллоh jazosini bergan chog‘i yetmish yashar kampirga aylanib qolgan. Ikki dugonasi bilan xoriждан qochib kelishibdi. Eri ko‘p ayollarni aldab, yomon joylarga sotgan ekan. Gumdon qilib qochishibdi. Xullas, o‘zlarini organga topshirgani ketishdi. Senga rahmat aytdi. “Bolalarim baxtli bo‘lsin. Meni ko‘p eslatmang, mendan yaxshi onalari bor ekan, ko‘nglim to‘ldi”, – deb ketdi. – Men hech narsa demadim, lekin achindim.

– Ha, hech banda yo‘lidan ozmasin. Qiyin bo‘libdi.

– Qo‘y, onasi bu haqida gaplashmaylik. To‘y haqida gaplashaylik.

Ikkalasi qog‘oz olib nimalarnidir yozishga kirishib ketishadi.

Tun shaharga qora libosini yoygan. Ko‘chalar chiroqlar yorug‘idan kunduzdek ravshan. Ozoda va rango-rang jilvalanayotgan ko‘chalarda odamlar sayr qilib yurishibdi.

Qadamning ota-onasi, amakisi, tog‘alari, yangalari, Zulayhoning onasi o‘tirishibdi. Eshikdan Zulayho bilan Sarvara kirib keldi.

– Xo‘sh, qanday bo‘ldi? – toqati toq bo‘lib kutib turgan Saidbek.

– Asaldek, – deydi Sarvara – ukamning didiga gap yo‘q.

– Bu safar sep olib kelmaslikka arang rozi qildik.

– Eldan kam qilmaymiz, deb turib olishdi. Men ham “yuziga solmaymiz, biz mebel emas, ukamga kelin olamiz”, dedim.

– Ofarin, zo‘r gap aytibsan. O‘zimga o‘xshabsan, qizim, deb erkaladi qizini.

– Bir amallab rozi qildik. Ishqilib baxtli bo‘lishsin!
– Haligi kelin bo‘ladigan qizni “uborshik” dedingizmi, kuyov?
– so‘raydi Oyqiz momo.
– Farrosh, ona, farrosh.
– Farrosh, deganing nima o‘zi? O‘zbekchalab tushuntir.
Saidbek chetda turgan supurgini olib, eyr supurib ko‘rsatadi.
– Ko‘cha supuradi, siz bilan biz yuradigan ko‘chalarni supuradi.

– Baraka topsin. Yaxshi kelin topibsiz, kuyov. Ko‘changiz bilan hovlilarga son kirarkan-da, bolam. Ishchan bo‘lgani yaxshi. Jevachka chaynab, tirnog‘ini bo‘yab turadiganlarni boshingga urasanmi? Zo‘r kelin topibsan. Meni aytdi deysan, uyingga farish-ta kirgandek bo‘ladi.

– Ha, maqtanglar, maqtanglar. O‘rtoqlaring “ko‘cha supuruvchidan kelin qildingmi” deb, so‘rasa o‘shanda ko‘ramiz, – deb o‘rnidan turadi Saidbekning akasi Tohir.

– Men ham sizlarday o‘ylagandim. Hozir pushaymondaman. Guldek xonadon ekan. Bir mehnatkash odamning nimasi yomon, Tohir aka – deydi Zulayho.

– Bular zamondan orqada qolgan. Televizor bilan kino bo‘lsa bo‘ldi. Hammamiz bir xil inson, Ollohning bandasi ekanligimizni anglab etishmagan. – Saidbek akasiga qaraydi – Aka, serialingiz boshlandi, – kuladi.

Tohir shosha-pisha o‘rnidan turib, televizor turgan xonaga yo‘l oladi:

– Ie, boshlandimi?

– Boshlanib ketibdi. – Tohirning orqasidan xotini ham turib ketadi.

– Sizlar kinoni ko‘raveringlar, biz to‘y kunini belgilab ular bilan telefonlashamiz, aka.

Sershovqin ko‘chalarda har kungidek odamlar, mashinalar suvdek oqadi. Ko‘chalarni, xiyobonlarni oppoq qor qoplagan. Ko‘cha ishchilari tinimsiz ishlashadi. Supurgi, kuraklarini qo‘yib qo‘llarini og‘izlariga tutib iliq nafasleri bilan isitishadi. Yana ishga tushib ketishadi. Yo‘laklarni qordan kurab supurishadi. Yo‘lakning ikki

qanotida qorlar uyumi. Kurab supurilgan joylashga maxsus tuz sepishadi. Yo‘lakda tinimsiz odamlar oqimi. Issiq qishki kiyimlar kiygan yo‘lovchilar oqimi.

Anora ishdan to‘xtab ayollarni yoniga chaqiradi. Ayollar ham birpasda ishlarini to‘xtatib, uning oldiga kelishadi.

– Bugun Dildoranikiga muborak bo‘lsinga boramiz. Hammang yasan-tusan qilib kellaring.

Ayollar:

– Hammaning ko‘zini o‘ynatadigan bo‘lib boramiz. U yog‘idan parvo qilma. Axir bizlar tong farishtalarimiz-a, ana shoir aytgan-day. Kulishadi. Ularning kulgilari ko‘cha shovqiniga qo‘shilib ketadi.

Ayvonda choy ichib o‘tirgancha Jumaqul o‘g‘li Turdi bilan dasturxon atrofida sirli suhbat qurishgan.

– To‘yni to‘xtatish kerak. Hali vaqt bor.

– Ota, endi qo‘yaylik. To‘y kunini belgilashibdi. Bilib qolishsa, tugayman, yana qamalaman.

– Hech narsa bo‘lmaydi. Organga aytishmaydi. Obro‘sidan qo‘rqishadi. Bu koshonani qo‘ldan chiqarish mumkin emas. To‘xta, bir-yarim o‘rtog‘ingni yuborib, “Meni yaxshi ko‘rgan qizimni tortib olyapsanlar”, deb shovqin ko‘tarib kelsa-chi. Faqat hech kim tanimaydigan yigitni topish kerak.

– Birga o‘tirganlardan iltimos qilaman, rozi qilaman, deyman. Bitta shantajchi bor edi. O‘sha bilan gaplashib ko‘raman. Zora ko‘nsa.

Darvozaning oldida yaxshigina kiyingan yigit Saidbekning xotini Zulayhoga baqir-chaqir qilib shovqin ko‘tarmoqda.

Zulayho uni jim qilmoqchi. Unga yalinadi.

– Ichkariga kirib gapiring, jon bolam, ichkariga kiring! Qancha gapingiz bo‘lsa ichkarida gapiring, iltimos.

Notanish yigit battar avjiga chiqadi. Atayin atrofiga odam yig‘ishga harakat qiladi:

– Kirmayman. Bilib qo‘ying, men Dildorni, siz o‘g‘lingizga unashtirgan, va‘dasida turmagan Dildorning yigitiman. O‘g‘lingiz, sizlar baxtimizga zomin bo‘ldingizlar. – Atrofga qo‘ni-qo‘shnilar yig‘iladi. – Uch yildan beri birga edik. To‘yimiz bo‘lay deb turgandi. Sizlar paydo bo‘ldinglar – zolimsizlar. Baxtimizni tortib oldinglar. Bilib qo‘yinglar. U qiz emas, dedi-yu konvertga solingan rasmni tashlab, uzoqda kutib turgan nomeri yo‘q mashinaga o‘tirib jo‘nab qoldi.

Zulayho yuragini changallagancha o‘tirib qoldi. Xolisxon Zulayhoni qo‘ltiqlagancha ichkariga olib kiradi. Odamlar tarqalishadi. Hamma hayron. Hayratdan yoqa ushlashadi. “Yaxshi ish bo‘lmadi” deyishadi.

Jumaqul o‘g‘li Turdi bilan uylariga kirib kulishib o‘tirishibdi.

– Qaerdan topding u yigitni, bopladi, g‘irt artist ekan. Hamma ishondi. Hali zamon Qadam bilan otasi eshitib, falaj bo‘lishadi.

– Zonada birga bo‘lganmiz. Aktyor bo‘laman deb bo‘lolmagan.

– O‘ylaganimizdan ham o‘tkazib rol o‘ynadi. Boplab o‘ynadi. Olgan pulini hallolladi. Qo‘lga tushib, sotmasa bo‘ldi.

– Endi, ikki dunyoda ham o‘sha farrosh bu koshonaga kelin bo‘lolmaydi. Bulg‘andi. Ana endi tomoshani ko‘rasiz, ota, to‘y buziladi.

– Bugun Saidbek borib boplab keladi, – kulishadi – Zulayho xolangni isitmasi yuz bo‘ldi-yov. Og‘ziga gap kelmay o‘tirib qoldi – kuladi Jumaqul.

Xolisxon kirib keldi. Ularning gaplari bo‘linadi. Xolisxon bu ishdan norozi bo‘lib turmush o‘rtog‘i va o‘g‘liga nafrat bilan qaraydi.

– Yaxshi ish qilmadinglar. Shuncha yaxshiliklariga yomonlik qildinglar. Oллоh asrasin, bilib qolishsa oqibati yomon bo‘ladi-ku. Xudodan qo‘rqsalaring bo‘lardi.

– Nima qilsak, qizingning baxti uchun qildik.

– Birovning baxtini o‘g‘irlab, baxtli bo‘lolmaydi qizimiz.

– Bor jo‘na, – haydab soladi uni Jumaqul.

– Axir qizimiz nima deydi? So‘radinglarmi? Zahroning ko‘ngil qo‘ygani bor, degandim-ku. U sizlarga o‘xshamagan. – ulardan uzoqlashadi. Qo‘lini siltab – Sadqayi odam ketinglar.

Xonadon egalari jamuljam bo'lishgan.

Qadamning otasi ham, onasi ham asabiy, Saidbek tinimsiz yuradi. Qo'llarini musht qiladi. Onasi bir o'g'liga, bir tinimsiz yurayotgan eriga qaraydi. Saidbek o'g'lining qarshisiga kelib to'xtaydi. Qadamning boshi egik. Saidbek o'g'lining yoqasidan ushlaydi.

– Sharmanda qilding-ku! Sharmanda! To'g'ri kelgan qizga ko'ngil qo'yaverasanmi?! Mana bopladi, butun xonadonimizni bo-pladi. Endi bu mahallada qanday bosh ko'tarib yuramiz. Yuruqsiz bo'ldik.

– Bunday bo'lishi mumkin emas. U hech kim bilan yurmagan. Saidbek o'g'liga rasmni ko'rsatadi.

– Bu ham yolg'onmi? Yaxshilab qara, yigitning quchog'ida o'tiribdi-ku.

– Bu fotomantaj bo'lishi mumkin. – bo'sh kelmaydi Qadam. Saidbek o'g'lini qo'yib yuborib xotining yoniga boradi.

– Sovchilikka borishdan oldin yaxshilab surishtirganingda bu sharmandalik bo'lmasdi, ayasi!

– Surishtirdim, rosa surishtirgandim. Hamma maqtagandi.

– Surishtirganmishlar, unda bu balo qayoqdan paydo bo'ldi, xotin! – rasmni Zulayhoga ko'rsatib baqiradi Saidbek. – Qara!

– Ertaga hammasini aniqlayman. Agar shu gaplar rost bo'lsa, basharasiga tupuraman. Keyin xohlagan qizingizga uylanaman. Ozgina muxlat bering, ota. – deydi Qadam otasining qo'lidan su-ratni olib.

– Bir hafta muxlat, bir haftadan keyin men aytgan qizga uylanasan. Ikkala qulog'ing bilan ham eshitib ol!

Saidbek eshikni qattiq yopib chiqib ketadi. Xonada sukunat cho'kdi.

Dildorlarning xonadoni. Sarvara darvoza chetidagi qo'ng'iroq tugmasini uzluksiz bosadi. Ichkaridan Orzigulning "Hozir, hozir boryapman" deganiga qaramasdan, qo'ng'iroqning uzluksiz ovozi tinmaydi. Orzigul bo'lg'usiqudasi va quda singilni ko'rib shoshib qoladi. Ko'rishishga quchoq ochadi, qo'llari havoda muallaq qola-

di. Zulayho sovuqqina alik oladi. Sarvara istar-istamas ko'rishadi. Bu holatni ko'rgan Orzigul hayron.

– Qani ichkariga kiringlar. Xush ko'rdik! – Taklif qiladi qayta-qayta Orzigul.

Zulayho uy sohibasining gapiga quloq ham solgisi kelmaydi:

– Darrov qaytamiz, ikki og'iz gapimiz bor, shu darvozaxonada gaplashib qo'ya qolaylik.

Sarvara onasiga qarab:

– Cho'zib nima qilasiz, shartta bor gapni ayting, ketamiz.

Orzigul o'zini vazmin tutib so'raydi:

– O'zi nima gap, tinchlikmi?

Sarvara qo'pollik qiladi:

– Tinchlik emas, kecha qizingizning xushtori kelib mahallada sharmanda qilib ketdi. Necha yillardan beri ahdi-paymon qilib yurishgan ekan. Shuni bilarmidinglar, nega aytmadinglar!

Zulayho qiziga qaraydi:

– Bas qil! – Orzigul tomonga o'giriladi – Xafa bo'lmaysiz, taqirdan qochib qutilib bo'lmas ekan. Endi qizingiz o'z yigiti bilan baxtli bo'lsin. Hech narsani qaytarishga hojat yo'q. Ha aytmoqchi, o'sha yigit bilan tushgan surati ham bor. Olib keldik. O'zingiz ham ko'rib qo'ying – deb suratni Orzigulga berishadi. Orzigul ko'radiyu ko'z oldi qorong'ilashdi. Erga hushsiz yiqildi.

– Bo'lishi mumkin emas, qizimning hech qachon yigiti bo'lmagan, deya alahsiraydi.

Zulayhoning gaplarini ichkarida, deraza oldida arang chidab eshitib turgan Dildora onasining yiqilganini ko'rgan zahoti uydan otilib chiqib kelib onasining boshini ko'tarib tizzasiga oldi. Ukasiga qarab baqirdi:

– Tez suv olib kel, “tez yordam”ga qo'ng'iroq qil!

Sarvara onasiga qarab istehzoli kuladi. Qoshlarini chimiradi.

– Ona, bu ayol g'irt artist ham ekan-ku, gaplarimizni eshitmaslik uchun o'zlarini hushdan ketgan qilib ko'rsatyaptilar.

Dildora o'tli va qahrli nigohini Sarvaraga qadaydi:

– Ketinglar, iltimos! To'y bo'lmasa bo'lmasin. Ketinglar, deyapman!.. Bu tuhmat, tuhmat!

Zulayho bilan Sarvara darvozaxonadan chiqib ketishdi. “Tez yordam” kelib Orzigulga tibbiy yordam ko'rsatdi. Ichkariga olib

kirib yotqizishdi. Orzigul sal o'ziga kelib Dildoraga ma'yus termuladi.

– Shu gaplar rostmi? Menga nigohlaringni ko'rsat. Tik qara!

Dildora onasining ko'zlariga yoshli ko'zlarini qadaydi:

– Tuhmat, bu onajon – o'ksib-o'ksib yig'laydi.

– Rostini ayt, qizim, shu eshitganlarim rostmi, yigiting bormi? Yig'ini bas qil. Ularning qo'lida rasming bor-ku. Bu sharmandalik-ku, qizim. Seni majbur qilmagandik-ku.

– Shu paytgacha sizdan biror-bir sirimni berkitmaganman-ku. Bu g'irt tuhmat! Rasm – bularni aniqlayman. Fotomontaj, bu ona. Bu yigitni umrimda ko'rmaganman. – Yig'lab boshini ona ko'ksiga qo'yadi. Orzigul qizini bag'riga bosadi. Qizining boshini silaydi. – Onajon, hech kimga yomonligimiz yo'q-ku, nega bizga yomonlik qilishadi.

– Bu tuhmat kimga kerak bo'ldi ekan. Biror odamga dushmanlik qilmagan bo'lsak.

– Bu ishning oxiriga etaman, o'zimni oqlayman, onajon.

– Sen jim o'tir. Bu ish mening vazifam. Senga tuhmat qilib, to'yingni buzganlar jazosini oladi, ilohim!?

Tong yorishib boradi, ko'chalarda qatnov boshlangan, ikki chetida gullar ochilib yotgan ko'cha. Dildora birinchi bo'lib ishga etib kelgan, yig'layverib ko'zlari qizarib ketgan. Uzoqdan Zoir bilan Haydar ko'rinadi. Qo'llarida atirgul. Kelib gulni Dildoraga uzatdi. Dildora gulni olib erga qo'yadi.

– Kecha menga tuhmat qilishdi. To'yimni buzishdi, aka. Qadamlarnikiga borib, “Men Dildoraning yigitiman, uch yildan beri yuramiz” – deb shovqin solibdi bir notanish yigit.

Zoir bilan Haydar hayron bo'lib qizga qaraydi.

– Xafa bo'lma, hali hammasi yaxshi bo'ladi, biz aytdi deysan, singil?

Dildora o'ksib yig'laydi. Ikkisi nima qilishini bilmaydi

– Qadam yaxshi yigit. To'y bo'ladi. Hali to'yingda rosa o'ynaymiz.

Dildora sal kulgan bo'ladi. Bu sodda va samimiyatga bag'ri to'la odamlar borligiga shukronalar qiladi.

Dildora sochilib yotgan gullarni terib oladi. Bir qo‘lini ko‘ksi-ga qo‘yib hurmat bajo keltiradi:

– Rahmat, Haydar aka, rahmat Zoir aka, shu kunlarda men o‘zimda yo‘qman – deydi.

Haydar mamnun kuladi.

– Baxtli bo‘lgin, singlim. Sen yaxshi qizsan. Qadam ham yaxshi yigit. Mayli, men boray. – ketadi.

– Kim bo‘ldi ekan bu iblis, – deb o‘z-o‘ziga savol beradi – baribir bu ig‘voni tagiga etaman, – deydi-yu o‘zini ish bilan ovutmoqchi bo‘ladi. Anora uning qizargan ko‘zlariga qaraydi. Dildora bo‘lgan voqealarni aytib beradi. Ikkisi bir-birlarini bag‘riga bosib, uzoq hasratlashishadi.

Qadam o‘ziga qaramay qo‘ygan, ko‘rinishi bir ahvolda. Soqollari o‘sgan, sochlari taralmagan, yuzlari so‘lg‘in. Karavatga chalqancha yotgancha Dildoraning suratiga termuladi. – Nahotki shu rost bo‘lsa, nahotki meni ermak qilib yurgansan? Kim u kelgan yigit, kim?! – o‘ziga-o‘zi baqiradi.

Ko‘z o‘ngida yov qarash qilgan Dildora bilan birga ishlaydigan, baland bo‘yli polvon sifat yigit gavdalanadi. Rasmga qaraydi – “Yo‘q, rasmdagi u emas. Kim bo‘ldi?” – ich etini yedi Qadam.

– Nega yigiti borligini aytmadi. Ota-onam qo‘ni-qo‘shni-ning, tanishlarning oldida kim bo‘ldi, qanday bosh ko‘tarib yurishadi? Menga bo‘lgan mehring yolg‘onmidi, Dildor?! Nega ko‘ngil ko‘ydim-a? Shunchalar qattiq sevdimmi-a? Yuragimni og‘ritding, Dildor! Yigitim bor desang bo‘lardi-ku. Nega to‘yga rozi bo‘lding?!

Ko‘z o‘ngida kulib turgan Dildora gavdalanadi. U bilan bo‘lgan bir suhbatini eslaydi.

– Qadam aka, bizni xonadon ham, men ham sizga to‘g‘ri kelmaymiz. Elda: “Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan” degan maqol bor. Bekorga aytilmagan, – kuladi. – Umuman to‘g‘ri kelmaymiz. Shunaqa oshiq yigit. – Dildora Qadamga sezdirmay ko‘z yoshini artadi. Kuladiyu, qalbi yig‘laydi –buni Qadam ko‘rib turadi.

Qadam unga tik qaraydi.

– Hammamiz Allohning bandasimiz. Men odam ajratmayman.

– Shundoq deysizu, har kuni changga botib boraversam joningizga tegaman. Yoqimli duxilani hidi qayoqdayu, changga botgan qiz qayoqda. Qo‘ying, tengizni toping.

– Men sizni sevdim yoki sizni qalbingizdan boshqa bir inson joy olganmi?

Dildora boshini ko‘tarib unga qaraydi.

– Sevgi boshqa, haqiqiy hayot boshqa.

– Qalbingizga quloq soling! Qalbingiz buyurganini qiling!

– Qalbimmi, qalbim sizni deydiyov – kuladi.

– Hazillashmay to‘g‘risini ayting. Bugun ikkimizning taqdirimiz hal bo‘ladi. Haqiqat qaror topishi kerak.

– Juda to‘g‘ri, haqiqatni qaror toptiring. – Dildora sarobdek yo‘qoladi.

Qadam o‘rnidan turib, xona bo‘ylab yuradi. Rasmni stolning bir chetiga teskari qilib qo‘yadi: “Haqiqat qaror topsin” demagan. – O‘z-o‘zi bilan gaplashadi, – yigiti borligiga ishonmayman. U tuhmatga uchrangani rost. Bo‘lishi mumkin emas. U meni ko‘rganida xursandchiligidan yuzlari, qora ko‘zlari quvonchdan porlardi. Bu jumboq. Ey qodir egam, nega uchratding, nega ajratyapsan, taqdirimiz shunday bitilganmi, Ollohim. – Xonada betoqat yuradi.

Onasi bilan otasi kirib keladi. Divanga borib o‘tirishadi. Zulayhoga, qani boshla, degandek qaraydi Saidbek. Zulayho o‘g‘liga yaqin keladi.

– Bolam, bunday o‘tir, xonangda bekinib olib “uh” tortib o‘zingni kasal qilib ko‘yasan, otang bilan men bir maslahatga keldik.

Qadamning o‘tirmasdan yurishi otasining g‘ashini keltiradi:

– Bunday o‘tir hadeb yuravermasdan, – yonidan joy ko‘rsatadi ota. – Senga aytyapman, kel, bu erga o‘tir!

Qadam xohlamayroq, istar-istamas otasining yoniga kelib o‘tiradi:

– O‘g‘lim hammasi vaqtida oshkor bo‘ldi. To‘ying o‘tgandan keyin yigiti kelib baqir-chaqir qilsa nima bo‘lardi, Saidbekning kekinining yigiti bor ekan, kelib shovqin ko‘taribdi, degan sharmandalikka qanday chidardik. Alloh asradi, vaqtida oshkor bo‘ldi.

Qadam nigohi bilan er chizgancha:

– Hali ham ishonmayman, negadir yuragimda hadik bor. Kimningdir dushmanligiga o‘xshaydi xayolimda, ota!

– Bo‘ldi, endi uni eslama, bolam, shuncha gapdan keyin ham unga ishonasanmi? – Zulayho o‘g‘lini yupatadi. – Bo‘ldi, o‘zingni qo‘lga ol, bolam. Menga ham yoqqan edi, nailoj. Ko‘rgulik ekan.

Saidbek suratga ishora qiladi:

– Bunga nima deysan! Ol, yaxshilab qara. Zora aqling kirsas.

– Ishonmayman, bunday bo‘lishi mumkin emas.

Zulayho o‘g‘lini quchoqlab, erkalab boshlarini, elkalarini silaydi.

– Qo‘y, bo‘lar ish bo‘ldi. Otang bilan bizga qolsa qo‘shnimiz Jumaqul akangning Zahro qizini kelin qilsak.

Saidbek qo‘llarini tizzasiga qo‘ygancha:

– Juda odobli qiz. Qolaversa, ko‘z o‘ngimizda voyaga etdi. Mana-man degan qizdan kam joyi yo‘q.

Qadam shart o‘rnidan turadi.

– Bo‘lmaydi. Meni bir oz tinch qo‘yinglar. O‘zimga kelib olay. “Bilganingni qil”, deb ota-ona chiqib ketishadi.

Xoliqul, Orzigul, Dildora, Shohrux kechki ovqatga yig‘ilishgan. Orzigul bir ahvolda: boshi bog‘liq. Xoliqul tinmay choy ichadi.

– Yaxshi ish bo‘lmadi, qo‘shnilar ham xabar topibdi. Hammaning og‘zida bizlar, onasi.

– Mendan biror xatolik o‘tganmida, qizim, onalik qilolmadimmi? Bor mehrimini bergandim-a, – yig‘laydi Orzigul.

– Sizni juda yaxshi ko‘raman, onajon. Sizdan berkitadigan sirim yo‘q. G‘irt tuhmat, onajon, tuhmat. U rasmdagi yigitni umrimda ko‘rmaganman. Qadam akaga ham aytdim. Qasam ichdim.

Shohrux gapga aralashdi:

– Bunaqa rasmlarni shest sekundda kompyuterda tayyorlab, mantaj qilsa bo‘ladi. Faqat suratlari va videotasvirlari bo‘lsa bas.

– Bo‘lar ish bo‘ldi, deb o‘tiraversak bo‘lmas. Ichki ishlar bo‘limiga ariza beraman, aniqlashadi, dedi Xoliqul.

– Bugunoq berib keldim, suratni ham ichki ishlarda qoldirdim. Topamiz. Aynan shu yigitni qidirayotgandik. U boshqa qallobliklar

ham qilgan, ilgari qamalgan, deyishdi. Dadasi ovvora bo‘lib yurmang.

Xoliqul dasturxonga fотиha qilib, xonadan chiqib ketdi.

Jumaqulning xonadoni. Xolisxon qo‘lidagi chaqiruv qog‘ozini Jumaqulga uzatadi. Xomush holda:

– Aytuvdim, qilayotgan ishlaringiz yaxshilikka olib bormaydi, deb. Dildoraning onasi militsiyaga arz qilgan ekan. Haqiqat qiling, tuhmatga qoldi qizim, deb. Haligi Turdini o‘rtog‘ini ushlabdi. Juda katta o‘g‘ri, qallob ekan.

Jumaqul chaqiruv qog‘oziga nigoh tashlaydi:

– Qanday qo‘lga tushibdi. Bizga, Turdi o‘g‘limizga qanday aloqasi bor?

Xolisxon:

– Hamma ayblarini bo‘yniga olgan emish. «Dildorani yigiti-man», deb kelib, to‘yni buzganini ham aytibdi. Ertaga borsin, siz ham boring. Nima ish qilib qo‘yganingizni bilasiz.

Jumaqul o‘tirib qoldi.

– Endi nima qilaman, rasvo bo‘ldik, yuriqsiz bo‘ldik. – Boshini changallab ushlaydi.

– Gazak olmasdan, Saidbek akani oldiga o‘ting. Oyoqlariga yiqiling, tavba qilib, kechirim so‘rang. O‘zi bilsa, sizlarni ayab o‘tirmaydi. O‘ting, birga o‘taylik.

Saidbeknikiga Jumaqul va Xolisxon oldinma-keyin kirib kelishdi.

Saidbek ularni iliq kutib oldi:

– Qani Jumaqul, yuqoriga chiqing.

Zulayho Xolisxon bilan elkalarini urib ko‘rishishdi:

– Kelinglar, kelinglar.

Ular o‘tirishmaydi. Jumaqul Saidbekning qarshisida tiz cho‘kadi.

– Bizni kechiring Said aka. Biz xiyonat qildik.

– Qanaqa xiyonat? Tushunmayapman. Turing, ey o‘rningizdan turing.

– Hammasi meni ishima. Dildora keliningiz farishtadek pok va toza. Hammasi meni ishim. O‘g‘limga aytib men uyushtir-

ganman. U yigit Dildora kelingizni tanimaydi ham. Meni kechiring.

Saidbekning g'azabdan butun vujudi titradi:

– Nima, it emgan, hammasi senlarning ishlarimgidi hali?

– Nahotki shunchalik razillikka bordiz? Ikki yoshni azobga qo'ydiz? To'yni buzingiz, – dedi Zulayho.

– Bo'yin egib, kechirim so'rab chiqdik. Qilgan ishlaridan pshaymon. Men uchun kechiringlar. – yolvordi Xolisxon.

– Bir balo qilib qo'ymasimdan ketinglar. – Xotiniga qarab, – Tezroq qudalarga telefon qil, uzr so'ra. Yo'q, borib hoziroq kechirim so'raymiz.

Ko'chada baqir-chaqir, yig'i ovozi eshitaladi. Hamma ko'chaga chiqdi. Qo'llariga kishan solingan Jumaqul va o'g'li Turdibekni militsiya mashinasiga solishmoqda. Xolisxon va Zahro ularning ortidan yig'lab qoladi.

МУНДАРИЖА

Муаллифдан	3
Тонгги фаришта	5
Muallifdan	116
Tonggi farishta	118

Адабий-бадиий нашр

Мирзапўлат ТОШПЎЛАТОВ

ТОНГГИ ФАРИШТА

Бадиий-ҳужжатли қисса

“Katalak” нашриёти – 2019

Муҳаррир

Бадиий муҳаррир

Техник муҳаррир

Мусаҳҳиҳ

Саҳифаловчи

Д. Қаршибаева

Д. Мулла-Охунов

Р. Аҳмедов

С. Сайдамирова

О. Исмоилова

Нашриёт лицензияси АІ № 193. 10.05.2011. Босишга 2019 йил 14 октябрда рухсат этилди. Бичими 84x108 $\frac{1}{32}$. Офсет қоғози ва усулида чоп этилди. “Times New Roman” гарнитураси. Шартли босма табоғи 11,76. Нашр табоғи 10,01. Адади 2000 нусха. Буюртма рақами № 47-19. Босмахона буюртма рақами № 181.

«Katalak-PRESS» масъулияти чекланган жамияти. Тошкент шаҳри, Навоий кўчаси, 30 уй. Телефон: +998-71-244-91-40.

«Spectrum Media Group» МЧЖ босмахонасида чоп этилди. Тошкент шаҳри, Яққасарой тумани, Қушбеги кўчаси, 6.

Адиб ва
жамият

Бадиий-хужжатли қисса

«KAMALAK»

ISBN 978-9943-6005-3-9



9 789943 600539